# Ўсмир билан очиқ суҳбат







ЖОШ ВА ДОТТИ МАКДАУЭЛЛ

Ўсмирлар билан жинсий алоқа мавзусида қай тариқа гаплашиш мумкин?

**Josh va Dotti Makdauell**

# O‘SMIR BILAN OCHIQ SUHBAT

***O‘SMIRLAR BILAN JINSIY ALOQA MAVZUSIDA QAY TARIQA GAPLASHISH MUMKIN?***

## Mundarija

Josh Makdauell ... 2
O‘smir bilan ochiq suhbat ... 2
Mundarija ... 2
1 bob ... 5
Birgina harakat bilan ... 5
2 bob ... 12
Jinsiy aloqa Xudoga monand qilib yaratilgan odamga berilgan ... 12
3 bob ... 16
Jinsiy aloqa: nikoh doirasidagi lazzat ... 16
4 bob ... 21
Yaqin munosabatlar doirasida jinsiy aloqa haqida qanday gapirish mumkin? ... 21
5 bob ... 27
Yaqin munosabatlar qurish uchun g‘ishtlar ... 27
6 bob ... 32
Bolangizning hatti-harakatiga kim yoki nima ta’sir qiladi? ... 32
7 bob ... 33
Bolangiz jinsiy aloqa haqida kimdan bilishni xohlaydi? ... 33
8 bob ... 34
Farzand bilan jinsiy aloqa haqida gaplashish nega zarur? ... 34
9 bob ... 35
Jinsiy aloqa haqidagi suhbatlar bolani bu borada tajriba qilib ko‘rishga undamaydimi? ... 35
10 bob ... 36
Qaysi yoshda jinsiy aloqa haqida gaplashish “vaqti keladi”? ... 36

11 bob ... 39
"Jiddiy suhbat" qilishga urinish kerakmi? ... 39
12 bob ... 41
Farzand bilan jinsiy aloqa haqida gaplashilmasa, nima ro'y berishi mumkin? ... 41
13 bob ... 43
Jinsiy aloqa mavzusi bolangizda haddan ziyod qiziqishni uyg'otsachi? ... 43
14 bob ... 45
Tananing ayrim a'zolariga "laqab" qo'yilishiga qanday qaraysiz? ... 45
15 bob ... 46
Buning uchun qancha bilim kerak? ... 46
16 bob ... 48
Balki, ayrim mavzularni har holda tushirib qoldirish ma'quldir? ... 48
17 bob ... 49
Farzand bilan jinsiy aloqa haqida qanchalik tez-tez gaplashib turish kerak? ... 49
18 bob ... 50
Agar bolam bilan nuqul bitta mavzuda gaplashaversam, u meni mijg'ov odamga chiqarib qo'ymaydimi? 50
19 bob ... 54
Bolangiz nimalar bilan mashg'ul ekanini qanchalik tez-tez kuzatib borish kerak? ... 54
20 bob ... 57
Farzandingizni nazorat qilish uning shaxsiy dunyosiga bostirib kirish hisoblanadigan chegara qayerda? . 57
21 bob ... 58
Bolangizning "birinchi sevgisi"ga qanday munosabat bildirish kerak? ... 58
22 bob ... 59
Farzandga jinsiy aloqa borasida qanday qoida yoki chegaralarni o'rnatish zarur? ... 59
23 bob ... 63
O'smirlarning nikohgacha "toqat" qilishlari haqidagi fikrlar haqqoniylikka mos tushadimi? ... 63
24 bob ... 65
Farzandni qarama-qarshi jins vakillari bilan o'zini to'g'ri tutishga qanday o'rgatish mumkin? ... 65
25 bob ... 66
Ochiq mazmundagi SMS-xabarlar jo'natilishiga qanday yondashish lozim va bu borada nimalar qilmoq kerak? ... 66
26 bob ... 68
Farzandingiz jinsiy bosimga qarshilik ko'rsatishi uchun unga qanday yordam berish mumkin? ... 68
27 bob ... 70

Faol jinsiy aloqada bo‘lgan yigit yoki qiz o‘z hayotlarini qanday qilib pokiza tarzda boshlashlari mumkin? ..... 70

28 bob ..... 72

Ko‘pchilik bolalar oral jinsiy aloqaning jinsiy aloqa ekanligiga ishonishmaydi. Ularning bu yanglish fikrlarini qanday tarqatish mumkin? ..... 72

29 bob ..... 74

Bolangizning o‘ziga beradigan sog‘lom bahosi uni nikohgacha bo‘ladigan jinsiy aloqadan qay tarzda himoya qiladi? ..... 74

30 bob ..... 76

Farzandi bilan jinsiy aloqa haqida gaplashadigan dono ota-ona bo‘lishning oltita usuli ..... 76

Izoh ..... 83

*Xudoning jinsiy aloqaga doir maqsadini o‘z bolalariga jasorat, qat’iyat va sevgi ila tushuntiradigan va bu vazifani tez-tez hamda butun tarbiyaviy jarayon davomida amalga oshiradigan ota-onalar uchun*

## 1 bob

# BIRGINA HARAKAT BILAN

*Jinsiy aloqa.* Ayrimlar bu so‘zni “ifloslik” deya hisoblashadi, boshqalar uchun - ajoyib, yana kimlardir uchun esa bu ovoz chiqarib aytilmaydigan va nimalargadir undovchi ...g‘alamislikdek bo‘lib tuyuladi. Siz bu so‘zga qay tariqa yondashmang, jinsiy aloqa - nozik va ayni vaqtda o‘ta muhim masaladir. Jinsiy aloqani mo‘‘jizaviy, ammo ehtiyotkorona munosabat talab etadigan qudratli kuch deya hisoblaydigan kishilar (masalan, ota-onalar yoki yoshlar yetakchilari) uchun bu, ya’ni jinsiy aloqalar balog‘atga yetmagan insonlarga anchayin bezovtalik keltirib chiqaradigan masala hisoblanadi.

Agarda qandaydir begona odam farzandingizning yotoqxonasiga har kuni suqilib kiraversa, siz tashvishga tushgan bo‘larmidingiz? Mabodo bu yovuz odam doimo unga jinsiy aloqa haqidagi buzuq, umuman esa butunlay nopok tasavvurlarni singdirayotgan bo‘lsa-chi? Xo‘sh, agar mana shu kabi “bilim” qachondir farzandingizni gunoh yo‘liga boshlasa-chi? Shubham yo‘qki, agar bu ablah uning qalbini va ongini surbetlarcha xarob qilsa siz dahshatga tushgan bo‘lardingiz, darg‘azablik tuyg‘usini his qilardingiz.

Biz qanday xatarni nazarda tutayotganimizni tushuntirishimizdan avval, o‘zimiz haqimizda qisqacha gapirib berishimizga ijozat eting. Biz, to‘rt farzandni tarbiyalayotgan Josh va Dotti, garchi mazkur masala borasida xavotir uchun jiddiy sabablar bo‘lsa-da, bu kitobni sizni qo‘rquvga solish uchun yozmadik. Bizning birinchi navbatdagi maqsadimiz - farzandingiz ba’zan to‘qnash keladigan holatlarga puxta o‘ylangan qarshilik ko‘rsatish uslubini sizga taklif etishdan iboratdir. Bundan tashqari, biz farzandingizni jinsiy aloqa to‘g‘risidagi sog‘lom (pokiza) tushunchalar bilan qanday tarbiyalash mumkinligi haqidagi samarali usullarni sizga yetkazishdan umidvormiz.

Nimaiki demang, jinsiy aloqa - ajoyib narsa! Qoyilmaqom! Shunchalik ajoyibki, so‘z bilan tasvirlashning iloji yo‘q! Xudo uni shu tarzda yaratgan. Har holda, ulg‘ayib borayotgan o‘g‘il yoki qizingiz Xudoning jinsiy aloqaga doir maqsadini to‘g‘ri anglab, kelajakda undan, aynan Xudo o‘ylab qo‘yganidek, rohatlanishini istasangiz kerak. Shu bois, mabodo qandaydir ahloqi buzuq odam bolangizni Xudoning ajoyib tuhfasidan o‘ziga ziyon yetkazish yo‘lida foydalanishga undasa, bu sizning qalbingizni vayron qilgan bo‘lardi.

Tadqiqotlarning ko‘rsatishicha, masihiy ota-onalar va jamoat yetakchilari orasidagi eng birinchi qo‘rquv shundan iboratki, dunyoviy tasavvur va jinsiy aloqa borasida hamma yoqda hukmronlik qiladigan tartibsizlik turli xil ravishda bolalarimizning ongi va qalbiga o‘z ta’sirini ko‘rsatmoqda. Albatta, o‘zimiz ham bundan cho‘chiganmiz. Bunday qo‘rquv tufayli harakatga tushgan ko‘plab ota-onalar masihiycha yangi maktablar ochilishiga yordam berishmoqda va bor kuchlari bilan bu maktablar rivojiga hissa qo‘shmoqdalar, ko‘pchilik o‘z farzandlarini yozgi masihiy oromgohlariga yubormoqda. Hozir uyda ta’lim olish har qachongidan ko‘ra ommabop bo‘lib qoldi. Ayrim jamoatlar yoshlarga oid dasturlari bilan yuksak ko‘rsatkichlarga erishmoqdalar, oilalar aynan shunday jamoatlarga qatnashni boshlab yuborishgan. Shu tariqa, ota-onalar zamonamizga xos dunyoviy madaniyatning barbod qiluvchi ta’siridan o‘z bolalarini himoya qilishga umid bog‘lashmoqda.

Aslida ezgulik yo‘lidagi barcha bu ehtiyotkorliklar ko‘plab ota-onalar va murabbiylardagi hushyorlikni susaytiradi, zero masihiy oilalarda ulg‘ayayotgan, yaxshi jamoatlarga qatnayotgan va kattalar nazorati ostidagi ko‘ngilxushliklarda ishtirok etayotgan farzandlar vayronkor ta’sirlardan to‘liq himoya qilingandek tuyulishini tabiiy holdek qabul qilish mumkin.

Shunga qaramasdan, bugungi kunda bolalar ko‘proq tavakkalchilik girdobiga tushib qolishgan, aytaylik, o‘n yil avvalgiga nisbatan. Bunday hodisaning sababi shundaki, jamiyat aynan hozir ijtimoiy aloqa vositalarining qizg‘in rivojlanish jarayonini boshdan kechirmoqda, bu esa bolalarimizda ahloqan tor, buzuq tasavvurlar hosil bo‘lishiga zamin yaratmoqda va farzandlarimiz bu tasavvurlarni avvalgi davrlarga nisbatan yanada nozikroq yoshda qabul qilishmoqda. Buning uchun ular hattoki o‘z uylari va shaxsiy xonalaridan tashqariga chiqishlari ham shart emas. Mana, biz bu kitobda qanday “zararkunanda”, qanday xavf-xatar haqida so‘z yuritamiz.

### IJTIMOIY OMMAVIY TARMOQLAR JABHASIDAGI INQILOB

Avvalgi davrlarda dunyo yosh avlodga radio, televideniye, kino, bosma nashrlar va shunga o‘xshash vositalar orqali o‘z ta’sirini o‘tkazgan. Agar ota-onalar farzandining nimalarni eshitib, ko‘rayotgani va o‘qiyotganini nazorat ostiga olsalar, uni qaysidir bir darajada dunyoviy chirkin ta’sirlardan himoya qilishlariga

ishonishlari mumkin edi. Biroq ijtimoiy tarmoqlar jabhasidagi bugungi inqilob vaziyatni tubdan oʻzgartirib yubordi. Zamonaviy dunyoviy madaniyat oʻn yil avval hech kim eshitmagan vositalar orqali bolalarimiz hayotiga bostirib kirmoqda. Mana, misol uchun Internetning oʻtgan oʻn yillikdagi oʻsib borayotgan taʼsirini koʻrsatadigan nisbiy jadvalni olaylik (koʻrsatkichlar AQSh aholisiga nisbatan berilgan).

| 2000 yilda | 2010-2011 yillarda |
|---|---|
| internetdan oʻrta darajada foydalanuvchi haftasida 2,7 soat vaqtini onlaynda oʻtkazadi | oʻrta darajada foydalanuvchi haftasida 18 soatni onlaynda oʻtkazadi |
| har kuni Google izlash tizimiga 100 million savol beriladi | har kuni Google izlash tizimiga 2 milliard savol beriladi |
| har kuni 12 milliard elektron xabarlar joʻnatiladi | har kuni 247 milliard elektron xabarlar joʻnatiladi |
| 12 ming faol bloglar roʻyxatga olingan | 141 million faol bloglar roʻyxatga olingan |
| iTunes orqali koʻchirmalar boʻlmagan | iTunesdan 10 milliard koʻchirmalar amalga oshirilgan[1] |
| Twitter orqali tvitlar boʻlmagan | Twitter orqali 25 milliard tvitlar amalga oshirilgan[2] |
| YouTube orqali har kunlik video koʻrsatmalar boʻlmagan | YouTube orqali har kuni 4 milliard video koʻrsatuvlar uzatilgan[3] |
| YouTube orqali videomateriallar koʻchirib olinmagan | YouTube orqali har daqiqada 60 soatlik videomateriallar koʻchirib olinadi[4] |
| Facebook orqali birorta foydalanuvchi roʻyxatga olinmagan | Facebook orqali 845 million faol foydalanuvchilar roʻyxatga olingan[5] |
| Vikipediyada birorta ham maqola yoʻq | Vikipediyada 20 million maqola berilgan |

2010 yilda Facebookda 250 milliondan ortiq foydalanuvchi roʻyxatga olingan boʻlib, har oyda 30 milliard kontent umumiy namoyishga qoʻyilgan[6]. Mabodo Facebook mamlakat boʻlganida, u aholi soni jihatidan dunyoda uchinchi oʻrinda turgan boʻlardi.

Facebookda 20 millionga yaqin bolalar va oʻsmirlar roʻyxatga olingan. Ulardan 7,5 millioni oʻn uch yoshga toʻlmagan, 5 millioni oʻn yoshdan kichik bolalardir[7]. Ayrim kuzatuvlarga koʻra, Facebook yaqin vaqtda barcha ijtimoiy tarmoqlardan foydalanuvchilarning 90 foizini va AQShdagi Internetdan foydalanuvchilarning 57,1 foizini oʻziga jalb etadi. 2013 yilga kelib internetdan foydalanuvchilarning 62 foizi va AQSh aholisining yarmi Facebookda roʻyxatdan oʻtishi kutilmoqda[8].

Agar videokontentga eʼtibor qaratsak, e-Marketer baholashiga koʻra, 2011 yilda oʻn ikki yoshgacha boʻlgan 50 million amerikalik bolalarning deyarli 12 millioni (bu 25 foiziga yaqin) “onlayn video” koʻrishgan. 2015 yilga kelib, ularning 70 foizga yetishi kutilmoqda[9]. “Harris Interactive” tadqiqot kompaniyasi oʻtkazgan soʻrovlarga koʻra, 2010 yilda yigirma yoshga toʻlmagan, ammo onlaynda har kuni kamida bir soat vaqt oʻtkazadigan bolalar soni 61 foizdan 76 foizgacha ortadi[10].

Internet ommaviy axborot vositasi sifatida bolalar auditoriyasi oʻrtasida hatto televideniyedan ham oʻzib ketadi[11]. AQSh Maorif Vazirligining tadqiqotlari shuni koʻrsatdiki, toʻrt yoshdan olti yoshgacha boʻlgan bolalarning 27 foizi Internetga kirish imkoniga ega[12]. Bugungi kunda hatto bolalar bogʻchalarida ham asosiy oʻquv anjomi yozuv taxtasi va boʻr emas, balki iPad hisoblanadi.

Ijtimoiy tarmoqlardagi rivojlanish odamlarni birlashtiradi, ularga oʻzaro muloqotning oʻn yoki yigirma yil avval hech kim hatto tasavvur ham qilmagan imkoniyatlarini beradi. Agar bolangizning butun tarmoq boʻylab xohlagan kishi bilan cheklanmagan tarzdagi muloqoti sizda tashvish uygʻotayotgan boʻlsa, buning asosli ekanligini aytish lozim. Zamonaviy dunyo madaniyatida bolalarimizga bir zumdayoq Internetga kirish imkoniyatlari berilishining xavfli taraflari ham mavjud.

## YOPISHQOQ AHLOQSIZLIK

Biz ota-onalar va jamoat yetakchilari o‘smirlar va qizlarning jinsiy aloqa borasida Muqaddas Kitob tushunchalarini butun qalb bilan qabul qilishlarini istaymiz. Biz Xudoning rejasiga mos ravishda ular o‘z vaqtida, ya’ni qonuniy nikoh tuzib, jinsiy hayotdan bahra olishlarini xohlaymiz. Bundan bor-yo‘g‘i o‘n-o‘n besh yil muqaddam ota-onalar, yakshanba maktabi o‘qituvchilari, cho‘ponlar yoshlar nimani ko‘rib nimalarni eshitayotganini, ularning jinsiy aloqa haqidagi tushunchalari asosida nimalar yotganligini nazorat qilib, hayotiy qarashlariga to‘laqonli ta’sir ko‘rsatishlari mumkin edi. Biz shunchaki aytib qo‘yishimiz mumkin edi: “Bizning uyda bunday yo‘nalishdagi teledasturlar tomosha qilinmaydi va mana bu kabi  kitoblar o‘qilmaydi”. Biz shu tariqa o‘z bolalarimizni ommaviy axborot vositalarining vayronkor ta’siridan himoya qilishimiz mumkin edi. Ular qo‘shnilar yoki do‘stlari oldiga bormoqchi bo‘lganlarida xavotirga tushmasdik, negaki bolalarimizning muloqot doirasini  ularning qarashlariga mos keladigan odamlar bilan shakllantirgandik.

Biroq bugungi kunda yirik hisobda nazorat dastagini qo‘ldan boy berib qo‘ydik. Hozirgi kunda ahloqsizlik va buzuqchilik bolalarimizdan birgina xitob narida bo‘lib qoldi. Bola smartfon, iPad yoki noutbukning tugmachasini bir marta bossa bas, pornografik mazmunda hatto o‘zi tasavvur ham qilolmaydigan eng dahshatli foto va videolar unga yog‘ilib keladi. Bundan bir necha o‘n yillar avval bu kabi tasvirlari bor bo‘lgan jurnallar yashirincha sotilgan, ularni uylarga qoramtir paketlarda olib ketishardi. Aksariyat erkaklar ularni ko‘chada shunday nashrlar bilan kimdir ko‘rib qolishini istamagan. Bugungi kunda pornografiya barcha uchun ochiq, xususan, farzandingizga ham,  bu esa hech kimni taajjubga solmaydi.

Ahloqsiz jinsiy aloqa kontentini ko‘pchilik ko‘rib bormoqda, xususan, zamonaviy yoshlarning talaygina qismi ham.  “Family Safe Media” o‘tkazgan tadqiqotlarga ko‘ra, pornografiyani internet orqali tomosha qiluvchilarning o‘rtacha yoshi - 9 yosh[13]. Shu bilan birgalikda, bu mavzudagi ochiq manbalar nihoyatda ko‘p. Har kuni 68 million so‘rov beriladigan 5 millionga yaqin pornosaytlar mavjud[14]. Har kuni Tarmoq bo‘ylab pornografik mavzudagi deyarli 2, 5 milliard elektron xatlar tarqaladi[15].

2009 yilda  29 ming shimoliy amerikalik talabalar bilan o‘tkazilgan so‘rovnomalarga ko‘ra, 51% erkaklar va 32% ayollar pornografiya bilan hali balog‘at yoshiga yetmasdan to‘qnash kelganlari ma’lum bo‘lgan[16]. “Tabiat va internet-pornografiyaning yoshlarga dinamik ta’siri” nomli jurnal maqolasida ma’lum qilinishicha, 93% o‘smirlar va 62% yosh qizlar Internet orqali pornografiya bilan o‘n sakkiz yoshga to‘lmasdan avval tanishganlar. 83% o‘smirlar va 57% qizlar Internet orqali guruh bo‘lib jinsiy aloqa qilishni, 69% o‘smirlar va 55% qizlar besoqolbozlik yoki ayollarning o‘zaro hirsiy yaqinlashuvlarini, 39% o‘smirlar va 23% qizlar kishanband holatda jinsiy aloqa qilish sahnalarini kuzatishgan[17].

“Washington Post” o‘tkazgan tadqiqotlarga ko‘ra, 11 millionga yaqin o‘smirlar muntazam ravishda pornografik saytlarga murojaat qilishadi[18]. “Focus on the Family” tashkilotining so‘rovlari shuni ko‘rsatdiki, 47% ota-onalar pornografiyaga berilib ketishni o‘z oilalaridagi jiddiy muammo deb bilishadi[19], aytish lozimki, so‘rovda asosan masihiy oilalar ishtirok etgan.

## BU KIMNI TASHVISHGA SOLADI?

Bundan bir necha o‘n yillar muqaddam yuzaga kelgan vaziyatdan farqli tarzda, aksariyat zamonaviy o‘smir yigit va qizlar pornografik mahsulotlarga murojaat etishda hech qanday nojo‘yalik yo‘q deb bilishadi. Keng miqyosdagi tadqiqotlarning ko‘rsatishicha, o‘n sakkiz yoshdan yigirma olti yoshgacha bo‘lgan 67% erkaklar va 49% ayollar erotika va pornografiyaga bo‘lgan qiziqishni to‘liq ma’qullashadi[20].

Shubhasizki, sizlar g‘amxo‘r ota-ona sifatida o‘z bolalaringizdan jinsiy aloqa mavzusidagi saytlardan uzoqroq bo‘lishlarini so‘raysiz. Siz mas’uliyatli va uzoqni ko‘zlagan inson sifatida hattoki internet-kontentni tozalash va o‘z kompyuteringizda nazorat dasturini ta’minlashingiz mumkin. Bularning hammasi zaruriy chora-tadbirlardir.

Biroq farzandingiz do‘stlarining oldiga borganida ular o‘z qo‘l telefonlarini ishga tushirsalar nimalar sodir bo‘ladi? Xo‘sh, *ularning* ota-onalari barcha uy elektron gadjetlarini jinsiy aloqaga yo‘naltirilgan kontentlardan xavfsiz holatga keltirishganmi? Muammo shundaki, jinsiy aloqaga yo‘naltirilgan va shu bilan birgalikda, asosan buzuqchilikdan iborat kontent barcha kiberhududlarga suqilib kirgan, siz hatto nomaqbul yo‘nalishdagi ma’lumotlarga to‘siq qo‘yishga uringaningizda ham undan qochib qutulish qiyin.

Qo‘shimcha qilamizki, har oyda Internetdan foydalanuvchilar pornografik yo‘nalishdagi deyarli 1,5 milliard hajmdagi ma’lumotlarni (bir kompyuterdan boshqasiga yuborish orqali) yuklab olishadi[21], ulardan ko‘pchiligi “oilaviy filtrlar”da aniqlanmaydi. Aslida bola pornografik foto va videolarni shunday tarzda ko‘chirib olishi ham mumkinki, ota-onasi bu haqda hatto bilmay qolishadi.

Bugungi kunda buzuq jinsiy aloqalar haqidagi ochiq materiallar haddan ziyod ko‘p bo‘lib, qanchalik darajada hirsni qo‘zg‘atishidan qat’iy nazar, yoshlarning sezgi qobiliyatlari pasayishiga sabab bo‘lmoqda. Bundan tashqari, o‘zaro yaqinlikka olib kelishi va nikoh munosabatlarida rohat baxsh etishi shart bo‘lgan jinsiy

aloqalar haqida to‘g‘ri tasavvurga va bu borada muayyan chegaralar bo‘lishi zarurligi haqidagi tushunchaga ega bo‘lish o‘rniga, yoshlar go‘yo barcha ular o‘ylayotgandek ish ko‘rayotganlariga, boz ustiga, buning hech bir oqibati bo‘lmasligiga  ishona boshlaydilar. Mana, qanday o‘y-xayollar unga kiberhudud orqali tobora aniq singdirilmoqda.

Ko‘pchilik o‘smir yigit va qizlar bu kabi ochiq materiallarga shunchalik darajada loqayd bo‘lib qoldilarki, masalan, uni ro‘za bilan bog‘lash yoki o‘zaro ig‘vogarona fotosuratlar almashish kabi nomaqbul hazillar qilishni hech bir noo‘rinlik deya hisoblamay qo‘yishdi. Har o‘nta o‘smirdan to‘rttasi bir-birlariga jinsiy aloqa qilishga undaydigan fikrlar uyg‘otuvchi xabarlar yuborishi sizga ma’lummi? 39% o‘smir yigitlar va 38% yosh qizlar dastlab boshqa kimgadir yuborish uchun yozilgan jinsiy aloqaga doir SMS-xabar yoki elektron xatlarni o‘zlari ham o‘qib ko‘rish istagida ekanliklarini bildirishgan[22].

Bolalarimiz nazarida, ularning o‘z tengdoshlarini ham nazarda tutgan holda, butun dunyo nikoh davrigacha jinsiy aloqa bilan mashg‘ul bo‘layotgandek tuyulishi shubhasiz. Albatta, biz ota-onalarga ma’lumki, hamma ham “bunday qilmaydi”, lekin bolalarimiz tasavvurida aynan shunday. Taqdir haziliga ko‘ra, ko‘pgina katta yoshli masihiylar farzandlariga bu muammolardan *hech biri* daxl qilmaganiga ishonadi, ayni vaqtda esa ularning farzandlari *hammaning* “shunday qilishiga” ishonchlari komil. Bu bir-birini o‘zaro rad etadigan nuqtai nazar juda keng tarqalgan.

Men (Josh) yaqinda bir Xushxabar tashkiloti tomonidan tashkil etilgan konferensiyada o‘zimning “Yalang‘och dalillar” kitobim yuzasidan ikki soatlik seminar o‘tkazdim. Ushbu chiqishimda bolalarni ham qo‘shgan holda jami bir ming sakkiz yuz odam ishtirok etdi. Keyingi uch kun davomida ushbu tashkilotning o‘nta xodimi menga aytdilarki, bunda qatnashgan bolalardan kamida bittasi (hammasi o‘n to‘rt yoshdan kichik) Internet orqali pornografiyaga qiziqishi borligini tan olgan. Har bitta ota-ona bu haqda gumon qilmagani uchun ham iztirobga tushgan edi.

Yaqinda o‘tkazilgan ruhoniylar konferensiyasida men shu mavzuga yana to‘xtaldim. Ma’ruzamdan so‘ng beshta cho‘pon o‘zlaridagi muammolarni baham ko‘rish uchun oldimga kelishdi.

Birinchi cho‘pon: “Men hozirgina ikkita o‘g‘lim (ulardan biri o‘n to‘rt, boshqasi o‘n sakkiz yoshda) Tarmoqdagi pornografiyaga ishtiyoqmand bo‘lib qolganlaridan xabar topdim”. U o‘zi ham o‘n bir yil mobaynida shunday muammoga ega bo‘lganini tan oldi.

Ikkinchi cho‘pon” “Men o‘tgan haftada o‘n yetti yoshli o‘g‘limning qiz o‘rtog‘i undan homilador bo‘lib qolganini va o‘n besh yoshli qizimda ham homila borligini bilib qoldim. Yaqinda bir vaqtning o‘zida ikkita nevaram bo‘ladi! Nima qilsam ekan-a?” U o‘g‘lining pornografik roliklarni muntazam ko‘rganini aytib berdi.

Uchinchi cho‘pon (yoshlar cho‘poni): “Mening o‘n to‘rt yoshli qizimni (masihiy) maktabidagi o‘g‘il bolalar oral jinsiy aloqa qilishga ko‘ndirmoqchi bo‘lishgan”.

To‘rtinchi cho‘pon: “Yaqinda sakkiz yoshli o‘g‘lim ishxonamdagi kompyuter orqali pornografik video tomosha qilayotganini ko‘rib qoldim”.

Beshinchi cho‘pon: “Ma’lum bo‘lishicha, mening besh yoshli o‘g‘lim to‘rt yoshidan boshlab pornografiya tomosha qilarkan”. Bechora ota buni bilib qolgach ruhiyati tushib ketgandi.

Bu barcha beshta suhbat men minbardan toki mashinamga yetib borgan yigirma daqiqalik vaqt oralig‘ida bo‘lib o‘tdi.

Hali mashinamga o‘tirmasimdan avvalroq bir notanish o‘smir qo‘limdan ushlab umidsiz ohangda shunday dedi: “ Janob Makdauell, iltimos, men uchun ibodat qilolmaysizmi? Mana uch yildirki, pornografiyaga berilib ketganman, u esa qalbimni buzyapti!”

Bundan bir necha yillar muqaddam meni Shimoliy Amerikadagi eng nufuzli va yirik Xushxabar maktablaridan birida jinsiy aloqa va sevgi munosabatlari haqida va’z o‘qishim uchun taklif etishdi.  Ma’muriyat mening roziligimni xursandchilik bilan qarshiladi, faqat mendan shu zahotiyoq oral jinsiy aloqa mavzusiga to‘xtalmasligimni so‘rashdi. “Bizda bunday muammo yo‘q, - deyishdi menga.  - Mabodo siz bu haqda gapirib qolsangiz, bolalarda nosog‘lom fikr paydo bo‘lib, buni sinab ko‘rishni istashlari mumkin”.

Bu iltimos menga jo‘n va bema’nilikdek tuyuldi, ammo maktab ma’muriyatiga bo‘lgan hurmatim bois ular aytganini bajardim. Ma’ruzamni endigina yakunlagan edimki, atrofimda o‘nlab bolalar yig‘ilib, meni savollarga ko‘mib tashlashdi. Savollarning deyarli barchasi oral jinsiy aloqaga tegishli edi. “Bu ham jinsiy aloqa hisoblanadimi?”, “Bu noto‘g‘rimi?”, “Shu orqali kasallanib qolish mumkinmi?” Va shu kabi savollar yana va yana berildi.

Men ushbu maktabning direktori o‘z o‘quvchilari aytayotgan gaplarni eshitishini istardim. Ko‘chaga chiqqanimda ko‘rinishidan kichik sinflarda o‘qiydigan uchta o‘smir va ikkita qizcha oldimga kelib so‘rashdi: “Nega siz oral jinsiy aloqa haqida hech nima demadingiz?”

Bu haqda gapirmasligimni iltimos qilishganini aytmaslikka qaror qildim, buning o‘rniga ulardan so‘radim: “Xo‘sh, nima gap o‘zi? Bu yerda shunga aloqador muammolar bormi?” “Umuman olganda yo‘q”, - javob

qaytarishdi menga. “Bu yaxshi-ku”, - deya xursand bo‘lganimda ular bidirlab qolishdi: “Hech qanday muammo yo‘q, faqat hamma shunday qiladi, xolos”. (Har holda bolalar ham ancha oshirib yuborishdi.)

Men ulardan aytgan gaplarini tushuntirib berishlarini so‘radim. “Sizga aytsak, - deyishdi ular, - maktabimizda o‘qiydigan yigit agar oral jinsiy aloqani xohlasa, qizning oldiga borib shunday deydi: “Tako xohlaysanmi?”[a] “Tako” ularning kodli so‘zi ekan. “Agar qiz rozi bo‘lsa, - bolalar menga tushuntirishda davom etishdi, - ular maktabning o‘zidagi birorta joyda berkinib, oral jinsiy aloqa qilishadi. Biroq darsdan so‘ng yigit qizni “Taco Bell”ga[b] olib borib unga tako olib berishi shart”.

Bu bolalarning gapiga ko‘ra, oral jinsiy aloqa ular uchun - oddiy hodisa. Mabodo maktab rahbariyati gaplariga ishonsak, o‘quvchilar orasida oral jinsiy aloqa mavjud emas bo‘lib chiqadi. Ko‘plab ota-onalar hamda jamoat yetakchilarining o‘z boshqaruvlaridagi yoshlar haqidagi fikrlari va bolalar bilan aslida nimalar yuz berayotgani o‘rtasidagi farq meni qo‘rquvga soladi. Albatta, biz o‘g‘il-qizlarimizning jinsiy aloqaga doir qandaydir faoliyatga aralashib qolishlarini va ularning ongi jinsiy aloqa borasida tor tushunchalarga o‘ralashib qolishi haqidagi fikrni xayolimizga keltirishni ham istamaymiz. Ammo haqiqatdan qochib qutulib bo‘lmaydi: bolalarimiz zamonaviy dunyo madaniyatning vayronkor ta’siriga mubtalo bo‘lishmoqda va biz bunga qarshi kurash olib borishimiz kerak.

## BIZ NIMALARNI QO‘LLASHIMIZ MUMKIN?

Eng mukammal chora - Internet rivojlanishini orqaga surish bo‘lib tuyuladi. Ammo buning iloji yo‘q va bunday qilish kerak ham emas. Ayrim kuzatuvlarga ko‘ra, keyingi o‘n ikki oy mobaynida ikki yuz milliondan ko‘proq kishi internet orqali Iso Masihning ta’limotini o‘zlari uchun kashf etishdi. Demak, barchasi uchun zamonaviy axborot tarmog‘ini ayblash kerak emas: yovuzlikning ildizi unda emas. Ular faqatgina bir qurol bo‘lib, bolalarimiz hayotida ezgulikni yoxud vayronkor oqibatlarni keltirib chiqarishi mumkin.

Garchi keskin qaror bo‘lsada, faqat masihiylar yashaydigan uzoq bir orolga qochib ketib vaziyatdan chiqish mumkin. O‘sha yerda bolalarimizni dunyoviy madaniyatdan uzoqda tarbiyalashimiz mumkin. Biroq bu ham biz bilan hamnafas yashayotgan ommaviy axborot vositalarida tub inqilob qilish bo‘lgan chaqiriqdan ko‘ra hayotiyroq chora emas. Xo‘sh, biz nimalarni qo‘llashimiz mumkin?

**1. Biz mavjud voqelikni tan olishimiz kerak:** Bizning bolalarimiz zamonaviy dunyo madaniyatining jinsiy aloqa haqidagi tor tushunchasi berayotgan salbiy ta’sirga duchor bo‘lmoqdalar. Bundan buyon hayotiy voqelikka ko‘z yumish mumkin emas. Bir yoshgina ona aytganidek, “shunday tasavvur borki, go‘yo biz bolalarimizni Las-Vegasning naq markazida tarbiyalamoqdamiz”. Demak, muammoni hal etishning birinchi qadami - muammoning haqiqatdan ham mavjudligini tan olishdir.

**2. Biz jinsiy aloqa haqidagi tor va buzuq tasavvurga qarshi turishimiz kerak,** chunki ular noto‘g‘ri tasavvurlarni shakllantiradi, buning o‘rniga farzandlarimizga jinsiy aloqa haqidagi to‘g‘ri, sog‘lom tushunchalarni berishimiz lozim. Deylik, sizda yetti yoshdan katta bolalaringiz bor va hozirgina ular bilan jinsiy aloqa haqida suhbat qurdingiz. Ayni vaqtda esa, ular zamonaviy dunyo madaniyati bilan to‘qnashib, bu haqda muayyan ma’lumotlar olishgan va ularning jinsiy aloqa borasidagi tushunchalari har holda tor yoki buzuq, ya’ni siz umid qilgan tushunchalardan keskin farq qiladi.

Bunday holatda bolalaringizga jinsiy aloqa nima ekanligi va nima uchun Xudo tomonidan yaratilganini *qaytadan* tushuntirishingiz lozim. Aksariyat hollarda Xudoning jinsiy aloqaga doir maqsadiga mos keladigan tushunchani ularga anglatish uchun siz bu borada farzandlaringiz egallab olgan ma’no-mohiyatga muhim tuzatmalar kiritishingiz lozim. Agar bolalaringiz hali juda yosh bo‘lsa, har holda atrofdagi dunyo buni qilishidan avval, ular bilan jinsiy aloqa haqida birinchi bo‘lib gaplashib olishingiz kerak. Biroq bu mavzuga juda barvaqt murojaat qilish lozim.

Bolalarga Xudoning jinsiy aloqaga doir maqsadini tushuntirish uchun, biz ota-onalar va jamoat yetakchilari, o‘zimiz birinchi navbatda Xudo bizni nima uchun jinsiy aloqaga daxdor qilib yaratganini anglashimiz kerak. Biz jinsiy aloqaning haqiqiy vazifasini va toza jinsiy aloqa aslida nimani anglatishini, nega jinsiy yaqinlikda muayyan chegaralar qo‘yilganini va nima uchun o‘zaro sevgi Xudoning keng qamrovli maqsadida muhim qimmatbaho gavhar ekanligini tushunishimiz lozim. Mana shunday tushunchalar bilan bizda farzandlarimizga jinsiy aloqa nima ekanligini so‘zlab berish (yoki yangidan tushuntirish) uchun Muqaddas Kitobning yetarlicha kontekstlari paydo bo‘ladi. Bunday tushuncha o‘z oilamizga jinsiy hayotga sog‘lom (ilohiy) nuqtai nazarni quvonch bilan yetkazishimizga yordam beradi. Biz bu haqda kitobimizning “Jinsiy aloqa – Xudo maqsadining bir bo‘lagi” deb nomlangan birinchi qismida so‘z yuritamiz.

---

[a]Turli masalliqlar solingan makkajo‘xori yoki bug‘doydan tayyorlangan kulcha (meksikacha an’anaviy taom).
[b]Tez ovqat restoranlari halqaro tarmog‘i.

**3.** Xudoning jinsiy aloqaga doir maqsadi yo‘lida **farzandlarimiz uchun faol murabbiylar bo‘lishimiz kerak**. Buning uchun qimmatli amaliy jihozlar kitobimizning “Suhbatlashmog‘ingiz uchun maslahat va g‘oyalar” nomli ikkinchi qismida taklif etilgan. Qisqacha boblardagi boy namunalar orqali murakkab savollarga javoblar berilgan va siz to‘qnashgan yoki tezda to‘qnashadigan ko‘plab muammolarni hal etishning usullari taklif etilgan. Biz birgalikda o‘z bolalarimizni Xudoning ajoyib in’omi - jinsiy aloqa bilan qanday tanishtirishning ajoyib imkoniyatlarini kashf etamiz.

Biz o‘zimizning ota-onalik burchimizni a’lo darajada uddalab qo‘ydik deya olmaymiz. Barkamol ota-onalarning o‘zi mavjud emas. Ammo biz to‘rttala farzandimizni ham Uning rejasiga asosan tarbiyalaganimiz uchun bunday ajoyib imkoniyatni bergan Xudoga minnatdorchilik bildiramiz. Hozirda farzandlarimizning o‘zlari oila qurganlar va ota-ona bo‘lishgan, biz esa zavq-shavq bilan ular qanday muvaffaqiyat ila o‘z bolalariga - nabiralarimizga Muqaddas Kitob g‘oyalarini berayotganini kuzatamiz. Tetik bo‘ling: siz ulashayotgan Muqaddas Kitobning sevgi va jinsiy aloqada qo‘llaniladigan qadriyatlari aslida ham keyingi avlodga uzatilishi mumkin, biz esa mazkur kitob sizning sa’y-harakatlaringizda ko‘mak beradi degan umiddamiz.

1 QISM

# JINSIY ALOQA - XUDO MAQSADINING BIR BO‘LAGI

## 2 bob

# JINSIY ALOQA XUDOGA MONAND QILIB YARATILGAN ODAMGA BERILGAN

Bu maftunkor kun bo‘lgan. Barchasi shunchalik mukammal ko‘rinardiki, bundan yaxshisi bo‘lishi mumkin emasdek tuyulardi. Yorqin nur sochayotgan osmon ostida, jannat gullari va o‘simliklari orasida turli xil hayvonlar erkalanib yotishardi. Bu hammasi beqiyos go‘zallik aks etgan suratni eslatardi. Biroq bu jannat bog‘ida nimadir hanuz yo‘q edi, negaki ilk odam, Odam Ato ushbu bog‘da yolg‘iz, hamrohsiz kezib yurardi.

Shunda Xudo aytdi: “...Odamning yolg‘iz bo‘lishi yaxshi emas...” (Ibtido 2:18). Bu yerda, bu ajoyib olamda, gunoh hali uyatni ham, qalb og‘rig‘ini ham olib kelmagan joyda nimadir yetishmasdi. Odam Atoning Xudo bilan munosabatlari juda yaxshi edi. U ajoyib ish bilan mashg‘ul bo‘lgan, ya’ni mana shu mo‘‘jizaviy bog‘ni parvarish qilardi. Unda oziq-ovqatlar rosa ko‘p edi. Ammo erkakning ich-ichini bo‘shliq egallagandi, toki Xudo g‘aroyib bir mo‘‘jizani yaratmagunicha, u bunday azobli bo‘shliqning sababini tushuntirib berolmasdi.

U dastlab Odam Atoni chuqur uxlatib qo‘ydi. Odam Ato uyg‘onganida esa o‘z tushunchasidan ham ziyod bo‘lgan manzarani ko‘rdi - bu mavjudot *xotin* deya atalardi.

Siz Odam Atoning taajjubda kafti bilan ko‘zlarini yopganini va barmoqlari orasidan uning yuziga qaraganini tasavvur qiling, bu chehra o‘ta maftunkor bo‘lib unga abadiy lol bo‘lib qarash mumkin edi Tasavvur qiling-a, u qanchalik hayrat bilan xotinning nafis va xiromon qadam bosishlarini kuzatgan. Xotinning nafis badani beqiyos go‘zal edi! Odam Atoning yuragi qanchalik tez urib ketganini bir tasavvur qiling-a. Bu ayolning go‘zalligi, uning muattar hidi va yaqinroq kelishi Odam Atoni shunday his-tuyg‘ular bilan to‘ldirdiki, nafas olishga holi qolmadi. Ayol nega uni bu qadar hayajonga soldi? Ko‘zlar ko‘rib turganidan ko‘prog‘ini bilish - biror aniqlikka bo‘ysunmaydigan bu tashnalik nima o‘zi? Odamlar ana shu tariqa o‘zlarida jinsiy aloqa deya nomlangan Xudoning mo‘‘jizaviy in’omini his etishdi.

Muqaddas Kitobda yozilganki, endigina yaratilgan erkak va ayol yalang‘och bo‘lganlar. Ular jisman bir-birlarini istaganliklari aniq. Va tabiiyki, hech qanday gunohsiz yoki uyatsiz jinsiy munosabatdan rohat olardilar (qarang: Ibtido 2:25). Biroq ularda bunchalik qizg‘in mayl qanday va qay sababga ko‘ra paydo bo‘ldi?

### JINSIY MAYL QAYOQDANDIR OLINISHI KERAK EDI.

Quyosh va Oyni Xudo yaratgandi. Uning so‘zi bilan bepoyon ummonlar, xushmanzara ko‘llar, shiddatkor daryolar va jo‘shqin sharsharalar paydo bo‘ldi. Qor bilan qoplangan tog‘ cho‘qqilari, quyuq o‘rmonlar, yovvoyi cho‘llar Uning so‘zi bilan yaraldi. Yer va koinotdagi barcha olamlar Uning ulug‘ ovozidan hosil bo‘ldi. Lekin jinsiy aloqa - bu aslida boshqa darajada yuz beradigan nimadir. Barcha yaratilganlar Xudoning so‘zi bilan hosil bo‘lgan, ammo odamlar va ularning jinsiy mayli uchun Xudo yanada hayratomuz nimadir yaratdi.

Muqaddas Kitobning birinchi kitobidagi birinchi bob bu haqdagi shubhaga o‘rin qoldirmaydi: “Shunday qilib, Xudo O‘z suratiday qilib yaratdi inson zotini, Erkagu ayol qilib yaratdi ularni” ( Ibtido 1:27). Shundan keyin Parvardigor Egamiz yerning tuprog‘idan odamni yasadi va uning burun teshigidan puflab jon ato etdi (qarang: Ibtido 2:7). Ya’ni, Xudoning so‘ziga ko‘ra yaratilgan hayvonlarga nisbatan odam yuqori darajala turadi.. Xudoga monand va o‘xshash qilib yaratilgan, odamdek jinsiy aloqa qilishga qodir  Odam Ato va uning avlodlari hayot kechira boshladilar.

Bu esa bizning aynan Xudo kabi ko‘rinishimizda ekanimizni anglatmaydi, zero, “Xudo Ruhdir, Unga sajda qiluvchilar ham Muqaddas Ruh boshligida, haqiqatni bilgan holda sajda qilishlari lozim” (Yuhanno 4:24). Garchi U Iso siymosida inson qiyofasiga kirgani haqiqat bo‘lsada, ammo Xudo aslo moddiy yoki jismoniy mavjudot emas: U - Ruh. Ammo baribir bizning jismoniy, hissiy va ruhiy xislatlarimiz, bizning munosabatlarimiz nimasi bilandir Xudoga monand, hirsiy maylimiz ham bundan mustasno emas. Biz Xudo tomonidan Unga o‘xshash qilib yaratilganmiz, ayni vaqtning o‘zida bir-biriga intiladigan hirsiy maylga ega mavjudotlarmiz. Bunday mayl Xudo siymosining qandaydir qismini o‘zida aks ettirmaydimi?

Taxminlardan biriga ko‘ra, erkak va ayol o‘rtasidagi bir-biriga intilish Xudoning tabiatida ham erkaklik, ham ayollik xususiyatlari borligi bilan bog‘liq ekan. Garchi Xudo O‘zi xususida erkak jinsi haqida gapirgandek bo‘lsada, biz Uning erkak ham, ayol ham emasligini aniq-ravshan bilamiz. Shunday bo‘lsada, U O‘zining buyuk maqsadiga ko‘ra, odamlarni ikki jinsli - erkak va ayol qilib yaratdi, shu bois ularning o‘zaro bir-biriga intilishlari

bir vaqtning o‘zida ham erkak, ham ayol xususiyatiga ega bo‘lgan Xudoning yagonaligi va mukammalligidan hosil bo‘ladi. Aytish mumkinki, Xudo O‘z xususiyatiga ko‘ra har yerda mavjud, zero turli xususiyatlarga ega bo‘lgan ikkita to‘plam ikkita jins vakillarida jo bo‘lganida, xuddi qarama-qarshi yo‘nalishdagi ohanrabo kabi tabiiy ravishda bir-birlarini o‘zlariga jalb etadilar. Xudo yagona (uch birlikda), U ikkala jinsni ham yagonalik uchun yaratgan. Har holda, nazariyalardan biri nega erkak va ayol bir-biriga intilishini ana shunday izohlaydi. Va bu nazariya asossiz emas.

Kalom Xudoning tabiatiga birlik mos ekanligini o‘rgatadi. Muqaddas Kitobda shunday deyilgan: “Egamiz Xudo tanho Xudodir...” (Qonunlar 6:4). Bunday xususiyat Xudo Uchlikdan - Ota, O‘g‘il va Muqaddas Ruhdan iborat ekanligiga zid emas. Bu haqda ham Kalomda aniq aytilgan. Demak, Uchlikning botinida mukammal birlik mavjud. Ota hamisha O‘zining O‘g‘liga behad darajada yaqin bo‘lgan. O‘g‘il hamisha O‘z Otasi bilan hamjihatlikda bo‘lgan. Muqaddas Ruh hamisha Ota bilan ham, O‘g‘il bilan ham cheksiz uyg‘unlikda bo‘lgan. Xudo mukammal birlikka *intilmaydi*, U buni *yaratmaydi* - Uning *O‘zi* birlikdir. “Men va Otam - birmiz, - Iso shogirdlariga shunday degan. - ...qilayotgan ishlarimga ishoninglar. Shunda Ota Menda va Men Otada ekanimni bilib, anglab olasizlar” (Yuhanno 10:30, 38).

Xudoning siymosi birlik va mukammal munosabatlar uyg‘unligini o‘zida aks ettiradi. Uning birligi - bu cheksiz sevgiga asoslangan munosabat bo‘lib, borliqda tengsiz bir yaqinlik va rishtalarni hosil qiladi. Xudoni ajratib bo‘lmaydi. Xudoni yakkalab bo‘lmaydi. U - abadiy va buzilmas birlik hamda yaqinlikdir. Demakki, odamlar chinakamiga yaqin munosabatlar o‘rnatishni Xudodan qabul qilishgan.

## ASL YAQINLIK

“...erkak kishi ota-onasidan bo‘lak bo‘lib, xotiniga bog‘lanib qoladi, ikkalasi bir tan bo‘ladilar” (Ibtido 2:24). Yaqin sevgi munosabatlari va ehtiyojlariga bo‘lgan chanqoqligimiz zamirida yagona Xudoning siymosi mavjud. Jinsiy aloqani nikohda tuzgan erkak va ayollar birlikning uyg‘unliklagi ilohiy tabiatini aks ettiradilar. Jinsiy mayl - Xudoning mo‘‘jizaviy tuhfasi bo‘lib, odamlarga sevgi asosida jinsiy munosabatlar o‘rnatish imkonini beradi.

Men (Dotti) jinsiy aloqani yoshligidan buyon qandaydir ifloslik deb hisoblaydigan ayollarni uchratganman. Hatto nikohda ham ulardan ayrimlari jinsiy yaqinlik uchun erlari oldida o‘zlarini aybdor his etib kelishmoqda. Bu ayollar qachonlardir jinsiy aloqa haqida tor tushuncha olganliklari aniq. Nikohdagi yaqin aloqalar uchun o‘zini jirkanch yoki aybdor his qilish uchun hech bir sabab yo‘q. Xudo jinsiy aloqani er-xotinlar jinsiy munosabatlardan rohatlanishi uchun yaratgan.

Ushbu haqiqat hatto biologik darajada ham tasdiqlanadi. Olimlar ishonch (mehr-muhabbat) gormoni deb ataladigan oksitotsin gormonini topishgan. Miyamiz bu kimyoviy moddani jinsiy aloqa vaqtida yoki shunga mayl uyg‘onganida ajratib chiqaradi. Oksitotsin qonga o‘tib, chuqur mayinlik, himoyalanganlik va ishonch hissini uyg‘otadi. Aynan o‘sha gormon ona chaqalog‘ini emizganida ayolning qonidan ajralib chiqadi va odamlar o‘rtasidagi aynan chuqur bog‘liqlikni yaratish uchun xizmat qiladi.

Har safar siz boshqa odam bilan yaqinlik qilganingizda, tanangizda sizlardagi aloqani mustahkamlaydigan oksitotsinni ajratish kimyoviy jarayoni ro‘y beradi. Jinsiy aloqadan ko‘zlangan asosiy vazifalardan biri sizni aynan chinakam yaqinlikka olib borishdan iborat. Xudo uni insonning yaqinlikka ehtiyojini biologik darajada qondirish vositasi sifatida yaratgan. Ammo bu umumiy manzaraning bir qismi, xolos. Munosabatlardagi to‘liq yaqinlikka tanani yaqinlashtirish bilangina erishib bo‘lmaydi. Insoniy hirsiy mayl odamdagi mavjud barcha - jismiy, hissiy, ruhiy va ijtimoiy - jihatlarga ta’sir ko‘rsatadi. Jinsiy aloqa bizni ushbu darajalarning barchasida bog‘lashga xizmat qiladi.

Biz faoliyatimiz davomida nega o‘zlarining munosabatlarida yaqinlik uzilib ketganini tushunishni istagan ko‘plab er-xotinlarni uchratganmiz. Ular jinsiy aloqa bilan mashg‘ul bo‘lishadi, ammo ularga boshqa barcha darajalarda o‘zlarini biriktiradigan teran sevgi yetishmaydi. Ular jinsiy aloqani hissiy, ruhiy va ijtimoiy hayotdan ajratgan holda faqat jismoniy huzur sifatida qabul qilishadi. Er-xotinlar jinsiy aloqa bilan shug‘ullanishadi, ammo bu ularning birgalikdagi hayotida barcha jihatlarni aks ettirmaydi. Haqiqatning ko‘ziga tik qarang: qoyilmaqom jinsiy aloqa ajoyib munosabatlarga olib kelmaydi. Aslida bu aksincha: ajoyib munosabatlar barcha darajalarda qoyilmaqom jinsiy aloqadagi hayotga olib keladi.

Bolalarimiz aksariyat tarzda bu masalani o‘ta qiyinchilik bilan tushunadilar, ularning ongida chalkashlik yuzaga keladi. Ko‘pchilikning fikricha, bu yaqin kishisi bilan jismoniy yaqinlashishning bir usuli, xolos. Albatta, jinsiy aloqa qisqa vaqt ularga yaqinlik hissini beradi, ammo aytib o‘tganimizdek, jinsiy aloqaning asl maqsadidan biri - ikkita odamni butun hayoti mobaynida hissiy, ruhiy va ijtimoiy jabhada bog‘lab turishdir. Mana nima uchun Iso shunday degan: “Bunga ko‘ra ular endi ikki emas, bir tan hisoblanadilar. Xudo birga qo‘shganni bandasi ajratmasin” (Matto 19:6). Shu bois, agar siz butun hayot mobaynida birga bo‘lishga tayyor emas ekansiz, sizni mustahkam rishtalar bilan bog‘lash uchun belgilangan ishni - jinsiy aloqani - qilish kerak emas.

Bolalarni tarbiyalayotganimizda, biz ularga jinsiy aloqa - Xudoning har birimizga bergan mo‘‘jizaviy tuhfasi - ikkita jinsni o‘zaro bir-biriga tortadigan vosita ekanligini tushuntirishmiz lozim. Garchi ayrim odamlar suiiste’mol qilib, bu bilan uning vazifasini buzsalar ham, jinsiy aloqa qandaydir nopoklik emas. Zamonaviy dunyo madaniyati bu haqdagi tushunchani buzib yuborgan bo‘lsada, bu bilan ajoyib jinsiy aloqa jirkanch bo‘lib qolavermaydi. Biz jinsiy aloqani va insonning jinsiy maylini Xudo dastlab aytgan maqsad darajasiga ko‘tarishimiz kerak. Va nihoyat, U bir-birimizga chanqok biz odamlarni O‘z siymosiga monand tarzda yaratib, jinsiy aloqalarni ham O‘zi paydo qilgan.

## CHINAKAM LAZZAT

Xudo erkak va ayolni butun umr mobaynida jismonan va ijtimoiy jabhada o‘zaro birlashtirish uchun jinsiy aloqani yaratgan. Garchi odamda alohida holatlarda va aksariyat paytlarda “juftlashish istagi” tez-tez yuz berib tursada, ushbu “qotiradigan material” bir marotabalik havas uchun mo‘ljallanmagan,

Albatta, jinsiy yaqinlik bizga rohat baxsh etadi, biroq butun umr mobaynida bir-birini sevishga ahd qilgan nikohdagi er-xotin o‘rtasida u mutlaqo ajoyib bo‘ladi. Albatta, jinsiy aloqa lazzati hamisha ham o‘ta keksalik yoshigacha davom etavermaydi, ammo shunday ham bo‘lishi mumkin. Sakson to‘rt yoshli bir professor universitetda insonning jinsiy aloqasiga bag‘ishlangan ma’ruza o‘qib berdi. Talabalardan biri undan qaysi yoshda jinsiy yaqinlik lazzat baxsh etmay qo‘yishini so‘radi. “Aniq bilmayman, - javob berdi professor, - ammo men hali o‘sha yoshgacha yashaganim yo‘q”. Oddiygina qilib aytaylik: toki er va xotin vujudida jinsiy aloqa uchun kuch bor ekan, jinsiy aloqa ularning bemalol va quvonch bilan lazzat olishlari uchun berilgan.

Biz jinsiy aloqa lazzatlanish uchun yaratilganligi haqidagi fikrga qo‘shilmaydigan odamlarni ham bilamiz va o‘z nuqtai nazarimiz bilan ularni muhokama qilmaymiz. Biz jinsiy aloqani er-xotinlik burchi va majburiyat deya hisoblaydigan odamlarni hurmat qilamiz. Biz faqatgina ular qanday katta quvonchni qo‘ldan boy berayotganlarini tushuntirishimiz shart ekanligini his etamiz. Bunday holatlarda, biz nikohdagi yaqinlik chinakam lazzat baxsh etishi mumkinligi haqida hattoki Muqaddas Kalomdan parchalar keltirib, o‘z so‘zimizni mustahkamlaymiz.

Odamlar ba’zan mendan (Joshdan) so‘rashadi: “Nima, siz Muqaddas Kitobni to‘liq bilasizmi?” Men ularga javob berishga oshiqaman: “Mavzu shoh Sulaymonning dono maslahatiga borib taqalsa, albatta bilaman!” O‘zingiz fikrlang:

> Bulog‘ing suvlari muborak bo‘lsin, ko‘z ochib ko‘rganing bilan quvongin, Jozibali ohu va go‘zal kiyik! Uning og‘ushi seni qoniqtirsin, doim uning sevgisi bilan qanoatlangin
>
> *Hikmatlar 5:18-19*

> Palma daraxtiday savlatlisan, Ko‘kraklaring uning mevalariday to‘liqdir Men shunday dedim: “Palma daraxtiga chiqib, uning mevalaridan ushlayman.” Ko‘kraklaring men uchun uzumday mazali, Nafasing esa olmalarday shirin bo‘lsin. O‘pichlaring eng a’lo sharobday shirindir, Bunday sharob lab va tishlar orasidan tekis o‘tadi.
>
> *Qo‘shiq 7:8-10*

Bu so‘zlar Kalomda bitilgan! Hech nimaga - dunyoviy madaniyatga ham, o‘tmishingizdan qolgan nojo‘ya tasavvurlarga ham - Xudo sizning jinsiy hayotingizda istagan o‘sha quvonchni o‘g‘irlab olishiga izn bermang.

Bolalarimiz ulg‘ayib borayotgan paytda, men (Dotti) ularga Josh bilan birga ekanimizdan juda xursand ekanimizni tez-tez aytib turardim. Albatta, bolalar o‘z ota-onalarining jinsiy aloqada bo‘lishlarini fikran tasavvur qilishni istashmaydi, lekin men farzandlarimizga jinsiy aloqa Xudo tomonidan er-xotinlar uchun ajoyib va yoqimli bir holat sifatida maxsus yaratilgani haqida tushuncha berdim, shuningdek, biz Josh bilan birgalikda Xudoning bu tuhfasidan rohatlanishimiz haqidagi tushunchaga ularni nozik fahm-farosat bilan yetakladim. Aytish joizki, agar sizga er-xotinlarning jinsiy yaqinlikdan rohat olishlari Xudoning xohishi ekanligi haqida Muqaddas Kitobdan qo‘shimcha tasdiq kerak bo‘lsa, Sulaymonning qo‘shig‘ini o‘qishda davom eting.

## AVLODNING DAVOM ETISHI

Xudo ilk juftlik, Odam Ato va Momo Havoga bergan birinchi amrlardan biri shunday bo‘lgan: “Uvali-juvali bo‘linglar...” ( Ibtido 1:28). Har holda, bu eng yoqimli tarzda bajariladigan amrlardan biri bo‘lsa kerak! Axir u bajarilmay qolganida, inson zoti o‘lib ketgan bo‘lardi.

Buning muqaddimasi Ibtido Kitobida shunday yangraydi: “Xudo insonlarga marhamat qilib aytdi: “Uvali-juvali bo‘linglar...) Ya’ni, bolalar - bu marhamatdir. Sulaymon aytganidek, “Nabiralar - keksalarning toju taxti, otalar o‘g‘illarning shon-shuhratidir” (Hikmatlar 17:6).

Ehtimol, sevgingizdagi eng jinsiy ifoda keyinchalik hamisha o‘g‘lingiz yoki qizingiz bo‘ladigan qimmatli hayotni dunyoga keltirganini anglab yetishdan ko‘ra maroqli hech nima bo‘lmasa kerak. Albatta, hozirgi kunda tug‘ilish va bolalarni tarbiyalash borasida ko‘plab muammolar mavjud, ammo baribir insonda o‘z oilasining bo‘lishi ulkan imtiyoz va marhamatdir!

Sizlar ota-ona va sizga ishonib topshirilgan bolalar uchun mas’ul jamoat boshqaruvchilari sifatida, albatta, bolalaringizning hayot yo‘lidan xotirjam borishlarini istaysiz, aslo xuddi mina maydonida bo‘lganidek, har qadamda ularni pornografiya, nikohgacha bo‘lgan jinsiy aloqa, munosabatlarning buzilishi, singan qalblar faryodi, ajralishlar kabi “qotillar” kutib turishini xohlamaysiz. Siz farzandlaringizning o‘zingiz uchun, Xudo uchun va atrofdagi olam uchun marhamat bo‘lishini istaysiz. Biz barchamiz ham shuni xohlaymiz. Bunga ilk qadamlardan biri - jinsiy aloqa Xudo tomonidan yaratilganini, uning ajoyibligini va nafaqat naslni davom ettirish uchun, balki er-xotindagi yaqinlikni va rohatlanishni mustahkamlash uchun ham mo‘ljallanganini o‘z bolalarimizga tushuntirishimiz lozim. Bizning kitobimiz bolalarga bu haqda *qanday* so‘zlash kerak ekanligi mavzusiga bag‘ishlangan.

Farzandlarimiz tushunishlari zarur: Xudoning xohishi shundayki, jinsiy aloqa ular hayotida va bo‘lajak turmush o‘rtoqlari bilan munosabatlarda marhamat bo‘lsin. Ular bundan maqsad nima ekanligini anglashlari kerak. Bundan tashqari, ular bunday imtiyozdan qay tarzda to‘g‘ri foydalanishni va tartibga solishni tushunishlari lozim, zero jinsiy aloqaning qudrati va jo‘shqinligi munosabatlarda alohida ehtiyotkorlikni talab etadi. Biz keyingi bobda Xudo tomonidan jinsiy aloqa borasida qanday chegaralar o‘rnatilgani haqida so‘z yuritamiz.

3 bob

# JINSIY ALOQA: NIKOH DOIRASIDAGI LAZZAT

Iliq oqshom. Jastin va uning sevgilisi Meddi cho‘milib olmoqchi bo‘ldilar. Jastin qo‘shni hovlining egalari uzoq muddatga qayoqqadir ketishganidan xabardor edi, hovlining orqa tarafida esa ko‘rkam basseyn bor. Xullas, u va Meddi qo‘shni hovliga yashirincha kirib olishdi, basseyn to‘sig‘idan oshib o‘tdilar va kechki cho‘milishdan bahra olishga shaylandilar.

Meddi yechinishga ham ulgurmay, Jastin botinkasini uloqtirgancha, tepaga chiqdi va undan pastga sho‘ng‘idi. U hushini yo‘qotishidan avval oxirgi eshitgani, sevgilisining qichqirig‘i bo‘ldi.

Qarangki, qo‘shnilar ketishlaridan avval basseyndan suvning katta qismini oqizib yuborgandilar, shu bois unda juda kam suv qolgan bo‘lib, g‘ira-shirada Jastin buni payqamagan. Bu sakrash suvning yengil chalqishi va suyaklarning ayanchli qisirlashi bilan yakunlandi. Kechki cho‘milish ishqibozi butun umr shol bo‘lib qoldi.

Bu yosh yigit-qiz birgalikda cho‘milishdan zavq olmoqchi edilar, xolos. Basseyn to‘sig‘i shu so‘zlarni ifoda etadigan chegarani anglatardi: “Kirilmasin” yoki “Begonalarning kirishi man etiladi”. Jastin esa unda sevgilisi bilan birga izlagan rohat yo‘lidagi to‘siqni ko‘rdi, vaholanki, aslida to‘siq ularning himoyasi uchun qo‘yilgandi.

### JINSIY ALOQA LAZZAT BAXSH ETADI.

Bolangizni tarbiyalayotganda, qaysidir pallada uni ogohlantirgan bo‘lsangiz kerak: “Dazmolga tegma” yoki “Ko‘chani kesib o‘tayotganingda avval chap tomonga qaragin, so‘ngra o‘ng tomonga”. Siz tez-tez shunday degansiz: “Tishlaringni tozalashni unutma”. Siz bu gapni bolangindan quvonchini tortib olish uchun emas, balki unga yaxshi bo‘lishi uchun aytgansiz. Tabiiyki, siz uning kuyishini, mashina ostiga tushib qolishini yoki tish og‘rig‘iga mubtalo bo‘lishini istamagansiz. Ta’qiqlar - bu odamlar tomonidan o‘rnatilgan chegaralar bo‘lib, bolalarni zararlardan himoya qiluvchi to‘siqqa o‘xshaydi.

Balki siz farzandingizni asosiy ko‘nikmalarga o‘rgatishni uddasidan chiqqandirsiz. Har holda, u qizigan dazmolga teginsa kuyib qolishini, qarshisidan yelib kelayotgan mashinaning yo‘liga chiqsa g‘ildiraklar tagida qolishiga va tishlarini tozalamasa ular yemirilib qolishini tushunib qolgandir. Ammo yoshlarga, xususan kattalarga ham Xudoning faol jinsiy aloqaga taalluqli amrlarini buzish qalb azobi va og‘riqlarga sabab bo‘lishini tushuntirish anchayin murakkab. Va buning salmoqli sabablari bor.

Qizigan dazmolga teginish darhol og‘riq beradi. Avtomobil tagiga tushsak, shu zahotiyoq mayib bo‘lamiz. Biroq jinsiy aloqa er-xotinlar o‘rtasida bo‘ladimi yoki ahloqan qay darajada ekanligidan qat’iy nazar odatda u huzur baxsh etadi. Insonning badaniga o‘sha badanning egasi nikohda bo‘lish-bo‘lmasligining ahamiyati yo‘q.

Haqiqat shuki, odam ahloq nuqtai nazaridan yaxshi yoki to‘g‘ri ish tutish-tutmasligidan qat’iy nazar, ehtiros og‘ushida o‘zini yettinchi osmonda his qiladi. Biz nikohgacha jinsiy aloqa nojo‘ya ekanligini bolalarimizga uqtirganimiz bilan muvaffaqiyatga erishmog‘imiz mushkul, negaki, ularning nuqtai nazari bo‘yicha jinsiy aloqa baribir yoqimli: ular ko‘plab manbalar orqali jinsiy aloqaning ajoyib ekanligini bilishadi. Ommaviy axborot vositalarida uzoq salbiy oqibatsiz kechadigan bir damlik huzur-halovat keng talqin etiladi. Xo‘sh, biz bunga qay tarzda qarshi turishimiz mumkin?

### FARZANDLARINGIZGA JINSIY YAQINLIKDAN IMKON QADAR KO‘PROQ LAZZATLANISHNI TUSHUNTIRING

Siz ota-ona yoki jamoat yetakchisi sifatida o‘z tarbiyangizdagi bolalarga odatda ularni qandaydir xavfli harakatlardan asrash istagi bilan *nimalarni* gapirasiz? Siz ularga bunday qilmish nojo‘ya ekanligini aytib, ular yana shu kabi ish tutsalar salbiy oqibatlarga uchrashlari haqida ogohlantirasiz. Har holda, xayolimizga keladigan eng so‘nggi fikr - biz bolalarni asramoqchi bo‘lgan harakatlardan qay tarzda mumkin qadar ko‘proq foyda olish mumkinligini ularga tushuntirish. Siz shu fikrga qo‘shilasizmi?

Xullas, gap jinsiy aloqa haqida borar ekan, bolalarimiz uning naqadar ajoyib ekanini tushunishlari kerak. *Faqat to‘g‘ri tanlangan vaqtdagina sevimli kishilari bilan jinsiy aloqa qilsalar, albatta*. Boshqacha aytganda,

inson Xudoning maqsadi doirasida yaqinlikka kirishsagina, ana o‘shanda u chinakam rohat olishi mumkin. Mabodo biz nimaiki bo‘lmasin biror narsaning qo‘llanmasini diqqat bilan o‘rganib unga amal qilsak, o‘sha “nimadir” qanday bo‘lmasin bizga yaxshiroq tarzda xizmat qiladi.

Siz qachondir akvariumdagi baliqni ipidan tortib yerda boqishga uringanmisiz? Yoki Shimoliy qutbda palma o‘stirmoqchi bo‘lganmisiz? Yoxud Phillips vintini oddiy otvyortka yordamida devorga burab kirgizmoqchi bo‘lganmisiz? Urinib ham ko‘rmang - qo‘lingizdan hech nima kelmaydi. Nima uchun? Negaki, baliq yerda sayr qilish uchun yaratilmagan - uning joyi quruqlikda emas, balki suvda. Mabodo baliq Xudoning amrlariga binoan hayotdan to‘la bahramand bo‘lishni istasa, u o‘ziga belgilangan chegarada, ya’ni suvda bo‘lishi kerak. Palma faqatgina doimiy iliq ob-havo sharoitida o‘sishi mumkin. U - tropik daraxt. Agar palma to‘laqonli yashashni istasa, u Shimoliy qutb kabi sovuq joylardan narida bo‘lishi lozim. Hattoki Phillips vintini devorga burab kiritish kabi oddiy vazifa ham qo‘lingizga boshqa otvyortkani olganingizda ilojsiz bo‘lib qoladi. Agar bu olamda hammasi Xudoning maqsadiga ko‘ra sodir bo‘lsa, barchasi a’lo tarzda yuz beradi. Bu murakkab emas, to‘g‘rimi?

Farzandlarimiz jinsiy aloqa Xudo tomonidan aniq bir maqsad bilan yaratilganini tushunishlari lozim. Bu Uning mo‘‘jizaviy tuhfasi bo‘lib, sevishgan er-xotinlar o‘rtasida yaqinlikni doimiy mustahkamlaydi, o‘zaro munosabatlariga va baxtli turmushlariga farzandlar muyassar etuvchi jismoniy zavq va quvonch keltiradi. Agar jinsiy aloqani hurmat qilib ulug‘lasak - Xudo qay tarzda yaratgan bo‘lsa - u Xudoning eng yaxshi hadyalaridan biriga aylanadi.

Mayli, farzandingiz Xudoning bu ajoyib tuhfasida hech qanday jirkanchlik yoki uyat yo‘qligini va undan lazzatlanishning oddiy usuli borligini bilib qo‘ysin. Xudoning bu ajoyib hadyasi sevgini mustahkamlashga qodir, faqat undan foydalanish uchun “qo‘llanma”ga amal qilish lozim. Siz shunday harakat qilingki, farzandingiz bilsin: jinsiy yaqinlikdan eng yuqori darajada rohatlanishga yordam berish uchun Xudoning muayyan qoidalar to‘plami mavjud.

## RADDIYA - BU HAM IJOBIY JAVOB

Xudo vaqti-vaqti bilan O‘z Kalomida bizga faqat sevgisidan kelib chiqqan holda “yo‘q” deb aytishini siz payqaganmisiz? Uning doimiy istagi - g‘amxo‘rlik va himoya qilish. Muso Isroil xalqiga da’vat etganida, Xudoning aynan shu asosini keltirgan:

> “Ey Isroil xalqi! Egangiz Xudo sizlardan bitta narsani talab qiladi: Egangiz Xudodan qo‘rqing. Uning yo‘lidan yuring. Egangiz Xudoni seving, butun qalbingiz bilan , jonu dilingiz bilan Unga xizmat qiling. Men bugun sizlarga berayotgan Egamizning amru farmonlariga rioya qiling, shunda baxtiyor bo‘lasiz.

*Qonunlar 10:12-13*

Xudo qachonki “uni yoki buni qilmagin”deb aytsa, har safar bizga yaxshi bo‘lishi uchun aytadi. Agar U chegaralar o‘rnatib, “Kirish mumkin emas!” belgisini o‘rnatsa, demak, Xudoning yagona xohishi faqat g‘amxo‘rlik va bizni himoya qilishdir. Zabur 144-bobini qayta o‘qib chiqing. U Xudoni himoyachi va g‘amxo‘r boquvchi sifatida tasvirlaydi. Masala jinsiy aloqa haqida bo‘lsa, Xudo bu borada ham bizni O‘z himoyasi va g‘amxo‘rligi bilan qurshab olishni istaydi. Biroq jinsiy yaqinlikdan to‘laqonli rohatlanishimiz uchun biz chegaralarni kesib o‘tmasligimiz va ta’qiq belgilariga e’tibor qaratishimiz kerak. Boshqacha aytganda, jinsiy aloqadagi buzuqlikdan qochishimiz lozim.

Muqaddas Kitob tushunchasiga ko‘ra, jinsiy aloqadagi buzuqlik - bu nikohdan tashqarida (bu o‘rinda nikohgacha hamda nikohsiz jinsiy aloqa nazarda tutilmoqda) bir erkak va bir ayol o‘rtasida kechadigan har qanday jinsiy aloqadir. Mana, Kalom nima deydi:

“Fahsh-zinodan o‘zlaringizni tiyinglar” (Havoriylar 15:29).
“Jinsiy ahloqsizlikdan o‘zlaringizni olib qochinglar!” (1 Korinfliklar 6:18).
“...Jinsiy ahloqsizlikka berilmaylik... (1 Korinfliklar 10:8).
“Sizlarning orangizda fahsh, zinokorlik, ifloslik... Hatto tilga ham olinmasin. Bular Xudoning azizlariga munosib emas” Efesliklar 5:3).
“Sizlarning muqaddas bo‘lishingiz Xudoning irodasidir. Shuning uchun jinsiy ahloqsizlik qilmang” (1 Salonikaliklar 4:3).

Demak, nikohgacha va nikohsiz jinsiy aloqaga bo‘lgan ta’qiq bizga Xudoning himoyasi va g‘amxo‘rligini ta’minlaydi. Hozir faqatgina bir necha bandlarni sanab o‘tamiz.

| Biz nimadan qochamiz? | Biz nimaga erishamiz? |
|---|---|
| Vijdon azobi | Ruhiy in’omlar |
| Rejasiz homiladorlik | Farzand tug‘ish va tarbiyalash uchun |

| | |
|---|---|
| | qulay vaqt |
| Jinsiy aloqa orqali o‘tadigan kasalliklar | Jinsiy aloqa orqali o‘tadigan kasalliklarning yo‘qligiga ishonch |
| Jinsiy aloqada bo‘ladigan insonga nisbatan ishonchsizlik | Jinsiy aloqada bo‘ladigan insonga ishonch |
| Ruhiy parokandalik | Chinakam yaqinlik |

Mana shunday ustunliklar bilan muayyan ravishda jinsiy yaqinlikdan to‘laqonli bahramand bo‘lish mumkin. Misol uchun, biz endigina uchrasha boshlaganimizda, bir-birimizni sevadigan erkak va ayol sifatida nikoh rishtalari bilan o‘zaro bog‘lanmaguncha jinsiy aloqaga bo‘lgan istagimizni namoyon etmay, kutishga qaror qildik. O‘zimizni bunday tutishga moslaganimiz umid baxsh etdi va biz nikohda ham xiyonatdan o‘zimizni tiyishga o‘rgandik. Va bunga erishdik! Xudoning jinsiy aloqaga oid amrlarini bajargan holda, biz vijdon azobidan himoyaga ega bo‘ldik va Xudo bilan hech qanday g‘uborsiz yaqinlikdan lazzatlanishda davom etmoqdamiz.

Biz nikohgacha bo‘lgan homidadorlikka bog‘liq hech qanday azobni boshdan kechirmadik. Shundan kelib chiqqan holda, biz o‘z farzandini “asrandi bola” qilib olish va  turmush qurish uchun qadam qo‘yishga tayyor bo‘lmasdan shoshilinch nikoh tuzish kabi noxush jarayonlardan narida bo‘ldik.

Bizni nikoh to‘shagida jinsiy aloqa orqali o‘tadigan qandaydir yuqumli xastaliklar ta’qib qilmadi.

Turmush o‘rtog‘imiz o‘zi bilan avval jinsiy aloqada bo‘lgan boshqaga bizni taqqoslashi mumkinligi haqidagi gumonlardan bezovta bo‘lmadik. Shu tariqa, bizning munosabatlarimiz asosida bir-birimizga bo‘lgan to‘liq ishonch yotibdi.

Xudo nikohgacha bo‘lgan aloqalar ko‘pincha sabab bo‘ladigan qalb azoblaridan va yuzaki havas bilan qilinadigan xoinona ayriliqlardan bizni himoya qildi. Natijada biz shubhaning kichkina soyasi ham, o‘tmish sharpasi ham soya tashlamaydigan munosabatlardan betashvish lazzatlanmoqdamiz.

Jinsiy aloqa Xudo tomonidan avvalo nikohgacha bo‘lgan jinsiy aloqani ta’qiqlash va nikohdagi sadoqat borasida salomatlik chegaralarini saqlab turish uchun jismoniy huzur sifatida yaratilgan,  Agar er-xotin Xudoning xohishiga amal qilsalar, yaqinlikdan to‘laqonli tarzda bahra olishadi. Asosiysi, bolalarimiz ushbu chegaralar haqida aniq tasavvurga ega bo‘lishlari lozim, zero aynan shu chegaralar  kelgusida jinsiy aloqadan rohatlanishlariga xalaqit beradigan hamma narsadan ularni o‘z vaqtida asraydi. Bu esa raddiya ham ijobiy javob bo‘ladigan aynan o‘sha vaziyatdir.

## HIRSIY MAYLGA XOS HARAKATLARNING CHEGARASINI ANIQLAYMIZ

Xudo bizni O‘zining himoyasi va g‘amxo‘rligi bilan qurshab olish maqsadida muayyan chegaralarni belgilab qo‘yganini gapirib o‘tdik. Kalomda, hech bo‘lmaganda, jinsiy aloqa borasida qo‘llaniladigan uchta qoida haqida eslatib o‘tiladi. Obrazli qilib aytganda, ular ko‘prikka va ko‘prikning ikkala tarafidagi to‘siqlarga o‘xshaydi. Undan o‘ngga ham, chapga ham og‘ishmay qadam tashlab, xuddi Xudo xohlagan tarzda yaqinlikdan zavq olishimiz mumkin.

### *Pokizalik*

Muqaddas Kalomda shunday deyilgan: “Nikohni hammangiz e’zozlanglar. Er-xotinlik munosabatini beg‘ubor saqlanglar...” (Ibroniylar 13:4). Va yana shunday yozilgan: “Sizlarning muqaddas bo‘lishingiz Xudoning irodasidir. Shuning uchun jinsiy ahloqsizlik qilmang. Har biringiz muqaddaslik va izzat-hurmatga loyiq tarzda o‘zingizni tuta bilishingiz kerak. Xudoni bilmagan butparastlarday shahvoniy hirsga qul bo‘lmang... Xudo bizni harom yo‘ldan yurishga emas, balki muqaddas bo‘lib yashashga chaqirdi”  (1 Salonikaliklar 4:3-5,7).

*Pokizalik  - bu Xudoning qoidasi*, unga amal qilish bizga jinsiy aloqadan imkon qadar ko‘proq bahramand bo‘lish imkoniyatini beradi va bizni nojo‘ya jinsiy aloqa oqibatlaridan himoya qiladi. Biroq pokiza bo‘lishning o‘zi nima?

Aytingchi, siz qachonlardir o‘ramida “sutli toza shokolad” deb yozilgan konfetdan iste’mol qilganmisiz? Yoki, misol uchun, asal solingan mana bunday yorliqli banka sizni darhol ishontirmoqchi bo‘ladi: “Qo‘shimcha sun’iy shirinlik solinmagan toza asal”. Shokolad yoki asaldagi “tabiiy” (ya’ni toza) so‘zi uning asl ta’mini buzadigan har qanday boshqa vositalardan xoli ekanligini bildiradi.

Jinsiy aloqada tozalikni saqlash -  jinsiy aloqa borasida Xudoning asl va mukammal maqsadiga hech nimani aralashtirmasdan Uning xohishiga ko‘ra yashamoq demakdir. Tushunyapsizmi, jinsiy aloqa er va xotin o‘rtasidagi yaqinlikni mustahkamlash uchun yaratilgan. Boshqa birov bilan jinsiy aloqa qilish - er-xotinlik munosabatlariga begona narsalarni olib kelish, bu esa pokizalikning yo‘qolishiga sabab bo‘ladi. Axir suvli stakanga iflos toshni tashlasangiz - suv ifloslanib qoladi-ku. Faqat aralashmalar qo‘shilmagan suvni toza deb

aytish mumkin. Xuddi shunday, Xudo ham bizning jinsiy aloqaga daxldor hayotimiz begona narsalar bilan iflos bo‘lmagan holda qolishini istaydi.

Xudoning maqsadi shundan iboratki, ikkita pokiza inson buzilmaydigan toza nikoh tuzib faqat bir-birlari bilan o‘zaro jismoniy yaqinlikdan bahra olsinlar. Agar juftlikdan birortasi yoki erkak ham, ayol ham faqat er-xotin o‘rtasida bo‘ladigan asl yaqinlikni rad etib, bir lahzalik rohat ketidan quvib *nikohgacha* bokiralikni asramagan bo‘lsalar, nikohning tozaligi buzilishi mumkin.

Jinsiy aloqada poklik qayerdan hosil bo‘ladi? Xudo shunday deydi: “...Muqaddas bo‘linglar, chunki Men Muqaddasman...” (1 Butrus 1:16) va “Xudoga umid bog‘lagan har bir odam Iso Masih singari pok bo‘lish uchun o‘zini poklaydi” (1 Yuhanno 3:3). Xudo O‘z tabiatiga ko‘ra pokiza va “Unda nohaqlik yo‘qdir” (Zabur 91:16) Demak, nikohgacha va nikohda ham pokiza bo‘lib qolgan holda, biz Xudoning siymosini aks ettiramiz va Uning sevuvchi himoyasi va g‘amxo‘rligi ostida Uning maqsadiga to‘liq mos kelgan holda jinsiy aloqadan rohatlanamiz.

### *Sadoqat*

Yettinchi amr shunday deydi: “Zino qilmang” (Chiqish 20:14). Iso Masih nikoh rishtalarini bog‘lagan erkak va ayollarga zino qilmaslikni, biroq bir-birlariga sadoqatli bo‘lishlarini amr etgan. U shuni ham aytgan: “Xudo birga qo‘shganni bandasi ajratmasin” (Mark 10:9). Xudo Isroilga buyurgan: “...Shu bois hushyor bo‘linglar va xiyonat qilmanglar” (Malaki 2:16).

Nikoh marosimida erkak va ayol o‘zlarini bir-birlariga bag‘ishlaydilar: “Muqaddas Xudoning roziligi ila bugundan boshlab toki o‘lim bizni ayirmagunicha seni sevaman va quvonch hamda qayg‘uda ham, boylik va qashshoqlikda ham, salomatlik va xastalikda ham senga g‘amxo‘rlik qilaman”. Har holda, bu - bu dunyoda kimdir seni hammadan ko‘proq sevishini va o‘z hayotini senga bag‘ishlashini bilmoq - eng dilrabo tuyg‘u bo‘lsa kerak *Sadoqat - bu Xudoning qoidasi*, uni asrash bizga eng ko‘p darajada jinsiy aloqadan lazzatlanish imkonini beradi va ahloqsiz jinsiy aloqaning salbiy oqibatlaridan himoya qiladi.

Oilaviy hayotimizning jo‘shqin qismini erim - Josh safarlarda o‘tkazgan. Menga xiyonat qilish uchun unda imkoniyatlar yetarli bo‘lgan. Biroq qirq yildan ortiq birgalikdagi turmushimizda u o‘zi sevgan va istagan birgina yagona ayoliga bo‘lgan mustahkam sadoqatini saqlab keldi. Ya’ni, menga. Bu men uchun qanchalik baxt ekanligini so‘z bilan ifodalab berolmayman. Uning sadoqati menga qadr-qimmat tuyg‘usini beradi, men o‘zimni xotirjam va xavfsiz his qilaman. Uch milliarddan ortiq ayollar yashayotgan sayyoramizda erim uchun men yagona va betakrorman. Mana, qanday munosabatlarni qadrlash va ardoqlamoq kerak!

Xudo boshidanoq bizga kimdir uchun yagona va betakror bo‘lishga intilish va xohish tuyg‘usini singdirgan. Xudoning tabiati hamana shunday. “Shunday qilib Egangiz Xudo haqiqiy Xudo ekanini bilib qo‘yinglar - deydi Muso isroilliklarga, - U sodiq Xudodir! Uni sevadigan, Uning amrlarini bajaradiganlarning minginchi avlodigacha ahdini sodiq saqlaydi” (Qonunlar 7:9). Nikoh qasamyodiga sadoqat - Xudo tomonidan bizning jinsiy hayotimizni himoya qilish uchun o‘rnatilgan yana bir qoida yoki chegaradir.

### *Sevgi yo‘li*

Demak, jinsiy aloqa hayoti bir tomondan poklikni, boshqa tarafdan sadoqatni himoya qilishi lozim. Ular ko‘prikning ishonchli to‘siqlari kabi bo‘lib, er-xotinlar undan qo‘llarini tutib o‘tishlari kerak. Va bu ko‘prik - sevgi yo‘lidir.

Masihiy oilalarda ulg‘aygan ko‘plab bolalarda qandaydir ahloq yo‘naltiruvchisi bor. Har holda, sizning farzandingiz duch kelgan odam bilan jinsiy aloqa qilish - katta xato ekanligiga ishonsa kerak. Albatta, siz uning shunday nuqtai nazarda ekanidan faxrlanarsiz, lekin bu o‘rinda bir ishkallik bor.

Ko‘plab bolalar, hattoki imonli oilalarda va yaxshi jamoatlarda ulg‘ayganlar ham agar ikki kishi bir-birini “chinakamiga” sevsa, qoidani buzish mumkin deya hisoblashadi. Bunday holatda nikohgacha yoki nikohdan tashqaridagi jinsiy aloqa ularga haqlidek bo‘lib tuyuladi, zero “sevganingda - hammasini to‘g‘ri qilasan”[a].

O‘ylashimcha, hozir men (Josh) ko‘plab ota-onalar va jamoat yetakchilarini karaxt ahvolga tushirib qo‘yaman, ammo aytishim lozimki, ma’lum ma’noda zamonaviy yoshlarning fikriga qo‘shilaman - menda ham haqiqiy sevgi barchasini to‘g‘ri qilishiga ishonch bor. Endi esa menga taajjub bilan xat yozishingizdan avval, tinglang. Jinsiy aloqa uchun Muqaddas Kitob andazalari *aynan* asl sevgini ifodalaydi. Afsuski, yoshlar ko‘pincha sevgi poklik va jinsiy aloqaga sadoqat chegarasidan chiqadigan soxta andazalaridan kelib chiqqan holda fikr yuritishadi.

Keling, *ilohiy sevgi ta’rifini* ko‘rib chiqaylik. Havoriy Pavlus Korinfliklarga birinchi maktubda sevgi nimalar qilishi va nima uchun qilishi haqida yozgan:

---

[a]Britaniyalik rok-qo‘shiqchi Bonni Taylerning mashhur qo‘shig‘idagi misra.

“Sevgi sabr-toqatli va mehribondir. Sevgi hasad qilmaydi, maqtanmaydi, kekkaymaydi. Sevgi odobsizlik qilmaydi, xudbinlik qilmaydi, achchiqlanmaydi, kek saqlamaydi. Sevgi nohaqlikdan sevinmaydi, aksincha, haqiqat qaror topganda shodlanadi.

*1 Korinfliklar 13:4-6*

Biroq bu hali sevgining to‘liq tavsifi emas.

Shuningdek, Pavlus “o‘zgani yaxshi ko‘rgan odam unga yomonlik qilmaydi” deb yozgan (Rim 13:10) Buning o‘rniga boshqalar bizga qanday munosabatda bo‘lishlarini istasak, o‘zimiz ham ularga shunday munosabat bildirishimiz kerak. Oltin Qoida yodingizdami? Iso aytadi: “Odamlar sizlarga nima qilishlarini istasangiz, sizlar ham ularga o‘shani qilinglar...” (Matto 7::12). Pavlus shunday deb ham aytgan: “Faqat o‘zingizning emas, balki boshqalarning ham manfaaatini ko‘zlang” (Filippiliklar 2:4). Endi bizga haqiqiy sevgi o‘z manfaatini ko‘zlamasligi ayon bo‘ladi.

Qarang-a, Kalom o‘z xotinlarini sevish uchun erkaklarga nimalarni buyuradi:

Erlar ham o‘z xotinlarini o‘z tanalarini sevganday sevishlari kerak. O‘z xotinini sevgan erkak o‘zini sevgan bo‘ladi. Hech kim hech qachon o‘z tanasini yomon ko‘rmaydi. Aksincha, uni oziqlantirib, parvarish qiladi. Masih ham O‘z jamoatini xuddi shunday oziqlantirib, parvarish qiladi.

*Efesliklar 5:28-29*

Haqiqiy sevgining o‘zi nima? Bu o‘z yaqinini oziqlantiradigan, ilitadigan va ardoqlaydigan, g‘amxo‘rlik qiladigan, asraydigan va himoya qiladigan o‘sha narsami?

Unga va Muqaddas Kitobdagi boshqa oyatlarga tayangan holda, biz haqiqiy sevgini ushbu ma’noda ifodalashimiz mumkin:

Sevgi - boshqa kishining xavfsizligi, baxti va farovonligini xuddi o‘ziniki kabi yuqori baholash.

Biz qachonki aynan shunday sevganimizda, jinsiy hayotimizni poklik va sadoqat qoidalari himoya qilishiga izn beramiz, negaki ular bizning baxtimizni ta’minlaydi va zararlardan himoya qiladi. Sevgi - ammo aynan asl sevgi! - nikohdagi poklik va sadoqat uchun to‘ygacha jinsiy yaqinlikni kutib turadi. Mana shu nuqtai nazarga ko‘ra, “sevsang - hammasini to‘g‘ri qilasan” fikri mutlaqo asosli.

Bunday sevgi qayoqdan paydo bo‘lishi mumkin? Xudodan, negaki “Xudo sevgidir” (1 Yuhanno 4:8). Sevgining ilohiy andazasi - sevimli kishini zararlardan himoya qiladigan va uning manfaatini ta’minlaydigan sevgidir. Bunday sevgi beradi va ishonadi, u ishonchli, xavfsiz, toabad sadoqatli. Garchi uning asosiy maqsadi sevimli insonni himoya qilish va unga g‘amxo‘rlik ko‘rsatish bo‘lsada, u boshqa odamning xavfsizligi, baxti va farovonligiga ziyon bermaydi.

Axir siz o‘z farzandingizga shunday yo‘lni ravo ko‘rmaysizmi? Axir siz u o‘z manfaati uchun Xudoning poklik va sadoqat chegaralarini quvonch bilan qabul qilishini istamaysizmi? Hozirgi kunda zamonaviy dunyo madaniyati boshqa yo‘lga da’vat etayotgan bir paytda, bunday haqiqatga ko‘nikish oson emas, biroq biz sizni ishontirib aytamizki, buning iloji bor. Siz xuddi maktabdagidek farzandingizni partaga o‘tkazib undashingiz shart emas: siz bu bilan teskari natijaga erishishingiz mumkin.

Ammo baribir bolalarimizga Xudoning jinsiy aloqa borasidagi maqsadini singdirish usuli bor. Ularda ijobiy ta’sir uyg‘otadigan yondashuv mavjud. Ko‘plab ota-onalar va jamoat yetakchilari buni shunchaki nazardan qochirib qo‘yishadi. Biz keyingi bobda ana shu haqda so‘z yuritamiz.

4 bob

# YAQIN MUNOSABATLAR DOIRASIDA JINSIY ALOQA HAQIDA QANDAY GAPIRISH MUMKIN?

U yugurgancha kelib qo‘llarimni qisib ushladi. Unga nigohimni qaratdim. Hatto o‘zini tanishtirishga ulgurmay turib, u bidirlay ketdi:

- Josh, men oilamni nima qilay? - Men hozirgina Filippinda olti yuzdan ko‘proq cho‘ponlar qarshisida “Farzandlar uchun qay tarzda qahramon bo‘lish mumkin” mavzusidagi va’zimni yakunlagandim. Va mana, cho‘ponlardan biri uning uchta - o‘n yetti, o‘n uch va o‘n yoshdagi - bolalari “jamoatdagi eng yomon bolalar” deya hisoblanishini aytdi. - Men qo‘limdan kelganini qildim, - qizishdi u. - Men ularga doimo Xudoning Kalomini targ‘ib qilganman. Muqaddas Kitob oyatlarini yodlashga majbur qilganman. Ular o‘zlarini nima kutayotganini bilishadi, ammo har qanday qoidalarga qarshi chiqishadi. Xo‘sh, men nima qilay?

Otaning ovozida o‘kinch aks etardi. U bor kuchi bilan bolalarini Xudo belgilagan chegaralardan chiqmaslikka majbur qilishga uringan. U bolalarining Xudo himoyasi ostida va Uning g‘amxo‘rligi qurshovida itoat etib yashashlarini xohlagan. Biz barchamiz ham bolalarimizga shuni istaymiz.

Men uning yelkasiga qo‘limni qo‘yib, ko‘zlariga tik qaradim:

- Birodar, sizga maslahatim - qoidalarni unuting.

- Nima-a-a? - u shubha bilan o‘zini tortdi. - Mening muammom ana shunda: ular hech qanday qoidalarga bo‘ysunishmaydi. Ular qoidalarga ehtiyojmand bo‘lishlari haqida umuman o‘ylashmaydi!

- Nimalar deganingizni tushundim, - javob berdim men, - lekin qaytaraman: qoidalarga e’tibor qaratishni bas qiling.

Birinchi qarashda unchalik ham yaxshi maslahat emasdek tuyuladi, to‘g‘rimi? Biz barchamiz qoidalar qanchalik muhim ekanligini bilamiz, zero ular xavfsizligimiz chegaralarini qamrab oladi va faoliyatimizni yo‘naltiradi. Biroq aytish mumkinki, bu aysbergning faqat tepa qismi, xolos. Biz bolalarimizning o‘zini tutishlarida nima *muayyan* o‘zgarishga olib kelishini tushunishimiz lozim, zero biz eng avvalo, farzandlarimiz to‘g‘ri qaror qilishga o‘rganishlarini istaymiz, ular buni bilmaganlarida esa, biz bolalarimizni to‘g‘ri yo‘lga qaytarishga urinamiz. Biroq buni *qanday* qilish mumkin? Biz Dotti bilan sizga farzandlaringizni ahloqan to‘g‘ri qaror qabul qilishga o‘rgatadigan diagrammalarni misol tariqasida tushuntirishimiz mumkin.

Ma’lumki, bizning har bir faoliyatimiz va barcha harakatlarimiz qadriyatlarimiz bilan belgilanadi. Biz siz bilan baham ko‘radigan ahloqiy tanlovimiz ham qadriyatlarga tayanadi. Ha, lekin qadriyatlarimiz qanday shakllanadi? Ular e’tiqodimiz asosida tug‘iladi. Bizni o‘rab turgan olam haqidagi ayrim fikrlarni biz to‘g‘ri deb bilamiz, ba’zilarini esa yolg‘on. Bu fikrlar bizning qadriyatlarimizni shakllantiradi, ular esa o‘z navbatida bizning harakatlarimizni belgilaydi (diagrammaga qarang). **(В диаграмме: Действия – Harakat, Ценности – Qadriyatlar, Убеждения – E’tiqod)**




Biz nimagaki ishonsak, o‘shani dunyoqarash deya atashimiz mumkin. Dunyoqarash nima o‘zi? Agar ikkita so‘z bilan ifodalay qolsak, bu bizning olamga nisbatan nuqtai nazarimiz. Biz nimani qanday tartibda qurilganiga ko‘ra to‘g‘ri deb bilishimiz ishonchlarimiz to‘plamini yaratadi. Bu bir oyna bo‘lib, biz undan hayotga boqamiz. Bu xuddi asl hayotning xayolan chizilgan xaritasiga o‘xshaydi. Xo‘sh, misol uchun, nega 67% yosh erkaklar va

49% yosh ayollar pornografiyaga murojaat qilishni mumkin boʻlgan harakat deya hisoblashadi?[1] Negaki, ularda shunday dunyoqarash shakllangan. Ularning tasviridagi dunyoda pornografiyaga murojaat qilish - jinsiy maylning odatiy koʻrinishi. Ularning qarashlariga koʻra harakatlarini belgilaydigan qadriyatlar shakllangan.

Demak, mabodo filippinlik choʻpon doʻstimiz oʻz bolalarining harakati va oʻzlarini tutishlariga taʼsir koʻrsatishga urinsa, taʼqiq va qattiqqoʻl qoidalarni qoʻllab katta natijaga erishadimi? Har holda nimadir oʻzgaradi, lekin uzoq vaqtga emas, negaki uzoq davom etadigan oʻzgarishlar yanada chuqurroq darajada boshlanishi kerak. Biz avval yozib oʻtganimizdek, koʻplab ota-onalar farzandlarini uyda taʼlim olishga yoki masihiylik maktablarida oʻqishga oʻtkazishgan yoxud ularning hatti-harakatlarida oʻzgarishlar boʻlishiga umid bilan yozgi masihiylik taʼtilgohlariga yuborishgan. Ular farzandlarining toʻgʻri yoʻl tutishga oʻrgatishlariga, sevgi va jinsiy aloqa borasida ilohiy haqiqatni qabul qilishga yordam berishlariga, nima yaxshiyu nima yomon ekanligini tushuntirishlariga umid qilishgan. Ehtimol, ana oʻshanda bolalar ahloqan toʻgʻri qaror qabul qilishga qodir boʻlishlari mumkin. Bularning hammasi ajoyib: ammo biz sizlarga shuni aytmoqchimiz: bolalarni ilohiy haqiqatlarni qabul qilishga oʻrgatish - bu hali juda kamlik qiladi.

## BUZGʻUNCHI POYDEVOR

Men (Josh) qachonlardir Oʻrta Gʻarbdagi katta jamoatda chiqish qilgandim. Jamoat endigina qurilish ishlarini tamomlab, yangi binoga koʻchib oʻtgandi. Eshikka yaqinlashib, kirish tepasida shunday soʻzlar bitilgan katta bannerni koʻrib qoldim: “Biz faqat haqiqatni va faqat haqiqatni targʻib qilamiz!”

Albatta, biz bolalarimizni haqiqatga oʻrgatamiz, zero aynan shu tariqa ularda toʻgʻri fikr va Muqaddas Kitobga monand dunyoqarash shakllanadi. Biroq men “haqiqat va faqat haqiqat” ruhidagi suhbatlarni koʻp eshitganim bois, ular menda muayyan bir shubha uygʻotadi, shu bois ushbu bannerni koʻrganimdayoq xayolimga birinchi kelgan fikr shu boʻldi: *“Agar barchasi men gumon qilayotganimdek boʻlib chiqsa, ushbu jamoat halokatga mahkum”.*

Koʻplab ota-onalar ana shunday tuzoqqa ilinishadi. Ular oʻz farzandlariga ilohiy haqiqatni yetkazsalar bas, choʻqqini zabt etdik deya oʻylashadi, zero endilikda ularda “toʻgʻri” qadriyatlar va “toʻgʻri” harakatlar bor. Biroq bunday yondashuv halokatga mahkum, negaki ular ilohiy haqiqatni jonlantiradigan va inson hayotini oʻzgartiradigan asosiy masalliqni eʼtiborga olishmaydi. Ammo bu masalliq yoki kalit - *munosabatdir*!

Shoh Dovud aytgan: “Ey Egam, toʻgʻri yurganim uchun Meni oqlagin...Senga doim sodiqman”. (Zabur 25:1, 3). Biz bu oʻrinda faqatgina 1-oyatni va 3-oyatning yarmini keltirib oʻtganimizda, kontekstni eʼtibordan chetda qoldiramiz: haqiqat botinda yashaydi. Tushunyapsizmi, ilohiy haqiqat hamisha bizga sevuvchi Otadan keladi, Uni esa bizning qalbimiz nihoyatda qiziqtiradi. Keling, 3-oyatni toʻliq oʻqib chiqaylik:

“Sening sodiq sevging koʻz oʻngimdadir, Senga doim sodiqman”.

Dovud hamisha Xudoning oʻzgarmas sevgisi haqida bilgan qv Xudo bilan yaqin munosabatlarda boʻlgan. Ilohiy haqiqatni Samoviy Ota Oʻz farzandlariga qanday gʻamxoʻrlik qilishi haqidagi satrlar orqali tushuntirish lozim. Dovud soʻngra ibodat qilgan: “Yoʻlingni menga koʻrsat, ey Egam, Toki toʻgʻri soʻqmoqlaringdan yuray” - va tan olgan: “Menga boʻlgan sodiq sevging gʻoyat buyukdir...” (Zabur 85:11, 13). Dovud Xudoni anglash va oʻzining gʻamxoʻr Otasiga manzur boʻlishga intilishdan hosil boʻladigan Unga nisbatan sevgi oʻrtasidagi toʻgʻridan-toʻgʻri aloqani koʻrgan. Zaburchi yoshlik davridayoq toʻgʻri hayot kechirish manbai “ulugʻ marhamat”ga, oʻzining Xudoga abadiy sevgisi bilan bogʻliq ekanligini bilgan. Havoriy Yuhanno quyidagini yozganida aynan oʻsha kuchni nazarda tutgan: “Biz sevamiz, chunki Xudo bizni birinchi boʻlib sevdi” (1 Yuhanno 4:19).

Aytib oʻtganimizdek, ishonch haqiqatdan ham qadriyatlarimizni shakllantiradi, qadriyatlar esa harakatlarimizni belgilaydi. Biroq gap shundaki, biz barchamiz muyeosabatlarimiz tajribasi asosida Xudo haqida, hayot haqida oʻz xulosalarimizni chiqaramiz. Shoh Dovud toʻgʻri aytgan: uning toʻgʻri yoʻl tutish xususiyati negizida “buyuk marhamat” - Xudoning oʻzgarmas sevgisi yotgan ilohiy haqiqatni (ishonch va qadriyatlarni) egallash orqali hosil boʻlgan.

Farzandlarimiz nimaga oʻrgangan boʻlsalar, nimani bilsalar va hatto bu haqda *qanday* bilib olgan boʻlsalar, biror kishi orqali yoki qandaydir munosabatlardan kelib chiqqan boʻladi. Odamlar bu haqda baʼzan oʻylab koʻrishadi, xolos, ammo biz nimani oʻzimizda aks ettirsak, aksariyat tarzda bu munosabatlarga daxldor hisoblanadi. Bizning fikrimiz, demak, bizning dunyoqarashimiz kim bilan va qay tarzda ularni yaratganimizning toʻgʻridan-toʻgʻri natijasidir. Sevgi - bu yoshlarning toʻgʻri fikrlarini rivojlantirishga qodir inoyat negizi boʻlib, oʻz navbatida uning qadriyatlarini shakllantiradi, qadriyatlar esa uning harakatlarini belgilaydi (diagrammaga qarang). **(В диаграмме: Правильные поступки – To’g’ri harakatlar, Библейские ценности – Kalomiy qadriyatlar, Верные убеждения – Qat’iy e’tiqod, Близкие отношения с Богом и ближними - Xudo va qadrdonlar bilan yaqin munosabatlar)**




Nima uchun to‘g‘ri fikrlarni shakllantirish, bu orqali ezgu harakatlarni amalga oshirish uchun munosabatlar bunchalik muhim? Negaki biz bilan siz shunday yaralganmiz. Uch birlikni O‘zida jamlagan Xudo har bir qalbning chuqur burchagiga O‘zini tanitadigan muhrni, O‘z siymosiga xos farq belgisini, ya’ni sevgi munosabatlariga asoslangan qobiliyatni jo etgan. Kalom orqali bu qadimdan ma’lum (qarang: Ibtido 1:26-27), shuningdek, mazkur haqiqatni ong rivojlanishi borasidagi tibbiy tadqiqotlar ham tasdiqladi.

Bundan bir necha yillar muqaddam Dartmut kolleji huzuridagi Tibbiyot maktabi inson ongi o‘zgarishining yoshi borasida ilmiy tadqiqot uyushtirgandi. “Hardwired to Connect” deya nomlangan loyiha doirasida ikki yuz otmishdan ortiq tadqiqot ishlarining natijalari tahlil qilindi. Xulosaviy ma’ruzada ta’kidlangan: barcha hisob-kitoblar hech bir istisnosiz shundan dalolat beradiki, tug‘ilish arafasida chaqaloqning miyasi odamlar bilan munosabatlar orqali aloqa qilishga jismoniy, biologik va kimyoviy tarzda “dasturlangan”[2]. Los- Anjelesdagi Kaliforniya universiteti huzuridagi Tibbiyot maktabidan doktor Allan Shorning ma’lum qilishicha, “biz aloqalar uchun tug‘ilamiz. Bizning ongimiz so‘zlashga o‘rganishimizdan avvalroq boshqa odamlar bilan  hissiy muloqot doirasida rivojlanish uchun “dasturlangan”[3]. Agar biz uch birlikdagi Xudoga - sevgi Xudosiga monand tarzda yaratilgan bo‘lsak, bunga hayratlanish joizmikan? Biroq biz yaqin munosabatlardan qochgan holda, ko‘pincha bir-birimizga haqiqat va undan yenlib chiqadigan qoidalar haqida gapiramiz. Biz O‘rta G‘arbdagi cho‘ponlar kabi “haqiqatni, faqat haqiqatni targ‘ib qilamiz”.

Havoriy Pavlus Efesliklarga maktubida  “haqiqatni sevgi bilan aytishga” bizni chorlagan (Efesliklar 4:15). Haqiqat eng boshidanoq ichki yaqin munosabatlarda uni “o‘zlashtirib”olish uchun mo‘ljallangan. O‘sha havoriy Pavlus yana shunday deydi: “Sizlarga juda qattiq ko‘ngil bog‘lagan edik. Shuning uchun sizlarga Xudoning Xushxabarini aytibgina qolmadik, balki yuragimizdan ham joy berdik. Chunki sizlar bizga juda aziz bo‘lib qolgandingiz” (1 Salonikaliklar 2:8). Pavlus “haqiqatni va faqat haqiqatni” kabi yondashuvni tadbiq qilmagan - u birodarlarni jonli, ishonchli munosabatlar kontekstiga o‘rgatgan. Mana nima bois odamlarda uning so‘zlari ildiz otgan va odamlarning munosabatlari ham o‘zgargan.

Ishonchingiz komil bo‘lsin: sog‘lom munosabatlarsiz kimgadir o‘z nuqtai nazarini va qadriyatlarini singdirishga, to‘g‘ri harakatlarga o‘rgatishga bo‘lgan har qanday urinish befoyda, negaki ularga asosiy unsur - sevgi va g‘amxo‘rlik yetishmaydi. Xudo insonning to‘g‘ri qarorga kelishiga yordam berishni istaganida, aynan sevgi va g‘amxo‘rlikni qo‘llaydi. Mana nima uchun ruhiy yaqinlik bo‘lmagan haqiqat ko‘pincha rad etiladi, qat’iy tartib o‘rnatish esa tushunmovchilik va nafrat uyg‘otadi. Ammo yaqin munosabatlar doirasida o‘zini tutish qoidalari va haqiqatni uqtirib, siz deyarli hamisha ijobiy javoblar olasiz. Shoh Dovud nega pokdomon bo‘lib yurgan? Negaki u hamisha o‘z Samoviy Otasining “ulug‘ marhamati” - yaqin munosabatlar doirasidagi haqiqatni anglagan.

## YUZ MARTA ESHITGANDAN, BIR MARTA KO‘RGAN AFZAL

Yoshlarga haqiqatni, jinsiy aloqaga taalluqli munosabatlarda nima to‘g‘riyu nima noto‘g‘ri ekanligini yaqin munosabatlar doirasida anglatish lozim. Eng avvalo, qaramog‘ingizdagi bola o‘zi qaror qilishi va harakatlarini tuzatmog‘i kerak, ya’ni pornografiyadan qochishi, ko‘pchilikning bosimiga qarshi turishi, Xudo buyurgan chin sevgini namoyon etib poklik va sadoqatni saqlashi lozim.. Ana shunda ular saboqlaringizni ko‘proq qabul qilishadi va shunga muvofiq ruhlanishadi, agar sizning “ulug‘ marhamatingiz” va o‘zgarmas sevgingizni his qilsalar, albatta. Bundan tashqari, ular sizning ham shu tariqa yashayotganingizni ko‘rishlari shart.

Havoriy Pavlus yozgan: “Aziz bolalarim, biz haqiqiy sevgimizni quruq gap bilan emas, amalda ko‘rsataylik” (1 Yuhanno  3:18). Farzandlarimiz ishonch-e’tiqodimizni va qadriyatlarimizni o‘zlashtirib olishlari va ahloqiy to‘g‘ri qaror qabul qilishga o‘rganishlari uchun bizning hayotimizda gavdalangan haqiqatni ko‘rishlari kerak.

Biz o‘z farzandlarimizda nosog‘lom munosabatlar yoki noto‘g‘ri harakatlarni ko‘rganimizda, albatta, ularni to‘g‘rilaganmiz. Lekin biz tez orada agar bolalar uchta muhim savolga “ha” deb javob bera olmasalar, gaplarimiz

havoga uchib ketishini tushundik. Ularning javobidan biz oʻzimiz yaxshi namuna koʻrsatayapmizmi yoki yoʻqmi, darrov ayon boʻlardi. Shu bois, men (Josh) Kellining oʻzini nooʻrin tutayotganini payqaganimda va aralashuvim albatta zarur boʻlganida, unga shunday savollar berdim:

1. “Kelli, seni yaxshi koʻrishimni bilasanmi?”
2. “Onangni sevishimni bilasan-a?”
3. “Qachondir turmushga chiqqaningda, xuddi onang va menda hozir boʻlganidek sevgini, ana shu kabi oilang boʻlishini istaysanmi?”

Mabodo ana shu savollardan har biriga u “ha” deya javob bersa, soʻzlarimni eshitganini va qabul qilganini tushunardim. Misol uchun, shunday deyishim ham mumkin: “Kelli, sen qilayotgan ish kelajakda turmushingga putur yetkazishi va oilamizdagi hozirgi baxtingdan seni ayirishi mumkin”. Qizim koʻz oldida munosabatlarning munosib ishonchiga ibratni koʻrib turgani bois, mening boshqaruvimga koʻproq boʻysunadigan boʻlardi. Agar bolalar oʻz oldilarida aytilgan soʻzlarning isbotini koʻrmasalar, ota-onalarining gapiga ishonishlari qiyin.

Havoriy Pavlus yozgan: “Birodarlarim, mendan oʻrnak olayotganlarga qoʻshilinglar. Bizning namunamiz boʻyicha yashayotganlarga e’tibor berib, ulardan oʻrganinglar” (Filippiliklar 3:17). “Koʻrinish, shakl” tarzida tarjima qilingan yunoncha *tupos* soʻzi “taqlid uchun ibrat yoki namuna”ma’nosini anglatadi. Pavlus oʻzining hayoti taqlid uchun namuna ekanligini aytgan. Xuddi shuningdek, bizning va sizning hayot ham bolalarimiz uchun ibrat boʻlib xizmat qilishi lozim. Yoʻq, bizlar mukammal emasmiz. Mukammal ota-onalar mavjud emas. Biroq hattoki nomukammal boʻlgan holda, biz itoatkor boʻlishga va xatolik qilib, kechirim izlaydigan odamlarga ibrat boʻlishimiz mumkin.

Men (Dotti) bir kuni Josh bilan bolalar huzurida qattiq tortishib qolganimizni eslayman. Josh bir payt oʻzini yoʻqotib qoʻygancha, qogʻozlar joylashgan papkani stolga uloqtirib shunday dedi: “Men ketaman”. Soʻngra eshikdan yugurib chiqib, qayoqqadir joʻnab ketdi. Bolalar buni koʻrishdi.

Ammo Josh tezda qaytib keldi, bizni mehmonxonada toʻplab, barcha bolalarimiz oldida qattiq qizishib ketganini tan oldi. U mening qalbimga ozor berganidan afsusda ekanini aytib, mendan kechirim soʻradi. Soʻngra u bolalarga yuzlanib, onalari bilan hurmatsiz soʻzlashgani uchun farzandlarimizdan ham uzr soʻradi.

Albatta, Joshning oʻshandagi harakati mukammallikdan yiroq boʻlsada, u baribir “vaziyatni izdan chiqarganingda odam oʻzini qanday tutishi kerakligi haqida” ajoyib ibrat koʻrsatdi.

Ehtimol siz ishonmassiz, ammo farzandlaringiz yoki ixtiyoringizdagi bolalar uchun xatolikka yoʻl qoʻyib soʻngra itoatkorlik bilan kechirim soʻrashingiz, ular sizdagi toʻgʻri hayot namunasini koʻrishlari nihoyatda muhim. Pavlus majusiylarni “aytganlarim va qilganlarim” orqali imonga keltirganman deb aytgan ( Rimliklar 15:18). Nafaqat yaqin munosabatlarimiz kontekstidagi haqiqat soʻzlarimiz, balki hayotning oʻzi ham taqlid uchun namuna boʻlib xizmat qiladi. “...Biz haqiqiy sevgimizni quruq gap bilan emas, amalda koʻrsataylik” (1 Yuhanno 3:18).

## OTA BILAN ALOQA ... YOKI ALOQANING YOʻQLIGI

Jon Xopkins universiteti qoshidagi Maykl Blumberg jamoat sogʻligini saqlash Maktabi - shu maktabning bitiruvchilari boʻlmish 1337 shifokor ishtirokida tadqiqot oʻtkazdi. Tadqiqot ob’ekti sifatida ota-ona uyidagi oilaviy munosabatlar muayyan holatlar va kasalliklar kelib chiqishining sababi sifatida oʻrganildi. Ma’lum boʻlishicha, saraton xastaligining asosiy turlari va ruhiy kasalliklar ota-onalar, ayniqsa ota bilan toʻgʻridan-toʻgʻri yaqinlik yoʻqligi bois rivojlanar ekan[4].

Bu haqda oʻqib shunchalik hayajonga tushdimki, maktabga qoʻngʻiroq qilib tadqiqotni oʻtkazgan kishilar bilan gaplashib olmoqchi boʻldim. Men ota bilan yaqin munosabatning yoʻqligi nega muhim sabab ekanligini tushunmoqchi edim. Olimlar nega shunday ekanligini menga tushuntirishlari uchun uch daqiqadan koʻp vaqt ketmadi. Ularning soʻziga koʻra, kimki otasi bilan munosabatlari buzilgan boʻlsa hayotida koʻproq jiddiy ruhiy zarbalarni his etadi, ruhiy iztiroblar esa yuqorida qayd etilgan xastalik va holatlar rivojlanishiga asosiy sabab boʻladi.

Bu va boshqa tadqiqotlar 1980-yillarning boshi va oʻrtalarida oʻta muhim natijalarni keltirib chiqargan. Koʻplab olimlar jismoniy salomatlik va munosabatlar oʻzaro bogʻlik ekanligidan dalolat beruvchi shunga oʻxshash xulosalar chiqarishgan. 2012 yilning fevralida “Time” jurnalida quyidagi ma’lumot chop etilgan:

Tadqiqotlarning ko‘rsatishicha, yaqin do‘stlari va qarindoshlari davrasiga ega bo‘lgan odamlarda arterial bosimi, ruhiy iztirob gormonlari past darajada hamda ular yaqin kishilari bo‘lmagan boshqalarga nisbatan kuchliroq immunitetga egadirlar. 2010 yilda Brigam Yang universiteti olimlari uch yuz mingdan ko‘proq kishilar haqidagi ma’lumotlarni tahlildan o‘tkazib, ijtimoiy aloqalarning tanqisligi chekish odati, semirib ketishdan ham yuqori darajada barvaqt o‘limlarni keltirib chiqarishi mumkinligini aniqlaganlar[5].

Bolalar jisman, hissiy, ruhan va ijtimoiy sog‘lom bo‘lib o‘sishlari uchun ota-onalari bilan yaqin munosabatlarga muhtojdirlar, bu esa kelajakda ular ahloqan to‘g‘ri qaror qabul qilishlariga imkon beradi. Va bu o‘rinda ota bilan munosabat hayotiy muhim masala.

Kam daromadli onalar haqidagi “Men bajara olmaydigan va’da. Nega bechora ayollar onalikni nikohdan muhim hisoblashadi” nomli nodir asarning hammuallifi, nikoh fenomeni va oilaviy muammolar tadqiqotchisi, jamiyatshunos Mariya Kefalas yozadi: “Ayollar ko‘pincha menga shunday deyishadi: “Men chaqalog‘imning onasini ham, otasini ham almashtirishim mumkin”, ammo bu haqiqat emas. Otasiz o‘tadigan bolalik go‘dakka chuqur ruhiy ta’sir ko‘rsatadi. Ehtimol, onaga bu odam kerak emasdir, lekin uning bolalariga doimo zarur”[6].

Kolumbiya universiteti o‘smirning ota-onasi nazoratida yoki faqat yolg‘iz ona qo‘lida tarbiya olishi ichkiliklarga, giyohvand moddalarga va zo‘ravonlikka nisbatan qanday munosabatga olib kelishini aniqlash maqsadida keng miqyosda tadqiqot o‘tkazdi. Ma’lum bo‘lishicha, yolg‘iz onalar tarbiyalagan bolalar ota-onasining ko‘magi muhitida o‘sgan yoshlarga nisbatan 30% ko‘proq zo‘ravonlikda ishtirok etishadi, ichkiliklar va giyohvand moddalar iste’mol qilishadi[7]. O‘smirning - onasi bilan va ayniqsa otasi bilan - oiladagi munosabatlari, hatti-harakatlari nihoyatda muhim ahamiyatga ega.

Xudo bizni ijtimoiy mavjudotlar qilib yaratgan. Biz barchamiz ota-onalarning, shuningdek, ishonchli do‘stlarning doimiy sevgisiga muhtojmiz. Bunday yaqinlikka erisha olmasak, ayniqsa, bizga ota bilan aloqalarimiz yetishmasa, oqibatlardan aziyat chekishga to‘g‘ri keladi.

Yana bir bora ta’kidlamoqchimiz: otalar o‘z farzandlari bilan chuqur munosabatlar o‘rnatishlari zarur. Biz onalarga nisbatan otalar buni kamroq istaydi deb sha’ma qilmoqchi emasmiz, shunchaki, onalardan farqli tarzda, ular buni qanday qilishni sezgi darajasida bilishmaydi. Mana nima uchun biz butun bir kitobni bolaning ota bilan munosabatiga bag‘ishladik[a]. Biz otalar o‘z qizlari va o‘g‘illari bilan munosabatlarni qanday chuqurlashtirishi, qay tarzda yaqin bo‘lishlarini tushunishda yordam berishni xohladik. Albatta, bolalarga otalarning nihoyatda yetishmayotgani onalarning farzandlari hayotidagi ahamiyatini aslo kamaytirmaydi.

Ilmiy tadqiqotlar ham, bizning shaxsiy kuzatuvlarimiz ham shuni ko‘rsatadiki, sizlar, onalar, aksariyat hollarda o‘z vazifangizni a’lo darajada uddalayapsiz, shu bois katta miqdordagi bolalar kerakli tarzda ko‘p hollarda sevgi, g‘amxo‘rlik va qo‘llab-quvvatlashni onalaridan qabul qilmoqdalar. Go‘dak onasining hech qayoqqa ketib qolmasligini sezadi - ayol hamisha bolasini tinglaydi, avaylaydi va unga nisbatan g‘amxo‘rlik qiladi. Ota - boshqa masala. Bolalar odatda otalarining yonida o‘zlarini shunday xavfsiz his qilishmaydi, bu esa ularga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Zero, aksariyat otalar shunchaki o‘z xotinlarini tinglaganlarida edi, ko‘p narsalarni bilib olgan bo‘lishardi!

Agar siz yolg‘iz ona bo‘lsangiz, ushbuni aytishga ijozat eting: sizning ishingiz o‘zingizga tuyulganidan ham ko‘ra kengroq va murakkabdir. Yo‘q, siz o‘z farzandingizga ayol va erkak o‘rtasidagi sevgi namunasini ko‘rsatolmaysiz, ammo uning yonida bo‘lishingiz va Xudodan olgan barcha ko‘mak, g‘amxo‘rlik va sevgini berishingiz mumkin. Farzandingiz qaysidir tarzda sizga oson emasligini va har kuni “ortiqcha mil yo‘l bosishingiz”ni tushunadi.

Shu bilan birgalikda mana bu haqda ham o‘ylab ko‘ring: agar bolangizning otasi siz bilan endi yoningizda bo‘lmasa yoki ota vazifasiga mutlaqo to‘g‘ri kelmasa, qizingiz yoki o‘g‘lingiz uchun o‘z jamoatingizdan ijobiy namuna bo‘la oladigan yoshi katta taqvodor masihiy erkakni toping. Ehtimol, kimningdir otasi bolangizni oilaviy sayohatga olib chiqishdan yoki u bilan shunchaki gaplashib olish yoxud do‘stlashishdan xursand bo‘lar. Otaning ahloqiy qiyofasi bolaning hayotiga ulkan ta’sir ko‘rsatadi. Agar oilada ota bo‘lmasa, bu bo‘shliqni bolangizga munosib ibrat ko‘rsata oladigan boshqa kishi bilan to‘ldirish aqlli ish bo‘lardi.

Endi esa barcha onalarga murojaat qilamiz: bolangiz otasini qay tarzda ko‘rishni xohlashi ko‘p darajada sizga bog‘liq. Siz katta hukmronlikka egasiz, ya’ni otaning bolalaringizga sevgisini qo‘llab-quvvatlash yoki uning hurmat-e’tiborini barbod qilish va farzandlar nazarida noshud qilib ko‘rsatishingiz mumkin. Eringizning ota sifatidagi ahamiyatini taqdirlang. Bu uning uchun zarur. Buni hatto uning o‘zi ham to‘liq tushunmasa kerak. Uning so‘zlariga xayrixohlik bildiring, bolalar oldida u haqda faqat yaxshi gaplarni ayting. Sabr-bardoshli, dono bo‘ling va uning bolalar yonida bo‘lishini qo‘llab-quvvatlashda davom eting.

[a]Gap bu o‘rinda Josh Makdauellning “The Father Connection” (rus tilida “Vzaimosvyaz s otsom” deb tarjima qilingan) kitobi haqida bormoqda. Kitob Dotti Makdauellning faol ishtirokida yozilgan.

## SIZ O‘Z BOLANGIZNI QACHON OXIRGI MARTA BAG‘RINGIZGA BOSGANSIZ?

Bolangiz balog‘at yoshiga o‘tish davriga kelganida, nazaringizda u jismonan va qalban ota-onaga bog‘liq emasdek bo‘lib tuyulishi mumkin. Biroq, ehtimol aynan shu paytda hozir unga har qachongidan ko‘ra “o‘zgarmas sevgi”ga ishonch kerak bo‘lishi mumkin.

Bir qiz otasi haqida qo‘shiq yozib, unda otasining eski kiyimini kiyib yurishini bayon etgan. U o‘zini hech qachon tashlab qo‘ymaydigan va hamisha unga e’tiborini ayamaydigan otasi bo‘lishini xohlagan.

Qiz ulg‘ayganida, “Siniq ko‘ngil tavbasi” nomi bilan shu qo‘shiqni kuylagan. Iqtidorli xonanda kinoda o‘ynagan, qamoqxonaga tushgan va ozodlikka chiqqach “o‘zini qo‘lga olish” uchun ko‘niktirish jarayonlaridan o‘tgan. Aytish joizki, agar sizni aktrisa, bastakor va xonanda Lindli Loxanning nojoiz harakatlari taajjubga solsa, unga chuqurroq nazar tashlang, ana shunda ota mehriga hanuz tashna qizni ko‘rasiz.

Bir noyob iqtidorli besh yoshli bolakay to‘rtta aka-ukasi bilan televizion shouda qo‘shiq kuylash uchun mashq qilib ko‘rdi. Ota ularni boshqarib turishga urindi, biroq bolalar uning ko‘rsatmalarini hamisha ham to‘g‘ri tushunmasdilar. Besh yoshli bola qaysidir bir o‘rinda tushuncha olmoqchi bo‘ldi. “Otajon...” - u endi og‘iz juftlaganida, otasi shu zahotiyoq uning gapini bo‘lib qat’iy ohangda dedi: “Men endi senga ota emasman - men sening menedjeringman. Buni bilib qo‘ygin”. Va Maykl Jekson bu so‘zlarni butun umr yodida saqlab qoldi.

U o‘limidan bir necha yil avval Oksford universitetida o‘zi yaqinda tuzgan “Help the Children” fondi bilan batafsilroq tanishtirish maqsadida taxminan sakkiz yuzta talabalar qarshisida chiqish qildi. Chiqish so‘zining o‘n beshinchi daqiqasida o‘zini boshqarolmay ho‘ngrab yubordi. So‘ngra u harqalay o‘zini qo‘lga oldi va buni aytish uchun hech bir asos yo‘qdek tuyulsada, shunday dedi: “Men otam bo‘lishini xohlardim, xolos. Uning sevgisini ko‘rishni xohlardim. Lekin undan biror marta ham, “Mayk, men seni yaxshi ko‘raman”, degan so‘zlarni eshitmadim[8].

Pul va shon-shuhratdan ham, tengdoshlar tomonidan tan olinishdan ham yoki bolalaringiz orzu qilgan boshqa narsadan ham ko‘ra ular uchun yonida ekanligingizni anglash, sevgingiz barqaror ekanligini bilishlari muhimdir. Bu esa bolalaringiz himoyasi uchun o‘zingiz o‘rnatgan qoidalardan voz kechishingizni yoki cheklovlar haqida unutishingiz kerakligini anglatmaydi. Ular o‘zlarini xavfsizlikda his etishlari uchun qoida va chegaralar zarur, ammo bu regulyatorlar ularga sizning yaqin munosabatlaringiz doirasida bo‘lmog‘i kerak. Bolalaringizga bo‘lgan sevgingiz qudrati ular uchun to‘g‘ri, chuqur ahloqli qarorlar qabul qilishlarida sababkor omil bo‘ladi.

Mazkur so‘zlarni o‘qib bo‘lganingizda, bolangizning - ehtimol, u o‘smirlik yoshidadir - oldiga borib, uni bag‘ringizga bosing. Mayli, bundan taajjubga tushsin! U qo‘llaringiz taftini his qilib, sizdan shu so‘zlarni eshita qolsin: “Men seni yaxshi ko‘raman”. So‘ngra farzandingiz ko‘z oldida har kuni sevgidan ibrat ko‘rsatishni o‘z-o‘zingizga va’da bering. U hamisha yonida ekaningizni his qilsin, barqaror sevgingizni ko‘rib tursin. Sizning yaqin munosabatlaringiz uning aniq fikrga kelishiga, maqbul qadriyatlarni o‘zlashtirishiga va to‘g‘ri yashashiga imkon beradi.

Aniq-ravshanki, buni bajarishdan ko‘ra aytish oson. Albatta, biz -ota-onalar va jamoat yetakchilari - har bir farzand bilan qalin munosabatlar o‘rnatish muhim hayotiy ahamiyatga ega ekanligini bilamiz. Biroq, buni *qanday* hal etish, qanday bajarish - butunlay boshqa masala! Buning uchun yana ko‘plab kitoblar kerak bo‘lishi mumkin. Shu bois, biz bu o‘rinda nafaqat bunday munosabatlarning zarurligini qayd etibgina qolmay, hech bo‘lmaganda ham, ularni yaratish asoslariga sizni o‘rgatishni istaymiz. Keyingi bobda bayon etiladigan aksariyat so‘zlar biz Dik Dey bilan hammualliflikda yozgan “Farzandlar nazarida qanday qilib qahramon bo‘lish mumkin”[a] kitobidan olingan. Biz o‘sha kitobni yozganimizdan buyon farzandlarimiz ulg‘ayishdi, o‘zlari oila qurishdi. Va ulardan munosabatlar qurilishi uchun biz qo‘yishga uringan o‘sha g‘ishtlar hayotlariga qanday ta’sir ko‘rsatganini so‘zlab berishlarini so‘radik. Biz bilan birgalikda qoling.

---

[a] Josh Makdauell va D.Deyning “Farzandlar nazarida qanday qilib qahramon bo‘lish mumkin” kitobi (asl nusxadagi nomlanishi “ How to Be a Hero to Your Kids”) rus tilida bir necha bora nashr etilgan.

## 5 bob

# YAQIN MUNOSABATLAR QURISH UCHUN G‘ISHTLAR

“Mayli, agar men o‘z bolalarim bilan yaqin munosabatlar qursam, ular hamisha to‘g‘ri qaror qabul qilishlariga, to‘g‘ri yashashlariga va faxrlansa arzigulik hayot kechirishlariga kafolat bering”.

Afsuski, biz bunday kafolat berolmaymiz. Biz shunday demoqchimiz: yaxshi maslahatlarga amal qiling, bolalaringiz bilan yaqin bo‘ling, bu esa ularni toabad qalb azobidan himoya qiladi, natijada ularga haqiqiy baxt keltiradi. Ammo biz buni ham va’da berolmaymiz.

Sizning barcha urinishlaringizga qaramay, bolalar baribir sizni va qadriyatlaringizni rad etishlari mumkin. Biroq biz har holda nimalarnidir aytamiz: agar siz bolalaringiz bilan sog‘lom munosabatlar o‘rnatishga bor kuchingizni bag‘ishlasangiz va ular bilan jinsiy aloqa haqida aql bilan suhbatlashsangiz, sizning omad borasidagi imkoniyatlaringiz anchayin yuqori bo‘ladi. Siz bu borada bir qancha muhim qadamlarni tashlang va inson zotining dushmani jinsiy aloqa borasida bolalaringiz uchun tayyorlagan tuzoqlardan o‘tib olishlariga umid bag‘ishlang.

Quyida biz “yaqin munosabatlar qurish uchun g‘ishtlar” deya nomlagan qisqacha mazmunni keltirib o‘tamiz. Maslahatlarimizni amalda qabul qiling va bolalaringiz so‘zlaringizni qabul qiladigan bo‘lishadi, negaki shuni bilishadi va his qilishadi: siz haqiqatdan ham ular haqida qayg‘urayapsiz[a].

### 1. FARZANDINGIZNING QIZIQISHLARINI O‘RGANING

- Josh, bu ish bermayapti, - bir ota menga shunday shikoyat qilib qoldi. - Men vaqt sarfladim, ya’ni shu vaqtni o‘g‘lim bilan o‘tkazdim, lekin barcha urinishlar befoyda ketdi.

- Siz birgalikda nima qildingizlar? - aniqlab olmoqchi bo‘ldim.

- Xo‘sh, men golf o‘ynashni yaxshi ko‘raman, - dedi u. - Shu bois, uni o‘zim bilan maydonchaga olib bordim, bu esa hammasini butunlay barbod qildi.

- Nima, o‘g‘lingiz golf o‘ynashni yoqtiradimi? - so‘radim men.

- Yo‘q, ammo men yaxshi ko‘raman, - javob qaytardi omadsiz ota.

U o‘g‘lini o‘z dunyosiga - bolasi bundan juda uzoqda bo‘lgan golf dunyosiga - olib keldi va halokatli oqibatga duchor bo‘ldi. Nima uchun? Negaki bola bir narsani tushundi: otani faqat “otaga yoqadigan” mashg‘ulotlar qiziqtiradi. Agarda biz aksincha yo‘l tutib, *bolamizning qiziqishlariga kirisha olsak, bu bilan unga shunday degan bo‘lamiz: “Menga sening o‘zing va senga yoqadigan hamma narsalar qiziqarli”.*

> Men, Kelli, Makdauellar oilasida to‘ng‘ich farzandman. Endilikda, o‘zim turmushga chiqqanimda va shaxsiy mavqeimni qurayotganimda, o‘tmishga nazar tashlab, ota-onam men bilan yaqin munosabatlarni qay tariqa izlashganlarini ko‘rish qiziqarli, albatta. Misol uchun, shunday paytlar bo‘lganki, bizlardan uchtamiz futbol o‘ynaganmiz, tag‘in hammamiz turli jamoalarda. Bizlar tez-tez haftasida oltitagacha o‘yinlarni o‘tkazishimizga to‘g‘ri kelardi, lekin onamiz har birimizni o‘sha o‘yinlarga doimiy ravishda olib borardi. Bu ona uchun qanchalik “zavqli” ekanligini hatto tasavvur qilolmayman.
>
> Biroq har safar o‘yinga yoki mashg‘ulot o‘tkazishga borayotganimizda, onam shunday xitob qilardi: “Qoyil! Bugun futbol o‘ynaysan! Men senga muxlislik qilaman! Bu juda ajoyib!” Albatta, onamiz bizni sevishiga va qiziqishlarimizni baham ko‘rayotganiga biz shubha qilmasdik.
>
> Yodimda, snoubording bilan qiziqib qolganimda, bir voqea ro‘y bergandi. Men va singlim yangi snoubordlarni sinab ko‘rishimiz uchun, otam bizni o‘zi bilan tog‘ chang‘isi kurortiga olib bordi. Otamiz bizni bir chekkadan kuzatib turadi deb o‘ylagandik, axir u ashaddiy chang‘ichi emas edi. Men navbatdagi do‘nglikdan oshib o‘tayotganimda, otam orqamizdan kelayotganini ko‘rib qoldim! Jag‘im shaqillab ketdi! Otam hayotda chang‘ida uchmagandi, lekin u bizni hayron qoldirishni juda istagani uchun tog‘ cho‘qqisiga chiqib bizlar bilan birgalikda yelib kelardi. Xayriyatki, u

---

[a]Yanada batafsilroq puktlar Josh Makdauell va D. Deyning “Farzandlar uchun qanday qilib qahramon bo‘lish mumkin” kitobida ko‘rib chiqiladi.

oyoqlarini sindirib olmadi! Uning ushbu harakati men bilan singlimga ko‘p narsani ayon etdi. Otamiz qiziqishlarimizni baham ko‘rishini va uning uchun qadrli ekanimizni amalda ko‘rsatdi.

O‘smirlar o‘rtasida rejalashtirilmagan homiladorlikning oldini olish Milliy Kampaniyasi tashkilotchilari ota-onalarga shunday da’vat bilan murojaat qilishdi: “O‘smirlarga e’tibor bering, ularning qiziqishlariga kirib boring. Ularning sport musobaqalariga qatnashing, qiziqishlari haqida ko‘proq bilib oling, hatto kichik muvaffaqiyatlari bo‘lsa ham ulardan hayratlaning; ularning hayotida kechayotgan voqealarga befarq emasligingizni bildiradigan savollar bering”[1]. Shunday yo‘l tutingki, bolalar sizni tinglashga, sizdan o‘rganishga va sizdan ibrat olishga tayyor bo‘lsinlar.

## 2. FARZANDINGIZNI QABUL QILING

Bu bema’ni bir tushga o‘xshardi. Men (Dotti) ko‘z oldimda tutayotgan kapotga qarab, jimgina muz qotgandim. Meni g‘ijim kulchaga aylangan metall qurshab olgandi. Hattoki bundan menga shikast yetganini ham tushunmasdim. Yana kimgadir ziyon yetdimikan? O‘shanda yoshim endigina o‘n oltida edi va otamning mashinasini pachaqlab qo‘ygandim.

Tabiiyki, yuz bergan voqea haqida otamga aytishdan qo‘rqardim. U nima deydi? “Doroti, nega bunday qilding?” Yoki: “Nahotki yo‘lga e’tibor berishning iloji bo‘lmagan bo‘lsa?” Yoki: “Darvoqe, sen qanday tezlikda haydaganding?” Yoki: “Bilasizmi, yosh xonim, bu endi menga qanchaga tushadi?” Lekin otam umuman bu kabi gaplarni aytmadi. Uning dastlabki so‘zlari shunday bo‘ldi: “O, Doroti, senga shikast yetmagani qanday yaxshi!” Otam takror va takror menga hech nima bo‘lmaganidan nihoyatda xursand ekanligini aytardi. U biror marta ham meni so‘kmadi, avtomobiliga shikast yetganidan zorlanmadi. Hech qachon unutmayman: hatto o‘n olti yoshimda ham yo‘lda e’tiborsizlik qilganimda mendan yuz o‘girmadi.

*Bolani qanday bo‘lsa, shundayligicha qabul qilsak, unga o‘zining xavfsizlikda ekanini his qilish tuyg‘usini beramiz*. Qabul qilmoq - insonni qanday yo‘l tutgani uchun emas, balki kim ekanligi uchun qadrlash demakdir. O‘zini hech qanday shartlarsiz qabul qilinganini his etgan bolalar ochiq muloqotga, ota-onalarga ishonishga ko‘proq moyil bo‘lishadi. Men ana shunday qabul qilinganlik muhitida o‘sganman va shu bois, nimaiki yuz bermasin, doimo meni yaxshi ko‘rishlarini his qilganman.

Havoriy Pavlus yozgan: “Masih sizlarni O‘z birodarlariday qabul qilgani kabi, sizlar ham bir-biringizni birodarlarday qabul qiling” ( Rimliklar 15:7). Xo‘sh, Masih sizni *qanday* qabul qiladi? Hech bir shartlarsiz, siz qanday bo‘lsangiz shu tarzda, so‘gal yoki boshqa nima bo‘lishidan qat’iy nazar. Albatta, Xudo gunoh ishlaringizni tashlab, yo‘g‘ri yo‘l tutishingizni istaydi. Biroq bizning kamchiliklarimiz Uning sizga bo‘lgan sevgisiga va siz faqatgina Uning o‘g‘li yoki qizi bo‘lganingiz uchun qabul qilishiga ta’sir ko‘rsatmaydi. Buni anglash xavfsizlikning hayratomuz his-tuyg‘ularini berishi to‘g‘ri emasmi? Samoviy Otangiz sizni muhokama etmasligini bilsangiz, U bilan muloqot qilishingiz yengil ko‘chmaydimi axir? Agar siz ham bolalaringizni hech qanday shartlarsiz qabul qilishingizni tez-tez namoyon etib tursangiz, farzandlaringiz ham xuddi shunday tuyg‘uni his etadilar

## 3. FARZANDINGIZ UCHUN VAQT AJRATING

Siz bandmisiz? Har doim o‘zingizni sillasi qurigan otdek his qilasizmi? Bir sutka ichidagi soatlar barchasiga ulgurishingiz uchun yetmayaptimi? Shunday tuyuladiki, bizning davrimizda vaqt yanada shiddat bilan o‘tmoqda.

Men (Josh) haddan ziyod band bo‘lganim bois bolalarim bilan suhbatlashib olishni necha bora orqaga surganimni hisoblay olmayman. “Hozir emas, Shon, men ma’ruzamni tayyorlashim kerak. Keyinroq gaplashib olamiz”. “Keti, bir uchrashuvda qatnashishim uchun shaharga borishim kerak... Hammasi tugaganidan so‘ng suhbatlashamiz”. “Xizer, hozir mavridi emas: men aeroportga chiqish uchun jomadonlarimni tayyorlayapman”. “Kelli, hozir juda charchaganman, kechki ovqatdan so‘ng gaplashib olamiz, maylimi?” Bunday so‘zlarni aytib, men aslida ishlarim o‘zim uchun muhimroq ekanligini bildirganman. Endi esa bu haqdagi xotiralar yuragimni ezadi.

Bola uchun sevgi - eng avvalo unga ajratiladigan vaqt ekanligini bilasizmi? *Bolaga vaqt ajratgan holda, biz unga o‘zining muhimligi haqidagi tuyg‘uni hadya etamiz*. U bilan muloqotni orqaga surganimizda, aslida shunday degan bo‘lamiz: “Men seni yaxshi ko‘raman, ammo o‘z hayotimdagi ko‘pgina narsalarni yaxshi ko‘rgan darajamda emas”.

Hayot o‘zining barcha talablari bilan bizga har safar barcha ishlarimizni tashlab, bolalarimizga ular xohlaganicha e’tibor qaratishga imkon bermaydi. Biroq biz ularga o‘zlarining nihoyatda muhim ekanliklarini ko‘rsatishimiz lozim, buning eng afzal usullaridan biri - o‘z vaqtimizni ularga bag‘ishlashdir.

Men, Keti, Makdauellar oilasidagi uchinchi farzandman. Otam sayohatlarda ko‘p bo‘lgan va har doim ham yonimda bo‘lmagan, shunday bo‘lsada uning men bilan telefon orqali o‘tkazgan suhbatlari yodimda. Men ta’til chog‘ida birga sayr qilganlarimizni eslayman. Otam uyda bo‘lganida, deyarli hamisha meni darsdan so‘ng o‘zi olib kelardi, bir safar esa ot-aravada kelib, meni banan shirinligi bilan siylash uchun restoranga olib borgandi. Hattoki ota-onalarning ishlari haddan ziyod ko‘p bo‘lsa ham, bolaga o‘zining muhimligini his ettirish uchun hamisha yo‘l topiladi. Endilikda men ham o‘z yaqinlarimga vaqt topish uchun hamma narsani qilishga tayyorman.

## 4. BOLANGIZNING TUYG‘USINI JIDDIY QABUL QILING

Men, Xizer, Makdauellar oilasida eng kenjasiman. Men hozirda ulg‘ayib qolgan bo‘lsamda, hamma narsaga biroz badiiy tus berishga moyilman, o‘rta maktabdagi o‘quvchilik davrimda esa his-tuyg‘ularim mutlaqo beqaror bo‘lgan. Qandaydir o‘n daqiqa ichida baxtiyorlik holatidan zerikish holatiga tushishim yoki buning teskarisi bo‘lishi mumkin edi. Ammo, bilasizmi, onam hech qachon tuyg‘ularimni yerga urmagan. Men his-tuyg‘ularimni hamisha ham o‘rinli tarzda bildirmaganman, ba’zan esa mutlaqo nohaq bo‘lganman. Lekin onam meni aybdor qilmagan - azoblanganimda yoki umidsizlikka tushganimda u yonimda qolib, meni hissiy jazavalarim bilan birga jiddiy qabul qilgan. Uning borligi tufayli o‘zimni tushunarsiz va yolg‘iz his etmaganman.

Biz, ota-onalar, har doim ham farzandlarimizning tuyg‘ularini baham ko‘ravermaymiz, lekin bu tuyg‘ulari haqiqiy ekanligini tasdiqlashimiz mumkin. O‘smirning hayotiy tajribasi o‘zining qarama-qarshi ichki dunyosi bilan to‘qnashganida, ko‘pincha yosh yigitlar va qizlar nazarida *haqiqiy* tuyuladigan tuyg‘ularning shiddatli ko‘tarilishiga sabab bo‘ladi, biz ana shu tuyg‘ularni tushunishga uringanimizda, muloqot uchun ko‘prik qurgan bo‘lamiz. *Farzandimizning tuyg‘ularini jiddiy qabul qilib, biz unga o‘zimizdek teng huquqli ekanligini, ayniqsa, qadrli, sevimli, nimani his etayotgan bo‘lsa, bunga to‘la haqqi bor inson ekanligini aytgan bo‘lamiz.* Uning hayrati, hayajoni yoki umidsizlikka tushganini so‘z bilan ifodalashga yordam berib, biz uni tushunayotganimizni va uning ichki olami bizga ahamiyatli ekanini ko‘rsatamiz. Bu o‘smirga o‘z his-tuyg‘ularini hal etishiga yuqori darajada samarali yordam ko‘rsatadi, uni tushunayotganlari va qabul etayotganlari haqidagi tuyg‘ularni beradi.

## 5. FARZANDINGIZNI QO‘LLAB-QUVVATLANG

Oilada to‘ng‘ich bo‘lish va bobo-buvilarning e’tiboridan to‘yib huzurlanish yaxshi, albatta. Har holda, bizning kenja nabiramiz Skotti Jeyms singlisi Shona tug‘ilmagunicha shunday hisoblagan bo‘lsa kerak.

Men (Dotti) ularga yaqin joyda yashardim va vaqti-vaqti bilan Skottini ko‘rgani borib turardim. Uning singlisi tug‘ilganida, qo‘shni bo‘lib yashayotganimizdan ikki hissa ko‘proq xursand bo‘ldim. Shona juda nozik qizaloq edi, uch yoshli Skotti esa unga tashlanishni va o‘z bag‘rida uni birozgina qattiq qisishni xush ko‘rardi. Men uni hech qachon shunday “hujum”lari uchun koyimaganman. Buning o‘rniga uning oldiga borib, qo‘limga olardim va singlisining boshini yoki kaftini qanday siypash mumkinligini ko‘rsatardim. So‘ngra esa uni maqtovlarga ko‘mib tashlardim: “Barakalla, Skotti! Sen qanday mehribon akasan-a! Buving sen bilan faxrlanadi!” Nevaramning quvonchdan yuzi yorishib, go‘yo shunday demoqchi bo‘lgandek ma’noli bosh irg‘ab qo‘yardi: “Rahmat, buvijon, sizning maqtashingizni intizor bo‘lib kutayotgandim”

Garchi qabul etish ishonchli munosabatlarning asosi bo‘lsada, qo‘llab-quvvatlashni ularning poydevori deya hisoblash mumkin. *Biz qo‘llab-quvvatlashni ifodalagan holda, farzandimizga o‘zining ahamiyatli ekanligi*, nimalar qilgani yoki qandaydir munosib so‘zlarni aytgani borasidagi tuyg‘ularni hadya qilamiz. O‘smirni qanday bo‘lsa shundayligicha qabul qilish - uning *borligining* o‘zi siz uchun muhim ekanligi haqida unga tushuncha bermoqlik demakdir. Farzandingiz harakatlarini maqtash - uning *ishlari* siz uchun muayyan qiymatga ega ekanligini o‘ziga bildirish demakdir. Bolangiz biror yaxshi ish qilganini ko‘rganingizdayoq uni maqtang. Siz qanchalik tez-tez shunday qilsangiz, qachondir yomon ish ustida qo‘lga tushirishingiz ehtimoli shuncha kam bo‘ladi.

## 6. FARZANDINGIZGA MEHR KO‘RSATING

Hayotning ajoyib muqaddimasi nima o‘zi - rosa to‘qqiz oyni inson taftining qurshovida o‘tkazish! Siz ona qornida biror lahza ham o‘zingizni tashlandiq va yolg‘iz his etmagansiz. So‘ngra, tug‘ilganingizdan so‘ng, siz har holda, ona qo‘llarining taftini his etgansiz. Va siz ham, farzandingiz ham butun hayotingiz mobaynida bunday erkalikka ehtiyoj his etasiz.

*Farzandimizga mehr ko‘rsatib, biz mayin so‘zlar va silab-siypashlar bilan u sevgiga munosib ekanligini o‘ziga anglatamiz.* Har safar ana shunday mehr ko‘rsatish siz va bolangiz o‘rtasidagi qalb rishtalarini yanada mustahkamlaydi va unga sevimli ekanligini anglashiga yordam beradi.

Biz “men seni yaxshi ko‘raman” so‘zlarini turlicha usulda - bolani quchoqlab, chakkasidan mehr bilan chimchilab, yelkasiga qo‘limizni qo‘yib - aytishimiz mumkin Mehrli so‘zlar va silab-siypashlar qaysidir tarzda bizni bir-birimiz bilan bog‘laydi, yaqinlik tuyg‘usini singdiradi. Har holda, o‘z o‘rnida ko‘rsatilgan mehr-muhabbat yaqin insonimizga ochilishimiz uchun yordam beradi va hech nima odamlar o‘rtasidagi devorlarni bunday yaqinlik kabi tez buzolmaydi. Kalomning bizga shunday saboq berishi taajjubga solmaydi: “Bir-biringiz bilan o‘pishib ko‘rishinglar” (Rimliklar 16:16).

## 7. FARZANDINGIZDAN SO‘RAB KO‘RING

Men, Shon, Makdauellar oilasidagi yagona o‘g‘ilman. Men ham qabul qilish, tushunish, vaqt ajratishga tayyorlik, qo‘llab-quvvatlash, mehr ko‘rsatish asosida qurilgan mustahkam aloqalar uchun ota-onamdan minnatdorman. Biroq, bundan tashqari, bizni mas’uliyatga o‘rgatishganidan xursandman.

Yodimda, bir kuni nojo‘ya qiliq ko‘rsatdim... Bu boshlang‘ich maktabda yuz bergandi. Futbol jamoamizda meni yoqtirmaydigan bir necha bolalar bor edi. Sababini bilmayman, ammo ular meni ochiq-oydin pisand qilmay, o‘zimni e’tibordan chetda qolgandek his etishga majbur qilishardi. Bir kuni dars vaqtida o‘qituvchimiz Karlson xonim ikkala “ashaddiy do‘stlarim”ni koyib berdi.

O‘qituvchi doska tarafga burilganida, menda jamoadosh o‘rtoqlarimning tarafini olish fikri tug‘ildi. Balki, shu bois bolalar meni payqab, qadrimga yetishadi deya o‘yladim. Va men Karlson xonimga o‘rta barmog‘imni ko‘rsatdim. Bu “qahramonlik” e’tibordan chetda qolmadi.

Darsdan so‘ng darhol barcha sinfdoshlar - jamoadosh ikkala o‘rtoq ham - qandaydir mashhur odamni qurshagandek, hayrat bilan atrofimni o‘rab olishdi. Muammolar esa bu haqdagi gap-so‘zlar ota-onamga yetib borganidan so‘ng boshlandi.

Onam va otam menga tanbeh berishmadi, kechki ovqatdan yoki shirinlikdan mahrum qilishmadi, bolalar xonasiga yuborishmadi. Buning o‘rniga o‘z yaqinlariga meni o‘tirg‘izib, nima qilganim va nega bunday qilganimni xotirjam so‘ray boshlashdi. Ushbu suhbat davomida o‘qituvchiga nisbatan qanchalik hurmatsizlik ko‘rsatganimni angladim.

Xatoimni tan olish oson edi. Ammo ota-onam buyurganini bajarish, - yo‘q. Ular butun sinf huzurida, shu bilan birgalikda, bolalar oldida Karlson xonimdan kechirim so‘rashim kerakligini aytishdi. Otam, agar zarur bo‘lsa, men bilan maktabga birga borishini aytdi. Men o‘zim uddalashimni aytdim. Bu men uchun kamsitilish edi. Biroq buning sharofati ila, men qilmishim uchun javob berishim haqida bilib oldim.

Bundan tashqari, yana bir bonusga ega bo‘ldim: jamoadosh o‘rtoqlar mening kechirim so‘rashim ular o‘z hayotida ko‘rgan eng qoyilmaqom ish bo‘lganini aytishdi, shundan so‘ng ular chindan ham do‘stlarimga aylanishdi.

Farzandlar bilan munosabatlar o‘rnatishimiz uchun ularga mehr berishimiz, qo‘llab-quvvatlashimiz, qabul qilishimiz, vaqt ajratishimiz va qiziqishlariga kirib borishimiz kerak. Shu bilan birgalikda, agar shaxsiy chegaralarni o‘rnatishda yaqin munosabatlarni qurish g‘ishtlari tekis qo‘yilmasa, bolalar o‘zlariga mas’uliyat olishni o‘rganishmaydi. *Biz farzandimizdan uning hatti-harakatlari haqida sevgi ila so‘raganimizda, unga mas’uliyat tuyg‘usini singdiramiz.*

O‘z hatti-harakatlari uchun hisob berishga majburiyat chegaralari ortida o‘smir o‘zini xotirjam va xavfsiz his qilishi mumkin. Bolalar o‘zlariga mas’uliyatli va to‘g‘ri qarorlar qabul qilishlariga yordam beradigan sevuvchi ota-onalarining va boshqa katta yoshdagi g‘amxo‘r kishilarning obro‘-e’tiboriga ehtiyoj sezadilar.

## MUNOSABATLAR KO‘P NARSANI O‘ZGARTIRADI

Bizdan hech kim qobiq ichida qaror qabul qilishga o‘rgana olmaydi. Xudoning maqsadiga ko‘ra, bolalar ota-onalari bilan yaqin munosabatlar va sevgi holatida ezgulikni yovuzlikdan ajratishni o‘rganishlari kerak. “Nikohgacha bo‘ladigan jinsiy aloqadan qochgin” deb, shunchaki aytish yetarli emas. Oralaringizdagi munosabat qanchalik qalin bo‘lsa, ogohlantirishlaringiz va uqtirishlaringiz shunchalik samarali bo‘ladi. Kitobning keyingi qismi hayotiy muhim omil - jinsiy aloqa borasida turli maslahat va fikrlarni o‘zida jamlagan bo‘lib, bunda aynan yuqorida qayd etilgan yettita g‘ishtdan iborat poydevor asosida qurilgan yaqin munosabatlar doirasida suhbat qilishga sizlarni da’vat etamiz.

2 QISM

# SUHBATLASHMOG‘INGIZ UCHUN MASLAHAT VA G‘OYALAR

## 6 bob

# BOLANGIZNING HATTI-HARAKATIGA KIM YOKI NIMA TA’SIR QILADI?

Biz *1-bobda* bayon etganimizdek, zamonaviy bolalar ijtimoiy tarmoqlarning rivojlanishi tufayli kompyuter sichqonchasini bir bosib, jinsiy aloqa haqidagi eng buzuq tasavvurlarni olishlari mumkin. Tag‘in bolalar ongiga “atrofdagi hamma shunday qiladi” degan fikr singdirilmoqda. Ko‘pincha kino va televideniyeda bunday ahloqsizlik hech bir salbiy oqibatlari bildirilmagan holda tasvirlanmoqda. Ommaviy axborot vositalarining ochiq ekanligini hisobga olgan holda, ular farzandingiz hatti-harakatlariga ta’sir qiluvchi omillardan biri ekanligini taxmin qilish mumkin.

Balki farzandingizning o‘zini tutishiga ko‘proq uning do‘stlari ta’sir o‘tkazayotgandir? Tengdoshlar bosimi - qudratli kuch. Yoki, ehtimol, unga ko‘proq Teylor Svift yoxud Zak Efron kabi qahramonlar, ya’ni kino yulduzlari, musiqachilar, sportchilar va boshqa shu kabi mashhurlar ta’sir ko‘rsatayotgandir?

Balki siz hayron bo‘larsiz, ammo milliy onlayn-tadqiqotlar ko‘rsatishicha, 45% yosh yigit va qizlar taqlid qilish uchun namuna sifatida... o‘z ota-onalarini tanlashgan. Umumiy yengiltaklik tarzi avjiga chiqqan bir paytda o‘tkazilgan so‘rovlar shuni ko‘rsatdiki, faqat 32% o‘smirlar maslahat so‘rab do‘stlariga murojaat qilishadi va 15% yoshlargina taniqli shaxslardan ibrat olishadi[1].

Aslida, so‘rovlarning ko‘rsatishicha, yigirma besh yoshgacha insonning hatti-harakatlariga ko‘proq otasi bilan yaqin munosabatlar ta’sir ko‘rsatadi[2]. Bu ma’lumotlar ona bilan munosabatlar muhimligini pasaytirmaydi - ular faqatgina otaning ta’siri kuchli ekanligini ifoda etadi.

Monrealdagi “Sainte-Justine” universiteti klinikasi huzuridagi tadqiqot markazi olimi doktor Jan-Iv Frappening yozishicha, “ota-onalar farzandlariga ta’sir o‘tkazishdagi o‘z ahamiyatlarini yetarli baholay olishmayotganga o‘xshaydi”[3].

Afsuski, tadqiqotlarga ko‘ra, “15%dan kamroq ota-onalargina o‘z farzandlari bilan jinsiy aloqaga doir masalalarni muhokama etishadi”[4]. Shu bilan birgalikda, o‘smirlar “avvalgidek o‘z ota-onalarini jinsiy aloqa haqidagi ma’lumotlarning eng ishonchli va tuganmas manbai deya hisoblaydilar”[5]. Ya’nikim, bolalar o‘qituvchilar, cho‘ponlar yoki tengdoshlarini ham nazarda tutgan holda boshqa birovga emas, ota-onasiga ko‘proq ishonadilar, *biroq* ayni vaqtda tadqiqotlarning ko‘rsatishicha, “aksariyat ota-onalar o‘z zimmalaridagi mas’uliyatdan yuz o‘girganlar. Buning o‘rniga taxminan 1940-yillardan boshlab amerikalik bolalar uchun jinsiy aloqa haqidagi ma’lumotlar manbai tengdoshlari va ommaviy axborot vositalari bo‘lib qolgan”[6].

Shunday bo‘lsa ham, Florida Universiteti tadqiqotchilari tomonidan siz uchun yaxshi xabar bor: “Biz bu masalada qanday o‘ylamaylik, aksariyat o‘smirlar ota-onalarining aytgan gaplarini *eshitishadi*”[7].

Bir narsa endi ayon: *o‘smirlar ota-onalarini eshitishadi*. Bizning nazarimizda vaqti-vaqti bilan bunday emasdek tuyulishi mumkin, lekin bolalar bizni kuzatishadi va bizni eshitishadi. Tadqiqotlardan birining natijasiga ko‘ra, “o‘smirning jinsiy aloqadan o‘zini tiyib turishining asosiy sababi - ota-onasining buni ma’qullamaganidir[8]. Endi bilib olganlaringizni nazarda tutgan holda, farzandingiz uchun jinsiy aloqa haqidagi ma’lumotlarning asosiy va ilk manbai aynan o‘zingiz bo‘lishingiz kerak ekanligi sizga mutlaqo ayon bo‘lgandir?

Taniqli cho‘pon Mark Driskoll va uning xotini Greys bir paytlar bir kuni jiddiy fikr bildirishgandi: “Bolalar jinsiy aloqa haqida ko‘proq maktablarda yoki jamoatlarda bilib olishadi. Biroq bola jinsiy aloqa haqida gaplashib oladigan *birinchi* inson hamisha uning masihiy ota-onasi bo‘lishi kerak”[9]. Farzandlarimiz jinsiy aloqa haqida bilib olishlari kerak bo‘lgan eng maqbul joy - uydir. Kalom ham aynan shuni aytadi: “O‘g‘lim, otang nasihatlariga quloq sol, onang o‘gitlarini rad etma” (Hikmatlar 1:8). Ayonki, *Xudo masihiy ota-onalar o‘z farzandlari uchun birinchi ustoz bo‘lishlarini,* shuningdek, jinsiy hayot borasidagi masalalarda ham murabbiylik qilishlarini istaydi.

Sizga ota-ona sifatida o‘ta ehtiyoj sezadigan bolangizga saboq berish uchun Xudo bergan ajoyib javobgarlik bor. Bolangizning jinsiy aloqaga nisbatan sog‘lom munosabati, to‘g‘ri fikri, qadriyatlar va yo‘l-yo‘riqlar uning uchun siz bera oladigan eng ulug‘ mukofotlardan biri bo‘lishi mumkin.

Yoshlar tarbiyani jamoat yoki maktab dasturlari doirasida olishlari shart emas... Tarbiya oilalarda unib-o‘sishi kerak. Bola jinsiy aloqa haqida biror nimani murabbiydan emas, ota-onasidan eshitishi kerak. Va yodingizda tuting: bolangiz bilan jinsiy aloqa to‘g‘risida suhbatlashasizmi yoki yo‘qmi, boshqalar unga bu haqda *aniq* aytib berishadi, ehtimol, ayni shu paytda ham gapirishayotgandir.

**7 bob**

# BOLANGIZ JINSIY ALOQA HAQIDA KIMDAN BILISHNI XOHLAYDI?

Siz balki jinsiy aloqa muhokama uchun nihoyatda nozik va qaltis mavzu, shu bois bolalar o‘z ota-onalaridan ko‘ra chetdagi boshqa odamlar bilan bu haqda osonroq suhbat qilishlari tabiiy deb o‘ylayotgandirsiz.. Ammo bu shunday emas.

Mana, “The Henry J.  Kaiser Family Foundation” nimalarni xabar qiladi:

> Tibbiy tadqiqotlar va jamiyat salomatligi ma’lumotlariga ko‘ra, bolalar avval o‘z ota-onalariga ma’lumot, maslahat va tavsiyalar so‘rab murojaat qilishadi, faqat balog‘at yoshiga yetganlaridagina ular, odatda, ko‘proq do‘stlariga, ommaviy axborot vositalariga va oiladan tashqaridagi boshqalarga quloq soladilar[1].

Milliy kampaniyaning o‘smirlardagi rejalashtirilmagan homiladorlikni bartaraf qilish doirasidagi tadqiqotlariga ko‘ra, “o‘smirlar ilk munosabatlar bosqichida ko‘proq yo‘l-yo‘riq va bilimlar olishni ota-onalari va boshqa yoshi kattalar bilan tez-tez maslahatlashib turishni istashadi”[2].

Umidbaxsh yangilik shundan iboratki, agar ota-onalar imkon qadar barvaqt o‘z bolalari bilan yaqin, iliq munosabatlar o‘rnatishsa, ular balog‘at yoshida boshqa mavzular qatori jinsiy aloqalar masalasida ham do‘st-tanishlarining maslahati, internet-targ‘ibot va ommaviy axborot vositalariga emas, balki ota-onalarining fikriga ko‘proq yondashadilar. Autizm muammosini o‘rganadigan “Talk” instituti qayd etadi: “Aksariyat o‘smir yigit va qizlar ota-onalari ular uchun jinsiy aloqa haqidagi ma’lumotlarning asosiy manbai bo‘lishlarini ma’qul ko‘rishadi”[3].

Amerikada o‘tkazilgan  bir demografik tadqiqotga ko‘ra, 67% o‘smirlar ota-onalarining fikrlariga yon bosishga tayyordirlar. Milliy kampaniyaning o‘smirlar o‘rtasida rejalashtirilmagan homiladorlikni bartaraf etish bo‘yicha o‘tkazgan savol-javoblarida, yoshlar o‘z ota-onalaridan jinsiy aloqa borasida ko‘proq maslahatlar olish istagida ekanliklarini bildirishgan[4]. “ABC News” axborot korporatsiyasining yaqinda aniqlashicha, “gap jinsiy aloqalar va u bilan bog‘liq hatti-harakatlarga borib taqalganida, o‘smirlar ko‘p hollarda o‘z ota-onalarining fikrini yuqori o‘ringa qo‘yishadi”[5]. Bolangiz jinsiy hayot haqida o‘zingizdan bilib olishni ma’qul ko‘radi. Xudo sizga bolangizning jinsiy aloqa borasidagi tasavvurini shakllantirishdek imkon va faxrli huquq bergan.

**8 bob**

# FARZAND BILAN JINSIY ALOQA HAQIDA GAPLASHISH NEGA ZARUR?

Bolangiz ertami kechmi o‘zining jinsiy maylga ega tabiati haqida xabar topadi, shu bois masala uning buni bilishi xususida emas, balki buni qay tariqa va qanday holatda bilishi haqidadir. Bizda farzandimizga jinsiy aloqa haqida sog‘lom tushuncha berish imkoni bor, aks holda bolada bu haqdagi buzuq tasavvurlar olish ehtimoli ko‘proq bo‘ladi.

Samarali tarbiya Markazi tadqiqotchilari quyidagi xulosaga kelishgan:

> Farzandlari bilan jinsiy aloqa mavzusini muhokama qilishdan qochadigan ota-onalar ularga teskari ta’sir ko‘rsatishadi. Bolalar bu holatda jinsiy aloqa qandaydir ahmoqona ish degan xayolga borishadi va bu ularning butun hayotiga ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Ular bu haqdagi ma’lumotlarni boshqa joydan izlay boshlaydilar, bu ma’lumotlar esa chala yoki yolg‘on bo‘lishi mumkin[1].

Yozuvchilar Robert Kruks va Karla Baur qayd etishlaricha, ota-onalar farzandlariga jinsiy aloqa mavzusini faol yoritib borganlarida, “bolalar va o‘smirlar jinsiy aloqa haqida (ko‘p hollarda noto‘g‘ri) ma’lumot olish uchun o‘z tengdoshlariga murojaat qilish oqibatida keladigan muayyan zararlar darajasini kamaytiradi”[2].

Bu haqiqat: ota-onalarini diqqat bilan eshitadigan, ular bilan jinsiy hayot haqida ochiq gaplashadigan bolalar keyinchalik jinsiy aloqa jabhasida kam ehtimol bilan tavakkal qilishadi. Demak, bolalaringiz jinsiy aloqa haqida *haqiqiy* ma’lumotlarni sizdan olishadimi yoki boshqa birovdan *yolg‘on* gaplarni eshitadilarmi, hamma gap ana shunda.

Darvoqe, aslida siz bolangizga jinsiy aloqa haqida ko‘p narsalarni aytasiz, hattoki jim turganingizda ham. Bola gaplaringiz bilan birga, tilingiz bildirayotganini, hayotiy qarashlaringizni, odamlar bilan qilayotgan munosabatlaringizni, bolalaringizning do‘stlari haqidagi sharhlaringizni, siz televizordan ko‘rayotgan yoki Internetdan tanlayotgan mavzularni ma’lumot tariqasida o‘ziga singdirib oladi - bularning hammasi uning uchun bilimlar manbaiga aylanadi.

Yoshlar bilan ishlash bo‘yicha mutaxassis Meggi Rut Boyer bu fikrni aniq ifodalagan:

> Siz hamisha o‘g‘il-qizingizga o‘zaro munosabatlar va jinsiy aloqa haqida hayot tarzingiz, muloqot uslubingiz, odamlarga beradigan bahoingiz, ularga yaqinlashish usullaringiz orqali nimalarnidir o‘rgatasiz. Demak, garchi bu haqda biror so‘z aytilmasada, suhbat baribir bo‘lib o‘tadi. Shuningdek, ishoralaringiz ta’siri kuchini va mehr ko‘rsatish mahoratini ham nazardan chetda qoldirish kerak emas[3].

Demak, bolalar bilan hatto jinsiy aloqa haqida gaplashmasak ham, ular baribir sizni “eshitishadi”, negaki vujudingiz tili va harakatlaringiz ba’zan so‘zlaringizdan ko‘ra “balandroq” gapiradi.

Men (Josh) yaqinda Torontodagi “Youth for Christ” tashkiloti filialida qirq yil ishlagan Pol Robertson bilan suhbatda bo‘ldim. Uning ma’lum qilishicha, aksariyat yoshlar jinsiy yaqinlik haqida ota-onalariga tuyulganidan ko‘ra ko‘proq biladilar. Jinsiy aloqa haqidagi suhbat - ular hayotining bir qismi, xususan, bobo-buvilarining hayotiga qaraganda anchayin odatiy. Polning aytishicha, bolalar aksariyat hollarda bu mavzudagi suhbatlarda ular bilan jinsiy aloqa haqida gaplashishga urinadigan ota-onalariga nisbatan o‘zlarini ancha xotirjam tutishadi.

Ota-onalar ko‘pincha shikoyat qilishadi: “Bola bilan jinsiy aloqa haqida gaplashish juda og‘ir!...” Shunda men darhol javob qaytaraman: “A-ha, siz shunday hisoblaysizmi?” Gapimga ishonavering, bu shunday jumlalar bilan solishtirganda hech nima emas: “Ona, men homiladorman” yoki “Men OITSga chalindim”. Mana bu *chindan ham* suhbat uchun qiyin mavzu!” Keyinchalik yanada keskinroq mavzular bilan to‘qnashgandan ko‘ra, farzand bilan hali kichkina bo‘lganida qiyinroq suhbat qilib olgan afzal.

9 bob

# JINSIY ALOQA HAQIDAGI SUHBATLAR BOLANI BU BORADA TAJRIBA QILIB KO‘RISHGA UNDAMAYDIMI?

Shundan ehtiyot bo‘lish mutlaqo tabiiyki, bola jinsiy aloqa haqida o‘tkazilgan suhbatdan so‘ng hirsiy mayl uni tajriba qilib ko‘rishga undaydi.  Biroq tadqiqotlar va bizning shaxsiy tajribamiz buning aksini ko‘rsatmoqda.

Yaqinda o‘tkazilgan so‘rovlarga ko‘ra, “jinsiy aloqa haqida yaxshi xabardor va o‘z ota-onasi bilan bu haqda bemalol gaplashadigan o‘smirlar jinsiy munosabatga shoshqaloqlik bilan yaqinlashmaslikka ko‘proq moyildir”[1]. “The Journal of Adolescence” bu fikrlarni davom ettiradi: “Qaysiki o‘smirlarga ota-onalari jinsiy aloqa borasidagi chegaralar va qoidalarni  muhokamadan o‘tkazib bergan bo‘lsalar, ular ota-onalari bunday yo‘l tutmagan tengdoshlariga nisbatan o‘zlarini tiyishga ko‘proq moyildirlar”[2].

Ko‘plab ota-onalar jinsiy aloqa haqidagi suhbatlar bolani bunga rag‘batlantiradi deya hisoblashadi, biroq “bolangiz sizning nazaringizda “tayyor” bo‘lib qolgandek tuyulmagunicha ma’lumotlarni berkitib tursangiz, u sizdan ko‘ra bu haqda kamroq biladigan yoki boshqacha fikrlaydigan chetdagi odamlarga murojaat qilib mustaqil tarzda ko‘proq bilish va haqiqat o‘rnida noto‘g‘ri ma’lumotlar olish ehtimolini ko‘paytirgan bo‘lasiz”[3].

“The Journal of Adolescence” tashkiloti o‘tkazgan tadqiqotlarga ko‘ra, “ota-onalar jinsiy aloqa haqida haqiqatni gapirganlarida, bolalar...

- o‘smirlik yoshida jinsiy aloqalarga kirishishga kamroq moyillik bildirishadi.
- o‘smirlik yoshida homilador yoki barvaqt ota bo‘lish holatlari kamroq yuz beradi.
- ota-onalari bilan o‘z hayotlaridagi boshqa muhim muammolarni ko‘proq muhokama etishadi”[4].

Bolangiz bilan hamisha halol, g‘amxo‘r va ochiq bo‘lishga, shuningdek, jinsiy mayl kabi Xudoning bunday ajoyib in’omi haqida gaplashib olishga imkon qadar barvaqt qaror qabul qiling. Bu bilan siz uni buzuq jinsiy aloqa qilishga rag‘batlantirmaysiz - siz bunga qarshilik qilasiz.

## 10 bob

# QAYSI YOSHDA JINSIY ALOQA HAQIDA GAPLASHISH “VAQTI KELADI”?

Siz qachon farzandingiz bilan jinsiy hayot haqida gaplashishni boshlashingiz mumkin? Ehtimol, siz buni juda barvaqt qilish yoki umuman “haddan oshirib yuborish”dan xavfsirayotgandirsiz. Boshqa taraflama, bu borada kech qolish va “tobiga keltirmay” qolish ham yomon. Xullas, qaysi yoshda jinsiy aloqa haqida gaplashishning “ayni vaqti” keladi?

O‘smirlar bilan mohirona ish olib boradigan doktor Margaret Steyjer bu savolga shunday javob beradi:

> Qanday jamiyatda yashayotganimizni e’tiborga olsak, shoshqaloqlikdan va hozirda tez-tez yuz berayotganidek, bolaga nihoyatda ko‘p ma’lumotlar berishdan ko‘ra ochiq suhbatlardan qochish anchayin xavfli. Bolalar bizning qarashlarimiz, qadriyatlarimiz va umidlarimizdan hali bexabar bo‘lganlarida ularga yanada kattaroq xavf tahdid soladi. Ota-onalar bolalarining maktabda yoki o‘yin maydonida o‘zaro baham ko‘radigan ma’lumotlarini nazorat qilish imkoniga ega emaslar, bolalar esa jinsiy aloqa haqida gaplashishadi. Biroq farzandingiz tanaffus chog‘idagi suhbatlarda yoki hatto maktabdagi to‘lov evaziga beriladigan saboqlarda ham jinsiy aloqa haqida to‘g‘ri tasavvur olishiga umid bog‘lash aqldan emas[1].

Shu tariqa, bizning davrimizda har kim ham “shoshilish”ning uddasidan chiqavermaydi, muammo esa ko‘proq bu masalada kechikib qolishga bog‘liq. Oilaviy masalalarga oid bir so‘rovnomaning ko‘rsatishicha, “40% dan ko‘proq o‘smirlar ota-onalari xavfsiz jinsiy aloqa haqida ular bilan *gaplashib olishgunicha* jinsiy aloqada bo‘lishgan”[2].

Zamonaviy dunyo madaniyati sharoitlarida bolalarimiz o‘zlari uchun jinsiy aloqa va shunga muvofiq hatti-harakatlarni tobora ertaroq o‘zlashtirib olishmoqda, siz esa bu haqda ularga birinchi bo‘lib va albatta, tegishli tarzda aytib berishingiz lozim. Afsuski, farzandingiz qanchalik darajada “xabardor” ekanligini bilish uchun bu mavzuda suhbat qurishdan boshqa usul mavjud emas.

Akrondagi bolalar kasalxonasining bolalar va o‘smirlar ruhshunosi doktor Laura Rokerning faraz qilishicha, “jinsiy aloqa borasida tushuncha berish bola tug‘ilganidan boshlab berilishi kerak Bolalarni jinsiy a’zolar va tananing boshqa qismlarini to‘g‘ri aytishga o‘rgatish lozim. Ularda muammo tug‘ilganida, bu bo‘lg‘usi suhbatlar uchun yordam beradi”[3]. Ammo voqealarni tezlashtirish ham to‘g‘ri kelmaydi: bolani tafsilotlarga ko‘mib tashlash aslo shart emas - uning savollariga javob berishning o‘zi yetarli. Qo‘shimcha ma’lumotlar kerak bo‘lganida esa, siz bu haqda bilib olasiz: hoynahoy, o‘g‘lingiz yoki qizingiz bu haqda gapirib qoladi.

Bilimsizlik xavfli va zarar keltirishi mumkin, bilim esa ota-onalik sevgisi bilan uyg‘unlikda farzandingizga jinsiy aloqa - Xudo maqsadining bir qismi ekanligini tushunishga yordam beradi.

Tajribada juda oddiy sinalgan qoida shunday: agar bolalar hali yosh bo‘lganlarida ular bilan gaplashib olinsa, ulg‘ayganlarida suhbatlashish maroqli bo‘ladi. Bu fikrning aksi ham to‘g‘ri. Muallim va notiq Syu Simonson bu haqda shunday yozadi: “Agar biz ikki-uch yoshli bolalarning savollariga javob bermasak, ular o‘n ikki va o‘n uch yoshlarida savol bermay qo‘yishadi”[4]. Agar bolangizni balog‘at yoshiga yetishini kutsangiz, ikkalangizga ham jinsiy aloqa haqida suhbat qilish o‘ta noqulay bo‘lsa kerak.

Vashingtonlik ota va murabbiy Joys Kilmer shunday deydi: “Bolalar bilan (jinsiy aloqa haqida) gaplashib olishning eng yaxshi yo‘li - ular taajjubga tushadigan darajada kichik bo‘lishlari kerak. O‘shanda sizga ham oson bo‘ladi, uch, to‘rt, besh, olti yoshli bolakay ham ma’lumotlarni xotirjam qabul qiladi. Bolalar maydonchasida begona qiqir-qiqirlarni obdon eshitib o‘tkazgan bir necha yillaridan so‘ng juda kech bo‘lib qolishi mumkin”[5].

Agar siz to‘g‘riso‘z bo‘lib, jinsiy aloqa mavzusini o‘z bolalaringiz bilan ularning tushunchasi darajasida muhokama etsangiz, *siz* farzandlaringiz nazarida hamisha savol bilan murojaat qilsa bo‘ladigan mutaxassis bo‘lib qolasiz. Ular ulg‘aygani sayin, sizga ishonishadi va tinglashadi. Farzandingiz uchun yagona “jinsiy aloqani tushuntiruvchi” bo‘lib qolishning iloji yo‘q, biroq siz uning hayotidagi birinchi, asosiy va muhim axborot manbai bo‘lib qolishingiz kerak.

Endilikda o‘zi ham maktabgacha yoshdagi bolalarini tarbiyalayotgan qizimiz Keti o‘z tajribasi bilan o‘rtoqlashadi: “Siz jinsiy aloqa haqida ochiq va oddiy tilda gapirishni qanchalik barvaqt boshlasangiz, keyinchalik bolalaringizda yanada jiddiyroq masalalar ko‘tarilganida sizga yengilroq bo‘ladi”.

Xizer shunday deydi (bizning kenja qizimiz, yaqinda yigirma olti yoshga to‘ldi): Ota-onam men bilan jinsiy aloqa mavzusida ilk bora qachon gaplashganlarini aytish qiyin: bu masalada pashshadan fil yasab, barcha o‘zini noqulay his etadigan aksariyat oilalardan farqli tarzda, yodimda qolgani faqat shuki, biz bu mavzuda tez-tez suhbat qilib turardik”.

## YOSHNI EMAS, QIZIQISH DARAJASINI E’TIBORGA OLING

Kichik yoshdagi bolalar aka-opalariga nisbatan to‘g‘ridan-to‘g‘ri javoblarga va ertaroq bo‘ladigan suhbatlarga ehtiyoj sezadilar. Nima uchun? Uka-singillar bu haqda aka-opalaridan, do‘stlaridan, shuningdek, katta yoshdagi bolalaringiz bilan jinsiy aloqa haqida gaplashganingizda, o‘zingizdan ham eshitishadi. Shu bois, yoshga qarab emas, balki ko‘proq har bir muayyan vaziyatda ma’lumotlarning yetkazilish darajasiga qarab bu masalani muhokama qilgan afzalroq.

O‘zingizning ota-onalik sezgingizga amal qiling. Oxir-oqibat, sizni hech kim o‘z bolangizdan yaxshiroq bilmaydi. Darvoqe, men (Josh) bu borada Dottining dono so‘zlarini diqqat bilan tinglashim kerakligini anglab yetdim. Biz avvaldan bolalarimizdan har biri bunday suhbatga tayyor ekanligini, uning aynan nimalarni bilishi zarurligini muhokama etardik. Dotti menga yanada ochiqroq, to‘g‘riso‘z va ziyrak bo‘lishimga yordam bergan. *Har qanday* bolaga muayyan ma’lumotlarni bildirish uchun aniq bir yosh belgilanmagan. Buning sinoati har kuni yuz beradigan imkoniyatlardan foydalanish bilan bog‘liq.

Jinsiy aloqa haqida o‘zingizga maqbul tarzda gapiring. Barcha bolalar bir-birlaridan farq qilishadi. Yodingizda saqlang: ularni tafsilotlarga ko‘mib tashlash shart emas. Ma’lumotlarni muayyan vaqt mobaynida berib borgan yaxshi, bunda har bir qisqacha suhbat keyingilari uchun sabab bo‘lsin. Siz har bir suhbat orqali bolangizni o‘z jinsiy maylini to‘g‘ri tushunish sari yana bir qadam tashlagan bo‘lasiz.

Ushbu ikkala fikrni yodingizda saqlab qoling:

1. O‘z bolasiga “juda ko‘p va juda barvaqt” so‘zlab bergan ota-onalar ehtimol kamdir, ammo jinsiy aloqa haqida “juda kam va juda kech” aytib berish holatlari ko‘proq yuz beradi.
2. Siz aksariyat ota-onalar nazarda tutganidan ko‘ra, yanada ochiqroq bo‘lishingiz, imkon qadar ko‘proq to‘g‘ri javoblar berishingiz kerak. Misol uchun, uch yoshli bola aytilgan so‘zlarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri qabul qiladi va “onaning qornida go‘dak bor” so‘zlariga shunday savol bilan murojaat qilishi mumkin: “Onam nega go‘dakni yeb qo‘ydi?” Bolaning birgina tushunchasi shundayki, “go‘dak onam qornidagi ovqatlar bilan birga”. Bunday vaziyatda bolaga oddiygina to‘g‘ri javobni aytib qo‘yish yetarli bo‘ladi.

“Keeping Kids Healthy” dasturi doirasida bolalarning qanday fikrlashiga oid ajoyib bir o‘rinli sharh keltirilgan:

*Ikki yoshdan besh yoshgacha:*

- Odatda, bu yoshdagi bolalarda o‘z tanalariga nisbatan qiziqish uyg‘onadi va bolalar qayerdan paydo bo‘lishi haqida o‘ylashni boshlashi mumkinligini e’tiborda tuting.
- Ularga qisqacha javoblar zarurligi yodingizda bo‘lsin. Ko‘plab ma’lumotlar berib yuborishning hojati yo‘q - hali o‘ta yosh bola bularning hammasini tushunolmay chalkashib qolishi mumkin.
- Tana a’zolarining to‘g‘ri aytilishidan foydalaning.
- Bolalaringizning ishonchini qadrlang, ularning bilim olishga bo‘lgan intilishlarini hurmat qiling.
- Har doim ulardan savollari yana bor-yo‘qligini so‘rang[6].

*Besh yoshdan sakkiz yoshgacha:*

- Bolaning bu yoshida ota-onalar o‘zlari bu jarayonni juda qisqa bayon etishlari mumkin: “Ikkita kap-katta odam er-xotin bo‘lishsa, bir-birlarini sevishsa, bir-birlariga sodiq bo‘lishsa, ular quchoqlashib, o‘pishishdan zavq olishadi, shuningdek, er o‘zining olatini ayolining qiniga kiritsa, ikkalasi ham huzur qilishadi”. Bu so‘zlardan keyin bolakay “fu!” deb nari ketsa ham zarari yo‘q. Bu oddiy hol.
- Muhimi shundaki, hamisha undan yana savollari bor-yo‘qligini so‘rash lozim.

Nikoh va oila masalalari bo‘yicha maslahatchi, doktor Kori Allen shunday yozadi: “Jinsiy aloqa haqida gapirayotganda, bolangizning yoshi va bunga tayyorligi darajasini e’tiborga oling. To‘rt yoshli bola jinsiy aloqaga doir barcha tafsilotlarni bilishi shart emas, ammo siz uning kelajagi uchun yaxshi poydevor qo‘yishingiz mumkin... Bola tushuna olmaydigan ma’lumotlarning aksariyat qismi keyinga surib qo‘yiladi va navbatdagi suhbatlarda o‘zlashtirib olinadi. Yana shu gap, har bir tafsilotni tushuntirish shart emas, lekin kelgusidagi so‘rovlarga tayyor turing”[7]. Va asosiysi, o‘zingizni bo‘sh qo‘ying. Tanangiz tili ko‘p narsalarni gapiradi. Bolangiz siz xotirjam va o‘zingizga ishonchingiz borligini his qiladi. Bunday vaziyatda u vaqti-vaqti bilan ko‘tarilgan mavzuga qaytadi.

Va yodingizda bo‘lsin: bolangiz necha yoshda bo‘lmasin, u bilan Xudoning ajoyib in’omi - jinsiy aloqa haqida gaplashib olish o‘rinli. Unga go‘dakligidayoq jinsiy aloqa haqida gapirib bering, ana shunda u bilan kelajakdagi ishonchli munosabatlaringizga poydevor solgan bo‘lasiz.

## 11 bob

# “JIDDIY SUHBAT” QILISHGA URINISH KERAKMI?

Kimdir mening yelkamga turtdi:

- Janob Makdauell, ma’ruzangiz uchun sizga katta rahmat. Men hech qachon bunday fikrlarni eshitmagandim. - Men hozirgina “Yalang‘och dalillar” kitobi bo‘yicha seminarni yakunlagandim, tinglovchilardan biri bo‘lmish bu ayol esa “eshitganlarini amalda qo‘llash”ga hozirlanayotganini menga bildirdi. U shunday dedi: - Erimdan o‘g‘limiz bilan bu haqda jiddiy gaplashib olishini so‘rayman.

Umid qilamanki, ovozim unchalik tashvishli yangramagan bo‘lsa kerak, har holda, aniqlashtirib olmoqchi bo‘ldim:

- O‘g‘lingizning yoshi nechada?

- O‘n uchda, - dedi ayol.

Taajjubli ko‘rinishimni katta kuch bilan yashirishimga to‘g‘ri keldi.

- Sizlar hanuzgacha u bilan jinsiy aloqa mavzusini u bilan muhokama qilmaganmisizlar? - so‘radim men.

U aytdi:

- Ha, shunday ... Buning uchun vaziyat hech to‘g‘ri kelmagan.

“Jiddiy suhbatlar”ning vaqti allaqachon o‘tib ketgan, u o‘z-o‘zidan kelmasdi ham! “Journal of Family Issues” shunday xabar qiladi: “50% o‘smirlargina  o‘tgan oyda onasi bilan jinsiy aloqa haqida “jiddiy gaplashib olgan”ini eslaydi, ularning uchdan bir qismigina o‘z otalari bilan bir marta “jiddiy suhbat” bo‘lganini yodiga olgan[1].

Masala jinsiy aloqa mavzusini yoritishga borib taqalganida, bir marotaba o‘tkazilgan bunday “suhbat” bilan ish bitmaydi, aksincha, bu o‘z vaqtida aylanishi kerak bo‘lgan jarayon va ma’lumotlarni kichik-kichik bo‘lakda berib turgan afzal. O‘tib ketishi mumkin bo‘lgan vaziyatlarni qo‘ldan boy bermang va savollarni kelib chiqishiga qarab muhokama eting. Aksariyat hollarda bolalar uzoq cho‘ziladigan pand-nasihatlarga toqat qilolmaydilar. “Jiddiy suhbat” bolaning xayolidan shunchaki chiqib ketishi mumkin - har qalay, xuddi shunday ham bo‘ladi.

Bolalaringizga jinsiy aloqa haqida qay tarzda gapirib berish yaxshiroq ekanligini bilasizmi? Bu joyidan o‘ttiz soniya, u joyidan bir daqiqa, yana o‘n soniya bu joydan, ikki daqiqayu qirq besh soniya u joydan - va shu tariqa imkon qadar avvalroq boshlayverish lozim. Qandaydir mavzu yuzaga chiqsa - muhokama eting va keyingi safargacha e’tibordan chalg‘iting. Pashshadan fil yasash kerak emas. Bizning oilamizda jinsiy aloqa haqida bolalar bilan o‘tkazgan barcha suhbatlarimizning deyarli yarmi ikki daqiqadan oshib ketmagan.

Odatga ko‘ra, jinsiy aloqa mavzusi bolalarni asta-sekin, bosqichma-bosqich qiziqtirish bilan boshlanadi. Ular juda kam hollardagina hammasini va darhol aytib berishlarini talab qilishadi. Ular uchun ma’lumotlarni ulg‘ayish darajasiga ko‘ra, doimiy muloqotlar davomida o‘zlashtirib borish osonroq. Shunday bo‘lsa ham, savollar noqulay joyda va eng noo‘rin vaziyatda yuzaga chiqishiga tayyor bo‘ling.

“Hattoki men zo‘r berib urinsam ham, - deydi o‘g‘limiz Shon, - baribir ota-onam bilan jinsiy aloqa haqida ilk bora qachon suhbatlashganimni eslay olmayman. Gap shundaki, oilamizda bu tabiiy ravishda bo‘lib o‘tardi. Biz bu haqda hamma vaqt gapirmagan bo‘lsakda, agar bu haqdagi savol tushlik vaqtida, mashinada yoki uyqu oldidan berilsa ham, ota-onamiz bunga shunchaki javob berib qo‘yishardi. Bu odatiy muloqotimizning bir qismi sifatida qabul qilingandi. Shu tariqa, mening hayotimda biror marta ham “jiddiy suhbat” bo‘lmagan”.

FamilyFire.som saytining moderatori Deb Koster jinsiy aloqa mavzusiga sog‘lom yondashish mohiyatiga shunday xulosa bergan:

> Biz oilamizda bolalar bilan kichik yoshda ekanliklarida bu mavzu (jinsiy aloqa) bo‘yicha xotirjam va yumshoq muhitda suhbatlashishga harakat qilardik, shu bois, “katta jiddiy suhbat”ga hatto zaruriyat ham tug‘ilmagan. Ya’ni, biz bolalarimiz har qanday savol bilan oldimizga bemalol kelishlariga va bunga to‘la-to‘kis javob oladigan muhit yaratgandik[2].

Muqaddas Kitobda bolaga ilohiy haqiqatni yetkazishning eng samarali usuli aniq ko‘rsatilgan: “Bularni bolalaringizga ham o‘rgatinglar. Ular o‘tirganda ham, yo‘lda yurganda ham, yotganingizda ham, turganingizda ham shu haqda gapiringlar” (Qonunlar 6:7). Hatto ota-onalar Milliy uyushmasi ham Muqaddas Kitobning

bunday andazasiga qo‘shiladi:  “Odatda, kichik bolalar har bir muayyan vaqtda ma’lumotlarni kam-kam ravishda qabul qila olishlari mumkin, ma’lum mavzuda o‘rganishlari lozim bo‘lganining hammasini ular darhol o‘zlashtira olishmaydi[3].

Jon Xopkins Universiteti qoshidagi Maykl Blumberg jamoat sog‘ligini saqlash Maktabining “O‘smirlarni sog‘lom rivojlantirish Qo‘llanmasi”da quyidagi asosiy qoidalari taklif etiladi:

1. Farzandlaringiz bilan doimo muloqotda bo‘ling.
2. Kichik yoshdagi bolalar bilan ma’lumotlarni asta-sekin va kamroq hajmda baham ko‘ring.
3. Hali o‘rganilmagan jihatlarni qamrab olishga urinmang. Mana, “Ona, chaqaloq qorindan qanday chiqadi?” savoliga qisqa va oddiy, ammo aniq va to‘g‘ri javob berishning o‘zi yetarli, misol uchun: “Go‘dak ona qornidan tashqariga qin deb ataladigan teshik orqali chiqadi”.
4. Bolalar ulg‘ayish yoshiga qarabyanada ochiqroq va batafsil tushunchalarni qabul qilishga qodir bo‘ladilar.
5. Odamlarga beriladigan savollar tezkor, ammo yumshoq javoblarni talab qiladi. Misol uchun: “Mana, siz sakkiz yoshli qizingiz bilan odamlarga liq to‘la kafeda mazali salat iste’mol qilyapsiz, shunda u to‘satdan baland ovozda so‘rab qoladi: “Ona, oral jinsiy aloqa nima o‘zi?”, shunda siz sholg‘omdek, balki undan battar qizarib ketasiz”[4].

Bu kabi vaziyatda, “ovozingni o‘chir, salatingni yegin” jumlasi bilan vaziyatdan chiqib bo‘lmaydi. Dastavval vahimaga tushmaslikka va haddan ziyod hayron bo‘lmaslikka harakat qiling. Asosiysi, suhbatlashishdan bosh tortmang. Buning o‘rniga darhol javob bering yoki xotirjam tarzda ayting:  “Azizam, ota (ona) bu haqda senga aytib beradi, faqat ovqatlanganimizdan so‘ng”. Va so‘ngra so‘zingizda turishni unutmang.

Men (Dotti) yosh onalar bilan, shuningdek, o‘z qizlarim bilan ham baham ko‘radigan fikrlardan biri shunday: siz farzandingiz bilan o‘z e’tiqodingiz haqidagi suhbatni qandaydir alohida “qulay vaziyat” uchun keyinga surib qo‘yarmidingiz? Axir, siz har bir qulay vaziyatda aniq maqsad va sevgi ila unga Muqaddas Kitob haqida, Xudo haqida so‘zlab berasiz-a? Jinsiy aloqa mavzusi ham xuddi shunday bo‘lishi kerak. Birgina “jiddiy suhbat” kelajakda sizni bolalarning savollaridan xalos etishiga umid qilmaslik kerak. Jinsiy aloqa - bu ertaroq, tez-tez, katta sabr-bardosh, donolik, sevgi, ba’zan esa hazil bilan murojaat qilish lozim bo‘lgan mavzudir. Xullas, xavotir olmang va kalit so‘zlarni eslab qoling: *ertaroq*, *tez-tez* va *ro‘yi-rost*.

## 12 bob

# FARZAND BILAN JINSIY ALOQA HAQIDA GAPLASHILMASA, NIMA RO‘Y BERISHI MUMKIN?

Ikki og‘iz so‘z bilan aytish mumkin: agar siz o‘z bolangiz bilan jinsiy aloqa haqida gaplashmasangiz, buni boshqa birov qiladi. Bola shu yoki boshqacha tarzda albatta siz orqali to‘g‘ri ma’lumotga ega bo‘ladi yoki boshqa manbalardan yolg‘on xabarlarni oladi. Oqibatlar qayg‘uli, hatto fojeali ham bo‘lishi mumkin.

Yozuvchi va cho‘pon Jek Uellmanga quloq tutamiz.

> Men o‘z otamni bilmaganman. Uzoq vaqt davomida men bilan jinsiy aloqa haqida umuman gaplashmagan xolam bilan yashaganman, shu bois do‘stlarim va bolalar maydonchasidagi (yoki shunchaki ko‘chadagi) o‘rtoqlar mening “ustozlarim” bo‘lishgan.
>
> Har holda, men nimaiki bilgan bo‘lsam, haqiqatga aloqador bo‘lmaganga o‘xshaydi. Yodimda, birinchi sinfda o‘qiganimda, qizlar o‘pishishdan homilador bo‘lib qolishlarini menga aytishgandi. Shundan so‘ng qizaloqlarga teginishdan uzoq vaqt qo‘rqib yurganman, o‘pishish haqida-ku gapirmay qo‘ya qolay. Shu darajada jaholatda edimki, har safar o‘z xolam meni o‘pganida qo‘rquvga tushib qolardim.
>
> Shu bois, bolangiz bilan suhbatni keyinga surmay, hayron bo‘lmasdan gaplashib olgan yaxshi: ular jinsiy aloqa haqida baribir bilib olishadi. Hoynahoy, bu yolg‘on ma’lumotlar bo‘lib chiqadi. Siz shunday bir xavfsiz va ishonch muhitini yaratingki, farzandlaringiz taajjub yoki qo‘rquv sezmasdan har qanday savol bilan murojaat qilishsin. Bu har qanday mavzudagi, ayniqsa jinsiy aloqa haqidagi suhbat uchun eng yaxshi sharoitdir[1].

Xudo jinsiy aloqa haqida sizga oilaviy iliq sharoitda bolangizga so‘zlash va shu tariqa Jekning xayolida bo‘lgan chalkashliklardan asrashingiz imkonini bergan Biroq siz bunday mas’uliyatdan bosh tortsangiz, u boshqa manbalarga murojaat qiladi. Misol uchun, besh milliondan ko‘proq pornografik saytlar mavjud bo‘lgan Internetga murojaat qiladi, biz *1-bobda* qayd etib o‘tganimizdek, pornografik saytlar bolaga jinsiy aloqa haqida nomaqbul va ahloqsiz buzuq tasavvurlar beradi. Ular tag‘in qaramlikni keltirib chiqarishi mumkin.

Bu qanchalik qayg‘uli bo‘lmasin, ayrim ota-onalar pornografiyaning zararini shubha ostiga olishadi yoki rad etishadi. “Xo‘sh, nima *bo‘pti*?” - so‘rashadi ular. Yaqinda bir masihiy pornografiya xavfidan ogohlantirishga javoban menga (Joshga) Twitter orqali shuni yozgan: “Agar biz farzandlarimizga Masih Xushxabarini ishonch bilan yetkazayotgan bo‘lsak, ularning nima ko‘rayotganligi ahamiyatga egamikan? Nega siz Internetdan bunchalik qo‘rqasiz?”

Ko‘plab tadqiqotlar pornografiyaning odamga nobop oqibatlari ta’siri haqida shohidlik bermoqda. 2005 yilda “What`s the Big Deal About Pornography?” kitobining muallifi doktor Jill Menning AQSh senati huzuridagi qo‘mita oldida pornografiyaning zarari haqida ma’ruza qildi, unda pornografiyaning bolalar va o‘smirlarga ko‘rsatayotgan to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sirining salbiy oqibatlari o‘z tasdig‘ini topgan ko‘plab tadqiqotlar misolida keltirib o‘tilgandi. Ular orasida qayd etilgan:

- uzoq davom etadigan salbiy yoki shikastali hissiy ta’sirlar,
- jinsiy aloqaning barvaqt boshlanishi,
- jinsiy aloqa (jinsiy maylga bog‘lanib qolish) haqida yopishqoq xayollar ehtimolining ortishi,
- jinsiy aloqa haqida soxta ma’lumotlar olish ehtimolining ortishi,
- boshqa odamga jinsiy maylini qondirish vositasi sifatida xudbin munosabat[2].

Ushbu qayd etilgan salbiy oqibatlar pornografiyaga bir marotaba yoki vaqti-vaqti bilan qilingan murojaatlar tufayli kelib chiqishi mumkin. Zamonaviy bolalarda ulkan hajmdagi ochiq ahloqsiz materiallarga osonlikcha kirish imkoniyatlari bo‘layotganligi jiddiy xavf tug‘diradi. Ortiqcha ehtiros, odatda, yoshlardagi sezgi hislarini so‘ndiradi. Yoshlar jinsiy aloqaga nisbatan Muqaddas Kitobning haqqoniy qarashlarini va u bilan bog‘liq ahloq yo‘l-yo‘riqlarini o‘zlashtirmay turib, atrofdagilar go‘yo bu borada o‘zlarini hech nimadan tiymasliklariga ishona boshlaydilar. Bu kabi fikrlarni ularga kiberhudud singdirayotganini ta’kidlash joiz.

Biz bolalarimizni ularning ko‘z-quloqlari ertami kechmi ko‘rib-eshitadigan o‘sha yolg‘on va buzuq tasavvurlardan asrab qololmaymiz. Ammo biz farzandlarimiz bilan jinsiy aloqa haqida Xudo mo‘ljallagan tarzda birinchi bo‘lib gaplashsak, bu ularni jinsiy aloqa borasidagi soxta ma’lumotlar ta’siridan, pornografiyaga murojaat qilish va jinsiy ahloqsizlikdan himoya qilishi mumkin.

**13 bob**

# JINSIY ALOQA MAVZUSI BOLANGIZDA HADDAN ZIYOD QIZIQISHNI UYG‘OTSACHI?

Bolalar o‘z tabiatlariga ko‘ra qiziquvchan - kimdir ko‘proq, kimdir kamroq darajada. Va umuman jinsiy aloqada odamni o‘ziga tortadigan, sirli, hayajonga soladigan nimadir borki, bu har birimizda ham qiziqish uyg‘otadi. Shu bois, bolalar “o‘ta qiziquvchan”, bu esa qo‘rqinchli emas. Ularning bilishga chanqoqligini qondirishni rad etsak qo‘rqinchli bo‘ladi.

Bolalarning jinsiy aloqaga doir savollar berib, bunga javob olishni istashlari mutlaqo tabiiy va ma’qul. Ularning qiziqishlarini nazar-pisand qilmaslik bilan bolalarimizni jiddiy xatar ostiga qo‘ygan bo‘lamiz. Yodingizda bo‘lsin: ular baribir javobni qayerdandir olishadi. Oilani qo‘llab-quvvatlash Milliy tibbiyot markazi xodimlarining ta’kidlashicha, “agar siz bolaga jim turish bilan javob bersangiz, uning jinsiy aloqaga bo‘lgan qiziqishi so‘nib qolmaydi. Aksincha, qandaydir mavzuni ta’qiqlash unga bo‘lgan intilishni oshiradi”[1].

Yaqinda o‘tkazilgan tadqiqotlarning ko‘rsatishicha, “o‘n yoshgacha bo‘lgan bolalar odatda jinsiy aloqa borasida faol bo‘lishmaydi va bu haqdagi fikrlar bilan boshlarini qotirishmaydi, lekin ular qiziquvchan, shu bois savollar bilan do‘stlariga, sinfdoshlariga va oila a’zolariga murojaat qilishadi, shu tariqa asta-sekin xayollarida jinsiy aloqa haqidagi eng noo‘rin uydirmalar to‘planishi mumkin”[2].

Bolaning to‘rt yoshdan toki o‘n ikki yoshgacha bo‘lgan davrdagi qiziqishlarining qay tarzda qondirilganligi ko‘pincha uning o‘n ikki yoshdan o‘n sakkiz yosh oralig‘idagi jinsiy maylini belgilab beradi. Jon Xopkins Universiteti qoshidagi Maykl Blumberg jamoat sog‘ligini saqlash Maktabining doktorlari Klea Maknili va Jeyn Blanshar shunday tushuntirishadi:

> Bola uchun eng maqbul yo‘l - ota-onadan javob olish. Qiziquvchanlik bu yoshda hal qiluvchi ahamiyatga ega: zero o‘smirning jinsiy aloqaga daxldor hayoti ko‘pincha olti va o‘n kunlik tug‘ilgan vaqtida oladigan ma’lumotlarga bog‘liq[3].

Farzandning hayotiga va uning bo‘lg‘usi hatti-harakatlariga ta’sir etish imkoniga ega bo‘lish - qanday katta iftixor! Sizning to‘g‘ri javoblaringiz uni haqiqatga barcha narsalardan ko‘ra yaxshiroq o‘rgatadi. Makdauellar oilasidagi umumiy qoida qisqa, oddiy va aniq javoblar berishga yo‘naltirilgan. Bolalik qiziqishlarini qondirish uchun, misol uchun aytsak, qizaloqlarda pastki lab va qin, o‘g‘il bolalarda esa olat va tuxumdon bor. Bolaga “Jinsiy aloqaga doir yuzta savollar” turkumidagi uzundan-uzoq va batafsil tushuntirishlarning hojati yo‘q. Uzun muhokamalar uni zeriktirib qo‘yadi.

Bizning bolalarimiz hali yosh bo‘lganlarida, ularda o‘zlarining jinsiy a’zolari qiziqish uyg‘otardi. Men (Dotti) bolalarni cho‘miltirganimda, har doim tananing har bir a’zosini to‘g‘ri aytardim, jinsiy a’zolar to‘g‘risida ham tirnoqlar yoki tizza haqida gapirgandek mulohaza bilan xotirjam gapirardim. Shu tariqa, biz bolalarimizga o‘z tanasini muhokama qilish mutlaqo oddiy hol ekanligi fikrini singdirganmiz. Bunday to‘g‘rilik ilk bosqichlardayoq kelgusidagi xotirjam bahslar uchun asos yaratgan.

Maktab yoshigacha bo‘lgan bola uchun bu kabi g‘alatiroq ifodalar yetarli bo‘lishi mumkin: “Go‘dak onaning qornida katta bo‘ladi”. So‘ngra yangi savollar tug‘iladi, misol uchun, bola qanday qilib tashqariga chiqishi haqida. “Onam qayt qiladimi?” Yoki: “Otam onamning qornidan chiqadigan telegrammani ochadimi?” Yoki: “Onam chaqaloqni men axlat chiqargandek chiqaradimi?” Bolaga oddiy va to‘g‘ri tushunchalar berish kerak.

Olim-murabbiy Margaret Renkl ajoyib bir javobni taklif etadi: “Bolalar ko‘pincha onasining qinidan chiqib kelishadi”. Mabodo bu javob yetarli bo‘lmasa, qo‘shimcha qilish mumkin: “Qin onaning ichidagi quvurga o‘xshaydi. U juda qattiq cho‘zilganida chaqaloq tashqariga chiqadi”[4].

Farzandlarimiz qaysi yoshda bo‘lishmasin to‘g‘ri javob olishga haqlidirlar, faqat bu javoblar bolaning ulg‘ayish darajasiga muvofiq bo‘lsin. Agar o‘n yoki undan kichik yoshdagi bolangiz ayollar qanday qilib homilador bo‘lishi, prezervativ yoki oral jinsiy aloqa nima ekanligi haqida savol berishsa, qo‘rqish kerak emas. Bu hali uning faol jinsiy hayotga tayyorlanayotganini bildirmaydi. Eng yaxshisi, bilishga qiziquvchanligini

qandaydir xatar deb hisoblamasdan, javob berish kerak, xolos. Aslida sizning jim turishingiz ko‘proq xavfli bo‘lib chiqadi.

**14 bob**

# TANANING AYRIM A’ZOLARIGA “LAQAB” QO‘YILISHIGA QANDAY QARAYSIZ?

Mening (Joshning) “Yalang‘och dalillar” nomli kitobim yuzasidan o‘tkazgan seminarim davomidagi tanaffus chog‘ida oldimga bir cho‘ponning xotini keldi. Uning yuzi qizarib ketgan bo‘lib, ovozi hayajondan titrardi:

- Menimcha, o‘z o‘g‘liga “sening olating” deb aytish o‘ta xunuk. Shaxsan men uni “qushcha” deb atayman.

Men xotirjam javob qaytardim:

- Quloq aslida quloq deb aytiladi, burun - burun, ko‘z - ko‘z, qin - qin, olat esa olat deyiladi. O‘ylashimcha, tana a’zolarining nomini o‘zgartirish mening ishim emas.

Xonim mening nuqtai nazarimni qabul qilmaganligi ko‘rinib turardi.

Bolalar uchun o‘z tana a’zolarini o‘rganish qiziqarli. Muayyan bir yoshga yetganlarida, ular bunday savollarni tez-tez berib turishadi. Ularga javob qaytarayotganda yoki shunchaki suhbat o‘tkazayotganingizda to‘g‘riso‘z bo‘ling - tana a’zolarini to‘g‘ri anatomik nomlari bilan ayting.

Bolalarimiz jinsiy a’zolarini biz ko‘proq “jinsiy” deya atashga urinamiz, shu tariqa tananing bu a’zolari o‘ta shaxsiy, qimmatli ekanligini, hammaning tegishi mumkin emasligi va shunday bo‘lib qolishi kerakligini ta’kidlaymiz.

Bola bilan suhbatlashayotganda, eng boshidanoq to‘g‘ri so‘zlardan foydalangan afzal: olat - bu olat, “og‘ayni” yoki “buyum” emas. Shuningdek, “pastdagi” yoki “o‘sha joy” emas.

To‘g‘ri atamalardan foydalangan holda - olat, tuxumlar, pastki lablar, qin, - siz bir vaqtning o‘zida ularning nega kerak ekanligini farzandingizga tushuntirasiz. Ertami yoki kech, u hammasi haqida bilib oladi, Internet esa keyingi paytlarda bu jarayonni ancha tezlatib yubordi. Axir siz aynan Internet unga qanday tana a’zolari borligi va qanday atalishi haqida tushuntirishini istamaysiz, to‘g‘rimi? Siz o‘zingiz ma’lumot beruvchi hurmatli manba bo‘lishni xohlaysiz, shunday emasmi?

Men (Josh) qizlarimdan biri uch yoshli bo‘lganida u bilan o‘yin o‘ynagandim. Xonaga Dotti kirganida qizimiz nogahon bidirlay ketdi:

- Ona, otam mening pastdagi labimga tegindi!

Dotti yuzida qo‘rquvni aks ettirmaslikka urindi. Men chuqur nafas olib, imkon qadar xotirjam ohangda qizimdan so‘radim:

- Azizam, sening pastki labing qayerda joylashgan?

U kulimsirab o‘z kindigini ko‘rsatdi. Shunda men qizimga oddiy so‘zlar bilan kindik va pastki lab o‘rtasidagi farqni tushuntirdim.

Ha, go‘dak toki o‘z tana a’zolarini o‘rganib hammasini to‘g‘ri eslab qolgunicha bir martalik qisqa suhbat kamlik qiladi. Ammo, agarda siz to‘g‘ri atamalardan foydalansangiz va nimaning nega kerak ekanligini tushuntirsangiz, bolangiz uyalib qolmaydi yoki o‘z tana a’zolarining to‘g‘ri aytilishini eshitganida uyalmaydi.

## 15 bob

# BUNING UCHUN QANCHA BILIM KERAK?

Ha, bizning davrimizda Internetga va boshqa tarzdagi OAVga (uyimizda ham, maktabimizda ham) oson kirish kabi muammo bor, lekin jang hali mag‘lubiyat bilan yakunlanmagan. Bizning vazifamiz va javobgarligimiz - farzandlarimizga jinsiy aloqa borasida Xudoning rejasini batafsil tushuntirish, ularga *aniq* ma’lumotlarni taqdim etishdir.

Dono shoh Sulaymon aytganidek,

Bilimsiz istak yaxshi emas, shoshqaloqlar ham qoqiladi.

*Hikmatlar 19:2*

Qiziq, bolalar bilan jinsiy aloqa haqida to‘g‘ri gaplashish mavzusi bo‘yicha umumiy miqyosda o‘tkazilgan deyarli *barcha* tadqiqotlarning natijalari bir-biriga o‘xshash: agar ota-onalar bolalarini yolg‘on xabarlar bosimidan asrashni istasalar, bundagi eng muhim qadamlardan biri - Muqaddas Kitob ma’lumotlarini ular bilan baham ko‘rishdir, lekin *aniq-ravshan* tarzda, albatta.

Klea Maknili va Jeyn Blansharning “O‘smirlarning sog‘lom rivojlanishi bo‘yicha qo‘llanma”sida shunday deyilgan: “Tadqiqotlarning ko‘rsatishicha, o‘zining jinsiy mayli va reproduktiv salomatlik muhofazasi haqida kengroq tushuncha olgan o‘smirlarning barvaqt jinsiy aloqaga kirishishlari ehtimoli anchayin kam”. Bu o‘rinda shunday xulosa kelib chiqadi: “Haqqoniy va aniq ma’lumotlarni taqdim etish - o‘smirlarda sog‘lom jinsiy aloqani rivojlantirishning kafolatidir”[1].

“Healthy Adolescent Development” jurnalidagi bir maqolada bildirilishicha: “Agar siz o‘smirga o‘zini tushunishida yordam berishni istasangiz, to‘g‘ri ma’lumot va ahloqiy boshqaruv nihoyatda muhim. Ehtimol, bu kelajakda hayot uchun vayronkor, tag‘in halokatli noto‘g‘ri qarorlardan uni asrab qoladi”[2].

Bolalarning jinsiy aloqaga oid hatti-harakatlariga amaliy ta’sir ko‘rsatishning usullaridan biri - ular uchun aniq ma’lumotlar manbai bo‘lish demakdir. O‘z navbatida Jinsiy salomatlik tibbiy instituti ota-onalar uchun aniq ma’lumotlarning keng miqyosdagi manbai hisoblanadi (www.medinstitute.org.) Bolalarning jinsiy mayli bilan bog‘liq jiddiy masalalarni hal etmoq uchun sizga katta kuch kerak bo‘ladi, ammo ishonavering: bu o‘zini oqlaydi. Internet va nikohgacha bo‘lgan jinsiy aloqa targ‘iboti olamida bizning mas’uliyatimiz - bilimdon ota-onalar bo‘lmoqlikdir.

Mabodo bolalar bizni noaniqlikda va nopoklikda payqab qolishsa, bizga ishonchlarini yo‘qotishadi, biz esa ularga ta’sir ko‘rsatishdan ayrilamiz. Ishonchingiz komil bo‘lsin: zamonaviy bolalar ko‘pincha Internet orqali ma’lumotlarni izlab topishadi va ota-onalaridan olgan javoblari bilan ularni taqqoslab ko‘rishadi.

Ha aytgandek, agar siz biror savolga javobni bilmasangiz, vahimaga tushish kerak emas. Buni tan olishdan qo‘rqmang. Siz javob topishingizni va bu suhbatga yana qaytishingizni ayting (faqat farzandingizga aytgan so‘zingizning ustidan chiqing). Yoki hatto javobni birgalikda izlab ko‘rishni taklif eting. Bir-birlaringizga yaqinroq bo‘lish uchun bu qanday ajoyib yondashuv!

Sizga ham nimadir noma’lum ekanligini tan olavering, chunki siz buni aniqlashga urinyapsiz, demak, bolaning sizga ishonchi yanada ortadi. Bu bilan sizning javobingiz unga yanada ishonchliroq tuyuladi.

### MAVZULAR

Quyida ota-onalar hal etishi lozim bo‘lgan masalalardan bir qanchasi keltirilgan, xolos. Tarbiyalash - bu, albatta, ajoyib sarguzasht, lekin jiddiy va mas’uliyatli mehnatdir. Bu borada oson yo‘llar yo‘q.

- Erkak va ayollarning reproduktiv tizimi va anatomiyasining xususiyatlari, hayz va tungi pollyutsiyalar.
- Jinsiy aloqa va homiladorlik.
- Tug‘ilish va tug‘ilishni nazorat qilish.
- Jinsiy aloqaga oid harakatlarning muqobil turlari sifatida oral jinsiy aloqa, masturbatsiya, pettinglarni aytib o‘tish mumkin.
- Jinsiy mayl oriyentatsiyasi (geteroseksuallik, gomoseksualizm va biseksuallik).
- Erkak va ayollarda jinsiy aloqaning jismoniy va hissiy aspektlari qabul qilinishi.

- O‘z-o‘ziga baho berish va tengdoshlar bosimi.
- Tanosil kasalligi.
- Zo‘rlash, shuningdek, uchrashuv vaqtida: bola alkogol yoki giyohvand modda qabul qilishga rozi bo‘lganida, begona odamlar bilan avtomobilga o‘tirib notanish uyga borayotganida to‘qnash keladigan tahdid.
- Kiyimlar tanlovi va o‘smirning hatti-harakatlari uning jinsiy yaqinlikka tayyorligini atrofdagilarga qay tariqa bildirib turadi.
- Prezervativlar.
- His-tuyg‘ular.
- Xudoning haqiqiy sevgi maqsadi.
- Noz-karashma.
- Bularning hammasi haqida Muqaddas Kitob nima deydi.

Samarali tarbiya Markazining xodimlari, ta’lim sohasida mutaxassislar Kristin Zolten va doktor Nikolas Long ota-onalar farzandlarini jinsiy aloqa mavzusi bilan tanishtirishga tayyor ekanliklarini shunday bayon etishadi: “Avvalambor sizning o‘zingiz jinsiy aloqa hayotiga doir masalalarda bilimli bo‘lmog‘ingiz lozim. Ota-onalar bu mavzuni qanchalik yaxshi tahlil etsalar, farzandlarining savollariga shunchalik ishonch bilan javob qaytarishadi. Bunga jinsiy aloqaga doir hayotning barcha jihatlari haqidagi ma’lumotlar tegishli, ya’ni jinsiy a’zolar, bolalash, tug‘ilishni nazorat etish, jinsiy aloqa orqali o‘tadigan kasalliklar va hokazo”[3].

Bu olamdagi hamma narsani bilish shart emas, biroq bizning o‘zimiz yetarlicha bilimga ega bo‘lishimiz va bolalarimizning jinsiy aloqa jabhasidagi savollariga to‘g‘ri javob berishga tayyor bo‘lishimiz kerak.

## 16 bob

# BALKI, AYRIM MAVZULARNI HAR HOLDA TUSHIRIB QOLDIRISH MA’QULDIR?

Bizni, ota-onalarni, ba’zan qanday materiallar bolalarimiz nazariga tushib qolishi qo‘rquvga soladi. Ulardan ko‘pi karaxt ahvolga solib, bizni qizarishga majbur qiladi. Ammo bolalarimiz olamga kelgan damlardan boshlab, bizning vazifamiz - barcha savollarga javob qaytariladigan erkin va ochiq muhitni yaratishdir. Agar siz jirkanish yoki hayajonga tushgan holatingizni yaqqol ko‘rsatsangiz yoxud bolangizning savoliga javob berishda dovdirab qolsangiz, u boshqa hech qachon savol bermasligi mumkin. Sizlarning oralaringizda ta’qiqlangan mavzu bo‘lmasligi kerak.

Ta’qiqning yo‘qligi bolangizning hatti-harakati va ongiga bebaho ta’sir ko‘rsatadi, shu bilan birgalikda, sizning ochiqligingiz albatta mulohazaga asoslangan bo‘lishi kerak. Maorif Milliy ushmasi Milliy axborot tarmog‘ining ijrochi direktori Jerald Nyuberri bu borada quyidagilarni aytadi: “Bola yoki o‘smir har qanday savollar bilan bemalol oldingizga keladigan inson bo‘ling. U sizning har qanday mavzuni muhokama qilish uchun hamisha ochiq ekaningizni bila qolsin”[1].

Avval aytib o‘tganimizdek, oralaringizda ta’qiqlangan mavzuning yo‘q ekanligi haqidagi og‘zaki gaplar yetarli emas, buni munosabatlaringiz orqali namoyon etishingiz kerak, shuningdek, aynan shularni tananing tili bilan yetkazish lozim.

> - Jinsiy aloqa mavzusiga mutlaqo maqbul nimagadir yondashgandek munosabatda bo‘ling, - deb tavsiya beradi Samarali tarbiya markazi doktori Nikolas Long. Va qo‘shimcha qiladi: - Bolalaringiz bilan jinsiy aloqa mavzusini boshqa muhim mavzular kabi xotirjam va osoyishta muhokama qiling. Bolalar juda zehnli bo‘lishadi, agar ular noqulay ahvolga tushib qolganingizni sezishsa, keyingi safar oldingizga o‘z savollari bilan kelishlari dargumon. Bundan tashqari, bolalar jinsiy aloqa qandaydir yomon va noto‘g‘ri ekanligiga shubha qilib qolishlari mumkin[2].

Men (Dotti) har safar bolalarimizdan biri bilan jinsiy hayotga bog‘liq masalalarni muhokama etganimda, xotirjamlikni saqlashga urinardim. Agar buni uddalasam, bolalarning men bilan suhbatlari maroqli o‘tardi. Men imkon qadar ularga kechki ovqatda nima bo‘lishi, soch kaltalash necha pul turishi yoki itning bo‘yinbog‘i qayerda ekanligini qay ohangda aytgan bo‘lsam, shu tarzda jinsiy aloqa haqida ham aytib berardim. Aytishim lozimki, agar bolalar bu narsani boshqa har qanday mavzu kabi muhokama etmoqqa mening tayyor ekanligimni his qilmasalar, ular o‘z savollari yoki xavotirlari bilan oldimga takror va takror kelishmagan bo‘lardi.

Xo‘sh, mabodo siz biror-bir savolga javob berolmay qolsangizchi? Hech bo‘lmasa, hamisha shunday deyish mumkin: “Men buni bilmayman, ammo aniqlab beraman”. Buni *qanday* ifoda etishingiz ham muhim. Sizda ta’qiqlangan mavzu yo‘qligi hissini bolangizda hosil qilsangiz, samarali muloqot yo‘liga qadam qo‘ygan bo‘lasiz.

Cho‘pon Jek Uellman qat’iy ogohlantiradi: “Asosiysi haqida jonbozlik ko‘rsating: biror mavzuni ko‘tarib chiqqaningizda, bolalaringiz qo‘rqmasin yoki taajjublanmasin. Bu haqda ularga ayting. Har qanday savol bilan oldingizga kelishlari mumkin bo‘lgan xavfsiz muhit yarating. Bu hamisha eng yaxshi qaror, ayniqsa, gap jinsiy aloqa haqida borayotgan bo‘lsa”[3].

Hozirda o‘z oilasi bo‘lgan kichik qizimiz Xizer yaqinda shunday deb qoldi: “Jinsiy aloqa men uchun kundalik bir mavzu edi - noqulay mavzu men uchun umuman bo‘lmagan. Men bilardim, agar biror nima haqida so‘ragim kelsa, oldilaringizga borishim yetarli, sizlar menga hammasini tushuntirasizlar. Biror-bir mavzu “noo‘rin” bo‘lganligini eslay olmayman, darvoqe, o‘shandan buyon nimadir o‘zgargan deb o‘ylamayman”.

Biz farzandlarimizga shunday hissiyotni singdirganimizdan baxtiyormiz. Bolangiz oldingizga kelganida ochiq, to‘g‘riso‘z va har qanday savoliga javob topa oladigan bo‘ling. Siz bundan afsuslanmaysiz.

17 bob

# FARZAND BILAN JINSIY ALOQA HAQIDA QANCHALIK TEZ-TEZ GAPLASHIB TURISH KERAK?

Bolalar bilan jinsiy aloqa haqida chorakda bir marta, oyda bir marta yoki haftasida bir marta gaplashib turish kerakmi? Umuman olganda bunday suhbatlarning qancha boʻlganligi emas, balki siz koʻpgina narsalarni takror va takror qilishingizga toʻgʻri kelishi muhim. Bundan voz kechib boʻlmaydi, zero takrorlash - oʻqib-oʻrganishning onasi.

Aksariyat bolalar maʼlumotlarni ikki-uch daqiqadan ortiq vaqt qabul qilishga qodir emas. "Children Now" bolalar taʼlimi va salomatligini muhofaza qilish tashkiloti ushbuni maʼlum qiladi:

> Aksariyat kichik yoshdagi bolalar maʼlumotlarni qisqa-qisqa hajmda qabul qilishadi, ular birgina suhbat mobaynida muayyan mavzu yuzasidan bilishlari lozim boʻlganining barchasini eslab qolisholmaydi. Mana nima uchun bir muddat kutib, soʻngra suhbatingizdan nima yodida qolganini aytib berishini boladan soʻrashingiz muhim. Bu tushunib yetmaslik ehtimolini bartaraf etish va suhbatingizda boʻsh qolgan joylarni toʻldirishingizga yordam beradi[1].

Mabodo toʻrt yoshli qizalogʻingiz oldingizga kelib, uch yoshligida sizga bergan savolini yana takrorlasa, soʻngra besh yoshga toʻlganida ham bu hol yana davom etsa hayron boʻlmaslik kerak, garchi siz unga shunday soʻzlarni aytishni xohlasangiz ham: "Men senga bolalar qanday tugʻilishini aytib bergan edim-ku" yoki "Senga kindik nima ekanligini bir necha marta tushuntirgandim".

Men (Dotti) yaqinda Jinsiy salomatlik tibbiyot instituti raisi, doktor Jo Makilxani bilan suhbatda boʻldim. U shuni qayd etadi: ota-onalar koʻpincha farzandlari bilan jinsiy aloqa haqida tez-tez gaplashib turishlariga ishonishadi, garchi bolalariga bunday boʻlib tuyulmasa ham. Ayonki, bunday koʻrinish yuzaga kelishining salmoqli sabablari bor. Ota-onalar bolaga kerakli miqdordagi maʼlumotlarni singdirishga va ayni vaqtda meʼyoridan oshirib yubormaslikka katta his-tuygʻularini sarflab yuborishadi, shu bois, odatda, bola faqatgina tinglovchi boʻlib qolganligi damlarini eslab qolishadi. Bola uchun esa bu suhbat xotirasining bir chetida saqlab qolish darajasida jiddiy va muhim emas. Mana nima uchun biz sabr-bardosh koʻrsatishimiz, agar zarur boʻlsa, takror va takror oʻsha mavzuga qaytishimiz kerak.

Jinsiy aloqa mavzusi oʻta murakkab. Farzandlarimiz hammasini lozim darajada tushunishlari uchun vaqt talab etiladi. "Neshvillik ona Lora Xileman kunlardan birida uch yoshli oʻgʻilchasi ukasiga shunday tushuntirayotganini eshitib qoladi: "Oʻgʻil bolalarda olat, qizlarda esa rezina boʻladi". Demak, toki bolangiz maʼlumotni toʻgʻri oʻzlashtirib olmagunicha, birgina savol ham qayta-qayta yuzaga kelishiga hayron boʻlmang"[2].

Mabodo biz yana va yana sabr-bardosh koʻrsatib, birgina narsani (ehtimol, ayrim tafsilotlarni qoʻshgan holda) tushuntirishga tayyor boʻlsak, bu bolalarga kuchli taʼsir koʻrsatadi.

Turli xil tadqiqotlarning koʻrsatishicha,

> jinsiy aloqa haqidagi doimiy suhbatlar (bir marotabalik "jiddiy muhokama"dan farqli tarzda) bir qancha sabablarga koʻra muhim: 1) takrorlash natijasida oʻsmir uchun ota-onasining yoʻl-yoʻriqlarini qabul qilishi va oʻzlashtirishi oson kechadi, 2) bu unga oʻzini xotirjam va suhbat chogʻida ishonch bilan tutishiga yordam beradi, 3) oʻsmir shu tariqa ota-onasining oʻz taqdiriga va shaxsiga boʻlgan samimiy tuygʻularni his etadi, bundan tashqari, 4) vaqti-vaqti bilan yuzaga keladigan ochiq suhbatlar oiladagi munosabatlarni mustahkamlaydi, bu esa oʻz navbatida oʻsmirning sogʻlom jinsiy aloqasi rivojlanishiga muhim taʼsir koʻrsatadi[3].

Qayta eslatish - bolalar va ota-onalar tomonidan turlicha qabul qilinadi. Bola oʻz tushunchalarini va jinsiy aloqaga munosabatini "gʻisht terib" qurishi uchun unga takrorlash jarayoni zarur. Bu esa bolaga oʻsha birgina fikrni takrorlab turish, ehtimol sal boshqacharoq yoki qoʻshimcha qilgan tarzda yetkazish zarur ekanligini bildiradi.

**18 bob**

# AGAR BOLAM BILAN NUQUL BITTA MAVZUDA GAPLASHAVERSAM, U MENI MIJG‘OV ODAMGA CHIQARIB QO‘YMAYDIMI?

Mijg‘ov - bu zeriktirib qo‘yadigan, bezor qilib yuboradigan odam. Mijg‘ovlarni hech kim yoqtirmaydi. To‘g‘ri: mabodo biz ota-onalar kun bo‘yi bolalarga jinsiy aloqa mavzusini uqtiraversak, ular rostdan ham zerikishadi va so‘zlarimizni qabul qilmay qo‘yishadi. Ammo baribir haqiqatni, ayniqsa jinsiy aloqalar uchun Xudo tayinlagan chegaralar va rejalarga oid haqiqatni bolalar ongiga yetkazishimiz kerak. Xo‘sh, biz qanday yo‘l tutishimiz lozim?

Bolangizni bezor qilish o‘rniga ular hayotida bo‘lib o‘tgan vaziyatlardan foydalanishga urining, ularni o‘rganish mumkin bo‘lgan holatlarga aylantiring. Saboq uchun maqbul holat - bu kundalik jarayonlarda jinsiy aloqa mavzusiga bag‘ishlangan qisqacha tarbiyaviy suhbatlarni o‘tkazib olish imkonini beradigan vaziyatdir. Bu suhbat murakkab narsalar, nozik muammolar, jinsiy aloqaning o‘ziga oid mavzu yoki bola shu paytda qalbini ochishi uchun juda muhim yana nimadir bo‘lishi mumkin. Bunday vaziyatdan boshqacha foydalansa ham bo‘ladi, misol uchun, bola Internet yoki televizor orqali nimalarni ko‘rgani, og‘aynisidan nimani eshitganini, plakatda nimani ko‘rib qolgani va hatto bolalarga bag‘ishlangan kitobdan o‘qigan misralarni so‘rashingiz mumkin. Barcha bu imkoniyatlardan foydalaning.

Qulay vaziyatni boy bermaslik - bu o‘rganib olsa bo‘ladigan san’atdir. Bu o‘rinda, albatta, ko‘p narsa sizning keng ko‘lamdagi savodxonligingizga bog‘liq. Boshqacha aytganda, o‘smirlarning xatti-harakatlari va qadriyatlarining shakllanishida mediakontentning (Internet, kino, televideniye, jurnallar, komikslar, bloglar, tvitlar va ijtimoiy tarmoqlardagi boshqa xabarlarning) ta’sir darajasini izohlash va to‘g‘ri baholashni bilish zarur.

Zamonaviy dunyo madaniyati har qanday ota-onaga muhokama qilish uchun qulay vaziyat yaratib beradigan uyum-uyum imkoniyatlarni taqdim etadi. “Kaiser Family Foundation”ning televizion uzatmalarga oid hisobotida ko‘rsatilishicha, “praym-taym yo‘nalishidagi 75% shoular jinsiy aloqa haqidagi dialoglarni yoki hirsni uyg‘otuvchi kadrlarni o‘z ichiga oladi”[1].

Ko‘ngilochar OAV, ayniqsa Internet va televideniye dunyoda jinsiy aloqa mavzusini yoritadigan asosiy manbaga aylandi, tag‘in shu darajadaki, biz faqat uning vayronkor ta’sirini kuzatishga majbur bo‘lib qolyapmiz. Ammo biz bularning barchasidan ijobiy saboq chiqargan holda bolalarimiz bilan suhbat o‘tkazib, buning oqibatlarini yumshatishimiz mumkin.

Misol uchun, “Superkubok”ning shanba kunida ko‘rsatilgan yarim final o‘yinida xonanda M.I.A. kameraga o‘rta barmog‘ini ko‘rsatganida barcha hayron bo‘lib qoldi, axir bu jinsiy aloqaga doir ishora bo‘lib, beadab ifodani o‘zida aks ettiradi. Qanchalab masihiylar bu daqiqada o‘z nafratlarini to‘lqinlanib namoyon etishdi (mutlaqo o‘rinli), lekin shu bilan birgalikda jinsiy aloqa haqida bola xotirasida uzoq yillar saqlanib qoladigan suhbat uchun ajoyib imkoniyatini boy berib qo‘yishmadimi? Bu salbiy nimadandir ijobiy saboq chiqarsa bo‘ladigan qulay vaziyat edi.

Bir kuni men (Josh) oilaviy yuk mashinamizda to‘qqiz va yetti yoshda bo‘lgan Kelli va Shonni olib ketayotgandim. Bu yoshdagi barcha bolalarda bo‘lganidek, ular to‘satdan janjallashib qolishdi va Shon jahl bilan qichqirib yubordi: “Kelli, itardim seni!” Shu lahzada jahlim chiqib, o‘g‘limni jazolasam ham bo‘lardi, ammo buning o‘rniga, hayron bo‘lmaganimni namoyon etmay, shunchaki so‘radim:

- O‘g‘lim, sen buning nima ekanligini bilasanmi?”

U shu zahotiyoq javob qaytardi:

- Yo‘q.

Men gapimda davom etdim:

- Sen qayerdan buni eshitding?

- Maktabda, - to‘ng‘illadi o‘g‘lim.

Men unga taklif etdim:

- Xohlaysanmi, buning nima ekanligini senga tushuntiraman?

U ko‘zlarini katta ochib bosh irg‘adi:

- Mayli.

Biz keyingi o‘n daqiqani g‘aroyib suhbat bilan o‘tkazdik. Men bu jumlaning ahamiyatini hamda Xudoning bu olamdagi barcha ona va otalarga in’om etgan ajoyib tuhfasini bu jumla qanday tahqirlashini tushuntirib berdim. So‘ngra, yetti va to‘qqiz yoshdagi bolalarga imkon qadar tushunarli qilib aytishga uringan holda, nega oilamizda hech kim bu kabi jumlalarni qo‘llamasligi haqida gapirdim.. Shu tariqa o‘z o‘g‘lim bilan sug‘batlashib, uning kelgusi hayotiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadigan qulay vaziyatni qo‘ldan chiqarmadim.

Ota-onalarning imkoniyatlari chindan ham chek-chegara bilmaydi. Aslida “ahamiyatsiz” damlar juda muhim bo‘lib tuyuladi, negaki kuchli salbiy yoki ijobiy kechinmalar tariqasida bolaning xotirasiga urilib, uning ongi, ishonch-e’tiqodi, munosabatlari, hatti-harakati va o‘zini tutishiga bevosita ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Quyida ota-onalarga o‘z bolasi bilan suhbatlashib olish imkonini beradigan ajoyib sabablar keltirilgan.

**1. TV va boshqa ko‘ngilochar ommaviy medialar**. Amerika pediatriya akademiyasining “Jinsiy mayl, kontratsepsiya va ommaviy media” nomli maqolasida shunday xabar beriladi:

> Amerikalik bolalar haftasida 36 soatdan ko‘proq vaqtlarini televideniye va Internet, shuningdek video, kompyuter o‘yinlari, musiqa kabi turli yo‘nalishdagi OAV bilan o‘tkazishadi. O‘rta maktabni bitirish davriga kelib, o‘smir o‘rtacha 15000 soat vaqtini teledasturlarni ko‘rish uchun sarflaydi, bu esa uning parta ortida o‘tirgan vaqtiga qaraganda 20% ko‘pdir. Bundan tashqari, amerikalik o‘smir o‘rta darajada bir yil ichida ochiq ko‘rinishdagi deyarli 14000 kontentlarni tomosha qiladi[2].

Yangiliklar dasturi ham muhokama uchun qimmatli mavzu. O‘smirlar o‘rtasida Homiladorlikni oldini olish resurslar markazi tomonidan ishlab chiqilgan “Wait for Sex” o‘quv ko‘rgazmasida shunday namuna keltiriladi: “Siz bolangiz bilan birgalikda televizor orqali yangiliklarni ko‘ryapsiz. Muxbir hirsiy shilqimlik yuzasidan maktab boshqaruviga shikoyat bergan yettinchi sinfdagi o‘quvchi qizning oilasi haqida so‘z yuritmoqda. Bir o‘g‘il bola o‘quvchi qizning badani, ayniqsa ko‘kraklari haqida bir necha bora tahqiromuz tanbehlar bergan. Mana, boshqa jins vakiliga hurmat ko‘rsatish qanday muhim ekanligi haqida gaplashib olish uchun ajoyib imkoniyat”[3].

Biz vaqti-vaqti bilan bolalarimiz bilan birgalikda biror film yoki teleshouni ko‘rganimizda, to‘satdan ekran orqali behayo ishoralar bildirilar, hatto jinsiy ahloqsizlikni namoyish etayotgan odamlar tasviri paydo bo‘lardi. Bunday hollarda biz shunchaki televizorni o‘chirib, ko‘rganlarimizni suhbat mavzusiga aylantirardik.

Biz so‘rardik:

- Bolalar, ushbu vaziyatda nima noto‘g‘ri? - Ular javob berishar, biz esa diqqat bilan farzandlarimizni eshitardik. - Nima uchun bu noto‘g‘ri? - Biz tag‘in ularning gapini bo‘lmay eshitardik. - Jinsiy ahloqsizlikning oqibatlari qanday bo‘ladi? Siz kino yoki televizor orqali qachon oxirgi marta bunday harakatlarning salbiy oqibatlarini ko‘rsatishganini eslay olasizmi?

Odatda, ular buni eslay olishmasdi, negaki ko‘ngilochar OAV deyarli hech qachon nikohgacha bo‘ladigan jinsiy aloqaning salbiy oqibatlari haqida gapirmasdi. Misol uchun, televideniyeda ahloqsiz qahramonning jinsiy aloqa paytida kasallik yuqtirgani haqida gapirishmaydi. Albatta, bu zamonaviy dunyoga mutlaqo to‘g‘ri kelmaydigan tasvir.

Hozirgi kunda har to‘rtinchi o‘smir jinsiy aloqa orqali o‘tadigan kasallikni yuqtirib olgan. Faqat shu yilning o‘zida yana uch *million* yosh yigit va qizlar kasallikka chalinadi O‘n ikki yoshdan yetmish yoshgacha bo‘lgan barcha erkaklarning ellik foizi odam papilloma virusi (OPV) bilan kasallangan. Bu kasallikka qarshi dori-darmonlar mavjud emas, prezervativlar - himoya qilmaydi, qolaversa, bu kasallik har yili OIV-infeksiyasiga nisbatan ko‘proq ayollarning hayotini olib ketmoqda[a].

Ammo televizor yoki kino orqali bunday narsalar haqida gapirilmaydi. Birinchidan, bu o‘smirlar nazarida dunyoning nomavjud tasvirini ko‘rsatadi, ikkinchidan, ularni anglashilmovchilikka olib kiradi, zero ahloqsiz harakatlarlarning salbiy *oqibatlari bo‘ladi*. Takrorlaymiz: tomoshabinlarga OAV orqali singdirilgan yolg‘on tasavvurlar - bolalar bilan ahloqsiz harakatlarning oqibatlari haqida gaplashib olish uchun qulay sabab.

Yana bir muhim fursat: suhbatni Xudo Kalomining asosiga va Xudoning jinsiy aloqaga bo‘lgan rejasiga bog‘lash mumkin. Birgalikda film va teledasturlarni tomosha qilgan holda, siz doimo noto‘g‘ri qaror qabul qilgan odamlar hayotiga oid voqealarga to‘qnash kelasiz. Xudo bizga nima uchun jinsiy hayotga munosabat borasida muayyan tavsiyalar berganini va unda muayyan chegaralar o‘rnatganini bolangiz bilan birga muhokama eting. Kalomga va unda keltirilgan qoidalarga amal qilish muhimligini takror va takror tushuntirish sizning manfaatlaringiz uchun xizmat qiladi.

Mana, Amerika ruhshunoslari uyushmasidan ajoyib maslahat:

---

[a]Qo‘shimcha ma’lumotlar uchun “Yalang‘och dalillar” kitobiga qarang.

Fikringizni bildiring. Agar sizga teleshou, o‘yin, video, jinsi yoki qo‘g‘irchoq yoqmasa, nega yoqmaganligini tushuntiring. “Yo‘q, buni ko‘rish yoki sotib olish mumkin emas” kabi oddiy so‘zlardan ko‘ra, bunday suhbat yanada samarali bo‘ladi. Qizlarda ijobiy obrazlarni yaratayotgan mahsulotlarni va ishlab chiqaruvchi kampaniyalarni qo‘llab-quvvatlang. Agar ishlab chiqaruvchilar, reklama beruvchilar, tele va kinoprodyuserlar, hatto chakana savdo do‘konlarining mahsulotlari qizlarni kimlarningdir shahvoniy ob’ektiga aylantirib qo‘yadigan bo‘lsa, ular ustidan arz qiling[4].

AQSh jinsiy aloqaga doir ma’lumotlar va uni yoritish Kengashining yaqinda bergan hisoboti ham yaxshi takliflarni o‘z ichiga olgan:

- Fikrlaringizni bolangiz bilan o‘rtoqlashing. O‘z qarashlaringiz va qadriyatlaringizni ijobiy asosda baham ko‘ring. Bola o‘zining shaxsiy qarashlari va qadriyatlarini shakllantirishni boshlaganida, u sizning nuqtai nazaringizni aniq tushunishi kerak.
- Suhbat uchun qulay vaziyatni boy bermang. Har qanday imkoniyatdan - eshitgan hazillaringizdan, qo‘shiqdagi so‘zlardan, reklama ustunidagi tasvirdan yoki telereklamadan - suhbatni boshlash uchun foydalaning.
- Suhbat uchun reklamali tanaffuslardan foydalaning - shunda bolangiz sizga ko‘proq e’tibor qarata oladi. Qisqaroq so‘zlang, asosiy fikringizni oddiy so‘zlar bilan yetkazing.
- Yodda tuting, “yomon” shou ham bahs uchun yaxshigina sabab bo‘lishi mumkin. Bolalar muayyan bir personajning hatti-harakatlarini muhokama etishga tez-tez imkon berishadi.
- Iltifotli bo‘ling. Ehtimol, agar siz bolangizning do‘stlari yoki boshqa katta yoshdagilar huzurida jinsiy aloqa mavzusini muhokama etishni boshlasangiz, bola bundan taajjubga tushishi mumkin[5].

Ommaviy mediadan o‘z manfaatingiz yo‘lida foydalaning. Muloqotda bo‘ling. *O‘z* nuqtai nazaringizni yashirmang.

**2. Homilador ayol.** Bolalar homilador ayolga - u begona, qarindosh yoki boshqa oiladan bo‘lishidan qat’iy nazar - ko‘pincha qiziqish bilan qaraydilar, Ularning savollariga javob bergan holda, siz jinsiy aloqa mavzusiga oson o‘tib olishingiz mumkin.

**3. Mavjud odamlar haqidagi hayotiy voqealar.** Yozuvchi Vendi Sellers hayotiy voqealardan qanday foydalanish kerakligini aytadi: “Bolalar hayotda bor bo‘lgan odamlar haqidagi voqealarga o‘ta qiziqish bilan yondashadilar. Misol uchun, siz shunday deyishingiz mumkin: “Men hozirgina eshitgan bu yangilikdan ta’bim juda xira bo‘ldi. Amaki singlimning o‘g‘liga endi talabalikni tashlab, tezda ish axtarishiga to‘g‘ri keladi. U yaxshi ko‘rgan qizi bilan jinsiy aloqa qilibdi, hozir qiz homilador ekan. Endi oliy ta’lim olish o‘rniga, ishlashi va oilasini ta’minlashi kerak. Xo‘sh, sen bu haqda qanday fikrdasan?”[6] Bu kabi hayotiy voqealar - bola bilan gaplashish uchun yaxshi sabab.

Florida shtati, Xillsboro okrugi Universitetida oilaviy hayot asoslaridan saboq beruvchi Diana Konvers farzand bilan suhbatlashish uchun foydalansa bo‘ladigan yana oltita vaziyat haqida eslatib o‘tadi:

**4. Yalang‘och tanalar aks etgan fotosuratlar.** “Bolangiz o‘rtog‘i bilan yotoqxonada hiringlashib kulmoqda. Ularni nima kuldirayotganini bilish maqsadida eshikni ochib ko‘rasiz: bolalar qomus kitobidagi yalang‘och ayollar tasvirini tomosha qilishmoqda[7]. Bu suhbat qilish uchun ajoyib sabab.

**5. Jinoyatchi qidirilayotgani haqidagi e’lon.** “Siz o‘n bir yoshli o‘g‘lingiz bilan pochta bo‘limida navbatda turibsiz va devorda jinoyatchi qidirilayotgani haqida osib qo‘yilgan e’longa ko‘zingiz tushadi. Bir erkak uch ayolni zo‘rlaganlikda ayblanmoqda”[8]. Muhokama uchun katta imkoniyat bu!

**6. Besoqolbozlik aloqasi.** “Siz va bolangiz ham savdo markazida ikkita erkak bir-birining qo‘lidan nozik tutib turishganini ko‘rib qolasizlar”[9]. Besoqolbozlik nima ekanligini bolangizga batartib aytib berish uchun yana bir sabab.

**7. Prezervativni ko‘rib qolish.** “Yuvish uchun kiyim-kechaklarni taxlayotganda, o‘g‘lingizning cho‘ntagidan prezervativ topib olasiz”[10]. Garchi bu holat sizni dastlab dahshatga tushirgan bo‘lsada, bu ham gaplashib olish uchun bir imkon.

**8. Jinsiy aloqa haqida soxta ma’lumot.** “Bir kuni maktabdan uyga qaytayotganlaringizda, o‘n uch yoshli qizingiz aytib qoladi: “Ona, to‘g‘rimi shu gap, birinchi marta jinsiy aloqa qilganda homilador bo‘lib qolmas ekan-a?”[11] Siz aslo kechiktirmay muloqotga kirishing.

**9. Oila o‘rtasida jinsiy aloqaga doir harakatlarga nisbatan farqli nuqtai nazarlar.** “Qaynonangiz olti oylik o‘g‘lingizning tagligini almashtirmoqda. Siz to‘ng‘ich farzandingiz bilan uning yonida turibsiz. Qaynonangiz to‘satdan chaqaloqning qo‘liga yengilgina urib shunday deydi: “U joyingni ushlama”[12]. Ehtimol, siz unga e’tiroz bildirmassiz, ammo keyinchalik to‘ng‘ich farzandingiz bilan suhbatlashish uchun bu vaziyatdan sabab sifatida foydalanishingiz mumkin.

**10. To‘y fotosuratlarini birgalikda tomosha qilish.** Suhbat qurish uchun bu qanday ajoyib sabab!

**11. Hayvonlarning hatti-harakatlari.** Mana, Makdauell qizlaridan birining hikoyasi: "Onamning aytishicha, biz jinsiy aloqa haqida ilk bora oilaviy sayohatga chiqqanda gaplashganmiz, ya'ni men mashina oynasidan ho'kizning g'unajinga qanday irg'iganini ko'rib qolganimdan so'ng mavzu ochilgan ekan. Men nimalar bo'layotganini so'radim. Onam menga tushuntirgach, men unga shunday javob qaytaribman: Yaxshi hamki, odamlar shunday qilishmaydi!" Jinsiy aloqa haqidagi bizning ilk suhbatimiz shunday kechgan. Juda g'alati, men hatto bu suhbatni eslay olmayman". Garchi qizimiz o'sha voqeani unutgan bo'lsada, bu aslida jinsiy aloqa - Xudoning mo''jizaviy in'omi ekanligini tushunishi va qadrlashi uchun uni davomli ravishda oz-ozdan yetarli miqdordagi ma'lumotlar bilan ta'minlab borgan suhbatlarning birinchisi bo'lgandi.

**12. Maktabdagi yig'ilish va bazmlar, sport musobaqalari, ishlab chiqarishga oid amaliyotlar va h.k.z.** Biz oilamiz (to'rt farzandimiz - Kelli, Shon, Keti va Xizer) bilan restoranda tushlik qilib turganimizda, to'satdan Shon so'rab qoldi: "Ota, bugun maktabimizda bir ma'ruzachi jinsiy aloqa haqida gapirdi. Menimcha, siz uning fikriga qo'shilmasangiz kerak". Men darhol so'radim: "Nima uchun?"

Keyingi uch soatni biz Leyksayddagi (Kaliforniya shtati) Styuart Andersonning "Steakhouse" restoranida ochiq oilaviy suhbat muhitida o'tkazdik. Ofitsiant (kollej talabasi) doimo atrofimizda aylanib yurdi va nihoyat suhbatimizga o'z fikrlari bilan qo'shildi: "Bolalar, agar bilsangiz, ota-ona masalasida juda omadli ekansiz, shunday mavzularni sizlar bilan birgalikda muhokama etishmoqda-ya! Agar mening ota-onam ham shunday yo'l tutishganida, men ham, opam ham hayotda bu qadar ko'p xatoliklar qilmagan bo'lardik" Qulay vaziyatni boy berib qo'ymang - farzandingiz bilan jinsiy aloqa mavzusida suhbat qiling.

**13. Musiqa.** Nyu-York shtati (Olbani shahri)dagi universitet tadqiqotchilari 2009 yilda "Billboard" xit-paradidagi o'ntalikka kirgan kantri, pop va ritm-end-blyuz yo'nalishidagi bir yuz yetmish to'rtta qo'shiq satrlarini tahlil qilib chiqishdi. Natijalarga ko'ra, "qo'shiqlardagi 92% matnlarda shahvoniy harakatlarga ishoralar mavjud bo'lib, ochiq matnlar esa o'rtacha 10,49% ni tashkil etadi"[13].

Men (Josh) bundan bir necha yillar muqaddam Shonning xonasiga kirganimda, o'g'lim "Depeche Mode" guruhining yangi kompakt-diskdagi qandaydir qo'shig'ini o'chirib tashlayotganiga ko'zim tushdi. O'shanda uning yoshi o'n ikkida edi.

- Shon, nima qilyapsan? - so'radim men.

- Mana bu qo'shiqni o'chirib tashlamoqchiman.

- Nega?

- U oilamiz qoidalariga to'g'ri kelmaydi, shu bois uni o'chirib yubormoqchiman.

Albatta, men vaziyatni qo'ldan boy bermasdan, darhol qilayotgan ishiga qoyil qolganimni va undan faxrlanishimni aytdim.

Ota-onalar qo'mitasi a'zosi Deb Roffman qayd etadi: "Oilangiz qadriyatlariga to'g'ri kelmaydigan biror nimaga (reklama roligi, televizion shou, musiqali video), duch kelsangiz, bu haqda farzandingiz bilan gaplashib oling. Uning uchun o'ziga xos "madaniyat tarjimoni" bo'ling[14].

**14. Cho'milish vaqti.** Qizlarimdan biri ikki yosh arafasida bo'lganida, Dotti bir kuni mendan uni cho'miltirib qo'yishimni so'radi. Men rozi bo'ldim, iliq suvni ulab qizimga dedim: "Azizam, yechingin, lekin hali suvga tushmay turgin". Bilasizmi, men bolalarimizdan birortasi sirpanib boshi bilan vannaga urilishidan hamisha qo'rqganman, shu bois unga aytdim: "Ota kelgunicha kutib turgin. Mening senga sovg'am bor!" Men yaqinda bo'lgan sayohatim vaqtida sotib olgan rezina o'rdakchani safar xaltamdan olish uchun tashqariga chiqdim. Men endigina vannaxonaga qaytmoqchi bo'lganimda, o'sha joydan qattiq chinqiriq eshitildi. Yuragim bezovta urayotganini his qilgan holda, eshik sari qichqirib yugurdim:

- Azizam, senga nima bo'ldi?

Mening mittigina qizalog'im vanna chetida o'z tanasiga qarab o'tirgandi. U qo'rquv to'la ko'zlari bilan menga qaradi:

- Ota, otajon, mening olatim teskari tarafda ekan!

Tushunyapsiz-a, qizim bundan avval akasini yalang'och holatda ko'rgandi. Xo'sh, ikki yoshli qizaloq tag'in nima deb o'ylashi mumkin? Undagi olati yoki uzilib tushgan yoxud orqaga buralib ketgan. Mana sizga qayg'u va alam!

Men bunday qulay vaziyatni qo'ldan chiqarmadim.

- O, yo'q, azizam, - dedim men. - Xudo aslida seni shunday qilib yaratgan. Xudo akang kabi o'g'il bolalarga olat beradi, senga o'xshagan qizlarga esa - qin. Juda g'aroyib o'ylab topilgan, to'g'rimi? Endi esa cho'milish vaqti keldi, bo'laqol.

Butun suhbatimiz yigirma soniyadan ortiq vaqtni olgan emas. Jinsiy aloqa mavzusini yoritish uchun ajoyib sabab. Juda qulay vaziyat. Agar siz ajoyib suhbat uchun yuqorida keltirilgan barcha vaziyatlardan va boshqa ko'plab imkoniyatlardan foydalansangiz, agar siz bolangizni murg'aklik davridan boshlab shunday suhbatga jalb etsangiz, u ulg'aygan paytda o'zi bu kabi suhbatlar uchun sabab izlaydigan bo'ladi.

**19 bob**

# BOLANGIZ NIMALAR BILAN MASHG‘UL EKANINI QANCHALIK TEZ-TEZ KUZATIB BORISH KERAK?

Bugungi dunyoda bolangiz nima bilan mashg‘ul ekanligini kuzatib turish - mutloq zaruriyat, albatta, siz uni himoya qilishni istasangiz agar. Nazoratni haddan ziyod oshirib yuborishdan qo‘rqmang - “etarlicha ta’m bermay qolish”dan qo‘rqing.

Hozirda qanday jabhalarni nazorat qilish kerak? O‘z-o‘zidan tushunarliki, bolangizning do‘stlari va ularning oilalari, maktab, to‘garaklar, farzandingiz ko‘radigan televideniye, film va videoroliklar, uning o‘qiydigan jurnallari, bolangiz eshitadigan musiqalar va albatta, Internet ana shunday jabhaga kiradi. Bu ozmuncha mehnatni talab qilmaydi, lekin busiz iloji yo‘q.

Bugungi dunyoda biz, ota-onalar, qat’iyatli ekanligimizni ko‘rsatishimiz va bolalarimiz nima bilan hayot kechirayotganlarini kuzatib borishimiz zarur. Internet keng tarqalgan asrimizda avval hech kimning xayoliga kelmagan muammolarni hal etishga to‘g‘ri keladi. Maktabgacha yoshdagi bolalari bo‘lgan qizimiz Keti yaqinda menga (Dottiga) shunday dedi: “Farzandlarimni zamonaviy dunyo madaniyatidan himoya qilish umididan voz kechdim”. Shu bois uning tutgan yo‘li shundan iboratki, “bolalarni kelajakdagi janglardan *himoya* qilish emas, balki shunga *tayyorlash* - ularga tushuncha berish, kurashishga o‘rgatish va hayot yo‘lidan munosib qadam tashlashlariga yordam berishdan iborat”. Bunday yondashuv jiddiy, ba’zan esa murakkab qarorlar qabul qilishni talab etadi.

Bolalarimizning qiziqish olamiga sho‘ng‘ish uchun hamisha g‘ayrioddiy ijodiy usullar topish mumkin. Mening (Dottining) singlim, yuqori sinf o‘quvchilarining onasi, bu o‘rinda ajoyib ibrat bo‘lishi mumkin. U - diplomli murabbiy, ammo dekret ta’tilidan so‘ng ishga chiqmaslikka qaror qildi, negaki singlim qizi hayotining markazida bo‘lishni xohladi. Singlim o‘z maqsadiga erishmoq uchun qizi o‘qiydigan maktabga ishga kirdi. Shu tariqa, singlim qizi bilan muloqotda bo‘ladigan bolalar bilan tanishish, boshqa o‘qituvchilarni yaqindan bilish va maktab muhitini to‘laqonli his qilish imkoniga ega bo‘ldi. Albatta, har birimizga ham bunday omad kulib boqavermaydi, ammo *hamma* ham topqirlik va qat’iyat ko‘rsatishi mumkin.

Biz Josh bilan bu masalada qat’iyat ko‘rsatdik va bolalarimizdan hisobot berishlarini kutganmiz. Biz ulardan qayoqqa borishlarini va qachon qaytishlarini, qanday davrada nima bilan mashg‘ul bo‘lishlarini aytishni talab qilardik. Bu bizdan vaqt va kuch-quvvat talab qilardi, ammo farzandlarimizning xavfsizligi va o‘z xotirjamligimiz uchun sabr qilishga va orqaga chekinmaslikka to‘g‘ri kelgan.

Biz asosiy qoidani - o‘zini tutishning muayyan kodeksini, - shuningdek, “komendantlik soatini” o‘rnatgandik. Bolalarimiz bizning nuqtai nazarimizni, muammolarimizni tushunishlari uchun bu jarayonda biz bilan barobar ishtirok etishardi. Bularning hammasi qalban yaqin munosabatlar holatida bajarilardi - aks holda, biz qarshilikka duch kelishimiz mumkin edi. Yodingizda bo‘lsin: “Yaqin munosabatlar asosida o‘rnatilmagan qoida ko‘pincha qo‘zg‘olonga sabab bo‘ladi”.

Bolalarimiz ulg‘aygani sayin, balog‘atga yetganliklarini va javobgarliklarini ko‘rsatganlari sari talablarimiz ham yumshatib borilgan. Bu o‘ziga xos tayyorgarlik jarayoni bo‘lgan: biz ularning vaqti kelib kollejga o‘qishga kirishlarini yoki ishga kirib, ertami-kechmi o‘zlari mustaqil qaror qilishlari lozimligini tushunardik. Albatta, ba’zan bolalarimizga ularni mijg‘ovlik uchun emas, vaysash va ayb izlash uchun emas, balki ota-ona bo‘lganimiz bois nazorat qilayotganimizni eslatib turishga to‘g‘ri kelardi.

Bolangiz qo‘shnining uyida o‘ynayotganida, biror yoshi katta ishonchli odam borligini bilish zarur. Afsuski, ko‘pincha boshqa bolalar tomonidan ham zo‘ravonlik sodir etiladi, shu bois uyda kim borligini bilishingiz muhim. Bolangizni yangi tanishgan odamlar oldiga mehmon bo‘lib borishidan avval, o‘sha uyda pornografiya yo‘qligiga ishonch hosil qiling. Biz bilan yonma-yon yashaydigan yoshgina er-xotinlar bolalari taklif etilgan oilada katta yoshdagi o‘g‘il bolalar bor-yo‘qligini doimo surishtirishadi. Agar bor bo‘lsa, oila siyosati shunday: bolalar qo‘shnining uyida emas, uylarida o‘ynay qolishsin. Bundan tashqari, ular o‘z bolalarini o‘smir o‘g‘il bolalarga aslo ishonib topshirishmaydi. Bir taraflama bu ortiqcha injiqlikdek ko‘rinishi mumkin, ammo bolalar xavfsizligi - hammasidan muhim.

Bolangizga nimalarni o‘rgatishayotganini bilib qo‘ying, zero maktablarning siyosati turlicha, ya’ni maktabingiz qaysi shtatda joylashganiga va shu maktab davlatga tegishlimi yoki xususiy ekanligiga bog‘liq. Voqealar markazida bo‘ling, sinfga chaqirishsa yoki biror masalada yordam so‘rashsa bosh tortmang. Ota-onalar qo‘mitasi yig‘ilishlarida qatnashib turing, o‘qituvchilar bilan faol muloqotda bo‘ling. Davlat siyosatini kuzatib boring, ayniqsa, maktabingiz joylashgan hududga o‘z ta’sirini o‘tkazadigan yangi qonunlar qabul qilinishini e’tibordan chetda qoldirmang.

Farzandingiz qanday filmlarni, teledasturlarni va DVD-disklarni tomosha qilayotganini kuzating. Har bir oilaga bolalarining manfaatlarini himoya qiladigan muayyan bir siyosat zarur. Ha aytgandek, bolalarimizdan ikkitasi ulg‘ayishgach, uyda televizor bo‘lishidan voz kechishdi. Yana bittasi esa barcha teledasturlarni sinchiklab tekshirib chiqadi. Qanday filmlar va DVD-disklar uyingizda ekanligidan boxabar bo‘ling; oilangiz andazalarini aks ettiradigan ro‘yxat tuzib chiqing. Mayli, bu narsalar haqidagi bahs mazmunli suhbatlar uchun yaxshi bir sabab bo‘la qolsin. Bolalar ommaviy axborot vositalarida o‘zlari uchun yolg‘on, xavfli va zararli ma’lumotlar to‘lib ketganligini tushunishlari zarur. Bolangiz o‘qiyotganlarini o‘qishga, eshitayotganlarini eshitishga harakat qiling. Ana o‘shanda siz uning sevimli kitobi yoki qo‘shig‘idagi mazmunga tayangan holda, bolangiz bilan muloqot qilishingiz mumkin. Doimiy nazorat bizga bolamiz bilan yaqinlashish va o‘zaro tushunishimiz uchun katta imkoniyatlar beradi.

## YIGIRMA SAKKIZ YOSHLI AQLLI ONANING INTERNETGA VA BOLALARGA BO‘LGAN QARASHI

Bizning kunlarimizda bolalarimizni Internet ta’siridan asrab bo‘lmaydi[1]. Bu muqarrar: hatto maktabda ham faqat Internetda bajarish mumkin bo‘lgan uy vazifalarini berishadi.

Biroq endilikda foydalanish mumkin bo‘lgan ko‘plab turli himoya dasturlari paydo bo‘ldi. Ulardan ayrimlari uchun pul to‘lash kerak bo‘lsa, boshqalari - bepul. Ba’zilari smartfonlar uchun belgilangan, boshqalari - yo‘q. Mana, shunday ta’minot dasturlaridan bir qancha misollar:

| | |
|---|---|
| X3 Watch - pullik / bepul | www.x3watch.com/ |
| Total Net Guard - pullik | http://afo.net/ |
| Bsecure - pullik | www.bsecure.com/ |
| Net Nanny - pullik | www.netnanny.com/ |
| Covenant Eyes - pullik | http://covenanteyes.com/ |
| K9 Web Protection - bepul | www1.k9webprotection.com/ |
| Safe Eyes - bepul | www.internetsafety.com/ |
| Cyber Sitter - pullik | www.cybersitter.com/ |
| Pure Sight - pullik | www.puresight.com/ |

Eslatib o‘tish joizki, bu o‘rinda dastur filtri barcha nojoiz ma’lumotlardan asrashga to‘liq kafolat berolmaydi. Dastur ta’minoti ko‘pgina pornografik saytlarga to‘siq qo‘yadi, lekin hammasiga emas, bundan tashqari, u elektron pochtani tekshirmaydi.

Men (Dotti) bolalarni himoya qilish maqsadida quyidagilarni qo‘llaganman:

1. Xonadonimizdagi barcha kompyuter va smartfonlar kechki soat to‘qqizdan kechikmay o‘chiriladi. Ushbu matal bejiz aytilmagan: “Kechki to‘qqizdan keyin hech qanday yaxshi narsa bo‘lmaydi”.
2. Men bolalarimga tunda o‘z xonalarida kompyuter, televizor yoki smartfonni yoqishlariga ruxsat bermaganman.
3. Men bolalarimning do‘stlari va qaysi oiladan ekanliklarini bilardim. Bolalarimning imonga kirmaganlar bilan do‘st bo‘lishiga qarshi emasdim, ammo farzandlarim begona uyga borishlari uchun ruxsat so‘rashsa, o‘sha oila bizning oilaviy andazalarimizga to‘g‘ri kelsagina ijozat berardim, aksincha hollarda begona bolalarning o‘zlari bizning uyga mehmon bo‘lib kelishardi.

4. Men bolalarimga Internetdan foydalanish imtiyoz ekanligini, ammo bu ular tug‘ilganidayoq o‘z-o‘zidan beriladigan huquq emasligi haqidagi fikrni singdirganman. Meni eski uslubdagi ayol yoki ko‘hna qolipda toblangan ona deb hisoblashingiz mumkin, biroq men bolalarimning kitob o‘qib, ko‘chada o‘z tasavvurlari bilan o‘ynab yurishlarini xohlaganman.
5. Men bolalarga Internetda vaqt o‘tkazishlari uchun cheklov belgilardim. Men ayrim oilalarda Internetda o‘tkaziladigan vaqt mukofot tariqasida berilishi haqida eshitgandim. Hatto virtual tizim ham hisob-kitobli: bolalar xonadon yumushlariga yordam berib, yutuqli ball yig‘ishlari mumkin. Menga shunday yondashuv yoqadi: tartibga keltirilgan to‘shak uchun o‘n daqiqa, ovqat tayyorlaganlik uchun o‘n daqiqa, tozalangan gilam uchun yigirma daqiqa va hokazo.
6. Kompyuterlar bizning uyimizda ko‘pchilik bo‘ladigan va ochiq yerda joylashtirilgandi.
7. Bolalarim kompyuter oldida o‘tirganlarida yoki smartfon tugmalarini bosib turgan paytlarda uxlash uchun yotmasdim.
8. Va nihoyat, bolalarim uchun o‘rnatilgan har qanday qoidalarga o‘zim ham amal qilardim. Men ular uchun hayotning barcha jabhalarida namuna bo‘lishga intilardim, xususan, Internetga va ijtimoiy tarmoqlarga taalluqli masalalar bo‘yicha ehtiyotkorlikda ham.

Ehtimol, kimningdir nazarida men ona sifatida bolalarimga haddan ziyod rahnamolik qilib yuborgandirman. Ammo qaysi tomonga qarab xato qilishni tanlashga to‘g‘ri kelsa, bu holda haddan ziyod rahnamolik kamroq yomonlik keltirishi tayin.

## PORNOGRAFIYA BARBOD QILGAN OILALAR

2012 yilning yanvarida Melissa, Tom va ularning oilasi bir umrga o‘zgarib ketdi[a]. Politsiya ularning o‘n uch yoshli o‘g‘li Kaylni so‘roq qilish uchun ularning uyiga keldi. Kayl so‘roq chog‘ida pornografiyaga berilib ketib, o‘z ukasi va singlisi bilan quyushqondan chiqib ketganiga, shuningdek, ularning uyiga tez-tez kelib turadigan kichkina o‘g‘il bolani ham ahloqsizlikka tortganiga iqror bo‘ldi. Melissa va Tom yurak-yurakdan larzaga tushdilar. Politsiya ularning o‘g‘lini uydan olib, balog‘atga yetmaganlar saqlanadigan muassasaga joylashtirdilar. Unga nisbatan jinsiy zo‘ravonlik bo‘yicha uchta va bitta o‘ta og‘ir jinoyat yuzasidan ayb qo‘yildi.

Melissa va Tom farzandlarini Xudoning xayrixohligi ila tarbiya qilishdi, yaxshi va yomonni farqlashga o‘rgatishdi, ular uchun ibodat qilishdi va imkonlari yetgancha himoya qilishdi. Bolalaridan birovi pornografiyaga ruju qo‘yishini, tag‘in uning ta’siri ostida qilg‘iliq sodir etishini ota-ona xayoliga ham keltirmagandi. Pornografiyaning kuchini va unga oson yo‘llar borligini to‘g‘ri baholamagan ota-ona anoyi ekanliklarini ko‘rsatishdi.

Bir kuni ahloqsiz rolikni tasodifan ko‘rib qolgan Kayl, tezda unga mukkasidan berilib ketdi. U ota-onasining xonasiga o‘tib, ularning filtrlash dasturi o‘rnatilmagan noutbuklaridan foydalangan. Bundan tashqari, u og‘aynilari bilan porno tomosha qilgan. Uning do‘stlari tez-tez uylariga kelib, “masihiy musiqalarni tinglash” uchun Melissadan Wi-Fi parolini so‘rashgan. Ayol ochiqko‘ngillik bilan barcha istaganlarga parolni aytavergan, u hatto parol bolalarning telefonida saqlanib qolishini va ularning keyingi har qanday tashrifida Tarmoqqa o‘z-o‘zidan kirish imkonini berishidan bexabar bo‘lgan.

Kayl esa ko‘rganlarini yoddan chiqara olmasdi. U xayolida yuz berayotgan shahvoniy sahnalardan qutula olmagan va ularning ta’siri ostida oxir-oqibat jinsiy zo‘ravonlik sodir etgan. U qarindoshlari xonadonida uy qamog‘ini o‘tab, endidikda sinov muddatida va ikki yillik tezkor davolanish dasturini o‘tamoqda. Faqat yaqindagina unga singlisi va ukasi bilan uchrashishga ruxsat berishdi, biroq dastur yakunigacha u o‘zining uyiga qaytolmaydi. “Yosh bolalarni zo‘rlovchi” tamg‘asi umrining oxirigacha u bilan birga qoladi. Kaylni fosh etishganidan so‘ng, uning o‘zi bor voqeani hammaga oshkor qilishni xohladi. U Melissa va Tomdan uning do‘stlarini va oilalarini pornografiyaga va boshqa vasvasalarga qaramlikdan saqlanishga da’vat etishlarini muntazam so‘rab turadi. Garchi Kayl erta bolalik davridanoq Masih sevgisi haqida eshitgan bo‘lsada, bu uni pornografiya to‘ridan asrab qololmadi... ammo uning hayoti qanday tus olmasin, bu sevgi unga hayotini to‘g‘ri izga solishiga yordam beradi. U tiz cho‘kib gunohlaridan poklanishni so‘raydi va o‘zining tarixi kimdir uchun saboq bo‘lishi haqida ibodat qiladi.

[a] Ma’lumotlar maxfiyligini himoya qilish maqsadida ushbu maqolada ko‘rsatib o‘tilgan odamlarning ismlari o‘zgartirilgan.

**20 bob**

# FARZANDINGIZNI NAZORAT QILISH UNING SHAXSIY DUNYOSIGA BOSTIRIB KIRISH HISOBLANADIGAN CHEGARA QAYERDA?

Bola yoki oʻsmir uchun ulgʻayib borgani sayin maxfiylik koʻproq ahamiyat kasb eta boshlaydi. Unga oʻzining shaxsiy dunyosini taqdim etish - unga ishonch va hurmat koʻrsatish demakdir. Ammo bunday ishonch va hurmatni qozonishga ham oʻrganish kerak.

Misol uchun, xonadonimizdagi bolalar xonalari yopib qoʻyilmagan. Biz, ota-onalar, oʻz yotoqxonamizda tushunarli sabablar bilan berkinib olishimiz mumkin, bolalar esa oʻz xonalarida - yoʻq. Biroq bolalarimizga va ularning oʻz shaxsiy olamiga boʻlgan ehtiyojiga hurmat yuzasidan, barcha qiziquvlarimizni (ular bir necha soatdan buyon muttasil nima bilan mashgʻul?) bir chetga surib, biz ularning xonalariga kirishdan avval, doimo taqillatishimizni bildirdik, negaki har bir odamning maxfiyligi hurmatga munosib.

Koʻp marotaba kirishdan avval yopiq eshik ortida turib taqillatib ovoz berganimizdan soʻng, bolalarimiz chindan ham taqillatmasdan kirmasligimizga ishonch hosil qilishdi. Bunday siyosatimiz ularning koʻproq ishonchi va hurmatini qozonishimizga yordam berdi.

Bolalarni parvarishlash boʻyicha mutaxassis Meri Van-Kley shunday deydi:

> Bolaning shaxsiy olamiga hurmat va ishonch holatida u nafaqat ishonch va hurmat bilan javob qaytarishga oʻrganadi, balki oʻzi uchun muhim jabhalarda (vaqti, tanasi, xonasi va h.k.z.) shaxsiy chegaralar oʻrnatish imkoniyatiga ega boʻladi[1].

Ha, lekin bolangizning Facebookdagi yozishmalari bilan nima qilmoq kerak? Yoki elektron pochtasi bilan? Ular ham shaxsiy ishimi? Uning yozuvli xabarlari va elektron xatlari bilan tanishib borish imkoni siz uchun kerakmi? Bizning javob: *albatta, kerak*! Siz farzandingizning barcha ijtimoiy akkauntlariga kirish imkoniga ega boʻlishingiz kerak. Bolaning xonasi Internet sahifasiga aslo oʻxshamaydi. Facebook yoki elektron pochta - bolangiz ijtimoiy tarmoqlarda foydalanadigan saytlardan qaysi boʻlsa ham - kirishingiz uchun sizga ochiq boʻlishi kerak. Uning Internetdagi faolligini nazorat qilish sizning nafaqat ota-onalik huquqingiz va javobgarligingiz, balki eng avvalo farzandingizni himoya qilish usulidir.

Ammo bu oʻrinda ham xona eshigini taqillatgan kabi yoʻl tutish kerak: bolalarning virtual olamiga oʻyib kirish oʻrniga, dastlab ular bilan bu imkoniyatni muhokama eting. Oʻgʻlingiz yoki qizingizning “hududi”ga soʻrovsiz bostirib kirmang, oʻrtalaringizdagi hurmat va ishonchni muhtahkamlaydigan qarorlarni birgalikda qabul qiling. Barcha parol va foydalanuvchilarning ismlarini talab qilish boshqa, siz uning yonida boʻlib, qiziqishlarini baham koʻrishni istashingizni bolangizga tushuntirish esa boshqa gap. Kichik oʻgʻlingizga yoki qizingizga shaxsiy smartfon olib berish shartmi? Balki, Internetga kirish imkoni boʻlmagan telefon ular uchun yetarli boʻlar? Bolangiz bilan oʻzaro tushunchalarga erishing, soʻngra esa “kirishdan avval taqillatish”ni aslo unutib qoʻymang.

**21 bob**

# BOLANGIZNING “BIRINCHI SEVGISI”GA QANDAY MUNOSABAT BILDIRISH KERAK?

Siz o‘zingizning “birinchi sevgingiz”ni - ba’zan aytishganidek, “kuchukcha sevgingiz”ni - eslaysizmi? Birinchi marta bo‘sa olganingiz yoki ilk bora qo‘l ushlashganlaringiz yodingizdami? A-ha, o‘sha “sevgilingiz” sizni “sevmay qo‘yganida” hayotingiz barbod bo‘lgandek tuyulganmidi? O‘tgan yillaringizga qaraganingizda bu soddalikdek tuyulishi mumkin, lekin o‘sha paytda hammasi jiddiy bo‘lgandi.

Ko‘pchilik ota-onalar o‘z yoshliklarida bu tuyg‘ular nihoyatda muhim bo‘lganligini negadir unutib qo‘yadiganga o‘xshaydi. Albatta, bu hali chin sevgi emas edi, biroq biz o‘shanda buni bilmasdik, shunday emasmi? Kimdir bizga bu tuyg‘u - “soxta” ekanligini aytib qolsa bormi, bu bilan bizni yerga qorishtirib tashlagan bo‘lardi. Bizning bolalarimiz bilan ham ahvol ana shunaqa.

Bolalar o‘sib, ulg‘ayishadi va biz ularga (yoshidan qat’iy nazar) mustaqil qaror chiqara oladigan kattalarga qaragandek munosabat bildirishimizni istashadi. Ayni damda farzandingiz yuragida kechayotgan ehtiros yoki ruhiy azoblarni uning o‘ziga “bolalik mashmasi” deb aytish yaxshi emas. Albatta, bu hissiyotlar o‘tib ketganida uning o‘zi hozirgi azoblariga kelgusida kulgi bilan qarashi mumkin, ammo ayni paytda “sevishganlar” bu haqda eshitishni ham istashmaydi! Shu bois, ularning “birinchi sevgisi”ni qabul qilishimiz o‘zlariga g‘amxo‘rlik va tushunishdek yoki ular nazarida bizning bag‘ritoshlik va uquvsizlikdek tuyulishi mumkin.

Bolangizning tuyg‘ulari haqida bilgach, uning ahamiyatini pasaytirmang, ayniqsa jahlini chiqarmang. Yaxshisi, bu ajoyib imkoniyatdan bolangiz bilan yanada yaqinlashish va ko‘p narsalar haqida gaplashib olish yo‘lida foydalaning. Farzandingizning birinchi sevgisiga oid kechinmalarga jiddiy yondashing, bu kechinmalarni ahamiyatsiz yoki barvaqt bo‘lgan deya hisoblamang. Aslida, o‘tkazilgan bir tadqiqot natijalariga ko‘ra, birinchi sevgi “insonning o‘z hayotida kechirgan eng ahamiyatli va qizg‘in sevgisi” bo‘lishi mumkin[1].

Vaqtingizni ayamasdan bolangizga siz ham shu kabi tuyg‘ularni qalbingizdan o‘tkazganingizni, bu his-tuyg‘ular uning ulg‘ayganidan muhim darak berayotganini tushuntiring. Chin sevgi nima ekanligi haqida gaplashib olish imkoniyatlaridan foydalaning (*3-bobga*qarang). U bilan muloqotda jo‘shqinlikka berilmang: “Menga qara-chi, xo‘sh, u yerda nima gaplar o‘zi? Aytib ber!” yoki “Axir sen *endi* mana shunday kuchli hissiyotlarni qalbingdan o‘tkazishing ajoyib emasmi?” Bolani mazkur bosqichda qo‘llab-quvvatlagan holda, siz unga aniq shunday tushunchani berasiz: uning uchun muhim bo‘lgan nimaiki bo‘lsa qalbingizni to‘lqinlantiradi va siz hamisha uning yonidasiz. Sizning hech bir e’tirozsiz yordamingizni olib, u kelgusida yana va yana bu yordamga oshiqadi.

London Universiteti kolleji tadqiqotchilari sevishgan yoshlar o‘z “yarim”lari haqida o‘ylagan paytlarida ular ongidan nusxa ko‘chirishdi va “darhol miyaning to‘rtta qismlarida katta faollik” yuz berishini aniqlashdi. Shu tariqa, sevishish - bu hamma taraflama qamrab oladigan hisiyot bo‘lib, ongga ham, tanaga ham deyarli to‘liq ta’sir qilishi haqidagi fikr tasdiqlandi [2].

Milliy kampaniya tashkilotchilari o‘smirlar o‘rtasida rejasiz homiladorlikni bartaraf etish bo‘yicha o‘tkazgan savol-javoblarini “Talking Back” sarlavhasi ostida to‘plam qilib nashr etdi: Bir o‘smir iltijo qiladi: “Biz bilan jinsiy aloqa, sevgi, munosabatlar haqida ochiq gaplashing. Agar sizdan kichik yoshli bo‘lsak, bu bizning sevishga layoqatsiz ekanimizni bildirmaydi... Biz uchun bu tuyg‘ular - haqiqiy va juda kuchli. Bizga bu his-tuyg‘ularni xavfsiz, o‘zimizga ham, boshqa odamlarga ham ziyon yetkazmagan holda hal etishimiz uchun yordam bering”[3].

Agar farzandingiz sizning yordamingizni, tushuncha va sevgingizni his qilishini xohlasangiz, uning tuyg‘ularini jiddiy qabul qiling.

## 22 bob

# FARZANDGA JINSIY ALOQA BORASIDA QANDAY QOIDA YOKI CHEGARALARNI O‘RNATISH ZARUR?

Qoidalar muhim. Chegaralar zarur. Va biz ularni bolalarimiz uchun o‘rnatishimiz lozim. Ammo yodda tutish muhim, “yaqin munosabatlarsiz o‘rnatilgan qoidalar ko‘pincha qo‘zg‘olonga sabab bo‘ladi”. Har qanday cheklovlar yaqin munosabatlar va o‘zaro sevgi holatida joriy etilishi kerak. Ehtimol, siz bolangizga chegaralar o‘rnata boshlaganingizda, ushbu kitobdagi *3, 4* va *5-boblarni* o‘qib berish xalaqit bermasa kerak.

Avval qayd etganimizdek, Xudo bizga “yo‘q” deganida yoki qandaydir cheklovlar o‘rnatganida, U hamisha bizga g‘amxo‘rlik qilish va himoya etish maqsadida sevgi ila shunday qiladi. Bolalaringiz uchun jinsiy aloqa borasida cheklovlar o‘rnatayotganingizda, albatta ularga bo‘lgan sevgingiz tufayli shunday yo‘l tutayotganingizni bildiring.

Menga (Joshga) “yomg‘irpo‘sh bilan tasvirlangan surat” juda yoqadi: u g‘amxo‘rlik va himoya qoidalarini yaxshi anglatadi. Men qoidalar yomg‘irpo‘shga o‘xshash ekanligini aytyapman. Ko‘chada sharros yomg‘ir yog‘ayotganida siz uni o‘zingiz bilan olasiz va toki uning ostida bo‘lar ekansiz, u sizga g‘amxo‘rlik ko‘rsatib, himoya qiladi. Uning ostida siz aziyat chekmasligingiz mumkin, ya’ni shalabbo bo‘lib qolmaysiz. Ammo o‘z bilganingizcha tashqariga qadam qo‘ysangiz, siz g‘amxo‘rlikdan ham, himoyadan ham mahrum bo‘lib, noo‘rin qdamingiz oqibatidan aziyat tortasiz. Siz jiqqa ho‘l bo‘lasiz. So‘nggi qarorni o‘zingiz chiqarasiz.

Bolangiz shuni tushunishi muhim: siz o‘rnatgan chegaralar - uni g‘amxo‘rlik va himoya bilan qurshab olish maqsadidagi sizning xohishingiz, sizning sevgingiz mahsulidir. Endi asoslar bilan tanishib olganimizdan so‘ng, keling, sizga qanday cheklovlar o‘rnatish kerakligi haqida gaplashib olaylik. Biz beshta cheklov o‘rnatishni taklif etamiz.

### 1. UCHRASHUV

Biz hammamiz ham qachonlardir shunday katta bir savolga to‘qnash kelamiz: bolalarimizga uchrashuvga borishlari uchun qachon ruxsat berish kerak? Ko‘pchilik uchrashuvga anchayin kichik yoshda borishni boshlaydi - o‘n bir - o‘n ikki yoshda. Biroq hattoki “hamma allaqachon uchrashib yurgan” (o‘n bir va o‘n ikki yoshga to‘lmaganlar ham) bo‘lsada, bu bolalaringizning uchrashuvga borishlariga ijozat berish uchun yetarli asos degani emas.

Siz, ota-onalar, bolangiz o‘zi uchun javob bera oladigan yoshga yetganiga ishonch hosil qilganingizda, maqbul vaqt kelgan bo‘ladi. Bu esa bola o‘zi uchun muayyan ahloqiy andazalarni biz *3-bobda* yozganlarimizga muvofiq tarzda, ya’ni, Xudoning shartlariga asosan sodiqlik, poklik, vafo va sevgi namoyon etgan holda o‘rnatishga tayyor ekanligini anglatadi. Yosh yigit va qizlar bu andazalarni aniq shakllantirib, ularga amal qilishni bilishlari lozim. Mabodo ular bunga tayyor bo‘lishmasa, bosimga bardosh berolmasliklari va nikohgacha bo‘lgan jinsiy aloqaga mayl bildirishlari mumkin. Shak-shubhasiz, bunday holatda ularning uchrashuvga borishlari kerak emas.

Bundan tashqari, bolangiz va uning uchrashadigan mahbubi bilan o‘rtalaridagi farqni e’tiborga olish lozim. Milliy kampaniyaning o‘smirlar o‘rtasida rejasiz homiladorlikni bartaraf etish tashkilotchilari ota-onalarga qat’iy (va adolatli) da’vat yo‘llaydi: “Qizingizning o‘zidan ancha katta yoshdagi kishi bilan uchrashishiga qat’iy qarshilik qiling, shuningdek, o‘g‘lingizga o‘zidan ancha kichik yoshdagi qizlar bilan uchrashuviga izn bermang”[1]. Va bu kabi ogohlantirishlar davom etadi:

Yosh qizlarga kattaroq yoshdagi yigitlar o‘ta jozibador bo‘lib tuyuladi. Lekin mabodo yigit qizdan ancha katta yoshda bo‘lsa, bu ularning o‘rtasidagi munosabat nazoratdan chiqib ketishi ehtimolini oshirib yuboradi. Chegaralar o‘rnatishga urining: ular o‘rtasida ikki (ko‘pi bilan uch) yoshdan ortiq farq bo‘lmasligi kerak, aks holda jismoniy kuch borasidagi farq bois qiz o‘zi istamagan xavfli jinsiy aloqa iskanjasiga tushib qolishi mumkin[2].

“Focus on the Family” Amerika masihiylik tashkiloti oilalarni shakllantirish tadqiqotlari bo‘limi direktori Glenn Stenton tushuntirishicha, “o‘smirlar uchun tushunarli qoidalarni o‘rnatgan ota-onalar bolalarining jinsiy aloqadagi faolligidan kamroq aziyat chekadilar. Bunday ota-onalar mo‘‘tadil qoidalar o‘rnatishadi, bolalari qayoqqa va kim bilan borayotganini puxta nazorat qilishadi, shuningdek, bolalari oqilona “komendantlik soati”ga rioya etishlarini talab qilishadi[3].

## 2. KO‘NGILOCHAR OAV

Tadqiqotlarning ko‘rsatishicha, “ochiq sahnali teleshoularni ko‘rayotgan o‘smirlar katta ehtimol bilan jinsiy aloqaga kirishishni barvaqt boshlaydilar; televizor qarshisida ko‘p vaqt o‘tkazadigan o‘smirlar bokiralikda qanaqadir salbiylikni nazarda tutishga moyildirlar; va nihoyat, ochiq sahnali dasturlarni o‘zlari uchun odatiy hol sifatida qabul qiladigan o‘smirlar ularning ta’siriga osongina tushib qolishadi”. Dastlab qayd etilgan so‘zlarni eslaylik, “zamonaviy bolalar maktabga borishni boshlashlaridan avval televizor qarshisida besh ming soatni o‘tkazishadi”[4]. Darvoqe, endilikda bolalar yoppasiga jo‘r bo‘lib Internetni televideniyedan afzal ko‘rishmoqda[5].

Siz o‘rnatgan qoidalar bolangiz qayerda va qancha vaqt televizor ko‘rishi yoki boshqa OAVga murojaat qilishi vaqtining miqdorini, muddati va joyini chegaralab berishi zarur.

## 3. SPIRLI ICHIMLIKLAR VA GIYOHVAND MODDALAR

Biz farzandlarimizga spirtli ichimlik ichgan yoki giyohvand modda iste’mol qilgan odam nafaqat ahloq doirasida o‘zini boshqarolmasligini, balki qanaqadir mas’uliyat ham ko‘rsatolmasligini tushuntirishdan charchamaymiz. Uchrashuv paytida spirtli ichimlik yoki giyohvand moddalar qabul qilish va jinsiy aloqa o‘rtasida bog‘liqlik,- u o‘zaro qovushish bo‘ladimi yoki oral jinsiy aloqami - borligini qayd etishning o‘zi yetarli. Bundan bir necha yillar muqaddam “Yoshlarning tavakkal harakatlarini kuzatish bo‘yicha hisobot” quyidagilarni ko‘rsatgan:

- Bugungi kunda faol jinsiy aloqada bo‘lgan talabalarning 26%i (30,9 % erkaklar va 20,7% ayollar) so‘nggi jinsiy aloqa paytida spirtli ichimlik yoki giyohvand modda iste’mol qilishganini aytgan.
- Hozirgi kunda faol jinsiy aloqada bo‘lgan o‘n ikkinchi sinfdagi 25%, o‘n birinchi sinfdagi 24,7%, o‘ninchi sinfdagi 27,7% va to‘qqizinchi sinfdagi 24% o‘quvchilarning oxirgi jinsiy aloqa paytida spirtli ichimlik yoki giyohvand modda qabul qilishganini bildirishgan.
- Bugungi kunda faol jinsiy aloqada bo‘lgan qora tanli talabalarning 17,8% , Lotin Amerikalik talabalarning 24,1% va oq tanli talabalarning 27,8%, oxirgi jinsiy aloqa paytida spirtli ichimlik yoki giyohvand modda iste’mol qilishganini aytishgan[6].

## 4. KATTALAR YO‘QLIGIDA UYDA VAQT O‘TKAZISH

Tadqiqotlarning ko‘rsatishicha, o‘smirlar odatda maktabdan so‘ng toki ota-onalari ishdan qaytgunigacha bo‘lgan vaqt oralig‘ida jinsiy aloqa qilishadi. Qoidalar o‘rnating: kattalar uyda bo‘lmaganida qarama-qarshi jins vakili bo‘lgan “do‘stlar” bu yerga kelmasligi kerak. Bola taajjublanishi mumkin: “Jiddiy aytyapsizmi? Ona, ota, nima, sizlar menga ishonmaysizlarmi?” Bu sizning yagona maqsadingiz - sevgi, g‘amxo‘rlik va ularni himoya qilish istagi ekanligini tushuntirishning ayni vaqti.

education.com sayti quyidagi ma’lumotlarni keltiradi:

- haftasida besh yoki undan kamroq soatlar uyda yolg‘iz qoldirilgan 75% yosh yigitlar va 59% qizlar jinsiy aloqada bo‘lganliklarini aytishgan; haftasida o‘ttiz va undan ko‘proq soatlar uyda nazoratsiz qoldirilgan yoshlarda esa bu daraja yanada yuqori - 87% yosh yigitlar va 72% qizlar.
- Uyda haftasida besh yoki undan kamroq soatlar yolg‘iz qolgan 5,7% yosh yigitlar va 15% qizlarning aytishicha, ular jinsiy aloqa orqali o‘tadigan xastalikni yuqtirishgan; haftasida o‘ttiz va undan ko‘proq soatlar nazoratsiz qoldirilgan yoshlarda bu xastalikni yuqtirish darajasi yanada yuqori - 13,6% yosh yigitlar va 19,5% qizlar.
- 43% yosh yigitlar va 27% qizlar oxirgi marotaba o‘z uylarida jinsiy aloqa qilishganini aytishgan[7].

Shu o‘rinda “Harvest USA” tomonidan berilgan bir salmoqli maslahatni keltirib o‘tamiz:

O‘z uyidan boshqa joyda tunab qolish pornografiya yoki boshqa jinsiy aloqaga daxldor tajribalarni tomosha qilish uchun sabab bo‘lishi mumkin. E’tiboringizda bo‘lsin, boshqa oilalar (hatto jamoatga boradiganlar ham) zamonaviy texnologiya bilan bog‘liq xatarning naqadar jiddiy ekanligini sizdek his qilmasliklari mumkin. Bolalaringiz mabodo ularga isnod keltiradigan vaziyatlarda xavfni sezib qolishsa, harakat qilishning (ularni olib ketishlari uchun uyga qo‘ng‘iroq qilishgacha bo‘lgan) aniq rejasiga qat’iy rioya etishlariga ishonch hosil qiling.

## 5. KOMPYUTER, QO‘L TELEFONI, SMARTFON, INTERNET

Bizning kunlarimizda Tarmoqqa ulanishning 50% dan ko‘prog‘i kompyuterlar orqali emas, balki cho‘ntakda joylashadigan (smartfonlar, iPad, Kindles va hokazo) qurilmalar orqali amalga oshiriladi. Hozirda ko‘plab ota-onalar uydagi kompyuterlar ko‘rinarli joyda (yotoqxonada emas) turishini va bolalarning uxlash vaqtida Internetga ulangan barcha qurilmalar ota-onaning xonasida bo‘lishi lozimligini talab qilishmoqda.

“Harvest USA” - masihiylik tashkiloti bo‘lib, jamiyatning jinsiy aloqaga doir bosimiga qay yo‘sinda qarshilik ko‘rsatish yuzasidan jamoatlarda va oilalarda bolalarga saboq beradi. Mazkur tashkilotning xodimlari ota-onalarga shunday tavsiya beradi:

> Mayli, zamonaviy texnologiyalar bilan bog‘liq xavf-xatarlar bolalaringizga Xudoni tanib yashashiga xalaqit bermasligi uchun siz sevgingiz kuchi bilan ularni kuzatib borishingizni bila qolishsin. Ularga o‘z hushyorligingizdan tengdoshlari tomonidan o‘tkaziladigan bosimga qarshi himoya sifatida foydalanishlarini taklif eting. Shunda ular to‘g‘ri kelgan paytda shunday aytishlari mumkin: “Men bunday qilolmayman, negaki bu haqda ota-onam bilib olishlari muqarrar”. Bu o‘smir-masihiylar katta ehtiyoj sezadigan qo‘shimcha himoyani ta’minlaydi[8].

Yovvoyi G‘arb davrida ayrim muassasalarda “kirish oldidan qurolni topshirish” talab qilingan. Bundan maqsad, muassasaga keladiganlarning xavfsizligini ta’minlash uchun shunday yo‘l tutilgan. Qarangki, bir yosh onaning xayoliga yaxshi fikr kelibdi: bolalarini himoya qilish uchun yuqoridagi holatga o‘xshash qoidani amalga kiritibdi. Bolalarining do‘stlari mehmon bo‘lib kelishganida, shunday derkan: “Kirish oldidan smartfonlaringizni menga topshiring”. Ayol bolalarning o‘z xotira kartalaridan foydalanib, samartfonlarida pornografik tasvirlarni saqlashlari va Internetga kirishga zarurat sezmagan holda birgalikda ularni tomosha qilishlari mumkinligini bilarkan. Shu tariqa, xonadonida bu kabi holatlarni bartaraf etish uchun, ayol eshik oldida smartfonlarni yig‘ishtirib olib, bolalar qaytishayotganida o‘zlariga qaytarar ekan... Yovvoyi G‘arbda qurol bilan qanday yo‘l tutgan bo‘lsalar, xuddi shu tarzda.

Internetdan foydalanish bo‘yicha “Harvest USA AQSh hosili” shunga da’vat etadi:

> Sifatli internet-filtrni sotib oling! Uyda biror-bir to‘siq qurilmasi va tozalash tizimi bo‘lmagan holda Internetga kirish imkoniyatining berib qo‘yilishi aqlli ish emas. Balki, oilaning Internetdan foydalanadigan har bir a’zosi - ota, ona, bolalarning har biri, - “hisob-kitob dasturi”ning ishtirokchilari bo‘lishlari mumkin, misol uchun, bunda ishtirok etayotgan barchaga Internetdan noo‘rin foydalanilgan paytda elektron xabar yo‘llaydigan “Covenant Eyes” dasturini aytishimiz mumkin. Ota-onalar Internetga kirish yuzasidan hisobdorlik bo‘yicha bolalariga ibrat ko‘rsatishlari zarur. Siz ham bolangiz oldingizda hisobot beradigan kishilardan biri bo‘lishingiz mumkin[9].

E’tibor bering-a, tozalash dasturlarini mobil qurilmalari uchun ham olishingiz mumkin.

Biz *19-bobda* bir qancha “hisobot dasturlari”ni keltirib o‘tdik, ammo ularni yana bir bora sanab o‘tmoqchimiz:

| | |
|---|---|
| X3 Watch - pullik / bepul | www.x3watch.com/ |
| Total Net Guard - pullik | http://afo.net/ |
| Bsecure - pullik | www.bsecure.com/ |
| Net Nanny - pullik | www.netnanny.com/ |
| Covenant Eyes - pullik | http://covenanteyes.com/ |
| K9 Web Protection - bepul | www1.k9webprotection.com/ |
| Safe Eyes - bepul | www.internetsafety.com/ |

| | |
|---|---|
| Cyber Sitter - pullik | www.cybersitter.com/ |
| Pure Sight - pullik | www.puresight.com/ |

Bundan tashqari,

brauzerda yozilganlarni, qo‘l telefonidagi xotirani, chatlardagi yozishmalarni, YouTube-dan ko‘chirilgan roliklarni tekshiring; shuningdek, MySpace (va Facebook) sahifalarini va bolangiz do‘stlarining ro‘yxatini qarab chiqing, uning sheriklarini umumiy miqyosdagi onlayn-o‘yinlar to‘plamidan bilib oling. O‘smirlarga tajriba o‘tkazish imkonini beradigan MySpace kabi saytlardan foydalanishga ruxsat berishda ehtiyot bo‘ling, negaki ikki yoqlama hayot ularga soxta yaqinlik tuyg‘usini yoki qandaydir virtual uyushmaga aloqadorlik tuyg‘usidan tortib toki haqiqiy olamdan yuz o‘girish istagigacha ularga singdirishi mumkin[10].

Siz o‘z oilangizda o‘rnatishingiz zarur bo‘lgan boshqa ko‘plab chegaralar ham bor. Jinsiy zo‘ravonlikka daxldor - u jismoniy yoki og‘zaki tarzida bo‘lmasin - yana bir jiddiy tushuncha bor. “Health and Fitness” portalida e’lon qilingan “Bolalarni sog‘lom jinsiy aloqaga o‘rgatish” nomli maqolada shunday tushuntiriladi:

Ota-onalar zimmasidagi eng muhim vazifalardan biri - bolalarni boshqalarning shaxsiy olamiga va boshqalarning jinsiy a’zolariga hurmat bilan tarbiyalashdan iboratdir. Bola “hech qanday teginishsiz” qoidasini o‘rganishi mumkin: “Iltimos, boshqa odamlarning jinsiy a’zolariga tegma”, “Qo‘llaringga erk berma”, “Mabodo sening jinsiy a’zolaringga birov tegsa, iltimos, bu haqda menga aytgin”[11].

Mana, oilada o‘rnatish zarur bo‘lgan chegaralar. Bolangizning jinsiy a’zolariga tegmoqchi bo‘lgan har qanday odamga (hatto qarindoshga ham) qat’iy turib “yo‘q” deyishiga ruxsat bering. Muntazam uqtiring: bunday vaziyatda “yo‘q” deyish - yaxshi va maqbul, shundan so‘ng esa barchasi haqida sizga aytib bersin.

Bolangiz uchun o‘rnatilgan cheklovlar biz avvalroq aytib o‘tgan yomg‘irpo‘shga o‘xshaydi. Ulardan har biri bolangiz foydasi uchun xizmat qiladi va unga bo‘lgan sevgingizni, himoya qilishga bo‘lgan intilishingizni, uning manfaatlari yo‘lida qayg‘urayotganingizni yana bir bora namoyon etadi. Eng avvalo, hattoki qoidalar unga mutlaqo yoqmasa ham, mulohazalaringizga fikran bog‘lana olmayotgan bo‘lsa ham, sizning barcha harakatlaringiz asosida sevgi yotganligini bolangiz bilib qo‘ysin. Asosiysi, siz uni sevishingizni tushunishi kerak.

**23 bob**

# O‘SMIRLARNING NIKOHGACHA “TOQAT” QILISHLARI HAQIDAGI FIKRLAR HAQQONIYLIKKA MOS TUSHADIMI?

Men (Josh) bir vaqtlar Kaliforniya shtatidagi Los-Anjeles katta yo‘llaridan mashinada ketayotganimda, ko‘chada shunday so‘zlar bitilgan reklama taxtasini ko‘rib qoldim: “Mabodo jinsiy aloqa qilishga sabring chidamayotgan bo‘lsa, prezervativdan foydalan”. Buni ko‘rib, xayolga botdim: “Bu qanaqasi bo‘ldi - “jinsiy aloqa qilishga sabring chidamayotgan bo‘lsa”? Axir jinsiy aloqa - hayot kechirishning mutlaqo zaruriy bir qismi emasmi? Axir jinsiy aloqasiz hayot mavjud bo‘lmaydi-ku, misol uchun, suvsiz yashab bo‘lmaganidek, shunday emasmi?”

Bundan bir necha yillar muqaddam Qo‘shma Shtatlarda va butun jahonda “jinsiy aloqa bo‘yicha mutaxassis” sifatida dong taratgan va o‘zini doktor Rut deya atagan o‘ta mashhur bir ayol paydo bo‘lgandi. Past bo‘yli keksa bu ayol ba’zan qo‘pol hazillarga o‘tib ketardi va uni talabalar oldida chiqish qilishi uchun tez-tez taklif etib turishardi.

Sinsinnati universitetidagi chiqishi paytida talabalardan biri so‘rab qoldi: “Doktor Rut, kutishga ortiq sabr qilolmasam nima bo‘ladi?” “Yigitcha, - javob qaytardi ayol, - kutishga qodir ekanligingiz haqidagi fikr haqiqatga to‘g‘ri kelmaydi. Bu holatda hirsingiz nihoyatda kuchli”. Auditoriya quloqni yoradigan darajadagi qarsaklardan larzaga tushdi.

Keling, ana shu nuqtai nazar yorug‘ligidan keyingi savolga qaraylik: “Xo‘sh, agar men xohlasam ham, sevgan qizim jinsiy aloqa qilishni istamasa-chi?” Bu yigitning kutishi haqidagi fikr haqqoniylikka mos tushadimi? Axir, doktor Rut, unga nihoyatda kuchli hirs borligini aytmadimi? Demak, agar odam, aytishganlaridek, qistalang bo‘lib qolsa, u chidab turadi deb o‘ylash noto‘g‘ri, shundaymi? Demak, zo‘ravondan ham boshqa nimanidir kutish haqiqatga to‘g‘ri kelmaydimi?

Doktor Rut va butun bir yosh avlod shuni bilishgani xalaqit bermasdi, ya’ni biz, odamlar, his-tuyg‘ular va betizgin istaklar boshqaradigan hayvonlardan farqli tarzda Xudoga monand qilib yaratilganmiz. Jinsiy aloqa - bu insonning erkin tanlovi. Men ishonamanki, doktor Rut va boshqa ko‘plab “jinsiy aloqa mutaxassislari” agar ayol jinsiy aloqa bilan shug‘ullanishga tayyor bo‘lmasa, erkak o‘zini tiyishga va kutishga qodirligi haqidagi fikrga qo‘shilishadi. Qonun ayolni jinsiy aloqaga majburlashni ta’qiqlaydi.

Xo‘sh, erkak hirsi haddan ziyod kuchlimi yoki baribir bunday emasmi? Bolalarimiz ongiga shuni singdirishadiki, agar qiz jinsiy aloqa qilishni istasa... demak, yigitning hirsi o‘ta kuchli. Xo‘sh, agar qiz xohlamasa-chi? Bu holda unchalik kuchli emasmi? Sizni hech nima hayron qoldirmayaptimi? G‘alati, tuturiqsiz va shunchaki mantiqsiz nuqtai nazar. Bunday yondashuv bilan, ta’rif berganlaridek, to‘ygacha “toqat” qilolmaydigan o‘sha yosh yigit-qizlar oilaviy hayotda sadoqatni asrab qolisharmikan? Agar uylangan erkak jinsiy aloqa qilishga tayyor boshqa ayolni uchratib qolsa, o‘z xotiniga sadoqat ko‘rsatishini kutish to‘g‘rimi?

Biz bolalarimizni poklikka erishish mumkinligiga va buni Xudo ham, umumiy ahloq ham talab qilishiga ishontirishimiz zarur. Tananing boshqa a’zolari bilan emas, bosh bilan fikrlash kerak. Jinsiy aloqa - insonning erkin tanlovi bo‘lib, o‘z ortidan turli oqibatlar olib keladi, ular ijobiy ham, salbiy ham bo‘lishi mumkin.

Avval Kaliforniya Qora tanli Go‘zali deya atalgan Lakita Gart bir intervyuda bu haqda shunday degandi:

> Bir necha yillar avval men Fanta ichimligining reklamasida suratga tushdim. Tanaffus chog‘ida to‘satdan oldimga bir notanish qiz kelib so‘radi: “Darvoqe, Lakita, sening hayotingda jinsiy aloqa qanday kechmoqda?” Uning dangalchiligi va takallufsizligi meni hayratga soldi. “Kechirasan, - javob qaytardim men, - ammo hozircha hayotimda jinsiy aloqa yo‘q”. Qiz gapidan qolmasdi: “Unda oxirgi marotaba jinsiy aloqa qilganingda nimalar bo‘lganini aytib bergin” va men yana shuni aytdim: “Menda aslo oxirgi jinsiy aloqa bo‘lmagan”. Nazarimda, uning jag‘i osilib qolgandek bo‘ldi. “Ishongim kelmaydi! - davom etdi qiz. - Atrofingda shuncha yigitlar bor, sen esa chidab yuribsan-a! Har holda sen hayotda nimalarni boy berayotganingni tasavvur qilarsan?” - Bilasanmi, har qalay, sen haqsan, - javob berdim men. - Men hayotda ko‘p narsani boy berganman. Misol uchun, ertalab uyg‘onganingda homiladorlik haqidagi test nimani ko‘rsatishidan tashvishga tushasan, men esa o‘sha hayajon titrog‘ini boy berganman. Yoki sevimli yigiting seni kasalxonaga abort qildirish uchun olib boryapti, negaki sen va chaqalog‘ing bilan umrining oxirigacha birga qolishni

istamaydi, men ana shunday holatdagi qizning kechinmalarini boy berganman. Xonamda birga yashaydigan ayol har yili tayin bir kunda ko‘z yoshlari bilan tug‘ilmagan bolasini yodga olib, tavba qilayotganda nima his qilishini men bilmayman. OITSga chalingan do‘stim Rod uyg‘ongan paytida boshi uzra kasalxona shiftini ko‘rgan, men esa bu imkoniyatni qo‘ldan chiqarganman. Rod o‘zini haqiqiy erkak hisoblab, bundan faxrlanib yurardi. U go‘yo atrofdagi hamma “shu bilan” mashg‘ul ekanligi haqidagi yolg‘onga laqqa tushgandi. U o‘limi oldidan men o‘z yo‘limdan qaytmasligimni o‘tinib so‘radi. Xullas, o‘ylashimcha, sen mutlaqo haqsan! Men hayotda ko‘p narsani boy berganman”[1].

Har qanday tanlov o‘z ortidan oqibatini olib keladi. Mabodo farzandlaringiz to‘ygacha jinsiy aloqa qilmaslikni afzal ko‘rishsa va keyinchalik nikohda ham sadoqatli bo‘lib qolishsa, xayriyatki, ko‘plab og‘riq va qalb azoblarini “boy berib qo‘yishadi”. Shu bois, yoshlardan ahloqan to‘g‘ri qaror qilishlarini kutish kalta fikr emas. Biz faqatgina toza jinsiy aloqa va sadoqat ila yashash - bizga g‘amxo‘rlik ko‘rsatishni va himoya etishni istagan Xudoning amrlariga binoan hayot kechirish ekanligini bolalarimiz ongiga singdirishimiz lozim.

**24 bob**

# FARZANDNI QARAMA-QARSHI JINS VAKILLARI BILAN O‘ZINI TO‘G‘RI TUTISHGA QANDAY O‘RGATISH MUMKIN?

Qarama-qarshi jins vakillari bilan yoshlar o‘rtasidagi muloqotda chegaralar yo‘qligi sizni hayron qoldirmaydimi? Yaqin atrofdagi savdo markaziga borganingizda hozirgi o‘n ikki, o‘n uch yoki o‘n to‘rt yoshli o‘smirlar o‘zlarini qanday tutishlariga e’tibor qaratganmisiz? Xuddi hech kim ularga ahloq me’yorlarini yoki yosh yigitlar qizlarga qanday munosabatda bo‘lishi kerakligini o‘rgatmaganga o‘xshaydi. Xo‘sh, bolalaringizni qarama-qarshi jins vakillariga hurmat bilan yondashishlari uchun ularni qanday tarbiyalash kerak? Mabodo biz ularni murg‘aklik davridan boshlab shunga o‘rgatsak, bu kelajakda ularga toza jinsiy aloqani saqlashga yordam berishi mumkin.

Eng samarali va ishonchli uslub - o‘z nikohi misolida hurmat va sevgi namunasini ko‘rsatishdir. Bolalar bizning munosabatlarimiz va hatti-harakatlarimizni kuzatib, qarama-qarshi jins vakilini hurmat qilish yoki hurmat qilmaslikni o‘rganadi.

Bu qanchalik g‘alati eshitilmasin, ammo qizalog‘ini o‘g‘il bolalarga nisbatan hurmat ruhida tarbiyalamoqchi bo‘lgan ota uchun eng yaxshi usullardan biri, bu o‘z qizini uchrashuvga taklif etishdan iborat. Qizaloq uchun bu holat uchrashuvlardan umuman nima kutsa bo‘lishini tushunishiga yordam beradi. Bu bizning qizlarimizga juda ijobiy ta’sir ko‘rsatgan. Katta qizimiz Kelli hikoya qiladi:

> Men hali ancha yosh bo‘lganimda, otam meni va singlimni uchrashuvga taklif etib shunday dedi: “Agar bo‘lajak yigiting o‘zini mendek tutmasa, undan voz kechib yubor”. U bizga eshik ochdi, juda iltifot ko‘rsatdi, biz bilan ehtirom ila gaplashdi - umuman aytganda, erkak ayol oldida o‘zini qanday tutishi kerakligini ochiq-oydin ko‘rsatdi. Bu men uchun qanday ahamiyatli bo‘lganligini mana endi to‘liq anglayapman. Uchrashuvlar kimningdir menga bosim o‘tkazishi emas, balki men uchun yigitni yaxshiroq bilib olish imkoniyati bo‘lgan. Otam uyushtirgan bu uchrashuvlar kelajakda o‘zim uchun yoqimsiz bo‘lgan narsalarga rozi bo‘lish hissini sezmasligim uchun uning ayyorona g‘amxo‘rlik usuli edi. Bu bosimga qarshi turish va shaxsiy chegaralarimni himoya qilishda menga yordam bergan mayda-chuydadek tuyuladi.

Nikoh va oila masalalari bo‘yicha maslahatchi, doktor Kori Allan tavsiya qiladi: “Mabodo qizingiz bor bo‘lsa, uni uchrashuvlarga taklif etishni kechiktirmay boshlang. Unga erkak o‘zini qanday tutishi kerakli borasida namuna ko‘rsating: uning qarshisida eshik oching, u bilan suhbatlashing va uni ham tinglang, binoyidek kiyinib oling. Bu esa qizga kelgusidagi uchrashuvlar uchun yanada yuqori darajalar o‘rnatishiga yordam beradi. O‘g‘illar masalasida ham bunday yondashuv adolatlidir. Onalar ham xonimlar o‘zini qanday tutishini ko‘rsatish uchun o‘g‘illari uchrashuvga taklif etishlari mumkin”[1].

Agar siz ota bo‘lsangiz, ba’zi-ba’zida qizingizni uchrashuvga taklif etish uchun vaqt toping. U bilan yoqtirgan taomini birga tanovul qilish uchun biror yoqqa olib boring, ko‘ngilxushliklari bilan o‘rtoqlashing. Agar ona bo‘lsangiz, o‘g‘lingiz bilan biror joyga boring. Unga har bir ayol qanday munosabatni istashini ko‘rsatib bering. Bolani qarama-qarshi jins vakillari qanday munosabatda bo‘lishga o‘rgatishning eng yaxshi usuli - bu ularga yaqqol ibratni ko‘rsatishdir.

## 25 bob

# OCHIQ MAZMUNDAGI SMS-XABARLAR JO‘NATILISHIGA QANDAY YONDASHISH LOZIM VA BU BORADA NIMALAR QILMOQ KERAK?

Hozirgi kunda mobil telefoni egalari jinsiy aloqa mavzuidagi videorolik va fotosuratlarni o‘zaro tez-tez almashtirib turishadi.

Mana, hozirgi oilalar to‘qnash keladigan haqiqiy holat:

- o‘n ikki yoshdan o‘n yetti yoshgacha bo‘lgan 75% o‘smirlar mobil telefonlariga ega, ulardan 88% o‘zaro SMS-xabarlar jo‘natib turishadi. O‘smir o‘rtacha miqdorda bir oyda 3146 xabar yuboradi, o‘n ikki yoshdan o‘n to‘qqiz yoshgacha bo‘lgan bolalar esa har oyida 1146 xabar jo‘natishadi[1]. Bunday ma’lumotlar kattalarni ajablantirishi mumkin, lekin bu o‘rinda hayron qoladigan hech nima yo‘q: bolalar qayerda bo‘lmasinlar - maktabda, uyda, savdo markazida, - qo‘l telefonlaridan “uzilib ketishmaydi”. Shu bilan birgalikda o‘smirlar ko‘pincha yuqori texnologiyalardan behayo mazmundagi SMS-xabarlarni o‘zaro almashtirib turishda foydalanishadi. Ehtimol, siz bu haqda avval bilmagandirsiz, ammo:
- 20% o‘smirlar yalang‘och yoki yarim yalang‘och holda o‘zlari qatnashgan videoroliklar yoki fotosuratlarni yuborishgan yoki barcha ko‘rishi mumkin tarzda joylashtirishgan.
- 39% o‘smirlar jinsiy aloqa mavzuidagi xabarlarni joylashtirishgan yoki bir-birlariga yuborishgan.

Jinsiy aloqa mavzuidagi tasvirlarni yoki xabarlarni yuborganlar orasidan:

- 71% yosh qizlar va 67% yosh yigitlar bu kabi materiallarni “o‘z yigiti yoki qiziga” jo‘natganini aytgan.
- 21% yosh qizlar va 39% yosh yigitlarning aytishicha, bunday mazmundagi materiallarni o‘zlari uchrashmoqchi bo‘lgan kimgadir yuborishgan.
- 66% yosh qizlar va 60% o‘g‘il bolalar buni “ko‘ngilxushlik uchun” yoki “tekshirib olish” uchun qilganlarini bildirishgan.
- 40% yosh qizlar aytishicha, ular jinsiy aloqa mavzusidagi matnli xabarlarni yoki tasvirlarni “hazillashish uchun” yuborishgan[2].

Biroq aslida o‘smirlar nazarida hazil yoki oddiy noz-karashma bo‘lib tuyuladigan bu holat jinoyat hisoblanadi. Keyingi bir necha yil ichida ko‘plab o‘smirlar telefon orqali jinsiy aloqa mazmunidagi tasvirlarni yuorishgani uchun jinoiy javobgarlikka tortilishgan. Qonun bo‘yicha, bu bolalar pornografiyasini tayyorlash va aylantirish hisoblanadi. O‘smirlar jinsiy suratlarni yuborish shaxsiy ish, bu haqda hech kim hech qachon bilmaydi deya o‘ylashadi, lekin ularning o‘rtoqlari va dugonalari boshqalarga bunday suratlarni osongina ko‘rsatishaveradi.

### XO‘SH, NIMA QILMOQ KERAK?

Yoshlar bilan ishlash bo‘yicha mutaxassis El Menkoni bizga beshta amaliy g‘oyani taklif etadi:

- Bolangizga bunday tarzdagi qo‘l telefoni kerakmi yoki kerak emasligi haqida jiddiy o‘ylab ko‘ring.
- Muayyan cheklovlar o‘rnating. Ovqatlanish, maktabdagi mashg‘ulotlar, oilaviy sayrlar vaqtida hech qanday o‘zaro xabar almashishlar bo‘lmasin. Ha! Va albatta, qo‘l telefonlarini tunda o‘chirib qo‘ying!
- Agar boshqa biror narsaga mo‘ljallangan bo‘lmasa, hech qanday o‘zaro xabar almashishlar bo‘lmasin. Bu o‘rinda birinchi navbatda avtomobilni boshqarish masalasi turadi. So‘rovda qatnashgan haydovchilarning deyarli yarmi avtomobilni boshqarib ketayotganda telefon orqali o‘zaro xabar almashishlarini aytgan. Bir qancha shtatlarda mashinani boshqarish paytida xabar almashish qonunga zid deya e’lon qilingan.
- Suiiste’molchilikning oqibatlari haqida farzandingiz bilan yaxshilab gaplashib oling. Yolg‘on, nomaqbul xabarlar va butunlay beadab yozishmalar va h.k.z. - bularning barchasi sizning ta’qiqlaringiz ostida

bo‘lishi zarur. Nojo‘ya ishning xatarli ekanligini uqtirib qo‘ymoqchimisiz? Bolangizdan bir hafta muddatga qo‘l telefonini olib qo‘ying.

- Mabodo bolangiz kimdir bilan ahloqsiz xabarlarni almashib turishiga shubha qilsangiz, har vaqt uning avvalgi yozishmalarini qarab chiqishingiz mumkin. Ha, bu poylab yurishga o‘xshaydi, biroq ota-onalikning asosiy vazifasi shundan iboratki, bolangiz zamonaviy texnologiyalardan mas’uliyat bilan va o‘ziga ziyon keltirmagan holda foydalansin[3].

Xudo bizni jinsiy aloqa qiladigan mavjudotlar sifatida yaratgan, lekin jinsiy aloqa ham sog‘lom, ham nosog‘lom usullar bilan ifodalanishi mumkin. Jinsiy aloqa mavzusini yoritish bo‘yicha murabbiy Logan Levkoff shunday uqtiradi: “Bolalar o‘z jinsiy mayllarini ifodalash uchun sabab axtarishadi, ayniqsa, uchrashuvga borish va “bu bilan” shug‘ullanish ularga ta’qiqlanganini eshitganlaridan so‘ng. Zamonaviy texnologiyalar ularga mavjud olamda biror-bir harakat sodir etmay, o‘z jinsiy mayllarini ifoda etish imkonini beradi[4].

Bolalarimizga muayyan qoidalarni shunchaki yopishtirib qo‘yish o‘rniga, biz ularni inson organizmidagi bunday hodisa haqidagi suhbatga tortish uchun jinsiy yo‘nalishdagi yozishmalar mavzusidan foydalanishimiz mumkin. Xudoning jinsiy aloqaga oid rejasi haqida bolangiz bilan suhbatlashish uchun yaxshi imkoniyatni boy bermang. Ular behayo mazmundagi SMS-xabarlar bilan ko‘pincha ikkita sababga ko‘ra almashinishadi: birinchidan, o‘z jinsiy maylini bildirmoq uchun, ikkinchidan, tengdoshlaridan orqada qolib ketmaslik uchun. Hayotning bunday barvaqt pallasida ular - xuddi barchamiz kabi - o‘zlarining qabul qilinishlarini istashadi. Farzandingizga jinsiy aloqa haqida gapirib bergan holda, siz aslida unga yangi his-tuyg‘ularini, yangi hayotiy kechinmalarini  tushunishga yordam berasiz,  Bola siz bilan muloqot jarayonida o‘z tuyg‘ularini ko‘pincha maktabda, teledasturlarda yoki Internetda bildirganlari kabi emas, balki sog‘lom tarzda ifoda etishga o‘rganadi

26 bob

# FARZANDINGIZ JINSIY BOSIMGA QARSHILIK KO‘RSATISHI UCHUN UNGA QANDAY YORDAM BERISH MUMKIN?

Hozirgi bolalar nikohgacha bo‘ladigan jinsiy aloqa targ‘ibotining ulkan bosimi ostida turishibdi. Ular jinsiy yaqinlikni Xudo yaratganini va bu borada bejiz muayyan chegaralar o‘rnatmaganini anglashlari lozim, shuningdek, bu haqda farzandlar bilan yaqin va ishonchli munosabatlar holatida gaplashish kerak. Bu haqda biz kitobimizning dastlabki beshta bobida batafsil so‘z yuritdik. Ammo farzandlarni duch kelishlari mumkin bo‘lgan bosimga qarshi tayyorlash ham bundan kam ahamiyatli emas.

Ijtimoiy bosimlar (ayniqsa tengdoshlar tomonidan) o‘smirlarning hayotiga juda kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Gij-gij qilishlar va pisanda gaplarga qarshi tayyorlanmagan bolalar ularga qanday qarshilik qilishni bilishmaydi. Eng avvalo, bolangizga quyidagilarni egallab olishiga yordam bering:

- Garchi yon-atrofdan shunga o‘xshash tasavvur tug‘ilsada, tevarakdagi barcha ham “shu bilan” shug‘ullanmaydi.
- Jinsiy aloqadan voz kechish o‘smirni “nozikvoy” yoki “go‘dak”ka aylantirib qo‘ymaydi. Aksincha, o‘zini saqlash uning barcha “rozi” va “qarshi” tomonlarni diqqat bilan o‘rganib shu qarorga kelganini ko‘rsatadi: nikohgacha bo‘lgan jinsiy aloqa uning manfaatlarini himoya qilmaydi va to‘g‘ri qaror hisoblanmaydi.
- Jinsiy aloqa o‘smirni katta odamga aylantirib qo‘ymaydi.
- Jinsiy aloqa hech bir holatda kimningdir sevgisini isbotlab bermaydi.
- Jinsiy yaqinlik hech qachon susayib qolgan munosabatlarni saqlab qalolmagan va ajralish xavfini bartaraf etmagan.
- O‘z-o‘ziga to‘g‘ri baho berish o‘smirga tengdoshlari tomonidan bildiriladigan gij-gijlarga va masxaralarga qarshi turishida yordam beradi. O‘z qadr-qimmati haqida qoniqish tuyg‘usiga ega bo‘lgan o‘smir, zo‘r berib o‘zini qabul qilishlarini va “haybarakalla” izlaydigan boshqalardan farqli tarzda ijtimoiy bosim holatida egilmaydi.
- O‘g‘il yoki qiz bolaning manfaatlariga to‘g‘ri kelmaydigan harakatlarga ularni majburlashganida, foydalansa bo‘ladigan tayyor javoblar “andaza”si bor.

Quyida bolangiz uchun ko‘proq foydali bo‘ladigan javoblar keltirilgan. Ularni asta-sekin o‘zlashtirib borgan afzal, ammo bir marotabada bitta-ikkitadan. Bu so‘zlar chindan ham vaziyatni asrashi mumkin.

## GIJ-GIJLAR VA ULARGA NISBATAN TO‘G‘RI JAVOBLAR[1]

| Luqma | Javob |
|---|---|
| *“Qo‘ysangchi axir, atrofda hamma shu bilan shug‘ullanadi!”* | “Bu meni qiziqtirmaydi - men hamma emasman. Atrofdagi hamma shunday qilishayotganini doim gapirib yurishadi” |
| *“Agar meni sevganingda edi, to‘shakda men bilan yotgan bo‘larding”.* | “Agar sen meni sevganingda edi, o‘zim xohlamagan narsaga meni majburlamagan bo‘larding”. |
| *“Agar meni sevganingda edi...”* | “Bunday so‘zlardan keyin jinsiy aloqa qilishni istamay qolarkansan, shunchaki ketib yuborging keladi”[2]. |
| *“Agar meni sevganingda, bunga rozi bo‘larding...”* | “Agar sen meni sevganingda, o‘z aytganingda turib olmagan bo‘larding!” |
| “*Agar rad etsang - demak, meni sevmas ekansan!”* | “Bu so‘zlaring bilan sen meni sevmasligingni bildirayapsan”. |

| | |
|---|---|
| *“Agar men bilan to‘shakda yotmasang, seni tashlab ketaman”.* | “Agar sevgan qizing to‘shakda sen bilan yotishi shart bo‘lsa, men sening sevgiling bo‘lishni istamayman”. |
| *“Nahotki men senga yoqmasam?”* | “Yoqasan. Lekin, bundan tashqari, seni hurmat qilaman. Sen yoqimtoy/chiroylisan, seni ko‘proq bilib olishni istayapman”. |
| *“Jinsiy aloqa bizning yaqinlashishimizga yordam beradi”.* | “Noto‘g‘ri, axir men homilador bo‘lib qolmaslik uchun tashvishga tushaman”. |
| *“Nega men bilan to‘shakda yotishni istamaysan-a?”* | “Xohlamayman - gap shu”. (Boshqa hech qanday izoh berish kerak emas.) |
| *“Hamma shunday qiladi”.* | “Demak, boshqa birovni topishda qiynalmaysan”. |
| *“Axir biz avval buni qilib ko‘rgandik-ku. Nega endi menga rad etyapsan?”* | “Qayta o‘ylab ko‘rishga haqqim bor. Bu mening tanam, mening hayotim, endi men to‘ygacha kutmoqchiman”. |
| *“Qo‘ysangchi, bo‘laqol. Ko‘rib turibman, o‘zing ham xohlayapsan-ku!”* | “Yo‘q. Yo‘q. Yo‘q. Qaysi harf senga tushunarsiz bo‘ldi? “Y”? “O‘”? Yoki “Q”?” |
| *“Ota-onang ertalabgacha uyda bo‘lmaydimi? Balki, uyingga borarmiz?”* | (Bu siz uchun xuddi tuz qartani qo‘lingizda ushlab turgandek bir imkoniyat: hamma aybni “kattalar”ga ag‘daravering”.) “Qanday qilib - mening uyimga? Nimalar deyapsan? Ota-onam o‘zlari bo‘lmagan paytda hech kimni olib borishga ruxsat berishmaydi!” |
| *“Erkak bo‘lishni xohlaysanmi?”* | “Men shundoq ham erkakman!” |
| *“Seni erkakka aylantirishimga ijozat ber”.* | “Bunda jinsiy aloqaning nima daxli bor?” |
| *“Sening hamma dugonalaring faqat shu bilan shug‘ullanishadi-ku”.* | “Nima ham derdim, borgin, ular bilan xohlagan ishingni qilaver”. |
| *“Hech kim jinsiy aloqada tajribasi bo‘lmagan qizga uylanmaydi”.* | “O‘ylashimcha, bu masalada men istisno bo‘laman”. |
| *“Qanchalik ko‘p narsani boy berayotganingni bilsang edi!”* | “O‘zingga ham xuddi shuni aytmoqchiman”. |
| *“Ammo men boshqa chidolmayman!”* | “Demak, to‘ydan keyin ham chidab yurolmaysan”. |
| *“Men axir seni juda qattiq sevaman!”* | “To‘ygacha kuta oladigan darajada qattiq sevasanmi?” |
| *“Hamma narsa qachondir yuz beradi”.* | “Jinsiy aloqa - bu tasodif emas. Hamisha tanlash imkoni bo‘ladi, shuni bilib qo‘ygin”. |
| *“Bu juda ajoyib!”* | “Shunchalik ajoyibki, buning uchun to‘ygacha kutsa arziydi”. |
| *“Lekin biz sen bilan juda yaqinmiz... Nahotki bu hisobga kirmasa?”* | “Yaqinlik - hali nikoh emas. Nikoh - mana bu haqiqiy yaqinlik. |

27 bob

# FAOL JINSIY ALOQADA BOʻLGAN YIGIT YOKI QIZ OʻZ HAYOTLARINI QANDAY QILIB POKIZA TARZDA BOSHLASHLARI MUMKIN?

Koʻpincha shunday boʻladiki, jinsiy aloqaga doir hayotni boshlamoqchi boʻlayotgan yosh yigitlar va qizlar oʻzlarida aybdorlik, uyat va hattoki hech kimga keraksizlik tuygʻusini his etadilar. Shunday boʻlsada, eng avvalo Xudoning oldida ular kechirimga erishishlariga yordam berish uchun sizda huquq va imkoniyat bor.

Kimdir jinsiy aloqa borasida qachonki jinoyat sodir etsa, u eng avvalo Xudoga qarshi gunoh sodir etgan boʻladi. Shoh Dovud qoʻrquv bilan Unga yolvorgan: “Senga, yolgʻiz Senga qarshi gunoh qilganman, Sening oldingda qabihliklarga qoʻl urganman...” (Hikmatlar 50:6). Dovud nega bunday degan va uning gunohi nimada edi?

Xudo Oʻz marhamati ila baʼzan *dahshatli* qilmishlar sodir etgan taqvodor odamlar aks ettirilgan Muqaddas Kitobni bizga bergan. Dovud “Xudo marhamatlagan er” boʻlgan, lekin u bir kuni Botsheva ismli erli ayol bilan zino qildi, ayolning homiladorligini bilgach esa, uning erini jangda oʻlim topishini uyushtirdi. Dovud Botsheva va uning eriga nisbatan gunoh qildi, ammo oxir-oqibat u Xudoga qarshi jinoyat sodir etdi. Nega?

Xudo bizni Oʻzi bilan mukammal doʻstlikda yashashimiz, Uning ezgu amrlarini bajarishimiz, Unga itoat qilib, ishongan holda U bilan muloqotdan rohatlanishimiz uchun bizni Oʻzi uchun yaratgan. Shu bois, biz qachon Uning amrlarini buzganimizda, qalban Uning oldida gunoh qilgan boʻlamiz.

Biz gunoh qilganimizda Xudo Oʻz marhamati ila bizga aybdorlik va uyat tuygʻusini his qilishimizga izn bergan, zero bu tuygʻu Xudo bizga quvonch bilan beradigan kechirimni izlashimizga undaydi. Kalomda shunday deyilgan: “Bordi-yu gunohlarimizni eʼtirof etsak, sodiq va adolatli boʻlgan Xudo gunohlarimizni kechirib, bizni har qanday yomonlikdan forigʻ qiladi” (1 Yuhanno 1:9).

Haqiqat shundan iboratki, biz barchamiz gunohlarimiz uchun jazoga loyiqmiz, ammo Kalomda aytilganki, “U doimo bizni ayblamaydi, Yoki to abad gʻazabini sochmaydi Bizni U gunohlarimizga qarab jazolamas, Yomonliklarimizga qarab qaytarmas, Samolar zamindan naqadar balanddir! Egamizning sodiq sevgisi ham, Undan qoʻrqqanlarga shunday yuksakdir! Sharq gʻarbdan qanchalik uzoq boʻlsa, Gunohlarimizni bizdan shu qadar uzoq qiladi”. (Zabur 102:9-12). Nega Dovud “shimol janubdan qanchalik uzoq boʻlsa” deb emas, balki “sharq gʻarbdan qanchalik uzoq boʻlsa” deb yozgan? Zaburchi cheksizlikni bildiruvchi ibroniycha ifodadan foydalangan. Shimoldan janubgacha boʻlgan masofa oʻlchab chiqilgan, negaki sayyoramizning Shimoliy va Janubiy qutblari bor, lekin sharq va gʻarbni oʻlchab chiqishning iloji yoʻq. Agar siz sharq tomon yoʻlga chiqsangiz, bu holda butun umr sharq sari yurib borishingiz mumkin. Mabodo gʻarb tomonga yoʻlga chiqsangiz, butun umr gʻarb sari borishingiz mumkin. Xudo kechirimining ifodasi qanday ajoyib! Siz bu haqdagi fikr-tuygʻularingizni kechirimga mushtoq farzandingiz bilan baham koʻring. Bola Xudoning uni kechirishni xohlashini va bunga doimo tayyor ekanligini bilib qoʻysin.

Xudoning marhamati mavzusini ochib, farzandingizga har bir kishining kechirim olishiga yoʻl ochib beradigan quyidagi yettita qadamni tashlashiga yordam bering.

**1. Qilgan gunohingizni ayting.** Kechirim sari birinchi qadam - qilmishingizni oʻz nomi bilan, yaʼni gunoh deb atash. Bolangiz Xudoning xohishiga qarshi sodir etiladigan nimaiki boʻlsa gunoh ekanligini tushunishi lozim. Nimanidir gunoh deya tan olinishi - bu tavba qilish uchun zamin yaratadi.

**2. Gunohga tavba qiling.** Muqaddas Kitobda shunday deyilgan: “Bordi-yu gunohlarimizni eʼtirof etsak, sodiq va adolatli boʻlgan Xudo gunohlarimizni kechirib, bizni har qanday yomonlikdan forigʻ qiladi” (1 Yuhanno 1:9). Xoʻsh, “gunohlarimizni eʼtirof etsak” nimani anglatadi? Bu Xudo bilan ikkita masalada kelishuv demakdir: birinchidan, biz Uning oldida gunoh qilganimizni tan olamiz, ikkinchidan, U bizni kechirishini tan olamiz.

**3. Xudoning kechirimini qabul qiling.** Siz biror insonning oʻz gunohini tan olib, samimiy tavba qilganini, soʻngra esa Xudo chindan ham uning qilmishlarini kechirganiga shubha qilib, umidsiz yashashda davom etganini

ko‘rganmisiz? Gunohni va Xudoning kechirimini qabul qilishni tan olish - bolalarimiz uchun eng muhim ikkita qadam hisoblanadi. Agar Xudo ularni kechirganiga ishonmasalar, o‘zlarini qanday qilib kechirishlari mumkin?

Faol jinsiy aloqada bo‘ladigan yosh yigit-qizlar uchun bu qadamlarni tashlash qiyin. Xudoning barcha gunohlarimizni kechirish uchun bergan va’dasiga qaramay (qarang: 1 Yuhanno 1:9), nikoh qurguncha jinsiy aloqa qiladigan yoshlar Uning va’dasiga zo‘rg‘a ishonishadi. Bu o‘smir yigit-qizlar o‘zlarini ikkinchi toifa odamlar, omadsizlar, Xudoning sevgisiga nomunosiblar deya hisoblashadi.

Bolangizga bizlardan hech kim biror-bir harakatimiz yoki his-tuyg‘ularimiz bilan marhamatga munosib bo‘lolmasligimizni anglating. Biz gunohlarimizning qanchalik og‘irligi yoki ularga nisbatan tuyg‘ularimizdan qat’iy nazar, kechirim olamiz. Kechirim uchun asos yagona - bu Masihning qurbonligi. Xudo bizning gunoh qilishimizni avvaldan bilgan, shu bois O‘z O‘g‘liga, Iso Masihga inson qiyofasiga kirib xochda ko‘tarilishiga izn bergan. Iso xochda hayqirgan: “Amalga oshdi!”, so‘ngra esa tirilgan va biz zarur bo‘lgan gunohlardan poklanishni oldik. Bolalarimiz Masihning kechirimini qabul qilgan holda, Masihning o‘limi va tirilishida yaqqol namoyon bo‘lgan Xudoning inoyati o‘zlarining hirsiy gunohlari uchun yetarli to‘lov bo‘lganligini tan olishadi.

**4. O‘zingizni o‘zingiz kechiring.** Odamlar ko‘pincha gunohlarini va Xudo ularni kechirganini tan olishadi, ammo o‘zlarini o‘zlari kechira olishmaydi. Xuddi shu holat bolalarimizga ham taalluqli. Ular hirsiy gunoh qilib, aybdorlik hissi bilan yashashlari mumkin, bunday hislar esa Xudodan emas, balki odamning o‘zidan kelib chiqadi,

Biz sevgi va kechirim muhitini yaratib, bolalarimizga Masihning kechirimi haqida tez-tez eslatib turishimiz zarur.

Farzandingiz gunohning yolg‘on hissiyotlarini ko‘nglidan kechirayotganini va o‘zini muhokama etishdan yuqoriga ko‘tarilish qalbini minnatdorlikka to‘ldirishini tushunishiga yordam bering. Bolangizni Xudoni ulug‘lashga, sevgi va kechirim uchun Unga minnatdorchilik bildirishga o‘rgating. Olijanob qalb insondagi o‘zini kamsitadigan his-tuyg‘ularni izsiz yo‘qotadigan Xudoning inoyatini qabul qilishga qodir.

**5. Tavbaning hosilini bering.** Ushbu qadam haqida hamma ham gapiravermaydi, ammo shunday bo‘lsada bu Xudoning kechirimiga va ayniqsa, odam birortasi bilan jinsiy aloqa jabhasida munosabatni tiklashga muhtoj bo‘lganida eng muhim qadamlardan biri hisoblanadi. Muqaddas Kitobda shunday deyilgan: “Tavbaga yarasha ish tutinglar” (Matto 3:8). Biz farzandlarimizni nafaqat ularning jinsiy gunohlari uchun shartsiz kechirim olishlarini, balki avvalgi yo‘lga qaytmasliklari uchun har kuni to‘g‘ri qarorlar qabul qilishlarini ham olqishlashimiz lozim. Tavba - bu erkin qaror nafaqat gunohdan yuz o‘girish, balki Xudo va yaqin kishilar bilan munosabatlarni mustahkamlash uchun qadamlar qo‘yish demakdir.

**6. Siz hisobot berib turishingiz mumkin bo‘lgan kimnidir toping.** Har birimizda ham bizni Masihda sevadigan va biz ishonadigan, hayotimizdagi nopoklik va jinsiy buzuqlikni ko‘ra oladigan hamda buning uchun bizni javob berishga chorlaydigan inson bo‘lishi kerak. Bunday odam biz bilan bir jinsdan bo‘lishi va Masih bilan muloqot qilib turadigan bo‘lishi kerak.

Bolangizga tushuntiring: u shunday odamni topsinki, o‘shaning oldida o‘z harakatlari uchun javob beradigan bo‘lsin. Agar shunday odam siz bo‘lmasangiz, bolangizdan boshqa birovni tanlashini so‘rang, albatta, bolangizdan hisobot so‘raydigan bu odam - imonda kuchli bo‘lmog‘i lozim.

**7. Kimga nisbatan gunoh qilgan bo‘lsangiz, o‘shandan kechirim so‘rang.** Har safar biz nikohdan tashqarida kimdir bilan jinsiy yaiqnlik qilar ekanmiz, unga nisbatan ham gunoh qilgan bo‘lamiz. Bolangiz kimga nisbatan ana shunday gunoh sodir etgan bo‘lsa, buning uchun kechirim so‘rashi kerakligini unga tushuntiring. Bu ularning munosabatlarini tuzatishi, ular qaysi darajada turishlari lozim bo‘lsa, shunchalik yuqori va toza darajaga ko‘tarishi mumkin.

Xudo bizni sevgani uchungina bizni va bolalarimizni muhokama etadi. Mabodo bolalarimiz gunoh ish qilsalar, biz ota-onalar ularga kechirim olishlari uchun zarur qadamlar qo‘yishiga yordam berib, xizmat qilish imkoniyatiga ega bo‘lamiz.

28 bob

# KO‘PCHILIK BOLALAR ORAL JINSIY ALOQANING JINSIY ALOQA EKANLIGIGA ISHONISHMAYDI. ULARNING BU YANGLISH FIKRLARINI QANDAY TARQATISH MUMKIN?

Oral jinsiy aloqa mavzusi yuzasidan ko‘pgina chalkashliklar va tushunmovchiliklar bor. Siz uni jinsiy aloqa deya hisoblaysizmi? Nega bolalar bu bilan shug‘ullanishadi? Bu o‘rinda bokiralik saqlanib qoladimi? Kalom bu haqda nima deydi? Oral jinsiy aloqa paytida jinsiy aloqa orqali o‘tadigan kasalliklarni yuqtirib olish mumkinmi? Ota-onalar nimani qo‘llashlari kerak? Keling, ana shu savollarga javob beraylik.

## ORAL JINSIY ALOQA NIMA O‘ZI?

Lug‘atda aytilishiga ko‘ra, seks - “jinsiy aloqaga asoslangan harakatdir”. Tananing qaysi a’zolari bunda ishtirok etmasin, jinsiy aloqa baribir jinsiy aloqa bo‘lib qolaveradi. Oral yaqinlashish ehtiroslar qo‘zg‘alishiga, stimulyatsiyaga va jinsiy qoniqishga olib boradimi? Javob - ha. Organizm oral jinsiy aloqadan qovushishgandek kabi ta’sirlanadi. Tana va miya qo‘zg‘aladi, jinsiy a’zolar ta’sirlanadi, organizm juftlik o‘rtasidagi aloqani mustahkamlaydigan “super-elim”ga o‘xshash gormonlar ishlab chiqaradi, dofaminning quyilishi esa ularning ishtiyoqini yanada oshiradi, yana takrorlashni talab etadi. Tana sizning jinsiy aloqa qilayotganingizga ishonch hosil qiladi. Miya sizning jinsiy aloqa qilayotganingizga ishonadi. Yurak sizning jinsiy aloqa qilayotganingizga ishonadi. Oral jinsiy aloqa ham jinsiy aloqa hisoblanadi.

Quyidagi to‘rtta jismoniy harakat jinsiy aloqa hisoblanadi, negaki ular tanamizda ham jismoniy, ham kimyoviy reaksiyalarni qo‘zg‘aydi:

1. Oral jinsiy aloqa (og‘iz - jinsiy a’zo).
2. Manual qo‘zg‘atish (qo‘llar - jinsiy a’zo).
3. Jinsiy a’zolarning bir-biriga tegishi (jinsiy a’zo - jinsiy a’zo).
4. Ichiga kiritish.

Barcha bu to‘rttala vaziyatlarda juftlik o‘rtasida aloqa yuzaga keladi, bu to‘rttasi ham sizni jinsiy a’zolar orqali o‘tadigan kasalliklarni yuqtirish xavfi ostida qoldiradi. Ushbu harakatlardan birortasida ham ishtirok etadigan odam faol jinsiy aloqada deya hisoblanadi.

### *Bolalarimiz oral jinsiy aloqa haqida qanday fikrdalar?*

- Beshta talabadan to‘rttasi oral jinsiy aloqani jinsiy aloqa deya hisoblashmaydi[1].
- Bizning davrimizda 80% o‘smirlar oral yaqinlikka jinsiy aloqa sifatida qarashmaydi[2].
- O‘n besh yoshdan o‘n yetti yoshgacha bo‘lgan barcha o‘smirlarning yarmi oral jinsiy aloqa - to‘laqonli jinsiy aloqa ekanligiga ishonishmaydi[3].
- Bolalar oral jinsiy aloqa haqida xuddi qinga kiritilgandek lazzat olishning xavfsiz usuli, ya’ni bunda vijdon azobini his qilmay, obro‘-e’tiborni yo‘qotmagan holda yoki o‘z shaxsiy qadriyatlari va nuqtai nazarlariga qarshi bormagan holda rohatlanish mumkin deya hisoblashadi[4].
- 40% o‘smirlar oral jinsiy aloqani “xavfsiz” deya hisoblashadi, 20% yosh yigit-qizlar esa yuqumli kasalliklar oral jinsiy aloqa orqali o‘tishi haqida umuman bilishmaydi[5].

***Bolalar qanchalik tez-tez oral jinsiy aloqa bilan mashgʻul boʻlishadi?***

- oʻn besh yoshdan oʻn yetti yoshgacha boʻlgan deyarli 36% oʻsmirlar oral jinsiy aloqa bilan shugʻullanishlarini tan olishadi. Oʻn besh yoshdan yigirma toʻrt yoshgacha boʻlgan yoshlar orasida bu koʻrsatgich yanada yuqori[6].
- qovushish tajribasiga ega oʻn besh yoshdan oʻn yetti yoshgacha boʻlgan deyarli 75% oʻsmirlar oral jinsiy aloqa bilan ham shugʻullanishgan; qovushish tajribasi boʻlmagan oʻn besh yoshdan oʻn yetti yosh oraligʻidagi 30% oʻsmirlar oral jinsiy aloqa bilan shugʻullanganlar[7].
- Yangi Angliya okrugidagi maktablardan birida tahsil olayotgan deyarli 25% oʻninchi sinf oʻquvchilari oʻtgan yil mobaynida oral jinsiy aloqa qilish uchun bir necha bora oʻz juftilarini almashtirganlarini bildirishgan. Qizlar bu kabi uch-toʻrt juftilari boʻlganini aytishgan[8].

***Bolalar nega oral jinsiy aloqa bilan mashgʻul boʻlishadi?***

- Talabalarni oral jinsiy aloqaga ijtimoiy bosim undaydi. 92% dan koʻproq talabalar yuqori sinflarda bokiralikni saqlab qolish toʻgʻri va yaxshi ekanligini aytishadi[9], lekin koʻpgina oʻsmirlar “bokiralikni yoʻqotmagan holda” oral jinsiy aloqa bilan shugʻullanish mumkin ekanligiga ishonishadi. Faol jinsiy aloqada boʻladigan har toʻrtinchi oʻsmir qovushishdan koʻra oral jinsiy aloqani ma’qulroq deya hisoblashadi[10].
- Oral jinsiy aloqa yoshlar orasida shu darajada tarqalganki, koʻpchilik uchun qandaydir oddiy, ahamiyatsiz boʻlib qolgan. Shubhasiz, bu oʻrinda tengdoshlar tomonidan oʻtkaziladigan bosim katta rol oʻynaydi. Aksariyat hollarda oral jinsiy aloqa qilish tashabbuskorlari yosh yigitlar boʻlishadi, lekin qizlar bajonidil unda ishtirok etishadi. Shu bilan birgalikda oʻzlariga past baho beradigan qizlar yigitlaridan ayrilib qolmaslik va oʻz davrasidagilardan orqada qolmaslik uchungina oral jinsiy aloqaga kirishadilar.

***Oral jinsiy aloqa orqali yuqumli kasalliklar oʻtishi mumkinmi?***

- Oral jinsiy aloqa orqali gonoreya, sifilis, gerpes, papillom viruslari odamga oʻtishi isbotlangan[11].
- Agar inson oʻz hayoti mobaynida besh yoki undan koʻproq jufti bilan oral jinsiy aloqada boʻlgan boʻlsa, uning tomoq saratoni bilan ogʻrish ehtimoli 250% ortadi[12]. Mabodo oral jinsiy aloqadagi juftlar oltitadan oshsa, bu ehtimollik 450% oshadi[13].
- Oral jinsiy aloqa bilan shugʻullanganda papilloma virusini yuqtirgan odamda tomoq saratoni 3200% ortadi[14].

## SIZ OTA-ONA SIFATIDA NIMA QILISHINGIZ MUMKIN?

Eng avvalo, bolangizga jinsiy aloqa aslida nima ekanligini aniq-ravshan tushuntiring. Bolangizni salomatlik uchun oral jinsiy aloqa bilan bogʻliq tavakkalchiliklardan, shuningdek, obroʻ-e’tibori va oʻziga baho berishda uzoq davom etuvchi oqibatlaridan ogohlantiring. Yoshlar madaniyatini, shuningdek, bolangiz har kuni boʻlib turadigan oʻsha olamini tushunish juda muhim. Bizning davrimizda vasvasa va tengdoshlar bosimi juda yuqori, biroq oral jinsiy aloqadagi ishtirok oʻzidan keyin uzoq davom etadigan oqibatlarni olib keladi. Qovushishning muqobil yoʻli tariqasida biz oral jinsiy aloqaga kirishganimizda shuni tushunishimiz lozimki, bu haqdagi xotiralar ongimizda doimo saqlanib qolishiga xalaqit berolmaymiz.

Faol jinsiy aloqada boʻlib bokiralikni “texnik” holatda asrashimiz Xudoning rejasiga toʻgʻri kelmaydi. Bolalaringizga yana bir bora Xudoning jinsiy aloqani yaratishdan maqsadi va uning hayotdagi oʻrni haqida - kitobimizning birinchi boʻlimida bayon etilganidek - tushuntirib oʻting. Pavlus Efesliklarga Maktubida yozgan: “Sizlarning orangizda fahsh, zinokorlik, ifloslik yoki xasisligu ochkuzlik hatto tilga ham olinmasin” Efes. 5:3). Xudo nikohdan tashqarida faol jinsiy aloqada boʻlishimizga izn bermagan, U nikohda va nikohdan tashqarida boʻladigan jinsiy aloqalar natijasida olinadigan lazzatni farqlamaydi. Xudo bizni har qanday nopok jinsiy aloqalardan nari yurishga da’vat etganida Uning yagona maqsadi bizni himoya qilish va nikohdagi yaqinlikdan yuqori darajada lazzatlanish imkonini taqdim etishdan iboratdir.

**29 bob**

# BOLANGIZNING O‘ZIGA BERADIGAN SOG‘LOM BAHOSI UNI NIKOHGACHA BO‘LADIGAN JINSIY ALOQADAN QAY TARZDA HIMOYA QILADI?

Quyida ikkita o‘smirning aytganlari keltirilgan:

> Men o‘zimga beradigan bahoimni ko‘tarishim uchun nikohgacha bo‘ladigan jinsiy aloqa qilganman. Har bitta o‘tkazilgan jinsiy yaqinlik erkak bo‘lganligimni isbotlashga xizmat qilar, bundan tashqari, yechinish xonasida o‘z “g‘alabalar”im bilan maqtanishim uchun imkon berardi.

> Men o‘zimni erkak ekanligimga ishontirishim uchun qarama-qarshi jinsning e’tiboriga tushishga erishdim. Bunday e’tiborning har bir belgisi mening o‘zimga bergan bahoimni oshirardi.

Garchi bu ikkala bildirgilar yosh yigitlar tomonidan aytilgan bo‘lsada, o‘z-o‘ziga past baho beradigan qizlar ham shunga o‘xshash voqealarni so‘zlashadi. Ular ahamiyatga ega ekanliklarini ko‘rsatish uchun o‘z ixtiyorlari bilan jinsiy aloqaga kirishadilar, ya’ni o‘zlariga beradigan bahoni ko‘tarish va tengdoshlari davrasida qat’iyatli bo‘lish uchun jozibador ekanliklarini va qarama-qarshi jins vakillariga yoqishlarini isbotlamoqchi bo‘lishadi.

Shu bilan birgalikda, ulardan ko‘pchiligi aynan o‘zlariga past baho berish oqibatida faol jinsiy aloqaga kirishadilar. Odamlar o‘zlarini qanday tasavvur qilsalar, shunga monand ravishda harakat qilishga moyildirlar. Biz nimalarni ko‘rayotganimizdan, qarorlar qabul qilayotganimizdan, nimalarni o‘ylayotganimizdan va qanday harakat qilishimizdan kelib chiqqan holda, hayotga go‘yo qandaydir zarrabin yoki shishalar orqali qaraymiz. Misol uchun, mabodo yosh qiz o‘ziga past baho beradigan bo‘lsa, bu holda bosim ostida u o‘ziga haqiqatni buzib ko‘rsatishga moslashgan zarrabin yoki shisha orqali qarashi va shunday xayolga borishi mumkin: “Men baribir hech nimaga arzimayman, shunday ekan, nima farqi bor? Ahmoqona harakatlar - ahmoq odamlar uchun, xullas, hammasi to‘g‘ri”. Juda tezda bunday fikrlar harakatlarga muvofiq o‘sib boradi.

Biz hozirda qizlarni nuqul yaltiroq jurnal muqovasidagi go‘zallar bilan o‘zlarini taqqoslashga undaydigan madaniyat sharoitida yashayapmiz. Tashqi ko‘rinishga bo‘lgan yuqori talab nafaqat qizlar, balki o‘smir o‘g‘il bolalarni ham o‘ziga bog‘lab olmoqda. “Focus on the Family” tashkilotining yoshlar bilan ishlash bo‘yicha mutaxassisi Rob Jekson eslatib o‘tganidek, biz ota-onalar

> ... bolalarimizning buzilmas qadriyatlarini Ota Xudo ularning abadiy hayoti uchun bergan to‘loviga asosan, ya’ni Iso Masihning to‘kkan qoni asosida e’lon qilish huquqiga egamiz. Bolaning harakatlari ham, uning atrofidagilarning ma’qullashi ham bola hayoti bahosining o‘lchovi bo‘lmasligi kerak. Yagona o‘lchov - Iso Masihning shu bola uchun qilgan jasorati va har bir kishi Masihni qalban qabul qilganida Samoviy Otadan oladigan ma’qullovdir. Mana, bolalaringizni nafaqat his-tuyg‘ular darajasida, balki tafakkur darajasida ham nimalarga o‘rgatish kerak[1].

Bolalarimiz o‘zlarining zo‘r yutuqlari yoki iqtidorlarini to‘g‘ri baholay olishmaydi, ammo Xudo ularni kim qilib va nima uchun yaratganligini anglay olishlari mumkin. Ota-onalar imonda o‘ziga baho berish borasida ibrat ko‘rsatganlarida, bu holat bolaning o‘ziga baho berishini oshirishiga ulkan ta’sir ko‘rsatadi.

Milliy kampaniyaning o‘smirlar o‘rtasida rejasiz homiladorlikni bartaraf etish masalasi bo‘yicha tashkilotchilarining faraz qilishlaricha, “ota-onalar yoki oilaning boshqa a’zolari buni istash-istamasliklaridan qat’iy nazar, har qanday holatda ham farzandlar va oilaning qolgan a’zolarida o‘zlariga beradigan baho shakllanishida ta’sir o‘tkazadi - gap faqat buni qilish yaxshimi yoki yomon ekanligida”[2]. Tadqiqotlarga ko‘ra, agar bolalar oilada o‘zlarining qadrli ekanliklarini his qilsalar, “bu o‘n sakkiz yoshda jiddiy tushkunlikka tushib qolish ehtimolini kamaytiradi”[3]. To‘qqiz yoshda o‘zining qadrli ekanligini his qilish “kelajakda o‘ziga baho berishi uchun ijobiy ta’sir ko‘rsatib, tushkunlik (ayniqsa erkaklarda), giyohvand moddalarga ruju qo‘yish, o‘z joniga qasd qilish, shaxsiyatlararo munosabatlar muammosi, odamovilik va xavotirli-tushkun harakatlar va qonunbuzarlikka moyillik kabi xatarlar ehtimolini pasaytiradi”[4].

Farzanlaringizni qadrlang va hurmat qiling. Xudo ularni qadrlashini ham bolalaringiz bilib qo‘ysin. Quyida keltirilgan haqiqatlarni ularga tez-tez takrorlab turing. Siz aytishingiz mumkin: “Sen - sen noyob bolasan, sen juda qadrlisan, negaki Xudo aytganki...

* U seni sevadi (qarang: Yuhanno 3:16),
*Sen - Uning farzandisan (qarang: Yuhanno 1:12).
*Sen - tanlangansan (qarang: Efesliklar 1:4).
*Sening gunohlaring kechirilgan (qarang: Efesliklar 1:7),
*Sen - Uning ijodisan (qarang: Efesliklar 2:10),
*Sen - Uning do‘stisan (qarang: Yuhanno 15:15),
* U seni asraydi (qarang: 1 Yuhanno 5:18).

Haqiqat go‘yo “anglab bo‘lmas” hisoblanadigan zamonaviy dunyo madaniyati sharoitida, ong allaqachondan buyon e’tiqodni to‘sib qo‘yganida, haqiqatni anglashning yagona manbai tabiiy fanlar bo‘lib qolganida, bolalar uchun yagona va o‘zgarmas haqiqat - Xudo, ularning Yaratuvchisi sevishi va hech qanday shartlarsiz qabul qilishiga ishonch har qachongidan ham ko‘ra zarur. Bolalar ko‘pincha o‘zlariga maktabdagi muvaffaqiyatlari, orttirgan tajribalari, qobiliyat va iqtidorlari haqida tengdoshlarining fikr-mulohazalari orqali baho berishni istashadi. Biroq baribir farzandingizning hayotiga siz ko‘proq ta’sir ko‘rsatasiz. Imkon qadar uning manfaatlari haqida ko‘p o‘ylashingizni tez-tez tushuntirib boring, muntazam ravishda Xudo uni sevishi va g‘amxo‘rlik qilishi haqida ham eslatib turing.

Bolalar bilan yaqin munosabat - uning kelgusida jinsiy aloqa bosimlariga bardosh berishida yordam beradigan muhim usullardan biridir. Oilaviy munosabatlarda chinakam iliqlik va sevgi mavjud bo‘lsa, bolada o‘ziga nisbatan sog‘lom baho berish va siz belgilagan chegaralar faqat unga g‘amxo‘rlik qilish va himoya etish uchungina o‘rnatilganini tushunish imkoniyatlari ortadi. Bolangizga sevgi va g‘amxo‘rlik muhitida bosh-qosh bo‘lib, o‘ziga beradigan sog‘lom bahoni yuksaltirishiga yordam berasiz va zamonaviy dunyo madaniyatining vayronkor ta’siriga qarshi turishida uni qo‘shimcha kuch bilan ta’minlagan bo‘lasiz.

**30 bob**

# FARZANDI BILAN JINSIY ALOQA HAQIDA GAPLASHADIGAN DONO OTA-ONA BOʻLISHNING OLTITA USULI

Zamonaviy dunyoda yoshlarni jinsiy aloqa bosimiga qarshi tura oladigan qilib tarbiyalash oson emas. Mazkur kitobda biz buni qanday bajarish yuzasidan sizga bir qancha maslahat va yoʻnalishlarni taklif etdik, umid qilamizki, siz ularni foydali deya hisoblaysiz. Kitobning birinchi qismida qayd etilganidek, bu oʻrinda asosiy omil yaqin munosabatlar hisoblanadi. Siz qay tarzda bolalaringiz bilan muloqotda boʻlsangiz, muloqot uchun sababning oʻzi ham xuddi shunday, ehtimol, undan ham koʻproq muhimdir. Va biz birgalikda bosib oʻtgan yoʻlning yakunlovchi bosqichida bolalarini Xudoning rejasiga muvofiq tarzda jinsiy aloqadan rohatlanishga tayyorlaydigan yanada dono va nufuzli ota-ona boʻlishingizning oltita usulini taklif etmoqchimiz.

Oʻzimiz ham ota-ona sifatida mazkur oltita usul oilamiz uchun chindan ham qoʻl kelganini, shuningdek, oʻz tajribamizdan kelib chiqqan holda, boshqa oilalarga ham yordam berishi mumkinligini aytmoqchimiz.

## 1. FARZANDLARINGIZ DOIMO OʻZ SAVOLLARI BILAN OLDINGIZGA KELISHLARI MUMKIN BOʻLGAN OTA-ONA BOʻLING

Qanchalik yoqimsiz tuyulmasin, bolalarning har qanday savoliga va har birini yetarlicha muhim hisoblagan holda javob berishimga tayyor turishimiz kerak. Bolalar soʻrab turgan paytlarida biz ustozlik qilish holatida boʻlamiz. Asosiysi - nimaiki eshitmaylik xotirjamlik hamda vazminlik bilan toʻgʻri va ochiq javob berishimiz kerak.

Bir misol keltiraman. Qizimiz Keti oʻn uch yoshda boʻlganida, men (Josh) uni va dugonasi Sarani togʻ sayriga olib bordim. Mashinaning orqa tarafni koʻrsatadigan koʻzgusi orqali qizlar oʻzaro shivirlashayotganiga, menga savolomuz boqib, yana shivirlay boshlashganiga koʻzim tushdi. Ularning xayolida qandaydir bir “tegajoqlik” borligi aniq edi.

Shunaqa boʻldi ham: Keti oxir-oqibat old oʻrindiqqa oʻtirib oldi, Sara esa bizni yaxshiroq eshitish uchun old oʻrindiqlar orasiga boshini tiqdi va shunda suhbat boshlandi: “Ota, mening savolim bor. Shunchaki, arzimas bir gap...” Men darhol tushundim: masala jiddiy. “Ota, oral jinsiy aloqa nima oʻzi?” Sal boʻlmasa mashinam yoʻldan chiqib ketayozdi! Sakkizinchi sinf oʻquvchisining gapiga qarang! Men esankirab qolgandim, ammo buni bildirmaslikka urindim va shama qilmasdan hammasini ochiq aytib berdim. Gapimni tugatganimda, qizim hayqirib yubordi: “Jirkanchli-ku!” va orqa oʻrindiqdagi dugonasining oldiga oʻtib oldi.

Sara oʻsha oqshomdayoq gaplarimni onasiga aytishi mumkinligini tushunganim bois, hazilakam tashvishga tushmadim. Uyga qaytgach, birinchi navbatda boʻlgan voqeani Dottiga aytdim, soʻngra Saraning onasiga qoʻngʻiroq qilib, suhbatimiz qanday boshlanganini va men aynan nima deb javob berganimni aytdim. Narigi telefon goʻshagidan uzoq vaqt javob kelmadi, men esa xayolan faryod qildim: *“O yoʻq! Bu masalaga begona bolani tortish kerak emas edi!”* Soʻngra baland ovozda nafas chiqarish eshitildi va hamsuhbatim shunday dedi: “Ular aynan *sizga* murojaat qilishgani uchun Xudoga shukur boʻlsin!”

Bolalar hamisha savol bilan murojaat qilishlari mumkin boʻlgan ota-ona boʻling. Bolangiz har qanday vaqtda siz bilan xohlagan mavzuda gaplashishi mumkinligini bilib qoʻysin. Hatto uning savoli sizni noqulay ahvolga tushirib qoʻysa ham, buni bolangizdan yashirishga harakat qiling. Mabodo u sizning taajjubga tushganingizni sezib qolsa, xavfli mavzuga yondashganligi haqidagi fikrlarga borishi mumkin. Agar siz uning barcha savollari uchun ochiq ekanligingizni tushuntira olsangiz, Xudo jinsiy aloqani qanday maqsadda yaratgan boʻlsa, uning qarshisida qadamba-qadam ana oʻsha olamni koʻrsatib beradigan birinchi ustozlar boʻlishdek ajoyib imkoniyatga ega boʻlasiz.

## 2. TINGLASHNI BILADIGAN OTA-ONA BO‘LING

Biz farzandlarimizni diqqat bilan eshitganimizda, bu bilan ularning o‘zlari va aytayotgan gaplari bizga qanchalik muhim ekanini ko‘rsatgan bo‘lamiz. Agar siz tinglashni bilmasangiz - har qanday savol uchun ochiq bo‘lishdan ma’no kam.

Yaxshi tinglovchilik mahoratini ko‘rsatmoq uchun, ayni damda mashg‘ul bo‘lgan ishingizni to‘xtatib, bolaga e’tibor qaratishga urining. Albatta, doim ham bunday qilib bo‘lmaydi, lekin uddasidan chiqsangiz, shu orqali bolani diqqat bilan eshitishga tayyorligingizni va uning aytmoqchi bo‘layotgan gaplari chindan ham siz uchun muhim ekanligi haqida ishora qilgan bo‘lasiz.

Ko‘plab ota-onalar yaxshi tinglovchi bo‘lishni istashlari, lekin bolalari ular bilan kam gaplashishlari haqida shikoyat qilishadi. Bunday vaziyatlarda ularni gapga solish uchun savollar berish kerak. Bolaga savol bergan holda, siz ...

- unga bo‘lgan hurmatingizni namoyon etasiz va uning fikrlari siz uchun qimmatli ekanligini ko‘rsatasiz.
- suhbat mavzusiga oid ko‘p narsalar unga ma’lum yoki noma’lum ekanligini aniqlang.
- uning bilimlari hayotiylikka qanchalik muvofiq ekanligini aniqlang.
- alohida fikrlarni yoki suhbat mavzusini aniqlab oling.
- javob uchun so‘z tanlayotganingizda vaqtdan yuting.
- bolaning u yoki bu ma’lumotlarni qabul qilishga tayyorligini baholash imkoniyatlarini qo‘lga kiriting.

Quyida biz bola bilan suhbatlashishda sizga yordam berishi mumkin bo‘lgan ayrim odatiy savollarni keltirib o‘tamiz.

1. Sen Internetda o‘zing noqulaylik his qilgan yoki senda qiziqish o‘tini yoqqan biror nimani ko‘rdingmi?
2. Bu qanday yuz berdi? Sen bunda nimani his qilding?
3. Do‘stlaringdan kimdir tasodifan yoki atayin pornografik rolik tomosha qilganmi?
4. Sen ... haqida qanday fikrdasan?
5. Sen ... haqida nimalarni eshitgansan?
6. Iltimos, ... haqida nimalarni bilishingni aytib berasanmi?

Bu kabi oddiy savollar bolangiz bilan suhbat boshlashingizga yordam beradi, shundan so‘ng esa siz yaxshi tinglovchilik mahoratingizni ko‘rsatishingiz mumkin.

## 3. E’TIQODLI OTA-ONA BO‘LING

Biz avval *4-bobda* yozganimizdek, munosabatlar - bu barakatli negiz bo‘lib, undan hosil bo‘lgan ishonch o‘z navbatida o‘smirlarda qadriyatlar shakllanishiga ta’sir ko‘rsatadi va ularning harakatlarini belgilab beradi. Bolalar o‘z qadriyatlari asosida hirsiy mayllarini qondirish yo‘lidagi harakatlarni qilishadi, vaholanki dastlab ular bu qadriyatlar to‘plamini sizdan o‘zlashtirgan bo‘lishadi. Mana nima uchun siz Muqaddas Kitob beradigan g‘oyalarga mustahkam ishonadigan ota-onalar bo‘lishingiz kerak.

*Qadriyatlarning* o‘zi nima? Bu qarorlarimiz, munosabatlar va harakatlar asosida yotadigan haqiqatlarni shaxsan qabul qilmoq demakdir. Siz ota-ona sifatida nafaqat mas’uliyatlisiz, balki o‘z qadriyatlaringizni bolangizga uzatish uchun juda yaxshi imkoniyatlarga egasiz.

Bir tadqiqot natijalariga ko‘ra, “26% o‘smirlar o‘zlarining jinsiy aloqa bilan mashg‘ul emasliklarining asosiy sababi imon va ahloqiy qadriyatlar bilan bog‘liq ekanligini bildirishgan”[1].

Glenn Stenton “O‘zini tiyishning eng samarali omili” maqolasida ota-onalar farzandlariga qanday qadriyatlarni berishi muhimligini qayd etadi:

> Ota-onalarning o‘smirlardagi jinsiy harakatlarga beparvoligi o‘g‘il bolalar uchun ham, qizlar uchun ham bu boradagi tavakkalchilikda kuchli omilga aylanadi. Ota-onalari ularning nikohgacha bo‘ladigan jinsiy aloqalariga qarshi emasligiga ishonadigan o‘smirlarning jinsiy aloqani barvaqt boshlashga moyilliklari ajablanarli emas[2].

Reprezentativ milliy so‘rov natijalariga ko‘ra, 64% o‘smirlar ahloqiy qadriyatlar ularning hirsiy harakatlariga reproduktiv salomatlik borasidagi axborot xizmatidan kam ta’sir qilmasligini bildirishgan, ayni vaqtda o‘smirlarning deyarli to‘rtdan bir qismi (23%) ahloqiy qadriyatlar hatto *yanada* muhim omil ekanligini aytishgan[3].

Sizda jinsiy aloqaga nisbatan jamlangan asosiy qadriyatlar ro‘yxatini tuzish uchun vaqtingizni ayamang. Mabodo siz quyidagi savollarga yozma javob bersangiz, bu sizga yordam berishi mumkin:

1. Jinsiy aloqa masalasida mening nuqtai nazarim aynan qanday va ulardan qaysilarini farzandimga yetkazishni istayman?
2. Nega men buni haqiqat deya hisoblayman?

3. Bu mening hayotimga qanday ta’sir ko‘rsatgan?
4. Bu farzandim hayotiga qanday ta’sir ko‘rsatishi mumkin?

Quyida keltirilgan qadriyatlar ro‘yxati ustida mulohaza yuritib ko‘rishingizni tavsiya etamiz. Balki u sizni va oila a’zolaringizni o‘zlarida shaxsiy fikrlar paydo bo‘lishiga ruhlantirar.

• jinsiy aloqa nikoh uchun belgilangan
• Xudo sevgidir
• farzandlar - Xudoning in’omi
• bir-biringizni seving
• biz Xudoga monand va o‘xshash qilib yaratilganmiz
• narsalarni emas, odamlarni sevish kerak
• do‘stlik
• hurmat
• sadoqat
• qadr-qimmat
• poklik
• halollik
• vafo
• ishonch
• Muqaddas Kitob - bu ilohiy haqiqat
• jinsiy aloqa ajoyib
• homiladorlik
• hatti-harakat
• nikoh
• tanishuv, mulozamat
• izzat-ikrom
• kiyinish madaniyatimiz
• to‘y

Asosiy qadriyatlaringizni aniqlab olgach, tabiiy ravishda va xiralik qilmagan holda ularni farzandingizga yetkazish uchun vaqt toping.

## 4. FARZANDLARINING DO‘STLARI BILAN O‘RTOQLASHADIGAN OTA-ONA BO‘LING

Oqshom soat besh yarimda mehmonlar uyimizga kela boshlashdi. Men (Dotti) o‘shanda yetti yoshda edim va do‘stu dugonalarimni kechki ovqatga taklif etish uchun o‘zimda jasorat topgandim. Yagona muammo shunda ediki, men bu haqda onamni ogohlantirishni unutib qo‘ygandim. Ammo onam menga jahl qilib, bolalarni o‘z uylariga jo‘natib yuborish o‘rniga ishtiyoq bilan dasturxon tuzashga kirishdi va bodom pecheneli bir qancha qutilarni, shirin obakidandonlar joylangan tunuka idishni va mevali konservalarni chiqarib qo‘ydi. Bu bizning oziq-ovqat javonidagi bor narsalarimiz edi, lekin biz a’lo darajadagi bayramni o‘tkazdik! Onam o‘z odatiga ko‘ra farzandining oldiga kelgan har bir bolaga e’tibor qaratishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yardi. U har bir bolaga o‘zini aziz va o‘ziga xos mehmon ekanligini his qilishiga imkon berardi. Onam o‘zining kundalik rejalari qandayligidan qat’iy nazar, barcha do‘stlarimning hayoti haqida suhbat qilardi, bu esa men kabi ularning ham kelgusi taqdiriga katta ta’sir o‘tkazgan. Bundan tashqari, onam do‘stlarimning sevimli insoni va qahramoniga aylangan.

O‘z bolaligingizni eslab ko‘ring. Kimning ota-onasi boshqalarnikidan ko‘ra ko‘proq sizga yoqardi? Nima uchun? Ular sizga qanday ta’sir o‘tkazishgan?

Menga ta’sir ko‘rsatgan ikkita ibrat xotiramda alohida saqlanib qolgan: bittasi salbiy va ikkinchisi anchayin ijobiy.

Bolaligimda bir yaqin dugonam bo‘lardi. Biz birinchi sinfdan toki yettinchi sinfgacha yaqin munosabatda bo‘lganmiz. Biz birgalikda skaut-qizlar guruhida bo‘lganmiz, birgalikda tayoq bilan jonglyorlik qilish sabog‘ini olganmiz, cho‘milishga borganmiz, tikuv saboqlariga qatnaganmiz va h.k.z. Yettinchi sinfdan so‘ng men boshqa shtatga ko‘chib ketdim, lekin to‘qqizinchi sinfda o‘qiyotganimda uni ko‘rish uchun oldiga keldim.

Yillik ayriliqlardan so‘ng uning uyi ostonasiga qarab yugurganimni juda yaxshi eslayman. Men uni yana ko‘raman deb umid qilmagandim. Eshikni uning onasi ochdi. Dugonam uyga hali qaytmagan ekan, bir necha daqiqa kutishimga to‘g‘ri keldi. Suhbatimiz qay tarzda boshlangani unchalik yodimda yo‘q, lekin keyinchalik men bu yerda bo‘lmagan o‘tgan yillar mobaynida dugonam qanday yashaganligini so‘radim. Uy bekasi dugonamda hammasi yaxshi ekanligini aytdi va eri ikkoviga qizlari “hayotda ilk bora” uyga dugonalarini olib

kelganida xursand bo‘lishganini to‘satdan qo‘shimcha qildi. Ayol qizining dugonalarini “hech qachon” yoqtirishmaganini ta’kidladi, ammo endi nihoyat hammasi o‘zgaribdi.

Bu so‘zlar meni hayratda qoldirdi. Taajjub va xafachilikdan yerga kirib ketgudek bo‘ldim. Men roppa-rosa yetti yil ularning uyiga mehmon bo‘lib kelib turgandim! Ayol nega bunday deganini aslo tushunmadim! Ammo bu azobli va haqoratli edi. Hozirgacha u ayol haqida o‘ylasam, *o‘sha so‘zlar* yodimga tushaveradi. Men shuncha yillar mobaynida ularning uyiga kelib turganimda nima qilganim va nega bunday qattiq jazo uchraganim haqida tez-tez o‘zimga savol beraman.

Boshqa taraflama esa, qo‘shni dugonamning onasi meni juda yaxshi ko‘rardi. Bunga shubha qilishimga to‘g‘ri kelmagan! Yodimda, men chechyotka raqsini ijro etmoqchi bo‘lganimda, shu dugonamning onasi sochimni jingalak qilish uchun uyimizga kelgandi, so‘ngra esa o‘z oilasi bilan konsertda bo‘lib, hattoki mening chiqishimni suratga olgan. Bu ayol haqida o‘ylayotganimda, hamisha uning huzurida o‘zimni o‘zgacha bir inson his qilganimni, uylariga borganimda qanday jo‘shqinlik bilan hayratini ifoda etganini eslayman. Mana bu haqiqiy qarama-qarshilik!

Farzandingizning do‘stlari hatto yillar o‘tganidan keyin ham sizni ana shu tarzda yodga olishlarini istaysizmi? Eng yuqori darajada ijobiy tahsir ko‘rsatishga qaror qilib, ularning hayotida ishtirok eting. Shunday yo‘l tutib, siz ...

- bolangizga muhim bo‘lgan odamlar siz uchun ham muhim ekanligi haqida tushuncha berasiz.
- bolangiz hozirda qanday ta’sir ostida ekanligini yaxshiroq bilib olasiz.
- o‘zingizni shunday holatga keltirasizki, bolangiz va uning do‘stlari siz bilan muloqot qilishni va fikrlaringizga quloq solishni istab qolishadi, bu esa bolangizga tengdoshlari o‘tkazadigan salbiy ta’sirni kamaytiradi.

Bir vaqtlar kichik qizimiz Xizer men (Josh) tanimagan bir yigit bilan beysbol o‘yiniga bormoqchi bo‘ldi. Unga o‘z xavotirimni aytganimda, shu zahotiyoq javob eshitildi: “Ota, xotirjam bo‘ling. U sizni shunchalik hurmat qiladiki, sizga yoqmaydigan hech nima qilmaydi”.

Farzandingiz davrasidagilar uchun qahramon bo‘ling. Bunday maqomga erishish uchun alohida bir harakatlar ko‘pincha talab qilinmaydi, zero aksariyat o‘smirlar do‘stlarining ota-onalari tomonidan o‘zlariga nisbatan e’tiborni umuman kutishmaydi. Men (Josh) o‘g‘limiz yoki qizimiz mehmonga taklif etgan bolalar bilan gaplashish uchun hamisha imkon topardim. Men shunchaki o‘zimni tanishtirib va birgalikda qanchadir vaqt o‘tkazib, ularning kimligi va nimaga qiziqishlariga befarq emasligimni, uyimga kelganlaridan juda xursand bo‘lganimni namoyon etardim.

Bundan tashqari, bolalarim qatnashadigan sport to‘garaklariga alohida e’tibor qaratardim. Men quvonch bilan ularga muxlislik qilardim va hatto amaliy maslahatlar ham berganman, albatta, sportning o‘sha turi bo‘yicha tajribam bo‘lsa agar. “Qahramon” maqomi farzandlaringizga ham, shuningdek, ularning do‘stlari bilan munosabatlaringizga ham to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir ko‘rsatadi.

## 5. BOSHQA OTA-ONALAR BILAN MULOQOT QILADIGAN OTA-ONA BO‘LING.

Boshqa ota-onalar bilan muloqotda bo‘lish sizga ularning bilganlarini o‘zlashtirib olishingizga yordam beradi. O‘xshash manfaatlar, tajriba va maqsadga ega bo‘lgan hamfikrlar bilan o‘zaro harakat qilsangiz, siz farzandingizni qanday tarbiyalash haqida ko‘plab qimmatli maslahatlar olishingiz mumkin. Odatda, eng yaxshi amaliy bilimlar va fikrlar sizning farzandingiz bilan tengdosh, biroz yoshi kattaroq yoxud balog‘atga yetgan farzandlari bo‘lgan ota-onalar tomonidan bildiriladi. Ularning oilasi - tarbiyaga oid fikrlar, ta’lim anjomlari, sport va ko‘ngilochar tadbirlar bo‘yicha takliflar, shuningdek, tartib-intizom, salomatlik va jinsiy aloqa mavzusini yoritish muammolari borasida ajoyib manbadir.

Men (Dotti) ilk bora ona bo‘lganimda, yaqin dugonalarimning birida allaqachon beshta farzand bor edi. U ajoyib ona bo‘lgan. Men uning har bir qadamini kuzatganman. Men unga turmushimdagi har bir yangi bosqichda maslahat so‘rab murojaat qilardim. Dugonam men uchun bitmas-tuganmas ko‘mak manbaiga aylangandi. Aynan u nima muhim va nima ahamiyatsiz ekanligini anglatgan. Men shu kungacha undan beqiyos minnatdorman! Ishonch, tahsin va hurmatga munosib boshqa bir ota-onalarni topish - bu qimmatbaho xazinani qidirishga o‘xshaydi.

Bundan tashqari, siz bilan hamkorlik qilishni istaydigan bir qancha tashkilotlar chiqib qolishi mumkin. Maktab yoshigacha bo‘lgan bolalari bor onalarga “MOPS International”ni tavsiya qilaman. Ularning manzili - MOPS.com. Ularning maqsadi - onalarning va kichik bolalarning ona qornidagi vaqtidan toki maktabga borish davrigacha bo‘ladigan ehtiyojlarini qondirish. Qizlarimizdan uchtasi mazkur saytni o‘zlari uchun o‘ta foydali deya hisoblashgan.

Kichik qizim esa onalar va go‘daklar uchun “Stroller Strides” (strollerstrides. som.) fitnes-dasturini tavsiya etadi. Boshqa ota-onalar bilan uchrashish, shuningdek, quvnoq va xavfsiz sharoitda jismoniy tarbiya va sport

bilan shug‘ullanish uchun joy izlaydigan ota-onalar - qizlarimizga ona bo‘lishganida katta shodlik keltirgan guruhlar - “The Little Gym” (www. littegym org) va “Mommy and Me” (www. mommyandme.som) ga murojaat qilishlari mumkin.

Yana bir ajoyib manba - “Moms in Prayer International” (avval “Mons In Touch” (Momsintouch org)) nomli tashkilot hisoblanadi. Uning vazifasi onalar ibodatini birlashtirgan holda Iso Masihning ta’sirini butun dunyodagi maktablarga va bolalarga yoyishdan iboratdir.

Bizning qat’iy ishonchimizga ko‘ra, yakka jangchi maydonda g‘alaba qozona olmaydi, shu bois o‘xshash qadriyatlarga ega bo‘lgan ota-onalar bilan munosabatlar sizda yangi g‘oyalar olovini yoqib, samarali uslublarni baham ko‘rish (ayniqsa jinsiy aloqa mavzusini yoritish) borasida foydali bo‘lishi mumkin. Keling, haqiqatning ko‘ziga tik qaraylik. Bolalar bilan jinsiy aloqa to‘g‘risida gaplashmoq uchun alohida bir jasorat kerak. Biz bu haqdagi fikrning o‘zidanoq titrab, aynan nimani va qanaqa so‘zlar bilan gapirish kerakligini so‘ramagan birorta ham ota-onani hali uchratmadik. Mana nima uchun muloqot qilish bag‘oyat muhim.

## 6. FARZANDLARI BILAN BIRGA VAQT O‘TKAZISHNI ORZU QILADIGAN OTA-ONA BO‘LING

Bolalar salomatligi va tarbiyasi mavzusida qalam tebratadigan Laura Flinn Makkarti “Family Circle” jurnalida chop etilgan maqolasida eslatib o‘tadi: “O‘zlarini muvaffaqiyatli kelajak kutayotganiga ishonadigan bolalar rejasiz homiladorlik masalasiga boshqalardan ko‘ra oqilona yondashadilar... Umid - ajoyib himoya vositasi”[4].

Xudo Isroil o‘g‘illariga aytgan: “...Men sizlar to‘g‘ringizda tuzgan rejalarimni bilaman, - deb aytmoqda Egamiz. - Bu rejalarim sizlarga kulfat emas, farovonlik olib keladi, yorug‘ kelajagu umid beradi” (Yeremiyo 29:11). Xudo O‘z xalqi uchun qahramon bo‘lgan. O‘zlarini o‘ziga xos xalq deya his qilgan isroilliklar Uning yuksak umidlarini oqlashga intilishgan.

Biz bolalarimiz uchun qahramon bo‘lsak va orzu qilishga o‘rgatsak, bu ularni ruhlantiradi va oxir-oqibat ular ham bizning umidlarimizni oqlashni istab qolishadi. Shoh Sulaymon aytgan: “Ro‘yobga chiqmagan umid yurakni ezadi, ushalgan orzu esa hayot daraxti kabidir” (Hikmatlar 13:12).

Bolalikda mening (Dottining) sevimli qahramonim Piter Pen bo‘lgan. Uning tarixi - o‘smay qolgan bola haqidagi ajoyib ertak. Bu voqeadagi hayratomuz holatlardan biri shundan iboratki, Piter uchishni biladi. Kitobda - yodingizda borligiga ishonaman - bir jozibali personaj bor: jajjigina pari Din-Din. U hayratomuz qobiliyatga ega - pari kimni sehrli zarrachalarga ko‘msa, o‘sha ham Piter Pen kabi uchishi mumkin.

Bu haqda o‘qib yuragim muzlab ketayozgan. Ertak mening bolalik tasavvurlarimni to‘lig‘icha qamrab olgan, men uni takror-takror eshitishga tayyor edim. Bu mening orzuim edi, men u haqda gapirib kuylardim va shu voqealar ta’sirida yashardim. Uchishni biladigan bola haqidagi fikrning o‘zidanoq qalbim quvonchga to‘lib-toshardi.

Hozirgidek yodimda: besh yoshlar atrofida bo‘lganimda, bexosdan adashib yerto‘lamizga kirib qoldim. O‘sha yerda, kir yuvish mashinasi ustida “Ivory Snow” kir yuvish kukunining katta qutisiga ko‘zim tushdi. Uning har bir donasi qor uchquni shaklida edi. Menda qoyilmaqom fikr tug‘ildi.

Din-Din xuddi Piter Pen kabi ucha olishlari uchun Vendi, Maykl va Jonning boshi ustidan sehrli zarrachalarni sochgan o‘sha sahnani men hayotda amalga oshirishim mumkin. Qanday mo‘‘jizaviy fikr! Hayrat va hayajondan titragan holda, men kukunni hovuchlab olib butun yerto‘la bo‘ylab sochishga tushdim. Hatto oradan o‘n yilliklar o‘tib ketgan bo‘lsada, qalbimda o‘sha hayratomuz quvonch yashab kelmoqda. Bu unutilmas damlar edi. Men yakunlaganimda, butun yerto‘la “qor zarralari” bilan qoplangandi.

Oradan bir necha lahza o‘tib yerto‘la eshigi ochilganini... va zinapoyadan kelayotgan qadam tovushlarini eshitdim. Bu mening onam edi! Boshqa onalar bunday paytda nima deyishlarini faqat tasavvur qilishim mumkin. Shunga o‘xshash gaplarni aytishgan bo‘lardi:

- Sen nimalar qilib qo‘yding?
- Xayoling qayoqda edi?
- Nima, *hamma* kukunni sochib tashladingmi?
- Hech bo‘lmasa, buning necha pul turishini bilasanmi?
- A-xa, tartibsizlikni qarang! Jahlimni chiqarib yubording!
- Shoshmay tur, tezda otang uyga kelib qoladi!...
- *Hoziroq* buni tozalab qo‘y!
- Yana bir marta shunday qilsang, *yil* bo‘yi xonangdan chiqmay o‘tirasan!

Lekin mening onam bunday gaplarni aytmadi! Onam qah-qah urib kulib yubordi, meni quchoqlab tizzasiga o‘tkazdi va bularning hammasi nima uchun yuz berganidan xabar topdi. Men unga bu Din-Dinning sehrli zarrachalari ekanini aytganimda, onam menga voqea tafsilotining hammasini bir necha marotaba qaytadan

gapirib berishimga undayverdi. Biz ikkalamiz kulishdik, so‘ngra esa - xotirjam va quvnoq holda - yerto‘lani birgalikda tartibga keltirdik.

Bu voqea onam aslida meni juda sevishi, menga ona bo‘lishini yoqtirishi va men haqimda g‘amxo‘rlik qilishi haqidagi fikrlarni menda mustahkamladi. Biroq bundanda kuchliroq bir narsani tushundimki, onam *men bilan birgalikda orzu qilishga* qodir, men uchun muhim bo‘lgan narsalar (barcha noqulayliklariga qaramay) uning uchun ham muhim ekan. Onam dadil orzuimni olib qo‘ymagan holda, kelajakka - samimiylik va butun qalb bilan - umid qilishim uchun ruhlantirdi.

## FARZANDINGIZNING HAYOTIDA ISHTIROK ETING

Farzandingiz bilan birgalikda orzu qiling, olamga uning ko‘zi bilan qarashni o‘rganing. Ijodiy yondashuvni ko‘rsating, doimo uning yonida bo‘lishingizni ko‘rsatishingiz uchun son-sanoqsiz imkoniyatlardan foydalaning. Agar bolaning ulg‘ayish jarayonida bunday siyosatni davomiy qo‘llasangiz, bu uning bilan balog‘at yoshi arafasida va balog‘at yoshiga yetganda ochiq muloqot qilishingiz uchun asos yaratishga yordam beradi, xususan, jinsiy aloqaga taalluqli masalalarni ko‘proq muhokama etishingizga to‘g‘ri kelganida bunday ochiq muloqotlar muhim ahamiyat kasb etishi mumkin.

Tadqiqotlarning tasdiqlashicha, “yoshlardan yuqori umidlar kutilganida, ular bunga javoban yanada konstruktiv qarorlar qabul qilishga va kelajak sari maqsadlar qo‘yishga moyil bo‘ladilar”[5]. Bizning vazifamiz - bolalarga barvaqt homiladorlik va ota-onalik zahmatlaridan ko‘ra, kelajakning yanada maftunkor yo‘llarini tanlashlarida yordam bermoqlikdir.

Tadqiqotlarning ko‘rsatishicha, katta umidlar bildirilayotgan va yorqin kelajagini his qiladigan yoshlar “jinsiy aloqa bilan olti baravardan kamroq shug‘ullanishadi”[6].

Bolangizning orzu va umidlarini zavq-shavq bilan qo‘llab-quvvatlang. Faqat bu siz tomondan yuklangan emas, balki aynan o‘zining orzusi ekanligiga ishonch hosil qiling. Shaxsan men (Dotti) buning aksi bo‘lishiga ikki bora ishonch hosil qilganman.

O‘g‘limiz ketma-ket bir necha yil mobaynida beysbol bilan shug‘ullandi. U qoyilmaqom o‘ynardi, mayli, bu onaning fikri bo‘lib qolsa ham! Va mana, bahor chog‘laridan birida bu yil (sakkizinchi sinfda) o‘ynamasligini bildirdi. Uni fikridan qaytarishga rosa uringanimni yaxshi eslayman! U kelgusida mahoratini yo‘qotib qo‘yishdan qo‘rqayotgandi, ya’ni hozir shu holatda o‘ynasa, yuqori sinflarga o‘tganida maydonda lozim bo‘lganidek o‘ynay olmasdi. Shon unga baribir ekanligini aytdi: u kelgusida basketbol o‘ynashga qaror qilgandi. Har qancha urinmay, u aytganida turib oldi. Bu noxush xotira, lekin men dastlab mantiqiy asoslarga murojaat qildim, bu ham ish bermagach, uning his-tuyg‘ulariga “bosim” o‘tkazishga urindim. Bu ham yordam bermadi! Siz bu men uchun nega shunchalik muhim ekanligini so‘rayapsizmi? Hammasi oddiy: men beysbolni yaxshi ko‘rardim. Men (hattoki*hozirgacha* !) “Red Sox” jamoasining ashaddiy muxlisiman.

Beysbolni juda yoqtiraman! Va mana, mening ishqivozligim Shon siymosida qoyilmaqom o‘ynaydigan - aynan beysbolda - o‘yinchini tasavvur qilishga meni undadi. Oxir-oqibat bu uning emas, balki mening ishtiyoqim ekanligini tushunganimdan so‘ng, taslim bo‘ldim va o‘g‘limga o‘zi yoqtiradigan sport turi bilan shug‘ullanishiga izn berdim. Va bu qarorimdan biror marta ham afsuslanmadim: Shon oilamizdagi barchaga ulkan quvonch ulashgan holda basketbol bilan nafaqat yuqori sinflarda, balki kollejda o‘qiganida ham shug‘ullanishda davom etdi. Unga muxlislik qilib, tribunalarda o‘tkazgan soatlarimiz biz uchun eng baxtli va oilaviy yorqin xotiralar bo‘lib qoldi.

Biz axir o‘zimiz uchun nima muhim ekanligini bilamiz, to‘g‘rimi? Shuningdek, bolalarimiz ham o‘zlari uchun nima muhim ekanligini bilishadi. Biz ota-onalarga bolalarimizni o‘z orzularimiz uchun emas, balki o‘z orzulari yo‘lida ruhlantirish va qo‘llab-quvvatlash imkoni hamda sharafli huquqi berilgan.

Bolalarda kelajak haqidagi orzularini, sobitqadamlikni, izzat-nafsni va yuqori darajalarga intilish hissini rivojlantirish usullarini izlang. Kelajakning yorqin tasviri bolalarimizni mulohazakor, to‘g‘ri qarorlar qabul qilishga undaydi.

Savollar uchun ochiq va tinglashni biladigan, ishonch-e’tiqodga ega, farzandlarining do‘stlari bilan o‘rtoqlashadigan, boshqa ota-onalar bilan muloqotda bo‘ladigan va o‘z bolalari bilan vaqt o‘tkazishni orzu qiladigan ota-onalar bo‘ling. Siz imkon qadar o‘rganib, kitobimizda tasvirlangan ota-ona timsoliga o‘xshab boraversangiz, bu jinsiy aloqa borasidagi o‘gitlaringizni bolalaringiz qabul qilishiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir ko‘rsatadi.

Bolalaringiz bilan ushbu mavzuda gaplashish qanday kechayotganini bizga so‘zlab bering. Bizning www.josh.org saytimiz bilan tanishib o‘ting. Darvoqe, siz bunda, umid qilganimizdek, o‘zingiz uchun foydali bo‘ladigan qo‘shimcha manbalarni topasiz. Biz sizga xizmat qilishda davom etishni istaymiz. Farzandlaringiz uchun ibodat qiling, ularni to‘g‘ri tarbiyalang, Kalomda shunday deyilgan: “Xudoning nuqsonsiz, aybsiz va pok

farzandlari bo‘lishingiz uchun hamma narsani nolimay, bahslashmay qilinglar. Hayotbaxsh xabarni mahkam tutar ekansiz, o‘sha buzuq va egri nasl orasida samodagi yulduzlar kabi porlaysizlar”  (Filippiliklar  2:15).

*Josh va Dotti Makdauell*

## Izoh


***1 bob Birgina harakat bilan***

1. Jadvalning birinchi beshta bandiga muvofiq: Nayeli E. Rodriguez and Number 17, NYC, "Exactly How Much Are The Times A-Changin'?," *Newsweek*, July 26, 2010, p. 56; article sources: Blogpulse, Google Official History, Reality Blurred, The NPD Group, NBC, Bowker, USPS, The Radicati Group, FORBES, Nielsen, Newspaper Assoc. of America, Digital Music News, Apple, iTunes.

2. Matt McGee, "By The Numbers: Twitter Vs. Facebook Vs. Google Buzz," SearchEngine Land, February 23, 2010, http://searchengineland.com/by-the-numbers-twitter-vs-facebook-vs-googlebuzz-36709.

3. "Internet 2010 in numbers," Royal Pingdom, January 12, 2011, http://royal.pingdom.com/2011/01/12/internet-2010-in-numbers/.

4. "Internet 2010."

5. Horace Dediu, "iTune app total downloads (finally) overtook song downloads," ASYMCO, July 13, 2011, www.asymco.com/2011/07/13/itunesapp-total-downloads-finally-overtook-song-downloads/.

6. Madeeha Azam, "Internet 2010 in Numbers [Summary]," Pro Pakistani, January 27, 2011, http://propakistani.pk/2011/01/27/Internet-2010-in-numbers-summary/.

7. "That Facebook friend might be 10 years old, and other troubling news," *Consumer Reports* magazine, June 2011, www.consumerreports.org/cro/magazine-archive/2011/june/electronics-computers/stateof-the-next/facebook-concerns/index.htm.

8. *The Foster Letter*, May 25, 2011, p. 4.

9. As reported at Wikipedia.org/wiki/Wikipedia.

10. As reported at Wikipedia.org/wiki/Wikipedia.

11. Mickey Alam Khan, "Internet Overtakes TV As Preferred Medium For Under-24 Crowd," *Direct Marketing News*, July 25, 2003, www.dmnews.com/internet-overtakes-tv-as-preferred-medium-for-under-24-crowd/article/81588.

12. Michael D. Resnick, PhD, et al., "Protecting Adolescents from Harm: Findings from the National Longitudinal Study on Adolescent Health," *Journal of the American Medical Association*, September 10, 1997 (vol. 278, no. 10), p. 829.

13. Family Safe Media as reported at amilysafemedia.com/pornography_statistics.html#anchor5, 2011.

14. Family Safe Media.

15. Family Safe Media.

16. Michael Leahy, *Porn University: What College Students Are Really Saying About Sex on Campus* (Chicago: Northfield Publishing, 2009), pp. 154–155.

17. Chiara Sabina, Janis Wolak, and David Finkelhor, "The Nature and Dynamics of Internet Pornography Exposure for Youth," *CyberPsychology & Behavior*, 2008 (vol. 11, no. 6), pp. 1–2.

18. Ed Vitagliano, quoted in "Caught! Online Porn, Predators Threaten Children, Teens," *American Family Association Journal*, January 2007, www.afajournal.org/2007/january/0107/caught.asp.

19. Focus on the Family Poll, October 2003; quoted in Rebecca Grace, "When Dad Falls: A Family's Ordeal with Pornography," Agape Press. Web. 25 Nov. 2009, www.crosswalk.com/1284103/.

20. Archdiocese of Omaha's Anti-Pornography Task Force; as reported at www.archomaha.org/pastoral/se/pdf/PornStats.pdf, 2011.

21. Family Safe Media.

22. Patricia M. Greenfield, "Inadvertent Exposure to Pornography on the Internet: Implications of Peer-to-Peer File-Sharing Networks for Child Development and Families," *Journal of Applied Developmental Psychology*, Nov./Dec. 2004 (vol. 25, no. 6), pp. 741–750, Web. 4 Dec. 2009, www.centerschool.org/pko/documents/Inadvertentexposure.pdf.

***4 bob. Yaqin munosabatlar doirasida jinsiy aloqa haqida qanday gapirish mumkin***

1. Archdiocese of Omaha's Anti-Pornography Task Force, www.archomaha.org/pastoral/se/pdf/PornStats.pdf, 2011.

2. The Commission on Children at Risk, *Hardwired to Connect: The Scientific Case for Authoritative Communications* (New York: Broadway Publications, 2003).

3. *Hardwired to Connect*.

4. Caroline Bedell Thomas, MD, Karen Rose Duszynski, BA, and John Whitcomb Shaffer, MSc, PhD, “Family Attitudes Reported in Youth as Potential Predictors of Cancer,” *Psychosomatic Medicine*, vol. 41, no. 4 (June 1979), pp. 287–302.

5. Carl Zimmer, “Friends with Benefits,” *Time* magazine, February 20, 2012, p. 39.

6. Caitlin Flanagan, “Why Marriage Matters,” *Time* magazine, July 13, 2009, p. 47.

7. “Back to School 1999 — National Survey of American Attitudes on Substance Abuse V: Teens and Their Parents,” The Luntz Research Companies and QEV Analytics, August 1999 as quoted in Lori Lessner Lori Lessner, “Dads key against drugs, study finds,” *Dallas Morning News*, August 31, 1999, p. 9A.

8. People Weekly, “Higher Learning: At Oxford University, Michael Jackson bares his soul and a plan to help kids,” *People* magazine, March 19, 2001, p. 65.

### *5 bob. Yaqin munosabatlar qurish uchun g‘ishtlar*

1. “Ten Tips for Parents: To Help Their Children Avoid Teen Pregnancy,” The National Campaign to Prevent Teen and Unplanned Pregnancy, accessed Feb 6, 2012, http://www.thenationalcampaign.org/resources/toTips.aspx.

### *6 bob. Bolangizning hatti-harakatiga kim yoki nima ta’sir qiladi?*

1. “Teens Look to Parents More Than Friends for Sexual Role Models,” *ScienceDaily*, June 15, 2011, www.sciencedaily.com/releases/2011/06/110615120355.htm.

2. Jeffrey Rosenberg and W. Bradford Wilcox, “The Importance of Fathers in the Healthy Development of Children,” U.S. Department of Health and Human Services, 2006, www.childwelfare.gov/pubs/usermanuals/fatherhood/fatherhood.pdf.

3. “Teens Look to Parents.”

4. David White, “Take Courage! Parents and the dreaded conversation,” Center for Parent/Youth Understanding, 2008, www.cpyu.org/Page.aspx?id=338336.

5. “Trends in Teen Sexual Behavior,” Current Thoughts and Trends online, May 2004.

6. B.M. King and J. Lorusso, “Discussions in the Home about Sex: Different Recollections by Parents and Children,” *Journal of Sex & Marital Therapy*, vol. 23, pp. 52–60; as quoted in “Families Are Talking—Adolescents Would Prefer Parents as Primary Sexuality Educators,” SIECUS Report Supplement, http://one.center-school.org/search-document-detail.php?ID=642.

7. “Talking to Your Teen About Sexuality,” Hillsborough County University of Florida Extension, http://hillsboroughfcs.ifas.ufl.edu/FamilyPubsA-Z/sexuality.pdf.

8. Linda Klepacki, “Dear Parents: Let’s Talk About Doing,” PureInti macy.org, www.pureintimacy.org/piArticles/A000000584.cfm, citing a 2004 Focus on the Family article.

9. Mark and Grace Driscoll, “How To Talk To Your Kids About Sex,” Resurgence, accessed February 15, 2012, http://theresurgence.com/2011/02/28/how-to-talk-to-your-kids-about-sex.

### *7 bob. Bolangiz jinsiy aloqa haqida kimdan bilishni xohlaydi?*

1. “How to Talk to Your Kids About Anything,” Talking With Kids About Tough Issues—a national campaign by Children Now and the Kaiser Family Foundation, http://www.talkwithkids.org/first.html.

2. B. Albert, “With One Voice 2004: America’s Adults and Teens Sound Off About Teen Pregnancy,” (Washington, DC: National Campaign to Prevent Teen Pregnancy, 2004); as quoted in Barbara Dafoe Whitehead and Marline Pearson, “Making a Love Connection,” The National Campaign to Prevent Teen and Unplanned Pregnancy,” thenationalcampaign.org.

3. Hutchinson and Cooney, 1998; Kreinin et al., 2001; Somers and Surmann, 2004; as quoted in Robert Crooks and Karla Baur, “Initiating Conversations When Children Do Not Ask Questions,” The Talk Institute, www.thetalkinstitute.com/articles/initiating.html.

4. Kay S. Hymowitz, “It’s Morning After in America,” *City Journal*, spring 2004, www.manhattan-institute.org/cfml/printable.cfm?id=1337.

5. “Birds and Bees: Tips for Having ‘The Talk’ With Kids,” ABC News (*Good Morning America*, September 22, 2011), http://abcnews.go.com/blogs/health/2011/09/22/birds-and-bees-tips-for-having-the-talk-with-kids-2/.

### *8 bob. Farzand bilan jinsiy aloqa haqida gaplashish nega zarur?*

1. Kristin Zolten, MA, and Nicholas Long, PhD, "Talking to Children About Sex," Center for Effective Parenting, 1997, www.parenting-ed.org/handouts/sex.pdf.

2. Robert Crooks and Karla Baur, "Initiating Conversations When Children Do Not Ask Questions," The Talk Institute, www.thetalkinstitute.com/articles/initiating.html.

3. Maggi Ruth P. Boyer, "What to Do When They Just Won't Talk!" Advocates for Youth, www.advocatesforyouth.org/parents/164?task=view.

### *9 bob. Jinsiy aloqa haqidagi suhbatlar bolani bu borada tajriba qilib ko'rishga undamaydimi?*

1. "Myths About Sexuality Education," Sexuality Education Resource Center Manitoba, Inc., rev. 2010, www.serc.mb.ca/content/dload/MythsAboutSexualityEducation%20/file.

2. Cheryl B. Aspy et al., *Journal of Adolescence* 30 (2007): pp. 449–466; as quoted in "Parental Involvement and Children's Well-Being," FamilyFacts.org, www.familyfacts.org/briefs/40/parental-involvement-and-childrens-well-being.

3. Karin Suesser, PhD, and Matthew Doll, PhD, "Beyond the Birds and the Bees: How To Talk With Children About Sexuality," www.drsuesser.com/articles/talking_about_sex.pdf.

4. "Silence Breeds Babies," Campaign For Our Children, Inc., 2008, www.cfoc.org/index.php/parent-resource-center/talking-with-your-kids-aboutsex/.

### *10 bob. Qaysi yoshda jinsiy aloqa haqida gaplashish "vaqti keladi"?*

1. Jen Boyer, "Talking to Kids About Sex," Balanced Living, www.balancedmag.com/2011/06/talking-to-kids-about-sex.

2. Alice Park, "Parents' Sex Talk with Kids: Too Little, Too Late," *Time*/CNN, Dec. 2007, 2009; www.time.com/time/health/article/0,8599,1945759,00.html; emphasis (italics) added by authors.

3. Boyer.

4. Sue Simonson, "The Forgotten Years: Ones that may well be the key to Teen Pregnancy Prevention," Without Regret, accessed February 14, 2012, www.without-regret.org/tier2/articles.html.

5. "Broaching the Birds and the Bees," WebMD, November 26, 2001, www.webmd.com/sex-relationships/features/broaching-birds-bees.

6. Adapted from "How to Talk to Your Kids about Sex," Keeping Kids Healthy, accessed 2012, www.montekids.org/kkh/topics/how-to-talk-toyour-kids-about-sex/.

7. Dr. Corey Allan, "How To Talk To Your Children About Sex," Simple Mom, June 14, 2010, http://simplemom.net/how-to-talk-to-your-childrenabout-sex/.

### *11 bob. "Jiddiy suhbat" qilish kerakmi?*

1. M. Raffaelli, K. Bogenschneider, and M. F. Flood, "Parent-teen Communication about Sexual Topics," *Journal of Family Issues*, vol. 19, pp. 315–333.

2. Deb Koster, "Talking to Kids About Sex," Family Fire, April 13, 2007, familyfire.com/parenting/articles/Talking-to-Kids-About-Sex.

3. "Talking with Kids: A Parent's Guide to Sex Education," National PTA, Chicago, IL, 2002, p. 9, accessed at http://eric.ed.gov/PDFS/ED470698.pdf.

4. "How to talk to your child about sex," Psychologies, accessed Feb. 2, 2012, www.psychologies.co.uk/family/how-to-talk-to-your-childabout-sex/.

### *12 bob. Farzand bilan jinsiy aloqa haqida gaplashmasa, nima ro'y berishi mumkin?*

1. Jack Wellman, "How to Talk to Your Children about Sex? A Christian Perspective," What Christians Want to Know, July 14, 2011, www.whatchristianswanttoknow.com/how-to-talk-to-your-children-about-sex-a-christian-perspective/.

2. Jill Manning, "Why the Government Should Care about Pornography," testimony before U.S. Senate Committee on the Judiciary, Nov. 10, 2005. Web 9, Nov. 2005, www.heritage.org/Research/Testimony/PornographysImpact-on-Marriage-amp-The-Family.

***13 bob. Jinsiy aloqa mavzusi bolangizda haddan ziyod qiziqishni uyg'otsachi?***

1. National Physicians Center for Family Resources, "Sex Talk Starters," Pureintimacy.org, www.pureintimacy.org/piArticles/A000000596.cfm.

2. Clea McNeely, MA, DrPH, and Jayne Blanchard, "The Teen Years Explained: A Guide to Healthy Adolescent Development," Center for Adolescent Health at Johns Hopkins Bloomberg School of Public Health, 2009.

3. McNeely and Blanchard.

4. Margaret Renkl, "The Birds and the Bees and Curious Kids," Parenting.com, accessed Feb. 14, 2012, www.parenting.com/article/kids-and-sexuality.

***15 bob. Buning uchun qancha bilim kerak?***

1. Clea McNeely, MA, DrPH, and Jayne Blanchard, "The Teen Years Explained: A Guide to Healthy Adolescent Development," Center for Adolescent Health at Johns Hopkins Bloomberg School of Public Health, 2009.

2. Keith Ferrell, "Adolescent Sexuality: Talk the Talk Before They Walk the Walk," Healthy Children Magazine, winter 2008, www.healthychildren.org/English/ages-stages/teen/dating-sex/pages/Adolescent-Sexuality-Talk-the-Talk-Before-They-Walk-the-Walk.aspx?nfstatus=401&nftoken=00000000-0000-0000-0000-000000000000&nfstatusdescription=ERROR%3a+No+local+token.

3. Kristin Zolten, MA, and Nicholas Long, PhD, "Talking to Children About Sex," Center for Effective Parenting, 1997, www.parenting-ed.org/handouts/sex.pdf.

***16 bob. Balki, ayrim mavzularni har holda tushirib qoldirish ma'quldir?***

1. Jerald Newberry, "When Kids Ask Tough Questions About Sex," Advocates for Youth, 2008, www.advocatesforyouth.org/parents/176?task=view.

2. Kristin Zolten, MA, and Nicholas Long, PhD, "Talking to Children About Sex," Center for Effective Parenting, 1997, www.parenting-ed.org/handouts/sex.pdf.

3. Jack Wellman, "How to Talk To Your Children about Sex? A Christian Perspective," What Christians Want to Know, July 14, 2011, www.whatchristianswanttoknow.com/how-to-talk-to-your-children-aboutsex-a-christian-perspective/.

***17 bob. Farzand bilan jinsiy aloqa haqida qanchalik tez-tez gaplashib turish kerak?***

1. "How to Talk to Your Kids About Anything," Talking With Kids About Tough Issues—a national campaign by Children Now and the Kaiser Family Foundation, www.talkwithkids.org/first.html.

2. Margaret Renkl, "The Birds and the Bees and Curious Kids," Parenting.com, accessed Feb. 14, 2012, www.parenting.com/article/kids-and-sexuality.

3. Steven C. Martino, PhD, Marc N. Elliott, PhD, et al., "Beyond the 'Big Talk': The Roles of Breadth and Repetition in Parent-Adolescent Communication About Sexual Topics," *Pediatrics*, 2008, http://pediatrics.aappublications.org/content/121/3/e612.full.html.

***18 bob. Agar men bolam bilan nuqul bitta mavzuda gaplashaversam, u meni mijg'ov odamga chiqarib qo'ymaydimi?***

1. "Families are Talking—Teens Talk About TV, Sex, and Real Life," SIECUS Report Supplement, http://one.center-school.org/search-document-detail.php?ID=827.

2. Linda Klepacki, "What Your Teens Need to Know About Sex," Focus on the Family, 2005, www.focusonthefamily.com/lifechallenges/love_and_sex/purity/what_your_teens_need_to_know_about_sex.aspx.

3. Adapted from "Teachable Moments," the "Wait for Sex" parent workshop curriculum, ReCAPP—ETR Associates' Resource Center for Adolescent Pregnancy Prevention, 2004, www.etr.org/recapp/documents/freebies/teachablemoments.pdf.

4. Task Force on the Sexualization of Girls, "Report of the APA Task Force on the Sexualization of Girls," American Psychological Association, 2010; www.apa.org/pi/women/programs/girls/report-full.pdf.

5. Adapted from "Families are Talking—Teens Talk About TV, Sex, and Real Life," SIECUS Report Supplement, http://one.center-school.org/searchdocument-detail.php?ID=827.

6. Wendy L. Sellers, "Talking to Your Child about Relationships and Sexuality," EduGuide, accessed February 15, 2012, www.eduguide.org/library/viewarticle/339.

7. “Talking to Your Teen About Sexuality,” Hillsborough County University of Florida Extension, http://hillsboroughfcs.ifas.ufl.edu/FamilyPubsA-Z/sexuality.pdf.
8. “Talking to Your Teen.”
9. “Talking to Your Teen.”
10. “Talking to Your Teen.”
11. “Talking to Your Teen.”
12. “Talking to Your Teen.”
13. Esther J. Cepeda, “Talking to Kids About Sex: Conversations Worth Having,” *Seattle Times*, October 9, 2011, http://seattletimes.nwsource.com/html/opinion/2016439742_cepada10.html.
14. Deb Roffman, “Talking to Your Kids About Sex: Deborah Roffman Offers Parents Advice,” Make it Better, www.makeitbetter.net/family/parenting/939-talking-to-your-kids-about-sex-deborah-roffmanoffers-parents-advice.

***19 bob. Bolangiz nimalar bilan mashg‘ul ekanini qanchalik tez-tez kuzatib borish kerak?***

1. Ushbu bo‘lim Joshua DeVrisning sharofati ila yuzaga keldi.

***20 bob. Farzandingizni nazorat qilish uning shaxsiy dunyosiga bostirib kirish hisoblanadigan chegara qayerda?***

1. Mary VanClay, “How to talk to your child about sex,” BabyCenter LLC., accessed Feb. 15, 2012, http://cdrcp.com/pdf/How%20to%20talk%20to%20your%20child%20about%20sex.pdf.

***21 bob. Bolangizning “birinchi sevgisi”ga qanday munosabat bildirish kerak?***

1. “Talking to Your Teen About Sexuality,” Hillsborough County University of Florida Extension, http://hillsboroughfcs.ifas.ufl.edu/FamilyPubsA-Z/sexuality.pdf.
2. Clea McNeely, MA, DrPH, and Jayne Blanchard, “The Teen Years Explained: A Guide to Healthy Adolescent Development,” Center for Adolescent Health at Johns Hopkins Bloomberg School of Public Health, 2009.
3. “Talking Back,” The National Campaign to Prevent Teen and Unplanned Pregnancy, 2012, www.thenationalcampaign.org/parents/talking_back.aspx.

***22 bob. Farzandga jinsiy aloqa borasida qanday qoida yoki chegaralarni o‘rnatish zarur?***

1. “Talking Back,” The National Campaign to Prevent Teen and Unplanned Pregnancy, 2012, www.thenationalcampaign.org/parents/talking_back.aspx.
2. “Ten Tips for Parents: To Help Their Children Avoid Teen Pregnancy,” The National Campaign to Prevent Teen and Unplanned Pregnancy, accessed Feb. 6, 2012, www.thenationalcampaign.org/resources/toTips.aspx.
3. Glenn T. Stanton, “The Most Effective Deterrent,” PureIntimacy.org, accessed Feb. 16, 2012, http://www.pureintimacy.org/piArticles/A000000608.cfm.
4. Eileen M. Hart, “Teens, Sex and Media,” 2002, accessed Feb. 13, 2012, http://www.frankwbaker.com/MediaLitEd.pdf.
5. “Pornography Statistics,” Covenant Eyes, www.covenanteyes.com/2010/01/06/updated-pornography-statistics/.
6. “Youth Risk Behavior Surveillance—United States, 1995, Surveillance Summaries,” *Morbidity and Mortality Weekly*, September 27, 1996.
7. “The Truth About Adolescent Sexuality,” Education.com, quoting the Sexuality Information and Education Council of the United States, 2005, www.education.com/reference/article/Ref_Truth_About/.
8. “How Can I Lovingly Snoop On My Teen?” Harvest USA, 2007, www.harvestusa.org/index.php?option=com_content&view=article&id=172%3Ahow-can-i-lovingly-snoop-on-my-teen&catid=15%3Acontactus&Itemid=1.
9. “How Can I Lovingly Snoop On My Teen?”
10. “How Can I Lovingly Snoop On My Teen?”
11. “Teaching Children About Healthy Sexuality,” Health and Fitness, May 2, 2011, http://www.kylegabouer.com/teaching-children-about-healthy-sex uality.html.

***23 bob. O'smirlar nikohgacha "toqat" qilishlari haqidagi fikrlar haqqoniylikka mos tushadimi?***

1. Adapted from Lakita Garth, *The Naked Truth: About Sex, Love and Relationships* (Ventura, CA: Gospel Light, 2007), p. 135.

***24 bob. Farzandni qarama-qarshi jins vakillari bilan o'zini to'g'ri tutishga qanday o'rgatish mumkin?***

1. Dr. Corey Allan, "How to Talk to Your Children About Sex," Simple Mom, June 14, 2010, http://simplemom.net/how-to-talk-to-your-childrenabout-sex.

***25 bob. Ochiq mazmundagi SMS-xabarlar jo'natilishiga qanday yondashish lozim va bu borada nimalar qilmoq kerak?***

1. Al Menconi, "Responsible Text Messaging Tips," August 18, 2011, http://almenconi.blogspot.com/2011/08/responsible-text-messaging-tips.html.
2. Menconi.
3. Menconi.
4. Sharon Jayson, "Parents, talk about sex, even if teens tune you out," *USA Today*, Oct. kitobidan iqtibos. 13, 2011, www.usatoday.com/news/health/wellness/teen-ya/story/2011-10-12/Experts-Talk-sex-with-your-teen-even-if-theytune-you-out/50745740/1.

***26 bob. Bolangizga jinsiy mayl bosimiga qarshilik ko'rsatishida qanday yordam berish mumkin?***

1 "Helping Teens Resist Sexual Pressure," HealthyChildren.org, quoting American Academy of Pediatrics, "Caring for Your Teenager," accessed February 14, 2012, www.healthychildren.org/English/ages-stages/teen/dating-sex/pages/Helping-Teens-Resist-Sexual-Pressure.aspx.
2. "Parenting—Talking to Your Teen about Sex and Oral Sex," Dr. Phil.com, accessed Feb. 15, 2012, www.drphil.com/articles/article/51.

***28 bob. Ko'pchilik bolalar oral jinsiy aloqani - jinsiy aloqa ekanligiga ishonishmaydi. Ularning bu yanglish fikrlarini qanday tarqatish mumkin?***

1. Jim Liebelt, "Culture Snapshot of Adolescent Sex and Sexuality," January 29, 2007, HomeWord Center for Youth and Family, www.homeword.com/culture-snapshot-adolescent-sexuality-ta-a-1161.html.
2. Liebelt.
3. 2003 yilda «Kaiser Family Foundation» (KFF) tashkiloti «Seventeen» jurnali nashriyoti bilan hamkorlikda bir qancha milliy so'rovnomalar o'tkazgan.
4. B. L. Halpern-Felsher et al., "Oral versus vaginal sex among adolescents: Perceptions, attitudes, and behavior," *Pediatrics*, 2005 (vol. 115, no. 4), pp. 845–851. Debby Golonka, "Talking with children about sex," Revolution Health, April 22, 2008, www.revolutionhealth.com/healthy-living/parenting/talking-with-children-about-sex.
5. Chris Wagner, "Oral Sex is Sex, and Most Teens Don't Know it," Center for Parent/Youth Understanding, www.cpyu.org/pageview_p.asp?pageID=18565.
6. Wagner.
7. Wagner.
8. Wagner.
9. Wagner.
10. Wagner.
11. "Parenting—Talking to Your Teen about Sex and Oral Sex," Dr. Phil.com, accessed Feb. 15, 2012, www.drphil.com/articles/article/51.
12. Roxanne Khamsi, "Oral sex can cause throat cancer," *NewScientist*, May 9, 2007, www.newscientist.com/article/dn11819-oral-sex-can-cause-throatcancer.html.
13. Julie Sharp, "Oral Sex Linked to Throat Cancer: A virus contracted through oral sex is the cause of some throat cancers, say US scientists," BBC News, May 10, 2007, http://news.bbc.co.uk/2/hi/health/6639461.stm.
14. Sharp.

**_29 bob. Bolangizning o‘z-o‘ziga beradigan sog‘lom bahosi uni nikohgacha bo‘ladigan jinsiy aloqadan qay tarzda himoya qiladi?_**

1. Rob Jackson, “Teaching Children Healthy Sexuality,” Focus on the Family, 2004, www.focusonthefamily.com/parenting/sexuality/teaching_children_healthy_sexuality.aspx.

2. The National Campaign to Prevent Teen Pregnancy, *Rethinking Responsibility: Reflections on Sex and Sexuality* (Washington, DC: The National Campaign to Prevent Teen Pregnancy, 2009).

3. Laura Flynn McCarthy, “Pregnancy Test,” *Family Circle*, February 2011, www.familycircle.com.

4. “Talking With Kids About HIV and AIDS,” Talk With Your Kids, www.talkwithyourkids.org/aids.html.

**_30 bob. Farzandi bilan jinsiy aloqa haqida gaplashadigan dono ota-ona bo‘lishning oltita usuli_**

1. “The Truth About Adolescent Sexuality,” SIECUS—the Sexuality Information and Education Council of the United States, www.siecus.org/pubs/fact/fact0020.html.

2. Glenn T. Stanton, “The Most Effective Deterrent,” PureIntimacy.org, accessed Feb. 16, 2012, www.pureintimacy.org/piArticles/A000000608.cfm.

3. The National Campaign to Prevent Teen and Unplanned Pregnancy, “Bridging the Divide: Involving the Faith Community in Teen Pregnancy Prevention,” October 10, 2007, www.thenationalcampaign.org/resources/pdf/Bridging_FINAL.pdf.

4. Laura Flynn McCarthy, “Pregnancy Test,” *Family Circle*, February 2011, www.familycircle.com.

5. The National Campaign to Prevent Teen Pregnancy, *Rethinking Responsibility: Reflections on Sex and Sexuality* (Washington, DC: The National Campaign to Prevent Teen Pregnancy, 2009).

6. R. Lerner, “Can Abstinence Work?: An Analysis of the Best Friends Program,” *Adolescent & Family Health*, 2005 (vol. 3, no. 4), pp. 185–192; as quoted in The National Campaign to Prevent Teen Pregnancy, *Rethinking Responsibility: Reflections on Sex and Sexuality* (Washington, DC: The National Campaign to Prevent Teen Pregnancy, 2009).